


Ros' vlastivosti drevnosti

A.S. Pushkin



Bog'chasarov  
fontani








Rus adabiyoti durdonalari

ALEKSANDR SERGEYEVICH  
**PUSHKIN**



Bog'chasaroy  
fontani

*She'rilar, dostonlar va she'riy roman*

TOSHKENT  
«O'ZBEKİSTON»  
2019

UO'K 821.161.1-1  
KBK 84(2Ros-Rus)  
P 96



**Pushkin, Aleksandr Sergeyevich.**

P 96      Bog'chasarov fontani [Matn]: she'rlar, dostonlar va she'riy roman / A.S. Pushkin; – Toshkent: «O'zbekiston», NMIU 2019. – 440 b.

ISBN 978-9943-25-860-0

UO'K 821.161.1-1  
KBK 84(2Ros-Rus)

ISBN 978-9943-25-860-0

© A.S. Pushkin, 2019  
© «O'ZBEKİSTON» NMIU, 2019

## *Aziz va muhtaram o‘quvchi!*

Bugun Siz bilan ziyo, ilm-u irfon, ma’naviyat va ma’rifatni o‘zida mujassam etgan buyuk va muhtasham adabiyot olamiga safar qilishga jazm etdik. Jahanadabiyoti bo‘stonida o‘zining munosib o‘rniga, yuksak mavqe va maqomga ega bo‘lgan bu olam – rus adabiyotidir.

Xabaringiz bor, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi va Rossiya Federatsiyasi o‘rtasida siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar sohalarda o‘zaro hamkorlik aloqalari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi.

Ushbu ko‘p qirrali do‘slik va hamkorlik aloqalarining yorqin timsoli sifatida muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan «Rus adabiyoti durdonalar» rukni ostida 100 jilddan iborat asarlar majmuasini nashr qilish tashabbusi ilgari surilgani muhim madaniy voqeadir.

Bu tashabbusni kitobsevar xalqimiz zo‘r mammuniyat bilan qarshi oldi. 2019-yil 9-yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur asarlar majmuasini tayyorlash va nashr etish ishlarini muvofiqlashtirish masalalari bo‘yicha farmoyishi qabul qilindi.

Ayni paytda o‘z asarlarida ezgulik va insonparvarlik, muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini avj pardalarda tarannum etgan rus mumtoz va zamonaviy adabiyoti namoyandalarining ijod namunalarini o‘zbek tiliga tarjima qilish, ushbu noyob durdonalardan xalqimizni bahramand qilish borasida taniqli adiblarimiz, mohir tarjimon va malakali muharrirlar bilan hamkorlikda katta ko‘lamdagagi ishlar amalga oshirilmoqda.

Ushbu muhtasham majmuadan o‘rin oladigan A.Pushkin, M. Lermontov, N. Gogol, L. Tolstoy, A. Chexov, I. Turgenev, F. Dostoyevskiy, M. Sholoxov, M. Gorkiy, S. Yesenin, M. Bulgakov, B. Pasternak, A. Axmatova singari o‘nlab atoqli ijodkorlarning nomlari dunyo kitobxonlari qatorida yurtimizdagи adabiyot ixlosmandlari orasida ham ma’lum va mashhurdir. Ushbu adiblarning jahon kezgan asarlarini o‘qish yosh avlodni, albatta, kamolot sari yetaklaydi,

farzandlarimizning falsafiy-estetik dunyoqarashini, intellektual salohiyati va adabiy-badiiy saviyasini yuksaltirishga, tafakkurini kengaytirishga, ularni umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi.

Aziz o'quvchi, 100 jilddan iborat «Rus adabiyoti durdonalari» asarlar majmuasini nashr etishdek xayrli ishni boshlar ekanmiz, uning dastlabki jildlarini jahon adabiyotining yorqin namoyandasini, rus she'riyatining quyoshi deya ta'riflanadigan Aleksandr Sergeyevich Pushkin asarlariga bag'ishlashni lozim topdik. Ishonamizki, taqdimga etilayotgan majmua Siz uchun eng bebahoh sovg'a bo'lib, nafaqat xonadoningiz kitob javonlarini bezaydi, balki qalb olamingizni ham munavvar etadi.

*Nashriyotdan*





## SHARQQA MAFTUN SHOIR

Jahondagi hech bir xalq ma'naviyati va adabiyoti faqat o'z doirasida chegaralanib qolmaydi. Chegaralanib qoladigan bo'lsa, o'ziga yomon! Milliy mahdudlik hech kimga foyda keltirgan emas. O'z milliy zaminida qat'iy turgan o'zbek ma'naviyati – azaldan ochiq ma'naviyat. Ma'naviy hududimizga bizni ruhiy jihatdan boyitishga xizmat qiladigan har bir ulug' siymoni marhamat, deb kutib olamiz.

Biz sharqmiz, ammo g'arb badiiy ruhiy olamini o'zlashtirgan, o'sha olamning shaffof suvlarini simirgan, shundan naf-u safo topgan xalqmiz. Shoirimiz tili bilan aytganda, Navoiy sharafi muqaddas yashagan o'zbek xonardonidan, o'zbek ongidan Homer, Dante, Shekspir, Gyote, Bayronlar ham makon topgan. Lekin badiiyat dahosi Aleksandr Pushkinning qadri ayrichadir. U bizga bir qadar yaqin, bir qadar qadrdir.

Daholar siyosiy maqsadlar uchun yashamaydilar. Shu sababli Pushkin dahosi ham shovinizm kabi illatdan allaqancha yuksaklikda makon topadi. Daholar o'z azaliy tabiatiga ko'ra insoniy erk va milliy ozodlikka xizmat qiladilar. Pushkinning ham armoni, ideali ozodlik edi. U erkinlik va ozodlik kuychisidir.

Pushkin she'riyati har jihatdan – shaklan, ruhan va ma'nан sharq she'riyatiga yaqin. Uning ayrim to'rtliklari teranligi, ma'nosining chuqurligi, falsafiyligi bilan bizning ruboilyarni eslatib turadi. Uning she'riyati sharq ruhi bilan chuqur sug'orilgan desak, mubolag'a bo'lmaydi. Hassos shoirimiz Usmon Nosir ona tilimizga o'girgan «Bog'chasaroy fontani» dostoni mazmun-mohiyati bilan sharqdan olingan.

Doston sahnida ikki kuch – sharqona voqelik va g'arbona lirik marom baqamtি kelib, yaxlit bir butunlik hosil qilgan. «Qur'onga iqtibos» she'riy turkumi esa musulmon olamining muqaddas kitobidagi suralar mag'zidagi buyuk poeziyani ilg'ab olib, boshqa bir tilda ulug' she'riyatga aylantirish jihatidan shoyon diqqatga sazovor.

Pushkin bu turkumda bobolari ruhi bilan uchrashganini his qilgan, erkin nafas olgan.

Shundan ikki yil keyin yozilgan mashhur «Payg‘ambar» asari haqida hozirgacha kim to‘g‘risida gap borayotganligi ustida bahs ketadi, ba‘zilar uni faqat Bibliyaga bog‘lashsa, boshqa birovlar unda Qur‘on va payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom haqida so‘z yuritigan, deyishadi. Bizningcha, ikkinchi fikr haqiqatga yaqin va shoir hamma payg‘ambarlar, ayniqsa, bizning Muhammad alayhissalomga tayanib, odamlarga czgu xabar, yoniq so‘z olib kelgan payg‘ambarning yig‘ma obrazini yaratgan, deyish mumkin.

She’riy vazn haqida gap ketganda, tadqiqotchilar ko‘pincha bir narsani unutishadi, ya’ni uni quruq shakl, deb hisoblashadi. Vazn, avvalo, ohang degani. Ohang esa odamning, shoirning qalbidan chiqadi, qolaversa, qoni-u jonidan tug‘iladi. Ma‘lumki, Pushkin tomirlarida, jumladan, arab qoni oqqan. Uning ona tomonidan katta bobosi buyuk Pyotrning tutingan o‘g‘li – asli habashistonlik Ibrohim Hannibal ediki, bu narsa Pushkin she’riyatining ohangiga ham ta’sir o‘tkazmay qolmagandir. Buyuk Cho‘lpon bizning mumtoz aruzimizga solib, san’atkorona o‘girgan «Bulbul va gul» she’rining asliyatida ham aruzga xos to‘lqinlar, zarblar yo‘q emas. Keyinchalik ko‘plab shoirlar rus she’riyatiga aruzni qo‘llashga urindilar, lekin Pushkin bu vazifani ancha ilgari uddalagan edi, chamasi, bu she’rning mavzusi ham qadim sharq she’riyatining jamg‘armasidan olingan. Ohangga e’tibor qiling:

*Не так ли ты поешь для хладной красоты?  
Опомнись, о поэт, к чему стремишься ты?  
Она не слушает, не чувствует поэта;  
Глядишь, она цветет; взываешь – нет ответа.*

### Tarjimasi:

*Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham  
Yonarsan, o‘rtanarsan, dod etarsan tinmayin bir dam.  
Qo‘y endi, behuda dod etma, ohing unga yetmaydi,  
Qaraysan, yashnagan bir gul, faqat dodingga yetmaydi.*

Bu satrlar ona tilimizda shu qadar tabiiy jaranglaydiki, xuddi Pushkin o‘zbek tilida yozgandek tuyuladi.

Pushkin g‘oyat keng qirrali daho edi. U buyuk lirik shoir bo‘lishi bilan birga dramaturgiya va proza sohasida ham ulkan hamda bebahो meros qoldirdi. «Boris Godunov» rus adabiyotida ilk dramatik tragediya sifatida tan olingan. Uning tragediyalari – «Tosh mehmon», «Motsart va Salyeri», «Xasis Ritsar», «O‘lat chog‘idagi bazm» kichik voqeа va ixcham so‘z orqali ulkan ijtimoiy-falsafiy muammolarni badiiy ifodalash mumkinligiga yorqin misoldir. «Kapitan qizi», «Dubrovskiy», «Belkin qissalari» kabi asarlari rus nasrining keyingi taraqqiyotida ulkan rol o‘ynadi. Gogol, Dostoyevskiy, Lev Tolstoy kabi jahoniy adiblarning adabiyot maydoniga chiqishida turki va ko‘prik vazifasini o‘tadi.

Bizning Turkistonda Pushkin ijodiga qiziqish ancha ilgari boshlangan. Bu jabbada jadidlarimiz, ayniqla, jonbozlik ko‘rsatishgan. Pushkinning adabiy ertak janrida yozilgan asarlari sharqona fikrlashi, sodda va qiziqarli bayoni jihatidan xalqimizga yaqin bo‘lganidan, dastlab shu ertaklarning ayrimlari o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Keyinchalik Pushkinni tarjima qilish ishi izchil yo‘lga qo‘yildi. Bu, bir jihatdan, o‘sha davr siyosatiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, eng muhimi, yangi davr o‘zbek adabiyoti o‘z rivojida Pushkinning badiiy tajribalariga ehtiyoj sezganidan ham edi. Pushkinning qator asarlari o‘zbek tiliga bir emas, bir necha bor qayta-qayta tarjima qilindi. «Yevgeniy Onegin» she’riy romanini 1930-yillarda Oybek domla tilimizga o‘girdi. Tarjima kitobxon va mutaxassislar tomonidan yuksak baholangan edi. 1980-yillarga kelib bu asarni shoir Mirza Kenjabek o‘zbek tiliga yana bir bor tarjima qildi. Bu yaxshi. Zero, buyuk asarlar tilimizga qayta-qayta o‘girilishi qo‘llab-quvvatlanadigan hodisadir. Aytaylik, Pushkinning mashhur «Haykal» she’rining turli shoirlar tomonidan o‘nga yaqin tarjimasi bo‘lib, ularning har biri – bu ulug‘ she’rning boshqa tarjimada ko‘rilmagan yangi qirrasini ko‘rsatishi bilan qimmatlidir. Bu holatni uni boshqa she’rlarida ham ko‘rish mumkin<sup>1</sup>.

Pushkinning bir asarini yaxshilab tarjima qilish she’riy jihatdan bir pog‘ona o‘sish demakdir, degan edi Hamid Olimjon. Pushkin asarlarini o‘zbek kitobxoniga yuksak saviyada yetkazish ishida bir necha avlod shoir va yozuvchilari ishtirok etdilar. Ular juda ko‘p, lekin shu o‘rinda Cho‘lpon, Oybek, Usmon Nosir va Mirtemirlar nomini alohida hurmat va ehtirom bilan tilga olishga o‘zimni

<sup>1</sup> Mazkur kitobda bu holatga ahamiyat berilgan.

burchli, deb bilaman. Mirtemir domla o‘girgan birgina «Alvido, zo‘r qudrat, asov g‘alayon» satrining o‘ziyoq Pushkin she’ri o‘zbek tiliga qanchalik singishib, o‘zlashib ketganiga go‘zal misoldir.

Xullas, xalqimizni olıyjanob, go‘zal g‘oyalari, ezgu hislariga oshno qilgani uchun biz Pushkindan minnatdormiz. Lekin buyuk Pushkin ham o‘zbek xalqidan minnatdor bo‘lsa arziydi. Uni xuddi o‘z farzandiday bag‘riga olgani, ardoqlagani uchun!

***Abdulla Oripov***

*O‘zbekiston xalq shoiri,  
O‘zbekiston Qahramoni*





## ERKINLIK<sup>1</sup>

### ODA

Qoch, yo‘qol, ko‘rinma – chekil ko‘zlardan,  
Siteraning ojiz, ey malikasi!  
Mag‘rur erk kuychisi, qani, qaydasan,  
Qaydasan shohlarning zo‘r tahlikasi!  
Kel, gultojim uzib tashla bir yonga!  
Injiq rubobimni parchala-sindir...  
Erkni ulug‘layin butun jahonga,  
Taxt-u toj qusurin toptayin bir-bir.

Shonli kulfat, ofat aro sen o‘zing  
Dadil qasidalar ilhomin bergen –  
O‘sha olivyjanob, ulug‘ insonning<sup>2</sup>  
Atoqli izlarin ochgil menga san!  
Havoyi qismatning arzandalari,  
Jahon zolimlari! Titrang bu zamon!  
Siz-chi, ey ularning xor bandalari,  
Mardona-mardona boshlang qo‘zg‘olon!

---

<sup>1</sup> «Erkinlik» she’rini Pushkin 1817–1819-yillar orasida yozgan. Bu she’r XVIII asrda o’tgan rus revolyutsion shoiri A.N. Radishchevning (1749–1802) mashhur «Erkinlik» odasiga naziradir. Radishchevning «Erkinlik» she’ri «Peterburgdan Moskvaga sayohat» nomli asariga kirgan va jazolanishining sabablaridan biri bo‘lgan. Radishchev o‘lim jazosiga hukm etilgandan so‘ng bu jazo Sibirga surgun bilan almashtirilgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, Pushkinning bu she’rida podsho Aleksandrning o‘z otasi Pavelni o‘ldirilishida bevosita ishtiroti borligiga kinoya, ishora bordirkim, bu 1820-yilda Pushkinning janubga surgun qilinishining asosiy sabablaridan biri bo‘lgandir.

Pushkin hayot chog‘ida bu she’r ko‘chirilib, qo‘lma-qo‘l bo‘lib ketgan va faqat revolyutsiyadan so‘nggina «Erkinlik» she’ri to‘la nashr etildi.

<sup>2</sup> Ulug‘ inson – shoir bu yerda fransuz revolyutsiyasi tomoniga o’tgan fransuz qasidachisi Ekushar-Lebrenani (1729–1807) ko‘zda tutadi.

Qay tomonga nazar tashlamay, evoh,  
Temir kishanlar-u zulm qamchilar;  
Qonunlar xatarli, qonunlar rasvo,  
Erksizlikning nochor yosh tomchilar;  
Har yonda xaqsizlik, zo'rlik hukmron,  
Uyugan xurofot – quyuq mavhumot,  
Qullikning dahosi qo'rqinch o'ltirgan,  
Shonlarni bo'g'adi shum hirsi, hayhot!

Ezgu ozodlik-la qonun do'stlashsa,  
Ayrilmas bir tusda jipslashsa magar;  
Sodiq qo'llar qonun tig'in ushlasa,  
Hammani qo'risa xayrlik sipar;  
Bosh ustida adl qilichi nihoyat –  
Tanlamasdan kelib tushsa ayovsiz –  
Yuqoridan barbod etilsa butun jinoyat,  
Qilichning damidan o'tsa to'xtovsiz,

Na ochko'z, nokaslik va na qo'rquv-la  
Sotilib ketmasa qonun beomon –  
Podshoh boshiga xavf solmas shunda  
Xalqlarning uvoli faqat shu zamon.  
Hukmdorlar! Sizga toj-taxt bergen  
Qonundir! Nainki bersin tabiat.  
Siz xalqdan yuqori turasiz, ammo,  
Mangu qonun sizdan yuksakdir, albat!

Xalq o'zi yoki shoh qonun qo'lida  
Bilganin qilolsa, bu xalqning sho'ri,  
Bexabar mudragan qabilalarga  
Alam! O'shalarga tushadi zo'ri.  
Seni guvohlikka chaqirdim bukun  
Nuqsonlar o'tida kuygan podshoh<sup>1</sup>,  
Yaqindagi bo'ronda bobolar uchun  
Shohona kallasin qo'ygan podshoh.

---

<sup>1</sup> Shoir bu yerda 1793-yilda fransuz revolyutsiyasi vaqtida jazolangan fransuz qiroli Lyudovik XVI ni ko'zda tutgan.

Lyudovik o'limga chiqib boradi,  
Buni kuzatadi jim surriyoti,  
Tojidan ajralgan shohona boshin  
Qonli, shum kundaga mute uradi.  
Qonun jim turadi – xalq turadi jim,  
Jinoyat boltasi tushadi og'ir...  
Ham yovuz, qirmizi, yasog'lil kiyim  
Kishanband gallarda yotadi axir.

Ey yovuz hukmron, badkirdor, zolim!  
Nafratlarim senga, toj-u taxtingga,  
Senga va naslingga kelarkan o'lim,  
Qattiq sevinch bo'lib ko'rinar menga  
Sening peshanangda, ey zulm shohi!  
Xalqlar o'qir aniq – la'nat tamg'asi,  
Sen jahon dahshati, sen olam dog'i,  
Sen yerda tangriga xalqlar ta'nasi!

Qorong'i va g'amgin Nevaga boqib,  
Yarim tun yulduzi jilva qilganda,  
Qayg'usiz, tashvishsiz kallasi og'ib,  
Sokin uyqu malol kelganda,  
O'nya tolgan shoir yogurtadi ko'z:  
Tuman orasida mudhish uyquda –  
Xilvatda zolimning haykali yolg'iz',  
Unutilgan saroy – turar qarshida.

Ham eshitar qo'rqinch Klio<sup>2</sup> tovushin –  
Shu qo'rqinchli devor, saroy ortida.  
Ham Kaligulaning<sup>3</sup> so'na olishin  
Yaqqol ko'radi u ko'zi oldida...  
U ko'radi uqalar ham yulduzlarda,

---

<sup>1</sup> Shoir buyerda Mixaylovskiy saroyini aytmoqchi: 1801-yil 11-mart kechasi Pavel I ni oqsuyak fitnachilar to'dasi shu kuni o'ldirganlar. Pushkin zamondoshlarining aytishlaricha, Pushkin «Erkinlik» qasidasini o'z do'stlari – og'a-ini Turgenevlar uyida yozgandi. Bu uy derazasidam Mixaylovskiy saroyi yaqqol ko'rinish turar ekan.

<sup>2</sup> *Klio* – tarix parisi (yunon rivoyati).

<sup>3</sup> *Kaligula* – eng zolim va qonxo'r Rim jahongirlaridan biri; Pavelday u ham to'rt yilgina shohlik davrini surib, o'z yaqinlari tomonidan saroya o'ldirilgan.

Sharob, achchiq g‘azab – kin ila sarxush  
Yashirin qotillar borar, yuzlarda –  
Gustohlik – yurakda vahima-qo‘rqish.  
Turar sotqin posbon sassiz-sadosiz,  
Asta tushirilgan osma ko‘prik ham,  
Darvozalar ochiq kimsasiz tunda,  
Yollangan xiyonat qo‘lida shu dam.  
O, nomus! O, bizning kunlar dahshati!  
Yancharlar<sup>1</sup> bosib kirdi yirtqichga o‘xshab,  
Sharfsiz zarbalar bir-bir tushadi...  
Ham tojdor yovuz mahv bo‘ladi qaqshab.  
Sizga ibrat bo‘lsin, ey shohlar, bukun:  
Na in’om, mukofot, na og‘ir jazo –  
Na xilvat zindonlar, na-da sajdagoh  
Bo‘lar sizga sodiq qalqon, yo panoh.

Shohlar, boshlab o‘zingiz bosh egingiz  
Mustahkam qonunning ostonasiga,  
Xalqning erki, tinchi shudir, bilingiz,  
Shudir taxning qo‘riqchisi manguga!

1817

*Mirtemir tarjimasi*

---

<sup>1</sup> Yancharlar – (asli «yangi cherik», «yangi askarlar») – XVIII asrda Turkiyada imtiyozli harbiylar.

\* \* \*

Sibir konlarining tagida  
Mag'rur saqlang sabot va chidam.  
G'amgin zahmat ketmas behuda –  
Yuksak xayol, amalingiz ham.

Baxtsizlikning sodiq singlisi –  
Umid qora chuqurda, inon,  
Qo'zg'ar g'ayrat, quvnoqlik hissin,  
Kelur orzu etilgan zamон.

Mushkul jazo inlaringizga –  
Erkin tovshim yetgan singari,  
Po'lat qopqalardan o'tib ichkari –  
Sevgi, do'stlik yetadi sizga!

Parchalanur og'ir kishanlar,  
Zindon qular va erk shodumon  
Peshvoz chiqar eshikda u on,  
Qilich berur sizga yoronlar.

*Mirtemir tarjimasi*



## SARSKOYE SELO XOTIRALARI

G'ussali tun pardasin osmish  
Mudroq osmon ravoqlarida.  
Vodiylarni sukunat bag'riga bosmish,  
O'rmon oppoq tuman quchoqlarida.

Sal shildirar emanzor soyasiga shoshgan soy,  
Sal pichirlar uyquchan shabboda barg-o'tlarda,  
Yuzib yurar kattakon oqqush yanglig' oy –  
Kumushrang bulutlarda.

Yuzib yurar – ham sochar xira, oqish nur,  
Buyumlarni yoritar nur doirasi.  
Yuz yashar arg'uvonzor – xiyobonlar ko'rinxur,  
Yiroqlarda sabzazor ham tepalar sirasi;

Bunda ko'rdim sarvga chirmashibdir majnuntol,  
Soyalari jimillar suvning billur mavjida;  
Dalalar malikasi nilufar mag'rur, xushhol,  
Dabdabasi, ziynati, go'zalligi avjida.

G'adir-budur tog'lardan tushar bebosh sharshara,  
Marvarid daryo bo'lib oqar, qaynashar.  
U yonda, sokit ko'lda pari qizlar<sup>1</sup> sho'x sara,  
Erinchak to'lqinlarni sachratishar, o'ynashar.

Bu yonda, jimjitlikda muhtasham saroylari,  
Bulutlarga cho'zmish bo'y, suyanchig'i ko'k toqi,  
Davron surmaganmidi bunda yer xudolari?  
Rossiya Minervasin shumasmi sajdagohi<sup>2</sup>.

Shu emasmi shimol jannati,  
Shoh qishlog'i, soz bog'i eram;  
Halok etib arslonni rus burgutin qudrati.  
Tinchib orom olmasmidi shu joyda xurram?

<sup>1</sup> Pari qizlar – nayadlar, ya'ni suv parilari.

<sup>2</sup> Minerva – donishmandlik ma'budasasi. Rossiya minervasi – Yekaterina II, narirokda shoir uni «buyuk xotin» deb atagan.

Evo! U oltin paytlar o'tdilar jadal,  
U palla buyuk xotin edi hukmron,  
Rossiyaning shavkati gurkirardi u mahal,  
Baxtiyor, dorilamon.

Bu yerlarda har qadam dilni uyg'otar,  
O'tmishlarni eslatar darhol;  
Atrofga nazar solib rus bir oh tortar:  
«G'oyib bo'ldi bari, yo'q buyuk ayol!»

Ham xayolga g'arq bo'lib, yam-yashil qirg'oqlarda,  
Qulq solib yellarga o'tiradi lol.  
Kechmish yillar jimirlar ko'z qaroqlarda, –  
Va jimgina dil bo'lar xushhol.

U ko'radi, haybatli qoya ko'ksida  
To'lqinlar o'rtasida yuksak haykal bor<sup>1</sup>.  
Qanotlarin keng yoyib uning ustida  
Bir yosh burgut turar barqaror;

Og'ir zanjir halqasi, ham o'q, ham kamon –  
Baland haykal atrofin qurshamish uch qat.  
Oq to'lqinlar shovullab etaklarida biyron,  
Yarqiroq ko'piklarda qiladi rohat.

Qalin qarag'aylarning quyuq soyalarida  
Ko'tarilgan oddiy yodgor<sup>2</sup>.  
Kagul qirg'og'i, senga haqorat bor barida.  
Aziz vatanga esa shavkat poyidor!

Umrbod barhayotsiz, ey rus pahlavonlari,  
Siz jang dahshatlarida topdingiz kamol rosa,  
Sizning haqda, malika safdoshi-yoronlari  
Nasldan naslga ketar ovoza.

<sup>1</sup> *Haykal* – 1770-yil Chesma yonidagi bo'lgan dengiz urushda ruslarning turklar ustidan qozongan g'alabasi sharafiga qurilgan kolonnalar.

<sup>2</sup> *Oddiy yodgor* – Yekaterina zamonining mashhur sarkardalaridan biri va Derjavin maqtab she'rlar yozgan Rumyansev sha'niga kolonna. 1770-yilgi Kagul qirg'oqlarida turklar ustidan qozongan g'alabasi sharafiga qo'yilgan.

O! Harbiy talashlarning gurlagan asri  
Rossiya shavkatining guvohi bo‘lgan zamon!  
Slavyanlarning o‘scha mardona nasli –  
Ulug‘ sarkardalarni ko‘rgansan ayon,

Zevs yashinlariday, qo‘lga oldilar zafar,  
Shiddatlaridan titrab jahon qoldi tang,  
To‘qidilar Derjavin va Petrov madhiyalar –  
Bahodirlar sha’niga kuylari jarang!

Sen ham o‘tib ketding, unutilmas chog‘!  
Ham darrov o‘zga zamon bo‘ldi namudor;  
Ham yangi mojaro, jang dahshatlari tumtaroq;  
Odamzod qismati – azob, oh-u zor.


Makkor va beor shohning tiyiqsiz panjasida  
Yarqiradi qonli bir qilich,  
Turdi jahon ofati, shiddat alangasida –  
Jadal otdi jang tongi mudhish va qizg‘ish.

Hovliqma toshqinlarday Rossiya dalalarida –  
Oqli, oqli dushmanlar;  
Yo‘llarida g‘amnok cho‘l chuqr uyqu bag‘rida,  
Yerda burqiydi qonlar;

Tinch qishloqlar, shaharlar yolqinlanar tun bo‘yi,  
Ko‘k gumbazi va ufq kiydi qizil rang.  
Mudroq o‘rmonlar qo‘yni – qochqinlar uyi,  
Omochlarni qirlarda bosib yotdi zang.

Kelmakdalar – ularning zo‘riga yo‘q biron g‘ov,  
Xarob etar, ag‘darar, ko‘tarar to‘zon.  
Bellona<sup>1</sup> farzandlari ruhlari tuzib yasov,  
Samoviy lashkarsimon –

<sup>1</sup> Bellona – jang ma‘budasi.



Qorong‘i qabrlarga inar beto‘xtov,  
Yo tun bo‘yi kezishar o‘rmonlarda sargardon...  
Ammo, yangradi ovoz! Yiroqda alg‘ov-dalg‘ov,  
Sovut, qilich shaqirlab kelar olomon!

Esingni yig‘, qaltira, yot qabila lashkari,  
Rossiya o‘g‘illari – bu qo‘zg‘alganlar;  
Orsizlarning ustiga uchar birday yosh-qari.  
O‘ch qahrida dillari olovlanganlar.

Qaltira, ey shaddod shoh! Halokat yaqin!  
Har askar bir bahodir, mardona kelar.  
Yo g‘alaba qozonar din va shoh haqqi,  
Yo jangda o‘lar.

Arg‘umoqlar pishqirar, o‘tar o‘ynoqlab,  
Vodiylar to‘liq lashkar;  
Saf ortidan saf oqar o‘ch va shon chog‘lab,  
Sevinchlari oshkor.

Mudhish bazmga shoshar, qilichlar o‘lja quvlar  
Ham jang olovlanadi, gumburlaydi qir-dovon.  
To‘zonli havolarda shamshirlar, o‘qlar g‘uvlar.  
Qalqonlarga sachrar qon.

Halok bo‘ldi dushmanlar jangda! Rus g‘olib!  
Takabbur fransuzlar orqaga qochar,  
Ammo, zo‘ravonlarga parvardigor yor bo‘lib  
So‘ng qatla shu‘la sochar;

Yovni bunda yanchmagan keksa sarkarda<sup>1</sup>,  
Borodino dalasi, o, qonli janggoh!  
Quturishlar, kibrlar bitmadi bu safarda!  
Kreml tepasida fransuz, evoh!

---

<sup>1</sup> Keksa sarkarda – fransuzlarga qarshi urushda rus armiyasining bosh qo‘mondoni bo‘lgan M.I. Kutuzov (1745–1813).

Moskva yerlari, ey ona yurtim,  
Gullagan u yillarning ertalarida –  
Beparvo oltin kunlar kechirgan edim,  
Balolardan, g‘amdan narida...

Vatan dushmanlarini ko‘rdingiz siz ham,  
Sizni ham qizartti, qon qaqshatdi olov beor.  
Qurbon qila olmadim jonimni men o‘sha dam,  
Faqat dil g‘azab bilan o‘rtandi bekor.

Qani sen, ey yuz qubbalik Moskva chiroyi?  
Aziz mamlakatimning ko‘rki, qaydasan?  
Qani jilodor shahar, hashamat joyi?  
Hozir faqat vayronadasan.

Moskva! Bu manzarang rusga g‘amgin shu qadar!  
Yo‘qolmish a‘yonlar-u shohlar koshonalari.  
Minoralar tojlarin qoraytirmish yong‘inlar,  
Yiqilmish boyonlarning farog‘atxonalari.

Ziynat, ko‘rkamlik makon qurgan joylarda,  
Soyali daraxtzorda, yashil bog‘larda.  
Archazor xushhid sochib turgan joylarda –  
Kul, to‘zon – bu choqlarda.

So‘lim yoz tunlarining sokit, soz damlarida  
Uchib kelmas bu yerga xushchaqchaq shovqin.  
Charog‘onlik, jilo yo‘q qirg‘oq chamanlarida.  
Hammasi jimjit, so‘lg‘in.

Hay rus shahri! Shaharlar onasi, yupan,  
Kelgindi o‘limiga ko‘z tashlagil bir yo‘la.  
Yovning o‘jar bo‘yniga tushdi bu zamon  
Parvardigor g‘azabi, o‘ch qo‘li birato‘la.

Ko‘z tashla, qochmoqdalar orqaga boqmay bir zum,  
Qonlari oq qorlarda oqmoqda daryosimon,  
Qirmoqda qora tunda ularni ochlik, o‘lim,  
Orqadan rus qilichi quvar beomon.

Ey, ularni qaltiratgan zo'r – bardam  
Yevropaning qabilalari,  
O, yirtqich fransuzlar! Go'rga tushdingiz siz ham.  
Ey, dahshat! Ey, shiddat yillari!

Haqiqat ovoziga, ham dinga, qonunga yov –  
Baxt va jang arzandas, qaylardasan bu zamон?  
Saltanatlarni buzish xayolida solding dov!  
G'oyib bo'lding subhidam qo'rqinch tushsimon.

Parijga kirdi ruslar! O'ch mash'ali qayoqda?  
Ey, fransuz, boshingni quyi sol bu dam  
Ammo nima ko'rdim men? Iljayib ayni choqda  
Zar-zaytun shoxin tutib qahramon tashlar qadam.

Hali ovloq joylarda jang chaqmog'i chaqardi,  
Go'yoki cho'l tuniday Moskva g'amgin;  
U yovga o'lim emas, najot – sulh olib bordi,  
Ham jahonda, totuvlik sochdi, saqlamadi kin.

Bahodirlar sha'niga qasidalar kuylagan  
O, Rossiya kuychisi, ilhom balandparvoz,  
Yoronlar davrasida alangali shavq bilan –  
Jaranglatgil oltin soz.

Titroq torlar dillarga purkaydi olov,  
Yangrar botir sha'niga xush, shirin ovoz,  
Ham jangovar qo'shiqni tinglab qo'zg'alar darrov,  
Jo'shar navqiron shovvoz.

1814  
*Mirtemir tarjimasi*

## O'RTOQLARIMGA

Uchib o'tib ketdi tutqunlik vaqt;  
Endi ko'p qolmadi, ey tengqurlarim,  
Biz tashlab ketamiz bu xor xilvatni,  
Sarskoye Selo dala-qirlarin.  
Bizni chorlar olis shovqin-suron,  
Judolik kutadi eshik yonida,  
Har kim ko'z tikadi yo'lga, navqiron  
Va mag'rur xayollar hayajonida.  
Birov bo'rk ostiga aqlin berkitib,  
Harbiy libos kiyib shu mahaldanoq,  
Gusar qilichini yonda silkitib,  
Chilla sovug'ida qotsa ham, biroq,  
Safda sipolikni boy bermay sira,  
So'ng soqchixonaga issiqqa kirar;  
Birov – mansab uchun tug'ilgan azal,  
Ishda vijdon emas, shuhrat dardida,  
O'zin itoatkor muttaham sezar  
Mashhur muttahamning eshik oldida;  
Faqat men, taqdirga butkul berib tan,  
Baxtli tanballikning sodiq farzandi,  
Ko'nglim har narsaga befarq va beg'am,  
Tanho mudramoqqa sekin yastandim...  
Befarqman mirzolik va ulanlikka,  
Baribir qonunlar, gusar bo'rklari,  
O'zimni urmayman kapitanlikka,  
Yoki asessorlik mansabi sari;  
Do'stlar! Lekin himmat qilingiz picha –  
To katta gunohlar qilib bir kuni  
Jangovar qalpoqqa almashgunimcha,  
To kutmay dahshatlif ofat xavfini,  
Iyul kunlarida tanbal bemalol  
Yechib yurolarkan jilet tugmasin –  
Qizil qalpog'imga hech kim tegmasin.

1817

*Asqad Muxtor tarjimasি*

## CHAADAYEVGA

Bu diyorda ilk yillar iztirobin unutdim,  
Ovidiy mozorini xoli hamsoya tutdim,  
Bunda men uchun shuhrat – arzimas bir mashaqqat,  
Horg‘in ruhim seni der, sen kamsan unga faqat.  
Men-ku: siqiq – tang hayot, kishanga saqlayman kin.  
Bazmlardan voz kechmoq bo‘lmadi uncha qiyin,  
Unda yurak uxlarkan, jilvalanur puch hikmat,  
Sovuq odob qo‘ynida muzlar yoniq haqiqat,

Yosh do‘stlar davrasidan ayrilib shu kunlarda –  
Sira afsuslanmadim men olis quvg‘inlarda;  
Tin olib, o‘zga ozg‘ur o‘ydan qocha boshladim,  
Yovlarimni gumdonlik la’natiga tashladim.  
Uzdim bandilik to‘rin – azob, nadomatini,  
Yuragim olur bunda yangi orom totini.  
Tinch mehnat va tafakkur chanqovin, bu fursatda  
Anglab oldi xo‘b o‘jar farosatim g‘urbatda.

O‘z kunimga hokimman; aqlim tartibga inoq,  
Uzun o‘ylar ipini tutaman qo‘ymay yiroq;  
O‘tgan isyonkor yoshlik yillarimni izlayman,  
Erk qo‘ynida ularni tasdiqlamoq istayman.  
Ham bo‘lay ma‘rifatda asrim bilan baravar,  
Jahon ma‘budalari, keldi tag‘in muzalar –  
Va qildilar tabassum mustaqil, hur ra’yimga,  
To‘qnashdi dudoqlarim tashlandiq u nayimga:  
Ko‘ngilga sevinch soldi o‘scha qadimiy ovoz:

Kuylayman – orzularim, tabiat va ishqni boz.  
Sodiq, vafodor do‘stlik madhin rosa kuylayman,  
Yosh choqda maftun etgan harna bo‘lsa kuylayman,  
U kunlarda-ku, hali hech kimga ma’lum bo‘lmay,  
G‘am bilmay, tashvish bilmay, tartibga amal qilmay  
Kuy taratdim, tomosha – ermak makonlarida,  
Shoh qishlog‘in og‘ushi – salqin maydonlarida.  
Ammo, menga do‘stlik yo‘q, qayg‘ularda yuraman,

Men bunda begona yurt ufqlarini ko‘raman;  
Na muzalar, na ash‘or, na erk – sevinch sarosar:  
Birgina sen do‘stimga hecham kelmas baravar.  
Ruhiy kuchlarimning sen hokimi eding, axir,  
Ey yagona do‘st, senga malum edi butun sir,  
Bag‘ishlagandim bebaxt qisqa umrimni senga,  
Va balki, o‘zing xalos etgan tuyg‘umni senga.

Yuragimni bilarding gul yoshlik kunlarimda,  
Sen ko‘rdingki: keyinroq orzu to‘lqinlarimda,  
Maxfiy siqdi dilimni uning azob, qiyognog‘i;  
Sirli tagsiz jarlarla ayni halokat chog‘i –  
Meni sergak qo‘ling-la tutib qololding, jo‘ram,  
Sen bo‘lding menga umid, sen eding menga orom:  
Payqardi jiddiy ko‘zing teran dilimni ayon,  
Maslahat yo ginang-la berar eding unga jon.  
Ishqim yallig‘i baland yonar haroratingdan,  
Menda bukilmas chidam paydo bo‘ldi yangidan;  
Bo‘hton shovqinlarila ranjishni ham qo‘yanman,  
Nafratda jirkanishga uddaburo bo‘lganman.  
Menga na der u laqma, o‘zi malay zodagon,  
Burun ko‘ksi yulduzli, johil va qashqa nodon,  
Faylasuf-ku<sup>1</sup>, ko‘p ozg‘ur, chiqqan fahshning uchchiga,  
Ovozasi taralgan olamning to‘rt burchiga,  
Ammo, ma‘rifat olib, badnomni yuvgan bir oz,  
Sharobdan qaytdi, lekin bo‘ldi laqma qimorboz.

Notiq Lujnikov<sup>2</sup> esa eng ichida ish boshlar,  
Andak g‘ashimga tekkan zararsiz vovillashar.  
Shikoyat qilar midim, sho‘xlarining qilmishidan,  
Xonimlar g‘ujurlashi, fitnachilar ishidan;  
Shu niyat, g‘iybatlarni tahlilga fursatim bor,  
Men sening do‘stligindan qilganimda iftixor?  
Xudoga shukur: o‘tdim qora yo‘llardan omon,  
Bugungi g‘ussalardan ko‘p siqilar edi jon;  
Qayg‘ularga ko‘nikdim, toledan oldim hisob;

<sup>1</sup> Shoир bu yerda «faylasuf» laqabini kinoyaviy tarzda graf F.I. Tolstoяga (1782–1846) taqqandir.

<sup>2</sup> Notiq Lujnikov – Pushkin M.T. Kachenovskiyni aytmoqchi. (1775–1842).

Yasharkanman, chidayman – jonimda toqat-u tob...  
Birgina orzum shuki, sen qol, men bilan qolgil!  
Xudoyimdan hamisha shunigina tilar dil.  
O, tezdanmi, do'stginam, bitar hijron muddati,  
Qachon qo'shilar qo'llar, ikki dil muhabbat?  
Qachon men eshitarman samimiy salomingni?  
Quchoqlardim! Ko'rardim xonada maqomingni.

Unda sen doim ziyrak, o'ychan faylasuf goho.  
Havoyi olomonga ko'z tashlaysan beparvo;  
Tez yoningga boraman, aziz do'sti mehribon,  
Qadimi suhbatlarni yodlashurmiz ikkovlon:  
Ilk oqshomlar, talashlar – payg'ambarlar singari,  
Biz bilgan mурдалarning tirik hangomalari,  
Sanarmiz, tergasharmiz, suhbat-u munozara,  
Erksevar umidlarni qo'zg'asak tag'in zora,  
Men baxtiyor bo'lurman; tangri haqqi, sen ammo –  
Ostonamizdan quvla, Shepingni<sup>1</sup> ko'rmay aslo!

1821

*Mirtemir tarjimasi*



---

<sup>1</sup> D.A. Sheping (1790–1874) – Peterburg ofitserlaridan. Tanqidchi.

## PUSHCHIN ALBOMIGA

Bu maxfiy varaqqa ko‘z tashlab bir choq  
Mening yozganimni esga olgaysan.  
Shirin xayollarga birpas tolgaysan,  
Xayolda litseyga uchgaysan, o‘rtoq!  
Eslanar tez o‘tgan bиринчи kunlar,  
Ham birga o‘tkazgan totuv olti yil,  
Qayg‘ular, shodliklar, qувноқ gurunglar  
Ajralmas o‘rtoqliк qарор topган dil...  
O‘tib ketdi bari, qaytmagay ortiq...  
Esga tushganida yum-yum oqar yosh;  
Esga tushar ilk bor bo‘lganining oshiq.  
U ham o‘tdi... Lekin ketsa hamki bosh,  
Yoshlik do‘stilarini unutish og‘ir;  
Sho‘x xayol emas-ku, uzilmas aslo.  
Qо‘rqinch zamonalar kelsin, baribir,  
Mangulikdir, buzilmas aslo!

1817  
*Mirtemir tarjiması*



\* \* \*

Jonajon yurtining moviy osmoni  
Ostida zoriqdi, so'ldi sarvinoz...  
Xazondek qovjirab yoshgina joni,  
Soyasi ustimda etadi parvoz;

Ammo oramizda mislsiz g'ov bor,  
Men tuyg'u uyg'otdim qalbda behuda:  
Loqaydlab o'limdan qildi xabardor,  
Men ham uni loqayd tingladim juda.

Uni benihoya sevardim axir;  
Otashin yurak va his bilan butun,  
Ko'yida zoriqib bo'lib muntazir,  
Azob-uqubatdan go'yo bir majnun!

Qani g'am, qani ishq? Ko'nglimdan, hayhot,  
O'tgan totli kunni etish uchun yod,  
U sho'rlik, soddadil bir soya uchun  
Sira topolmasman na ko'zyosh, na un.

1826

*Ramz Bobojon tarjimasি*

## SHOIR

Qutlug‘ qurban bo‘l deb, shoirdan hali  
Talab etmas ekan Apollon,  
U, yuvoshlik bilan, g‘avg‘oli  
Dunyo tashvishidan chiqolmas hamon;

Muqaddas lirasi sukunatda, lol;  
Ruhin muzday chulg‘aydi uyqu,  
Dunyoda benaflar ichra, ehtimol,  
Hammasidan benafrog‘i shu.

Lekin agar ilohiy bir so‘z  
Sezgir qulog‘iga urilsa qitday,  
Xuddi uyqusidan turgan burgutday,  
Shoir qalbi titrar sabrsiz.

O‘yin-kulgi tegar g‘ashiga,  
Odamlar mish-mishin yotsirar, sevmas.  
Xalqning hukmdori qoshida  
Shoir mag‘rur boshini egmas;

Notinch qalbda ohanglar toshar;  
Yovvoyi, shiddatli ko‘z qarashlari,  
Sahro to‘lqinlari bag‘riga shoshar.  
Shovullagan o‘rmonlar sari...

1827  
*Asqad Muxtor tarjimasি*

## TUMOR

Yalang qoyalarga sira to‘xtamay  
Dengiz hamishalik chayqalib urgancha,  
Iliqqina porlab ko‘kda to‘lin oy  
Tunning shirin payti jilmayib turgan,

Haramda musulmon, kayfini surib,  
Yashagan diyorda – ko‘zlar xumor  
Jodu qiz erkalab, nozlanib turib  
Qo‘limga tutqizgan edi bir tumor.

Erkalanib turib menga dediki:  
«Mening tumorimni yo‘qotmay saqla.  
Unda sirli kuch bor, muhabbatimki  
Bag‘ishladi senga, sen uni oqla!

Bo‘ronda, dovulda, mudhish to‘fonda –  
Kasaldan, o‘limdan, to‘fondan, ey yor,  
Boshingni saqlamas hech bir makonda  
Senga men baxsh etgan sehrli tumor.

Sharqning son-sanoqsiz davlatlarini  
Bag‘ishlamas senga bu tumor hech ham,  
Hamma payg‘ambarning ummatlarini  
Bosh egdirib senga qilmaydi qaram;  
Hamda seni g‘amgin bu uzoq yurtdan  
Do‘sstar og‘ushiga, vatanga, dildor, –  
Shimol sari, ona yurtga janubdan  
Uchirib yetkizmas men bergen tumor...

Va lekin makrli, hiylakor nigoh  
Maftun etib qo‘ysa sani daf’atan,  
Yo zulmat kechada dudoqlar nogoh  
Sevmasdan bo‘salar olsa labingdan,  
Aziz do‘sst, o‘shanday bir jinoyatdan  
Yurakka yangidan qo‘ymay dard, g‘ubor;  
Xiyonat, unutish kabi holatdan  
Saqlab qolar seni men bergen tumor».

1827

Mirtemir tarjimasi

## ARION

Biz ko'pchilik edik o'sha qayiqda;  
Yelkan ochdik zo'r berib bir qanchamiz,  
Bir jon, bir tan bo'lib anchamiz,  
Kuchli eshkak urdi jimlikda –  
Quyruqqa suyangan oqil darg'amiz  
Haydar edi og'ir qayiqni.  
Men bo'lsa, beparvo ishonchga to'liq,  
Ularga kuylardim... Birdan qo'rquvlik

To'lqinlar quyuni – bosqinchchi dovul,  
Shovqin-la keldi-yu, bosdi barchamiz...  
Cho'kdi darg'a, cho'kdi barisi,  
Faqat men ularning sirli kuychisi  
Otilganman qirg'oq tomon dahshat chog'ida;  
O'sha qo'shiqlarni hamon aytaman,  
Ho'l jandamni quyoshda quritaman –  
Qiya tog'da, qirra qoya tagida.

1827

*Mirtemir tarjiması*



## QUSHCHA

Vatanim odatin begona elda  
Men muqaddas bilib bajarmoqdaman:  
Bahor bayramida – go‘zal sayilda  
Qushchiaga erk berib uchirmoqdaman.

Ko‘nglim shundan topar tasalli – orom;  
Xudodan nolishim o‘rinli emas,  
Axir, men ozodlik etoldim in’om  
Aqalli birgina jonga bu nafas!

1823

*Hamid G‘ulom tarjiması*



## KAVKAZ

Ko‘z o‘ngimda Kavkaz. O‘zim yuksakda,  
Qorli qoyalarning yoqasidaman;  
Burgut ko‘tarilib olis cho‘qqidan  
Men bilan tenglashib asta suzmakda.  
Bu yerdan ko‘raman ilk sel toshqinin,  
Qorlarning dastlabki qo‘rqlinch bosqinin,  
Tagimda bulutlar oqadi asta;  
Bulut aro guvlab shalola toshar;  
Ostida bahaybat qoq qoyatoshlar;  
Nimjon o‘t, qurigan changalzor pastda;  
Keyin daraxtzorlar, salqin o‘tloqlar:  
Qushlar tinmay sayrar, kiyik o‘ynoqlar.  
Odamlar makonin ko‘rmish tog‘ aro,  
Bo‘liq qiyalikda o‘tlaydi poda,  
Cho‘pon o‘rlab borar quvnoq vohada,  
Aragva shoshadi ko‘k qirg‘oq aro,  
Daralar pana joy yupun otliqqa,  
Terek o‘ynoqlaydi bebosh shodlikda;  
O‘ynoqlar-u, go‘yo qafas tutquni,  
Yem ko‘rgan yosh yirtqich kabi pishqirar;  
Behuda qahr-la qirg‘oqqa urar,  
Qoyalarni yalar ochko‘z to‘lqini...  
Hayhot! Na quvonch bor unga, na yem bor:  
Uni lol qoyalar siqar shiddatkor.

1829  
*Asqad Muxtor tarjimasi*

## JINLAR

Sur bulut aylanar, uchar,  
Oy yuzar butun xira –  
Oqaradi sovrilib qor;  
Osmon xira, tun xira.

Yo'l bepoyon, cho'l bepoyon;  
Qo'ng'iyoq ham qilur zor...  
Qo'rquinch, qo'rquinch – qirda sarson  
Kezmaklik beixtiyor.

– «Qani, chu de». – «Illoj yo'q, to'ram.  
Otlarga qiyin bu yo'l;  
Qor yopishar ko'zimga ham,  
Qor ostida o'ng-u so'l;  
Ming tikilsang ko'rinas iz,  
Adashibmiz, ne chora!  
Jin ozdirgan o'xshar, esiz;  
Qurshab, qilar ovvora...

Qara: ana biri yurar.  
Puflar, tuflar men tomon;  
Hurkkan otin, ana, sudrar,  
Jarga sudrar beomon;  
Sanog'i yo'q, ko'z o'ngimda  
Qaqqayishar yo'l bo'yi;  
Miltirashar unda-bunda,  
G'oyib bo'lar shu ko'yi;

Sur bulut aylanar, uchar,  
Oy yuzar butun xira –  
Oqaradi sovrilib qor;  
Osmon xira, tun xira.  
Jilishga ham yo'qdir mador;  
Qo'ng'iyoq birdan jimjit,  
Otlar to'xtar... «Yo'lda ne bor?» –  
«Qaydam, to'ngak, bo'ri, it?»

Bo'ron guvlar, bo'ron bo'zlar,  
Pishqirar sergak otlar;  
Qorong'uda yonar ko'zlar,  
Mana jin sakrar, hatlar;  
Torta ketdi otlar tag'in,  
Jiring-jiring qo'ng'iroq...  
Ko'rdim: ruhlar to'planganin  
Majlis qilar; tuz – avloq...

Jinlar hadsiz, badbashara;  
Xira shu'la sochar oy –  
Uchar, o'ynar xil-xil davra,  
Kuzdag'i yaproqlarday...  
Eha: qancha! Qayon haydar?  
Nechun mungli qo'shiqlar?  
Qazisharmi devga mozor,  
Yo alvasti to'yi bor?

Sur bulut aylanar, uchar,  
Oy yuzar butun xira –  
Oqaradi sovrilib qor;  
Osmon xira, tun xira.  
Jinlar ko'char, ko'ch-ko'ch uchar –  
Yiroq ko'kda paydar-pay,  
Uvlar, guvlar, jinlar zor-zor,  
Yuragimni uzguday...

1830

*Mirtemir tarjimasi*

## ANONIMGA<sup>1</sup> JAVOB

Oh, sen kim bo'lsang ham shirin so'z bilan  
Tabriklab, iqbolga meni uyg'otding,  
Ko'rinas qo'llaring tutib qo'limdan,  
Menga aso berding va yo'l ko'rsatding.

Oh, sen kim bo'lsang ham: ilhombaxsh bir chol,  
Yoki yoshligimning olis muxlisi,  
Yoki sirli ilhom do'sti – yosh nihol,  
Yoki go'zallikning ma'suma qizi –  
Shodlikdan mast bo'lgan qalbim minnatdor.  
Zarracha diqqatga bo'lmay sazovor,  
Hech kimdan iltifot ko'rmagan edim,  
Saloming eshitib hayratda qoldim.

Kibordan marhamat kutish kulgili!  
Bag'ritosh olomon shoirga xuddi  
O'tkinchi figlyar<sup>2</sup> deb tashlaydi nigoh;  
Agar u yurakdan cheksa og'ir oh,  
Agar u o'qisa ma'yus she'rini,  
Mohirona chertsqa yurak torini, –

Chapak chalib, maqtab qo'yar olomon,  
Yoki sal boshini chayqar. Nogahon  
Kuychingining boshiga tushsa zo'r kulfat,  
Quvg'in, qamoq yoki og'ir musibat, –  
«Soz bo'pti!» – deydilar san'atsevarlar, –  
«Soz bo'pti! Yangi o'y, hislarni to'plar  
Va bizga yetkazar». Lekin ular jim,  
Shoirni qo'llamas ulardan hech kim,  
Qo'rquv ichra sukut saqlab yotsa baxt...

1830

*Hamid G'ulom tarjimasি*

<sup>1</sup> Anonim – nomini yashirib xat yozgan kishi.

<sup>2</sup> Figlyar – lo'ttiboz, fokuschi, o'yin ko'rsatuvchi.

## D.V. DAVIDOVGA

Sengadir bu she'rim, kuychi qahramon!  
Ortingdan asov ot minib, qadrdon,  
Javlon urolmadim o'tdi maydonda,  
To'plar gumburlagan jangovar onda.  
Sen, yuvosh Pegasda epchil chavandoz,  
Tingla, men Parnasning qadim vaqtga xos  
Eski mundirini kiydim to shu dam;  
Ammo ey, ajoyib chavandozim san,  
Mashaqqatli, og'ir bu xizmatda ham  
Mening otam, komandirimsan!  
Mening Pugachimga bir qur boq, darrov –  
Payqaysan: u hushyor o'jar bir kazak!  
U sening oldingi otryadingda dov  
Epchil uryadniging bo'lardi, beshak.

1836

*Mamarasul Boboyev tarjimasi*



## SARKARDA

Rus shohi saroyida bitta ulkan xona bor:  
Na baxmal, na oltindan unda bir nishona bor,  
Na tojdagi olmoslar saqlanar bu uyida;  
Lekin, eni-uzuni, yuqorida-quyida –  
Erkin, to‘kis qalamlik, o‘tkir ko‘zlik san’ atkor –  
Nuqlul surat chizibdi – qanday yorqin va rangdor!  
Qishloq parilari-yu, yo tamtam oltinlarmas,  
Daydi jinlarmas, yoki ko‘krakdor xotinlarmas,  
Raqs-u ov tasvirimas – bari qilich, qalqonlar!  
Bari yuzida mardlik barq urgan pahlavonlar!

Rassom bir-biriga zich, yondosh o‘rin beribdi.  
Xalqimiz qudratining boshliqlarin teribdi,  
Bunda – shonli yurishda shon olgan talay sardor  
Va o‘n ikkinchi yildan bizga mangulik yodgor!

Ko‘p mahal bu xonada men avaylab yuraman,  
Tanish bu suratlarga ko‘zim tikib turaman;  
Jangovar na‘ralari go‘yoki yangrar hamon.  
Ko‘pchiligi yo‘q hozir; ba‘zilari navqiron  
Ko‘rinsa ham yorqinroq tasvirda, hozir qari,  
Tinchlik, sukul qo‘ynida munkillab yashar bari,  
Ham gultojli boshlari quyi...

Jazb etar faqat –

Bu haybatli, jangovar safda meni bir surat.  
Men uning qarshisida har gal to‘xtab qolaman,  
Yangi fikrlar chulg‘ab, uzoq nazar solaman,  
Men uzoq boqqan sari dilni bir g‘ussa yoqar,  
Bir g‘ussa yoqqan sari ko‘zlarim tikka boqar!

U tik turar. Manglayi xuddi yalang‘och chanoq.  
Cheksiz hasrat bekingan kabi – yuksak, yarqiroq.  
Atrofi – qorong‘ilik. Lashkargoh – orqa tomon.  
Ko‘zlarda o‘ychan nafrat, siyoqida mung ayon.  
Rasmini chizar ekan shu tarzda, shu siymoda,  
Rassom o‘z fikrin dangal etdimikin ifoda,

Yoki jo'shqin ilhomning qudratimi, ajabo.  
Har nechuk unga Dou beribdi shundoq siymo...  
Bebaxt sardor! Taqdiring qanday og'ir beomon!  
Senga yot o'lka uchun bor-yo'g'ing bo'ldi qurban,  
Vahshiy olomon seni anglay olmadi garchand,  
Tek yo'l oshding sen faqat buyuk fikrlarga band,  
Nomingdagi yot sado ko'rini yot va yomon,  
G'avg'o solib, ketingga tushib oldi beomon,  
Sen o'zing u kez pinhon qutqarib qolgan bu xalq,  
Bulg'adi sochlaringning ezgu oqini befarq.  
Qiymatingni tushungan ziyrak-chi, edi ayyor,  
Nodonlarga yoqay deb, senga berdi ko'p ozor...  
Ishonching kuchli edi, tebranmayin qancha yil,  
Adashganlar o'ngida turolding tetik, dadil;  
Oqibat yorti yo'lda, g'ing demay – chiqarmay un,  
Lozim edi, tan berding, gultojdan kechding butun,  
Kechding sardorlikdan ham, teran xayollardan ham,  
Lashkarda maxfiy qolish orzung ham topdi barham!  
U yerda sen navqiron askarday, keksa sardor! –  
O'qlarning sho'x sadosin eshitgan kabi ilk bor,  
O'zingni o'tga urding, o'liming etib orzu,  
Esiz!.....

.....  
O, tuban zot, ayanch qavm, o, yaramas insonlar!  
Bir lahzalik omadga qurban bo'lgan past jonlar!  
Ko'z o'ngingizdan tez-tez o'tadi shundoq inson,  
Uni mazax qiladi so'qir, yovvoyi zamon,  
Lekin u yuksak siymo tanilajak jahonga,  
Kelajak nasl shoirin solajak hayajonga!

1835

Mirtemir tarjimasi

## SUVGA CHO'KKAN ODAM

Chopqillashib kirib uyga,  
Go'daklar shovqin soldi:  
«Dada! Dada! Bizning to'rga  
O'lik ilinib qoldi!»  
Yolg'on, yolg'on, jinqarchalar,—  
Vaysar ota: – Ko'rgilik!  
Bola emas – bir dardisar!  
Adabing berar o'lik!

Sud ham kelar, boshlar tergov,  
Qani, qutulib ko'r-chi!  
Ilojim yo'q, boray darrov,  
Kampir, chakmonni ber-chi!  
«Qani o'lik?» – «Qarang bu yon!»  
Qarasaki, qirg'oqda –  
Yotar rostdan bitta bejon,  
To'r yozig'liq qumloqda.

Ko'kargan ham shishgan murda,  
Xunuk, qo'rqinch va yomon.  
Sho'rlik jondan kechmish suvda,  
G'aribmikan sargardon;  
Baliqchimi suvga cho'kkан,  
Mast yigitmi darbadar;  
Yo'lbosarlar talab ketgan  
Yo befahm savdogar?

Apil-tapil qarab oldi,  
Nima ham qilsin dehqon?  
O'likni sudrab qoldi  
Oyog'idan suv tomon;  
Suvga otdi qirg'oqdan tez,  
Eshkak bilan itarib;  
O'lik yuzdi tag'in shu kez  
Go'r va krest axtarib.

Tirik kabi ko‘p chayqalib,  
Yuzdi u oqim tomon,  
Ko‘z uzmayin uzoq qolib,  
Uyga jo‘nadi dehqon.  
«Yuguringlar, hoy itvachchalar,  
Beraman shirin kulcha.  
Aytib qo‘ysang biring agar,  
Kaltaklayman o‘lguncha!»

Tunda bo‘ron shovqin soldi,  
Daryo ham urdi to‘lqin.  
Jinchiroq ham yonib bo‘ldi.  
Mujik kulbasi tutun.  
Bari uxlar, mudrar kampir,  
So‘risida yotar u.  
Uvlar bo‘ron, birdan kimdir  
Derazani urdi-ku.

«Kim u?» – «Ochgin, hoy, xo‘jayin!  
«Xo‘sh, tag‘in qandoq balo?  
Tun daydisi, sayoq, Kain!  
Jin boshlab keldimi yo,  
Tashvishga vaqt bormi biron,  
Uyim tor ham qorong‘i!»  
Ham urinib, turdi dehqon.  
Derazani ochdi u.

Bulutlardan yumalar oy,  
Kim deng? Yalang‘och o‘zi:  
Soqoldan suv oqar soy-soy,  
Bejon-u ochiq ko‘zi,  
Bori yo‘g‘i karaxt, mudhish,  
Tanishishgan sar-basar,  
Ham yopishgan tishlari nish  
Qora qisqichbaqalar!

Tanishdi yalang‘och mehmon,  
Tez yopdi derazani,

«Qurib ket!»— der titrab dehqon  
Pichirlar bir nimani.  
Qo‘rqinch o‘ylar chuvaladi,  
Qalt-qalt titrar tinmayin,  
Tong otguncha un soladi  
Eshikda u dam sayin.

Xalqda bordir qo‘rqinch xabar:  
Har yil, o‘shandan buyon,  
Sho‘rlik dehqon, shu muqarrar,  
Tayin kun kutar mehmon,  
Havo g‘azab chaqar emish.  
Bo‘ron solarmish shovqin,  
Tinmay eshik qoqar emish  
Suvga cho‘kkan – o‘sha tun.

1828

*Mirtemir tarjimasi*



## ROMANS

Bulutli kuz, oqshom pallasi,  
Tentir juvon dala yo'lida.  
Baxtsiz ishqning sirli mevasi –  
Chaqalog'i titroq qo'lida.  
Haryon jimjit: o'rmonlar, tog'lar  
Bari uxlar, kecha qorong'i.  
Diqqat bilan atrofga qarar –  
Bir qo'rquvda, vahimada u.

Uxlar ma'sum, jon chaqalog'i,  
Ko'zlarini tikib chekar oh...  
«Sen uxlaysan, jonning qiy nog'i...  
Sen bilmaysan qayg'umni, evoh.  
Ko'z ocharsan va qo'msab lekin  
Ko'kragimni izlarsan bekor;  
Erta baxtsiz onang o'pishin  
Topolmayin yig'larsan zor-zor.

Orzu etma, bekor, onangni!  
Mangu uyat bo'ldi gunohim.  
Unutarsan umrbod meni,  
Unutmasman seni, chirog'im!  
O'zga bo'lur sig'inchoq – panoh.  
Derlar: «Yotsan, bizga o'gaysan».  
«Qayda, – dersan, – otam va onam?  
Bir mehribon topolmagaysan.

Yot bolalar aro, bechora,  
G'amgin o'yda azob chekarsan,  
Yuragingda mangulik yara;  
Onalarga ko'zing tikarsan,  
Har yerda sen yolg'iz, darbadar,  
Taqdiringga o'qirсан la'nat;  
Eshitarsan achchiq pichinglar,  
Shunda meni kechirgin faqat...

Ehtimolki, sho'rlik yetimcham,  
Otang uchrar, qucharsan bir kun.  
Evo! Qayda bevafo erkam,  
Esdan chiqmas, o'lguncha dilxun.  
Uchrar bo'lsang, berma tasallo,  
Degin: «U yo'q, jahonda bugun,  
Lauraga hajr bo'ldi balo,  
Bu olamni tark etdi butun!»

Nelar dedim?.. Balki, bir zamon  
Sho'rlik onang duch bo'lur yana,  
Mungli ko'zing solgay hayajon!  
Tanimasmi o'z o'g'lin ona?  
Koshki edi, beayov qismat  
Ta'sirlansa mening nolamdan...  
Balki, chetlab o'tarsan faqat,  
Ayrilarman mangu bolamdan!..

Sen uxlaysan – baxtsiz bolam,  
Og'ushimda so'ng bor o'payin.  
Haqsiz, mudhish qonun – bu alam,  
Judolikka solar, netayin.  
Hali ma'sum quvonchlaringni  
Quvmagandir omonsiz yillar,  
Uxla, qo'zim, tinch kunlaringni  
Buzmas hozir achchiq g'am-sellar!»

O'rmonzordan nogoh oy qalqib,  
Oy nurida ko'rindi kapa, –  
Tusi o'chib, titrab, toliqib  
Yondoshdi u eshikka xafa...  
Engashdi-yu jim tashlay qoldi  
Go'dagini yot ostonaga.  
Qo'rqib, ko'zin o'gira qoldi,  
Yashirindi tun – zulmatxonaga.

1814  
*Mirtemir tarjimasi*

## DEMON

Sirli olam qoshida ilk bor  
Hayratlarga tushgan kunlarim,—  
Qiz nigohi, shovqin o'rmonzor,  
Tunda oqqan bulbul unlari,  
Balandparvoz oliy tuyg'ular,  
Hurlik, sharaf, ishqiy alanga,  
Durri san'at, ilhom, yog'dular  
O't solganda jon ila tanga, —  
Umid, rohat — bariga nogoh  
Soya solib g'amli va nolon  
Qandaydir bir yovuz ruh goh-goh  
Kelar edi qoshimga pinhon.  
G'amli edi bizning muloqot:  
Tabassumdan to nigoh qadar,  
Achchiq-achchiq so'zлari bedod  
Quyar qalbga misli muz zaha.  
Bo'htonlari behad, bemisol,  
Kelajakni sinab ko'rardi;  
Go'zallikni atardi xayol;  
«Ilhom — irganch!», — deb nahs urardi;  
Ishonmasdi erk, ishqqa butkul,  
«Yashash — kulgi» derdi doimo.  
Tabiatda hech narsaga ul  
Ezgulikni ko'rmadi ravo.

1823

*Muhammad Ali tarjiması*

## DENGIZGA

Alvido, zo'r qudrat – asov g'alayon!  
Yashil to'lqinlaring so'ng daf'a surib –  
Ko'zlarim oldida qaynaysan chunon,  
Mag'rur go'zalliging bilan barq urib.

Undoving g'avg'oli, shovqining g'amli,  
Qulog'im solaman so'ng qatla men ham,  
Go'yoki pichirlar, chorlar alamli,  
Xayrlashuv payti yaqin do'st, hamdam.

Orzuli bu ko'nglim istagan qirg'oq,  
Sening sohilingda kezardim sarson,  
Kezar edim sokit, tumanli, charchoq,  
Ezgu niyatlarim qiynar edi jon!

Naqadar yoqardi: bo'g'iq ovozing  
Va teran sadoli chaqiriqlaring,  
Kechqurungi sukut va o'jar nozing,  
Hayajon, g'azabing – baqiriqlaring!

Baliqchining yengil yelkan kemasi –  
Istasang ko'ksingda saqlanar omon,  
Yuzar to'lqinlarda, yo'qdek vahmasi,  
Lekin sen boshlasang ulkan g'alayon –  
G'arq bo'lar kemaning gala-galasi.

Mangu ketay devdim, bo'lmadi imkon:  
G'amgin, harakatsiz, ko'ngilsiz qirg'oq,  
Seni shodiyona qutlay olmadim,  
Tizma tog'laringdan hatlay olmadim,  
Shoirona qochmoq bo'lgandim yiroq!

Sen kutding, chorlading... men kishandaydim.  
Ruhim qanotlandi behuda, bekor.  
Qudratlari orzuga maftun bandaydim,  
Shu sabab men qoldim qirg'oqlar-la zor.

Nimani ayayman! Qayga bu zamon –  
Men yo'l solar edim beparvo, beg'am?

Bitta ilinj sening go'shangda hamon  
Ko'nglimga hayratlar solar dam-badam...

U bitta qoyadir, shon sag'anasi...  
U yerda uxlaydi sovuq uyquda –  
Ulkan xotiralar hammasi.  
Napoleon hayoti so'ngan yer shu-da!

U yerda azobda bo'ldi u halok.  
Uning orqasidan dovul singari –  
O'zga daho uchdi, dilni aylab chok,  
Aqlimizning o'zga bir hukmdori.

Ketdi, erkinlik-chi, yig'ladi yo'qlab,  
Qoldirdi tojini jahonga, esiz!–  
Shovqin sol, po'rtana, uni ulug'lab,  
U sening qo'shiqching edi-ku, dengiz!

Unda barq urardi timsoling ayon,  
Ruhan xuddi senday yaralgan edi.  
Senday teran, g'amgin, senday pahlavon,  
Senday bo'ysunmas, zo'r inson edi.

Dunyo bo'shab qoldi... endi sen meni  
Qayon olib chiqar eding, okean?  
Insonlar taqdiri har yerda birdir,  
Qayda farog'at bor bo'lsa, posbon –  
Ma'rifat yo zolim u yerda, ayon...

Yaxshi qolgil, dengiz! Unutmayman hech  
Sening tantanali bu jamolingni,  
Qulog'imda turar, jaranglar har kech,  
Hamisha tinglayman g'alayoningni.

O'rmonlar va jimjit sahrolar tomon –  
Yorqin xotiralar ola ketaman.  
Qoyalar, ko'rfazlar, to'lqin va suron,  
Soya, jilolaring esda tutaman.

1824  
Mirtemir tarjimasi

## BULBUL VA GUL

Bahor chog‘ida xoli bog‘da bir zulmatli tun erdi,  
G‘arib bulbul fig‘on aylab, «Gulim, rahm aylagil», – derdi.

Biroq ul gul qulq solmas edi faryod-u afg‘ona,  
Faqat orom olardi noladin to‘lg‘ona-to‘lg‘ona.

Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham,  
Yonarsan, o‘rtanarsan, dod etarsan tinmayin bir dam.

Qo‘y endi, behuda dod etma, ohing unga yetmaydi,  
Qaraysan, yashnagan bir gul, faqat dodinga yetmaydi.

*Cho 'lpon tarjiması*



## CHOL

Kiborlar olami tang qolgan  
Serzavq oshiq endi men emas.  
Bahor, yozim, oh, o‘tib bo‘lgan,  
Izlari ham endi ko‘rinmas.

Yoshlik yillar tangrisi Amur,  
Sening sodiq muxlising edim.  
Agar qayta tug‘ilsam, bilur –  
Edim qanday xizmat qilmog‘im!

1815

*Shuhrat tarjiması*



## ERTAKLAR NOEL

Ko‘chmanchi zolim, hayhot!  
Kelar Rossiya tomon.  
Najotkor soladi dod,  
Butun xalq yig‘laydi qon  
Bibi Maryam hayhaylab, najotkorni qo‘rqitar.  
«Yig‘lama, bolam, aslo,  
Mana, bo‘ji – rus poshsho!»  
Shoh kelib, berar xabar:

«Rossiya xalqi, bilgil,  
Butun dunyoga ayon:  
Mundir kiydim xilma-xil,  
Pruss, avstrsimon.  
O, xursand bo‘la ber xalq: dahshatli, to‘qman, sog‘lom;  
Gazetchi maqtaganda:  
Yeb-ichib, berdim va‘da –  
Ishdan hormadim tamom.

Qo‘shimcha, soling quloq,  
So‘ngra qilaman bundoq:  
Lavrov berar iste’fo.  
Sariq uyga Sots ravo;  
Gorgolining o‘rniga chiqaraman bir qonun,  
Insonga inson haqqin  
Shohona siylash-la men  
Tortiq etaman butun».

Shodligidan o‘rnida  
Go‘dak to‘kar ko‘z yosh duv:  
«Nahot yolg‘on yo‘q bunda?  
Nahot chindan bo‘lsa bu?»  
Ona unga aytadi: «Alla, ko‘z yumgin andak:  
Uxlash vaqtি bemałol,  
Shoh-otaga quloq sol,  
So‘ylab bermoqda ertak».

1818  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

## QO'SHIQCHI

Sevgi, hasrat kuychisin tungi sadosin  
Eshitganmisiz gujum o'rmon ortida?  
Dala jimit mudrarkan sahar paytida,  
Nayning sodda-yu, lekin mungli navosin –  
Eshitganmisiz?

Uchratganmisiz xoli qora o'rmonda  
Ishq va o'z qayg'usining qo'shiqchisini?  
Tabassum yo yuzida ko'z yosh izini,  
Yo hasrat to'lgan ko'z-la qarab turganda,  
Uchratganmisiz?

Oh tortib qo'yganmisiz tinglab tovushini.  
Sevgi, hasrat kuychisi tinch kuylaganda?  
Yigit duch kelganida qalin o'rmonda,  
Ko'rib so'niq ko'z-yu jim boqishini,  
Oh tortganmisiz?

1816

*Mirtemir tarjimasi*



## ISTAK

Kunlarim ohista sudralib o'tar;  
Munglug' ko'nglim uchun har zum beomon,  
Bevaqt sevgi dardin ortirib ketar,  
Tentak xayollarim qo'zg'ar hayajon.

Ammo sukutdaman, chiqmas fig'onim;  
Yig'layman, ko'z yoshim menga ovunchoq,  
Qayg'u panjasida qolgan bu jonim  
Shundan achchiq nash'a topadi har choq.

Hayot daqiqasi! Ucha ber, mayli,  
Behuda xayollar, yo'q bo'l zulmatda!  
Azizdir ishqimning azobli yo'li,  
Mayli, o'lsam o'lay shu muhabbatda.

1816

*Mirtemir tarjiması*



## ELEGIYA

Men yana sizniki, ey yosh do'st-yor,  
Tumanli ayrılıq kunlari adoq,  
Og'angizga takror ochdingiz quchoq;  
Yana sho'x davrada ko'rishdik diydar.  
Siz hamon boyagi, dil boshqa biroq:  
Qadrdon emassiz unga siz bu choq.  
Men xam o'zgarganman... Shodlik pallasi  
O'tdi ko'z ilg'amas tor yo'ldan bot-bot,  
Butunlay: tepamda bu tezob hayot  
Tonglarining turar g'ira-shirasi.  
Xushchaqchaqlig bo'ldi ko'ngildan yiroq.  
Qizg'anchiq qismatda bo'lib darbadar  
Dilshodlik, qahqaha orom – hammasi  
Unutildi: qoldi dilimda qadar.  
Yosh boshimda g'amning sukut pardasi.  
Behuda, siz menga hazil so'z tashlab,  
Muloyim va dilkash suhbatlar boshlab –  
Bo'lmoqchisiz og'ir uyqumni, bekor,  
Bari tamom, dilim g'am bilan liqqa,  
Baxtiyor sho'xlikning muhri ham siyqa,  
Og'ir azoblarni taratmoq uchun –  
Chakki keltirasiz menga tag'in soz,  
Kechmish orzulari so'ndilar butun.  
Tuyg'usiz torlarda bo'g'ildi ovoz.  
Bari tamom bo'ldi: qoldi faqat g'am!  
Menga keng jahon tor, yorug' kun qora,  
Kimsasiz, qorong'i o'rmonlar ora –  
Boramani; xurramlik yot menga bu dam;  
Muzladi lahzalik quvонch izi ham.  
Kuydingiz, kechagi gul yaproqlarim!  
Gullay olmadingiz bir oy ham to'lib,  
Chopqillab o'tdingiz, shodlik choqlarim!  
Ketdingiz, ko'z yoshim erksiz to'kilib,  
Tong qorong'isida qolarman so'lib...  
Ey do'stlik! Sen meni unut, unutgil,  
Jimgina berayin taqdirimga tan,  
Qo'y, qolsin iztirob, alamlarda dil,  
Qo'y, mayli, xilvatda yig'lay tanho man.

1817

Mirtemir tarjiması

## QISHLOQ

Qutlayman, huvillab turgan oshiyon,  
Sen ey, orom, mehnat, ilhom bulog‘i,  
Kunlarim oqimi quyular pinhon,  
Jazm etar unutish va baxt quchog‘i.

Men seniki – o‘zim almashtirdim shu  
Bazm-u ermak, jirkanch dabdaba ko‘shkin,  
Fikrdoshim, erkin bekorchilig-u,  
Emanzor shovqini, qir tinchi uchun.

Men seniki – yelga va gulga makon  
Soya-salqin bog‘ni sevaman juda.  
Chakalakzordagi shildiroq suvda,  
Xushbo‘y o‘tlokarda ko‘nglim har qachon.  
Ko‘z oldimda jonli lavhalar butkul:  
Bu yerda lojuvard kaftday ikki ko‘l.  
Olisdan oqarib ko‘rinar ba’zan,  
Suzib borayotgan baliqchi yelkan,  
Ortida ekinzor, adir-tepalar,  
Uzoq-uzoqlarda tarqoq kulbalar,  
Tuman bosgan ombor, shamol tegirmon,  
Salqin sohillarda yurar podalar,—  
Har yonda baraka, mehnatdan nishon...  
Tashvish kishanidan bunda qutulib,  
Bunda haqiqatda baxtga intilib,  
Qonunni har qalb-la e’tibor qildim,  
Nodon g‘iybatiga beparvo bo‘ldim.  
Uyatchan yolvorish bo‘lsa men tayyor,  
Cheksiz nohaqlikda zolim yo ahmoq  
Taqdiriga havas etmayman zinhor.

O‘tmish buzrukleri, iltimos shundoq!  
Cheksiz tanholikda sizning xushovoz  
Menga yetib kelar, eshitilar soz;  
U haydar tanballik uyqusini tez,  
Menda tug‘diradi mehnatga g‘ayrat,

Va sizning ijodiy xayollaringiz  
Qalb chuqurligida yetilar qat-qat.  
Ko'ngil xira mudhish fikrdan lekin:  
Yashnagan maysazor va tog'lar aro  
Insoniyat do'sti payqaydi g'amgin –  
Har yonda jaholat keltirgan jafo.  
Ko'rmayin ko'z yoshni, eshitmay faryod,  
Odamlar boshiga tushgan ko'rgilik,  
Vahshiy xo'jayinlik bunda – qonun yot,  
Tuyg'usiz o'ziga zo'rlik bilan mulk.  
Mehnat va dehqonni tortqilab olgan,  
Qamchiga bo'ysunib, bosh solib quyi,  
Xo'jayin yerida bir umr bo'yi  
Och qullar eng og'ir azobda qolgan.  
Bunda to o'lguncha bo'yinturuq bor,  
Gurkiramas qalbda orzu va istak,  
Bunda badkor yovuz nafsi-chun dildor,  
Sohibjamol qizlar yashnaydi guldak,  
Keksaygan otalar – orqa-pushtlari,  
Navqiron o'g'illar, mehnat do'stlari,  
Jonajon kulbadan borar olomon  
Jafokash qullarning orttirib safin:  
O, mening ovozim qalbga hayajon  
Sololsa koshkiydi! Bilmayman nafin  
Ko'ksimda yongan o't – alanganing bu,  
Taqdir meni notiq yaratmagan-ku?  
Shoh amri-la, do'stlar, xor-u zor, tutqun  
Xalqni ko'ramanmi ozod va bardam,  
Vatanim ustida balqirmi bir kun  
Ma'rifatli erkning tongotari ham?

1819

Ramz Bobojon tarjimasি

## RUSALKA

Ko'l ustida emanzor ichra  
Panoh topgan rohib qay bir vaqt,  
Ibodatdan bo'shamas sira,  
Yemas-ichmas, chekardi zahmat.  
Mana olib belkurakni chol,  
O'zi uchun go'r kovlab qoldi,  
Va o'limni o'ylarkan, darhol –  
Yodga ezgu nomlarni oldi.

Keksa rohib yoz sanasida  
Xudovandga ibodat etdi –  
G'arib kulba ostonasida  
Emanzorlar unniqib ketdi;  
Ko'l ustida burqidi tuman,  
Osmon bo'ylab asta oy suzar  
Oqbulutlar aro. Daf'atan –  
Rohib suvgaga tashladi nazar.

Tikildi-yu, qo'rqib ketdi u;  
Ne gap, o'zi anglay olmas hech...  
Bir qarasa, ko'pirardi suv,  
Bir qarasa, yana birdan tinch.  
Birdan... Tungi soyadek yengil,  
Cho'qqidagi qor kabi oppoq  
Juvon chiqdi, yalang'och sohil –  
Yoqasida o'ltirdi shundoq,

Rohibga u tashlaydi nazar  
Va jiqqa ho'l sochin taraydi.  
Keksa rohib qo'rqib qaltirar  
Va go'zalga to'ymay qaraydi.  
Uni juvon o'zga chorlab tek,  
Bosh silkitib qildi-yu imo,  
G'oyib bo'ldi uchgan yulduzdek,  
Mudroq bosgan to'lqinlar aro.

Tuni bo‘yi uxlolmadi chol,  
Ibodatga turmadı kunduz:  
Ko‘z oldini bosib o‘y-xayol,  
Qiz soyasi namoyon hanuz.  
Yana qora kiydi emanzor,  
Oy suzadi bulutlar aro,  
Suv bo‘yida juvon beozor  
O‘ltiradi rangsiz va zebo.

Nazar tashlar, boshini chayqar,  
Olislardan o‘par hazilkash,  
To‘lqin bilan o‘ynar va qalqar,  
Kular, yig‘lar bolaga o‘xhash,  
Va rohibni chorlar, urar oh...  
«Rohib, rohib! Kelgil men tomon!..»  
Shaffof mavjga cho‘kadi nogoh;  
Sukunatga to‘lar yer-osmon.

Uchinchi kun oshiq beqaror  
Kelib dilbar sohilga yaqin,  
Parivashni kutdi u takror,  
Emanzorga tushguncha salqin...  
Tun zulmatin quvdi tong, biroq –  
Rohibni hech topmadilar, rost,  
Faqat suvda bolalar oppoq  
Bir soqolni ko‘rdilar, xolos.

1819  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

## TIKLANISH

Vahshiy rassom mudroq beizm,  
Geniy suratini buzadi  
Va u surat ustiga o'zin  
Beburd suratini chizadi.

Lekin, u yot bo'yoqlar bir-bir  
Ko'chib tushar yil sayin, ayon;  
Va geniy ijodi bequsur  
Avvalgidek bo'lur namoyon.

Ana shunday ketar ezilgan –  
Yuragimdan soxta tugunlar,  
Va shubhasiz, tiklanur o'tgan –  
Ilk va toza-musaffo kunlar.

1819  
*Turob To'la tarjiması*



\* \* \*

Men sizga achinmayman, vafosiz sevgilarda  
Behuda oqib o'tgan bahorimning yillari!

Men sizga achinmayman u otashin naylarda  
Ehtiros-la kuylangan, ey tunlarning sirlari!

Men sizga achinmayman, bevafo do'st, jo'ralar,  
Bazmlarning tojlari, davrada aylangan jom.

Men sizga achinmayman, xiyonatkor go'zallar,  
Meni xayol band etgan, xursandchilik qilmas rom.

Qayda, qayda qoldingiz, yoshlikdagi orzular,  
Va qalbning sokitligi erkalatgan kezlari!  
Qani avvalgi otash, ilhom baxsh etgan zavqlar,  
Keling, keling, mushtoqman, bahorimning yillari.

1820

*Zulfiya tarjimasি*



## QORA SHOL

Qora sholga majnunona boqaman,  
So'niq dilni g'am o'tida yoqaman.

Go'l yigitlik chog'i – ishqda kuygandim,  
Yosh va suluv grek qizin suygandim.

Sohibjamol erkalardi har zamon,  
Keldi biroq qora kunim beomon.

Bir kun dilkash mehmonlarim bor edi,  
Eshigimni qoqdi jirkanch yahudiy:

– «Ziyofatda, (dedi pichirlab) baring,  
Vafosizlik qildi senga dilbaring».

Qo'liga men oltin berdim, qarg'adim,  
So'ngra sodiq qulimni tez chorladim.

Birga chiqdik: otda uchdim men jadal,  
Rahmdillik yo'qdi aslo shu mahal.

Grek qizin bo'sag'asin ko'rgan choq  
Ko'zim tindi, mador ketdi, toqat toq.

Yiroq xilvat uyga kirdim men tanho,  
Arman o'par, quchog'ida bevafo.

Qora bosdi: sado berdi xanjarim...  
Bo'sa bitmay u yovuz ham o'ldi jim.

Boshsiz tanni tepkiladim bearmon,  
Rangim o'chib, lol boqardim qiz tomon.

Hali esda – yolvorishlar... oqqan qon...  
O'ldi qiz ham, bitdi sevgi o'rtab jon!

O'lik boshdan qora sholni tortdim men,  
Qonli tig'ni o'shangajim artdim men.

Qulim, zulmat yoyganda tun dunyoga,  
Murdalarni otdi jo'shqin daryoga.

Shundan beri o'pmadim ko'z unday sho'x,  
Shundan beri xursand o'tgan kecham yo'q.

Qora sholga majnunona boqaman,  
So'niq dilni g'am o'tida yoqaman.

1820

*Mirtemir tarjiması*



## NAPOLEON

Kelib yetdi ko'rgilik oni;  
Buyuk inson ko'zini yumdi.  
Napoleonning mudhish davroni  
Erksizlikda zulmatga cho'mdi.  
Shon tantig'i, mahkum hukmron  
Bu jahondan yuztuban ketdi.  
Va u quvg'in nasli navqiron –  
Yangi avlod ulg'ayib yetdi.

Sening qonli xotirangni, o!  
Jahon saqlar ko'p, benihoya.  
Hech kimsasiz to'lqinlar aro  
Shon-shuhrating tashlamish soya.  
Mana sening ajoyib qabring!  
Unda sening jasadning yotar,  
Unda xalqning g'azabi-qahri  
Va mangulik shu'lasi yonar.

Dong'i o'chgan yurt osmonida  
Burgutlaring uchdi, ko'pdanmi?  
Mash'um kuchlar zo'r to'fonida  
Shohliklar yer quchdi, ko'pdanmi?  
Tinglab o'jar iroda amrin  
Shumlik bilan yeldi bayroqlar.  
Sen hokimlik bo'yinturug'in  
Avlodlarga solding u choqlar.

Umid nuri yorishgan olam  
Tutqunlikdan uyg'ongan zamon,  
Gallning qahri toshib o'sha dam  
Chirik taxtni etarkan yakson:  
Isyonkor keng maydonda o'lik  
Shoh jasadi yerda yotgan dam,  
Balqib chiqdi muqarrar, buyuk  
Erkinlikning yorqin kuni ham,–  
Xalq bo'roni to'lqini ko'mib,

Ko‘rib go‘zal qismatingni bot,  
Ezgu umid ko‘yiga cho‘mib,  
Odamsodga keltirding isnod.  
Inqirozga yuzin tutgan baxt –  
Toleingga ishonch bog‘lading,  
Maftun bo‘lding, ixlos qaytgan taxt –  
Saltanatga o‘zni chog‘lading.

Yangi bir xalq kasb etgan yoshlik  
G‘ururini jilovlading san,  
Yangigina bunyod bo‘lgan erk  
Kuchsiz, tilsiz qoldi daf’atan.  
Qullar ichra hokimlik nafsing  
Qondirding-da, o‘zni mast etding,  
Jangga boshlab, qullar kishanin  
Gulchambarlar bilan berkitding.

Fransiya shon qozondi-yu,  
Istiqbolin unutdi nogoh.  
Dabdabali isnodiga u  
Maftun bo‘lib tashladi nigoh,  
Bosib kirding ziyofat to‘kin –  
Bir makonga qilich-la, g‘addor.  
Halok bo‘ldi. Yevropa shu kun  
Va huvillab qoldi, bir mozor.

Yevropaning ko‘ksiga qadam  
Qo‘yib, chiqdi devkorning changi.  
Tilzit!.. (bu so‘z dahshat solsa ham,  
Endi rusning o‘chmaydi rangi.)  
Tilzit kibrli qahramonni, o! –  
So‘nggi marta shonga etdi yor,  
Lekin befayz, benavo dunyo  
Baxtli qalbni qildi beqaror.

Battol! Seni ko‘targanlar kim?  
Kim ajoyib aqlingni oldi?  
Kibrlanib, qanday qilib sen –

Rus qalbini payqamay qolding?  
Bilolmading ulug‘ yong‘ inni,  
O‘yladingki, sulhga biz mushtoq,  
Tortiq kabi kutamiz uni,  
Kech anglading ruslarni biroq...

O Rossiya, jangovar vatan,  
Kadim haqqing bilan tikla qad.  
Austerlits quyoshi, so‘n san,  
Porla ulug‘ Moskva abad!  
Yetib keldi, o‘zga payt, mana:  
Yo‘qol, bizning o‘tkinchi isnod!  
Moskvani olqa, Rossiya!  
Bo‘lsin deymiz urushni barbod!

Temir tojin changallab shu dam,  
Qaltiragan qo‘li bilan u  
Ko‘z oldida ko‘rar jahannam,  
Halok bo‘lar nihoyat mangu!  
Yevropaning lashkari yakson!  
Oppoq qorning qon bosgan yuzi  
Ular taslim bo‘lgandan nishon,  
Qorlar erib, o‘char yov izi.

Borliq dahshat soldi bo‘rondek,  
Tutqunlikdan Yevropa ozod,  
Chaqmoq kabi o‘zin otdi tik –  
Zolim sari xo‘rlangan avlod.  
G‘olib xalqning Nemezidasin –  
Baland qo‘lin ko‘rdi Bonapart.  
Zolim! Jabr-u zulmning qasosin –  
Oldi sendan maydon ichra mard.

U ko‘rsatgan harbiy mo‘jiza –  
Balolari yuvilib ketdi,  
Ularni yot osmon tagida  
Quvg‘indi qalb ohi berkitdi.  
Jazirama surgun oroli,

Unga kelar saharlab yelkan,  
Sulh so‘zini yo‘lovchi xoli –  
Biror toshga asta chizarkan, –

Quvg‘in, mavjga tikib ko‘zini,  
Eslardi u qilichlar sasin,  
G‘oyat dahshat sahar kezini,  
Fransiya arzi-samosin.  
Hech kimsasiz makonda goho,  
Unutib u taxt, urush, avlod,  
Faqat o‘g‘lin o‘ylardi tanho,  
Chekib achchiq alam va faryod.

Kim bema’ni ta’nalar bilan  
G‘arib ruhni etsa bezovta.  
Sharmandaschi qiqib daf’atan,  
Yuzi qaro bo‘lur, albatta.  
Ofarinlar! Rus xalqiga u  
Ayon etdi oliv bir qismat  
Va surgundan jahonga mangu  
Erkinlikni qildi vasiyat.

1821  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

\* \* \*

Sadoqatli grek qizi, yig‘lama, yoring  
Dushman o‘qi ko‘ksin teshib, shon bilan o‘lgan.  
Sen emasmi, kuzatarkan o‘z bahodiring,  
Qonli shuhrat janglariga yo‘llanma bergan?  
Dil sezarkan ayriliqning og‘ir hijronin,  
So‘ngbor ochdi yoring senga issiq quchog‘in,  
Go‘dagiga baxt tiladi tiyolmay yoshin,  
Lekin qora yalov erk-la hilpirab ketdi.  
Xuddi Aristogitonday qilich o‘ynatib,  
Jingga o‘zin otdi – marding yiqila turib  
Juda buyuk va muqaddas ish qilib ketdi.

1821

*Zulfiya tarjiması*



## Y.N. TOLSTOYGA YOZILGAN XATDAN

Shovqin-suron, bazmlar qadrdoni sen,  
Charog‘imiz, yonib parpiraysanmi?  
Askiyabozlarning qo‘lida, zarrin –  
Qadah, ko‘pik sochib yaltiraysanmi?

Kiprida, she’riyat oshnolari siz.  
Xushchaqchaq jo‘ralar, bormisiz hamon?  
Muhabbat va sarxush soatlari tez  
Uchishib keldimi eskicha ravon –  
Erkinlik, tanballik undab qolgan kez?  
Quvg‘inda sog‘inib, har soat, har on,  
Armonlar o‘tida o‘zni yoqaman,  
Sizni eslayman-u, qanot qoqaman,  
Tasavvur etaman, ko‘raman ayon:  
Mana, u qadrdon mehmondo‘st xona,  
Hur ilhom parisi, sevgiga makon,  
Bunda biz qasamyod etib do‘stoni,  
Ular bilan totuv bo‘ldik har qachon.

Bunda biz do‘stlikni angladik iqbol.  
Bunda davra qurib stolni qurshab  
Tengdoshlar o‘ltirar edik bemalol;  
Bunda o‘jarliklar o‘z ishin boshlab,  
Sho‘xlik qo‘schiqlari, shisha va suhbat,  
Gap-so‘zning beliga tepib turardi.  
Bahslarimiz hazil, sharob, harorat –  
Vajidan o‘t olib, naq gurkirardi.

Vafodor shoirlar, maftun etuvchi  
Sizning tilingizga solaman qulqoq...  
Kometa mayidan menga quying-chi,  
Sihat-salomatlik tila, ey qalmoq!

1822  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

\* \* \*

Shunday edi, shunday bo‘lar hali ham,  
Bu qadimdan qolgan ibrat, yo‘l-yo‘riq.  
Bilimdon ko‘p, lekin oqil, dono kam,  
Tanish-bilish sanoqsizdir, do‘st-chi, yo‘q!

1822

*Shuhrat tarjiması*



## HAYOT ARAVASI

Ba'zida yuk og'ir bo'lsa ham  
Uchib ketar arava qushday;  
Epchil yamshik qish fasli shaxdam  
Haydar borar ustidan tushmay.

Ertalabdan aravada biz,  
Erinchaklik, rohatdan bezib,  
Bosh yorguday yeldiramiz tez,  
Qichqiramiz: chu!

Kun yarmida qolmas bu shiddat;  
Toliqamiz, qo'rqinch ko'rinar –  
Qiya tog'lar, jarliklar g'oyat;  
Qichqiramiz: sekinroq, xumpar!

Avvalgicha olib borar u,  
Ko'nikamiz oqshomga yaqin,  
Yotoqqacha bosadi uyqu,  
Otlarni vaqt quvlaydi lokin.

1823  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

## BOG‘CHASAROY FONTANIGA

Ishq fontani, ey o‘lmas fontan,  
Senga ikki qizil gul sovg‘am!  
Shildirashing yoqimli chunon,  
Shoirona ko‘zyoshlarine ham.

Sachrar menga kumush to‘zoning,  
Esar salqin shabnam nafasi,  
Timmayin oq, yupanch chashmasi!  
Shildir-shildir so‘yla dostoning...

Ishq fontani, qayg‘uli fontan,  
Marmaringdan ayladim so‘roq,  
Men eshitdim yiroq elga shon;  
Mariyadan aytmading biroq...

Unut bo‘lding nahotki mangu –  
Sen, ey so‘lg‘in haram yulduzi?  
Yo Mariya, Zarema bonu –  
Nahot shirin xayolning o‘zi?

Yoki bari shirin bir uyqu,  
Bu qorong‘i xilvatda xayol,  
Yo bir damlik timsolmidi u,  
Yo qalbdagi majhul ideal?

1824  
*Mirtemir tarjiması*

## KUYDIRILGAN MAKTUB

Alvido, ey ishq maktubi! Amr etdi dildor.  
Ko'zim qiyjadi-yu, qo'lim bormadi zinhor  
Quvonchimni tashlash uchun o'tga ko'p zamон...  
Vaqt-soati yetib keldi: ishq maktubi, yon!  
Shaylanganman: ta'sir etmas hech narsa menga  
Varaqlaring yemirmoqda ochko'z alanga...  
Bir nafasda!.. Lovullaydi... to'zg'igan tutun.  
Ko'tarilib, oh-zorim-la yo'qolur butun.  
Vafodordan judo bo'lgandagi taassurot,  
O'tga tushgan surg'uch qaynab biqillar..., hayhot!  
Shunday bo'ldi! Varaqlandi qora sahifa,  
Yengil kulda maktubdagi ezgu qiyofa –  
Oqaradi... yurak qisar. Ey mo'tabar kul.  
G'am-g'ussali taqdirimning sevinchi butkul  
Qayg'uli shu ko'ksimda qol men bilan mangu...

1823

*Ramz Bobojon tarjimasi*



Yo‘q, yo‘q, muhabbatning jo‘shqin ra‘yiga  
Endi men bo‘lmasman telbalarcha qul.  
Ozor ham bermayman dil oromiga,  
Yonish, o‘rtanishga hech qo‘ymayman yo‘l;  
Bas endi, shaydolik yetar! Va ammo,  
Ne uchun xayolga tolmayin bir zum,  
Nogahon samoviy, nozli, musaffo  
Qiz ko‘zim oldidan o‘tarkan ma’sum?..  
Tomosha qilmoqqa totli shavq bilan  
Nahotki, qolmadi zarra ijozat?  
Sukutda kuzatmoq nigor izidan,  
Tilamoq mumkinmas baxt-u saodat?  
Nahot, tilab bo‘lmas hayot ne’matin;  
Unga halovat-u orom va shodlik?  
Hattoki, barnoning qalbiga yaqin  
Rafiqqa atovchi kimsaga tole?

1832  
*Zulfiya tarjiması*



## KUYOV

Uch kun bo'ldi – savdogar qizi  
Natashadan yo'q edi darak,  
Uchinchi kun hovliga o'zi  
Aql-hushsiz keldi jonsarak.  
Ota-oná yondashib shu choq,  
Natashani qilishdi so'roq.  
Ular so'zin eshitmaydi qiz,  
Qaltiraydi, entikar holsiz.

Ota-oná juda kuydilar,  
Surishtirib ko'rishdi uzoq.  
Keyinchalik so'rmay qo'ydilar,  
Sirni esa bilishmas biroq.  
Avvalgidek Natasha tag'in  
Shod ko'rinar, yuzlari gulgum,  
Opa-singil bilan chiqdi-ku  
Bo'sag'ada o'ltirgani u.

Darvozaning yonida yana  
Dugonalar bilan go'zal qiz  
O'ltirardi, to'satdan mana  
Ko'z oldidan uchib o'tdi tez  
Bir troyka abjir va ko'rksam;  
Otlarining yopig'i gilam,  
Chana ichra tik turib o'g'lon,  
Savab haydar o'zi o'sha on.  
U tikildi kelib ro'baru,  
Natasha ham tashladi nigoh.  
Yelday uchib o'tar ekan u,  
Hushdan ketdi Natasha nogoh.  
Uyga chopib boradi shosha,  
«O'sha! – dedi, – tanidim, o'sha!  
Xuddi o'sha! O'shaligi rost!  
Tuting, do'stlar, eting tez xalos!»  
Oilasi chekib tashvish, g'am,  
Quloq solar bosh chayqab takror,  
Ota unga deydi: «Jonginam,

Sir-asrorni menga et oshkor,  
Aytgil, seni kim xafa qildi.  
Faqatgina ko‘rsatsang bo‘ldi».  
Biror so‘z ham aytmay jimgina,  
Yum-yum yig‘lar Natasha yana.

Hovlisiga erta tongotar  
Sovchi xotin keldi nogahon.  
Natashani avval u maqtar,  
Otasi-la so‘zlashar chunon:  
«Mol sizniki, biz-chi, xaridor,  
Yigitimiz har narsada bor;  
Ham xushbichim, ham chaqqon, yovqur,  
Or-nomusli, har ishga qodir.

Boy, aqli va sohibkamol,  
Ta’zim qilmas hech kimsaga ham.  
Boyarindek o‘zi bamisol,  
Tashvish bilmay yashar xotirjam.  
Kelinchakka qilmoqchi sovg‘a:  
Pochapo‘stin, marvarid, tilla –  
Uzuklardan ko‘ngildagidak,  
Ham kimxob-u zarbofdan ko‘ylak.

Kuni kecha sayr qilib yursa,  
Darvozada duch kelibdi qiz;  
Cherkov borib, nikoh o‘qilsa,  
Juda yaxshi bo‘lardi shu kez?»  
Sovchi pirog yeb o‘ltirarkan,  
Gapirardi kinoya bilan,  
Bechora qiz, sho‘rlik kelinchak,

O‘zni qo‘yar joy topmas andak.  
«Roziman,— der ota banogoh,—  
Qani, ishlar bo‘lsin baxayr.  
Natashaga o‘qilsin nikoh,  
Uyda yolg‘iz o‘zi ham dilgir.  
Qiz qizlikcha o‘tmas umrbod,  
Faqat kuylab kechirmas hayot,

Payti, axir, qurgali oshyon,  
Go‘daklarga bir orom makon».  
Qiz devorga yopishib taqir,  
Allanima aytmoqchi bo‘lar;  
Birdan ho‘ngrar, qaltirar dir-dir,  
Ham yig‘laydi, ham birdan kular.  
Sovchi gangib, tez yugurdi-yu,  
Va ichirdi unga muzdek suv,  
Kosadagi qolganin darhol  
Qiz boshidan quydi bemalol.

Oila oh urar, parvona,  
Es-hushiga keldi Natasha,  
Der: «So‘zingiz ezgu, durdona,  
Izmingizda bo‘lay hamisha,  
Ziyofatga chorlang kuyovni,  
Non yopish-chun qalang olovni.  
Qaynatingiz ta’rifi yo‘q may,  
Taklif eting sudni ham atay».

«Ey farishtam, ruxsat et, ruxsat!  
Men jonimni berishga tayyor –  
Xursand bo‘lsang!» Katta ziyofat.  
Noz-ne’matlar pishmoqda bisyor.  
Mehmonlar ham kelib qolishdi,  
Qizni stol tomon olishdi.  
Kuylar-yig‘lar yor-dugonalar,

Mana uchib borar chanalar.  
Mana kuyov – hamma jamuljam.  
Stakanlar jaranglar payvast.  
Oq urilar sog‘lik uchun ham,  
Shovqin-suron va mehmonlar mast.

### K u y o v

«Ey muhtaram do‘st-u yor, nechun,  
Yemas-ichmas go‘zal qaylig‘im,  
Mehmonlarni kutmaydi mamnun,  
Qayg‘uradi, o‘ltiradi jim?»

Kelin berar kuyovga javob:  
«Vaqti keldi – etayin ayon,  
Mening ko‘nglim beorom, xarob,  
Kecha-kunduz ko‘zyoshim marjon.  
Yomon bir tush etadi noxush».  
Ota unga deydi: «Qanday tush?  
Ne gap o‘zi. Bizga qil bayon.  
Jigarbag‘rim, aziz mehribon?»  
«Bir tush ko‘rdim, – deb so‘zlaydi u, –  
Yurganmishman xilvat o‘rmonda,  
Qora bulut ostidan yog‘du  
Socharmish oy xira osmonda,  
Yo‘l adashdim: ichkari tomon –  
Borgan bilan ko‘rinmas inson,  
Faqat archa, qarag‘ay – shular  
Tepalarda tinmay shovullar.  
Birdaniga, tush emas go‘yo –  
Ko‘z oldimda bir uy namoyon.  
Taqillatdim, chiqmaydi sado,  
Javob bermas chaqirsam bir jon.  
Duo o‘qib eshikni shu dam –  
Ochib kirdim, uyda yonar sham.  
Boqsam: haryon kumush bilan zar,  
Muhtasham va yonib yarqirar».

### K u y o v

«Ayt, tushingning nimasi yomon?  
Yasharkansan, demak, badavlat».

### K e l i n

«To‘xta, to‘ram, bo‘lmadi tamom,  
Oltin, kumush, movutlar qat-qat,  
Hisobi yo‘q kimxbob va gilam,  
Novgorod matosiga ham  
Havas bilan jim nazar soldim,  
Ajablandim, hayratda qoldim.

Tuyoq sasin shu choq eshitdim,  
Kelishdilar zinaga tomon.  
Men eshikni tczda berkitdim,  
Va bo‘ldim pech ortiga nihon...

Mana, tovush yangrar ketma-ket...  
Kirib keldi o'n ikki yigit.  
Ular bilan bir parivash qiz,  
Sohibjamol, chiroyda tengsiz.

Sajda etmay, payqamay butni  
Olomondek kirib kelishdi.  
O'ltirarkan stolga bo'rknii –  
Na oldi, na duo qilishdi.  
Og'a to'rga o'tib o'ltirdi,  
O'ng ko'lida inisin turdi.  
Chap yonida u parivash qiz.  
Sohibjamol, chiroyda tengsiz.  
Qo'shiq, kulgi, shovqin va suron,  
Aysh-ishratning kayfi shu qadar...»

### K u y o v

Ayt, tushingning nimasi yomon?  
Xursandlikdan beradi xabar».

### K e l i n

«To'xta, to'ram, bo'lmadi tamom,  
Kayf-u safo etmoqda davom,  
Qizimoqda bazm-u ziyofat,  
O'rtanmoqda parivash faqat.  
Yemay-ichmay o'ltirar sokin,  
Ko'zidan yosh oqadi yum-yum.  
Og'a esa olib pichog'in.  
Shir-shir charxlar damini bir zum,  
Go'zal qizga tashlaydi nigoh,  
O'rim sochin ushlaydi nogoh;  
O'sha onda qiz halok topdi,  
Yovuz uning o'ng qo'lin chopdi».

«Bu-chi, – dedi kuyov o'sha choq, –  
Bo'lmagan gap, chindan afsona!  
Ko'rgan tushing yomonmas, biroq,  
Xafa bo'lma, ishon, jonona!»  
Yuzlariga qiz qaradi tik.  
«Qaysi qo'ldan mana bu uzuk?» –

Shunday dedi birdan kelinchak,  
Hamma joyidan qo‘zg‘aldi birdak.  
Jiring etib uzuk g‘ildirar,  
Quti o‘chib, qaltirar kuyov,  
Mehmonlar taajjub qildilar.  
Sud buyurar: «Yovuzni darrov  
Tuting, bog‘lang! Fosh bo‘ldi xunrez,  
Kishanlandi, jazolandi tez.  
Natashaning dovrug‘i ketdi,  
Qo‘shig‘imiz shu yerda bitdi.

1825  
*Ramz Bobojon tarjimasi*



## 19-OKTABR<sup>1</sup>

Arg‘uvon libosin tashlaydi o‘rmon,  
Qurigan dalada sovuqdan nuqra,  
Tog‘larning ortiga berkinar xira  
Quyosh beixtiyor bir boqqansimon.  
Alangalan, kamin<sup>2</sup>, bo‘m-bo‘sh kulbamda,  
Sharob, sen sovuq kuz do‘sti, hamrohi,  
Quy ko‘ksimga shodlik kayfini hamda  
G‘ussanining bir nafas unutilgan ohin.

G‘amginman! Men bilan emas do‘st-yoron,  
Hijron alamida ichardik uzoq,  
Chin qalbdan, qo‘l siqib, ochardim quchoq,  
Ko‘p yillar tilardim sevinch bearmon,  
Bir o‘zim ichaman, sokin tasavvur –  
Do‘stlarni atrofdan chorlar dirlab,  
Azizin kutmas qalb, tepmas u masrur,  
Yaqindan eshitilmas tanish bir nido.

Bir o‘zim ichaman, do‘stlarim bugun  
Meni eslar Neva bo‘ylarida ham...  
Sizdan ko‘philikmi u bazmda jam?  
Kimni yo‘qotdingiz sanoqdan tag‘in?  
Kim dilxush odatni tark etmishe darhol?  
Manguga ko‘z yumdi orangizdan kim?  
Do‘stlarcha yo‘qlovda kimning tili lol?

Kimlar ko‘rinmaydi? Kimsiz bu bazm?  
Kuychimiz kelmadi – sochi jingalak<sup>3</sup>,  
Ko‘zlarin chaqnatib, gitarni olib;  
Go‘zal Italiyada uyquga tolib –  
Mirt tagida yotar; o‘z tilda andak, –  
Rus qabri ustiga biror do‘st-u yor

<sup>1</sup> Bu she‘r Litseyning har yilgi bayramiga bag‘ishlanadi.

<sup>2</sup> Kamin – oldi ochiq pech.

<sup>3</sup> Kuychimiz kelmadi – sochi jingalak – Pushkinning litseydag‘i o‘rtog‘i N.A. Korsakov (1800–1820), havaskor kompozitor, yigirma yoshida sil kasalidan Italiyada o‘lgan.

Na chizdi so‘zlarning lavhayi bandin,  
Mungli salomimga bir vaqt sazovor –  
Bo‘lsin deb, g‘urbatda shimol farzandi.

Do‘stlar doirasida bormisan hamon,  
Sen, yot osmonlarga oshiq-beqaror<sup>1</sup>.  
Yoki jazirama elda sen takror,  
Yo muz dengizi-la suzasan ravon?  
Oq yo‘l senga... Litsey bag‘ridan tezda  
Kemaga hatlading o‘ynashgansimon,  
Shundan beri sening yo‘ling dengizda,  
O, to‘lqin, bo‘ronlar o‘g‘li, jonajon!

Adashgan taqdirda saqlading mangu  
Eng yaxshi yillarning ilk xulq-atvorin;  
Kuchli tulqin aro eslaysan barin:  
Litsey shovqinlari, ermak va kulgi.  
Dengizlar ortidan bizga cho‘zding qo‘l,  
Bizni olib yurding qalbingda faqat,  
Deding: «Balki, uzoq hijronga bir yo‘l  
Bizni hukm etgan sirli shu qismat!»

Do‘stlar, bizning guruh naqadar ko‘rkam!  
U yurak singari ajralmas abad.  
Og‘ishmas, erkin va beparvo, behad –  
Do‘stlik ilhomli-bo‘lgan mustahkam.  
Bizni tashlamasin qaylarga taqdir,  
Qayga boshlamasin iqbol charog‘i,  
Jahon bizga yotdir, hamon baribir,  
Bizning vatanimiz Podsho Qishlog‘i.

Elma-el yurdim men quvgandek yashin.  
Shafqatsiz taqdirming izmida qolib,  
Yangi do‘stlarimning ko‘ksiga tolib,  
Horg‘in, erkalanib qo‘ydim men boshim...  
G‘amgin va isyonkor yolvorib harchand

<sup>1</sup> Yot osmonlarga oshiq-beqaror – F.F. Matyushin (1799–1872) litseyni tamomlagandan so‘ng flotda xizmat qiladi.

Ilk yillarning sodda armoni bilan  
Men ba'zi do'stlarga boqdim ixlosmand.  
Lek yovuz salomi ko'p achchiq ekan.  
Bunda, unutilgan xilvatda, hozir  
Sovuq va bo'ronli dashtda naqadar  
Menga xushchaqchaqlik bo'lди tuyassar:  
Sizdan uch kishini, do'stlar, birma-bir  
Bag'rimga bosdim men. O, do'stim Pushchin<sup>1</sup>,  
Badarg'a kulbaga sen kelding ilk bor,  
G'amgin quvg'in kunni sen etding shirin,  
Sen litsey kunlarin keltirding takror.

Gorchakov<sup>2</sup>, baxtlisan ilk kundan buyon,  
Maqtovlar – tasodif dabdabalari  
O'zgartmadi erkin qalbingni bari:  
Sen sha'n-u do'stlarga birdaysan hamon.  
Turli yo'l ko'rsatdi beomon qismat.  
Ajrashdik hayotga qo'yganda qadam:  
Lekin so'qmoq yo'lda kutmagan fursat  
Uchrashdik, qondoshdek quchoqlashdik ham.  
Taqdir g'azabiga bo'lganda duchor,  
Yetimdek darbadar, barchaga men yot.  
Bo'ronlardan boshim xam bo'lib, hayhot!,  
Ilhom jarchisiga ko'z tutdim bedor.  
Sen kelding ilhomning erinchak o'g'li,  
O, mening Delvigim<sup>3</sup> qalb haroratin  
Uzoq uyqusidan uyg'otding, balli,  
Tashakkurga ko'mdim butun qismatim.  
Yoshlikdan qo'shiq-la yondik yashirin,  
Ajib hayajonga berildik tezda.  
Shunda ikki muza kelardi bizga,  
Erkalab taqdirni etardi shirin:  
Men olqish-qarsaklar zavqini sevdim,  
Sen, mag'rur, kuylading ilhom, qalb uchun:  
Umrimdan behuda ketdi san'atim,

<sup>1</sup> I.I. Pushchin (1798–1859) – Pushkinning litseydagи eng yaqin o'rtoqlaridan biri, dekabrist.

<sup>2</sup> Knyaz A.N. Gorchakov (1798–1883) – Pushkinning litseydagи o'rtog'i.

<sup>3</sup> A.A. Delvig (1798–1883) – shoir.

Dahongni parvarish etding sen sokin.  
Mayda mashmashani yoqtirmas ilhom;  
Go'zallik bo'lishi kerak ulug'vor,  
Yoshlik o'gitlari, ammo ko'p makkor,  
Hovliqma orzular etadi xurram...  
Bir kun o'zimizga kelarmiz, biroq –  
Kechdir. Ortda iz yo'q qarasak shu payt.  
Vilgelm<sup>1</sup>, hamqismat va kuychi o'rtoq,  
Biz ham ana shunday bo'lmadikmi, ayt?  
Paytidir! Arzimas butun bir jahon  
Biz chekkan azobga; tark bo'lsin xato!

Soyaga yashirinib yashaylik tanho!  
Kechikkan do'st, senga ko'zim nigoron,  
Kel, sehrli hikoyang otashi bilan  
Chin ko'ngil naqlini jonlantir shu choq;  
So'zlashaylik Shiller, sharaf va ishqidan,  
Kavkaz kunlarini eslaylik uzoq.

Menga ham paytidir... do'star, bazm eting!  
Xursand uchrashuvni sezyapman, rosti.  
Shoir bashoratin unutmang asti:  
Yil o'tar, siz bilan bo'larman tag'in.  
Orzu-armonlarim topadi qaror;  
Yil o'tar, siz bilan bo'larman tag'in,  
O, qancha hayqiriq, ko'z yosh shashqator.  
Qadahlar ko'klarga ko'tarilar shod!

Ilk qadah, lim to'lsin, oshnalarim, hey!  
Do'star sharafiga oq urilsin, oq!  
Sen ilhom parisi, dimog'lari chog',  
Baxt-saodat tila: yashasin litsey!  
Yoshligimiz do'sti, pushtipanohi,  
Tirikmi, o'likmi – barisi uchun  
Alamni unutib, olsak qadahni  
Yaxshilik, farog'at yangrar bus-butun.

---

<sup>1</sup> Vilgelm – V.K. Kyuxelbeker (1799–1846) – Pushkinning litseydag'i o'rtoq'i, shoir, dekabrist.

Lim-lim to‘ldirilsin! Shavqlansin ko‘ngil,  
Yana tomchi qo‘ymay oq uringiz, oq!  
Bu kim uchun? Do‘sstarim, o‘ylangiz biroq...  
Ura, shohimizga! Shunday! Ichamiz bir yo‘l.  
U inson! Hokimdir unga bir nafas,  
U shubha, ehtiros, mish-mishlarga qul,  
Nohaq quvg‘in uchun afv etaylik bas,  
Parijni zabit etdi, litsey qurdi ul.

Ichingiz, jo‘ralar, hamon bunda biz!  
Davramiz soatlab nuraydi, evoh!  
Birov tobutdadir, birov yetim, oh!  
Taqdir shu, so‘lamiz, kunlar o‘tar tez;  
Bukchayib, harorat yo‘qolib sekin,  
Yaqinlashmoqdadir hayot qirg‘og‘i...  
Bayram etar ekan kim litsey kunin  
O‘zi yolg‘iz qolib keksaygan chog‘i!

Baxtsiz oshno! Yangi avlodlar aro  
Begona, ortiqcha, hasratli mehmon,  
Qo‘llari qaltirab ko‘z yumib chunon,  
Bizni, bukunlarni eslar benavo...  
U qadah ko‘tarib, mayli, bukuni  
Rohatda o‘tkazsin mungli bo‘lsa ham,  
Xuddi men quvg‘indi, bir tutqun uni  
O‘tkazganim kabi betashvish, beg‘am.

1825  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

## QISH OQSHOMI

Bo‘ron, zulmat osmonni tatar,  
Qor-quyunni qiladi o‘yin,  
Dam hayvonday bo‘kirib o‘tar,  
Dam go‘dakday yig‘lar, berar un,  
Eski tomdan poxol tortadi –  
Guvlab, birdan soladi shovqin.  
Darchamizni kelib qoqadi –  
Dam kech qolgan yo‘lchiday yupun.

Ko‘hna kulbam, kichkina uyim  
Ham g‘amgin, ham zulmat qo‘ynida.  
Sen nimaga, bechora buvim<sup>1</sup>,  
Jimjit qolding oynak yonida?  
Charchatdimi bo‘ron uvlashi,  
Zerikdingmi, buvim, yo esa?  
Yo, mudratgan duging tovushi,  
Horidingmi yoki bo‘lmasa?

Kel, ichaylik, mehribonginam,  
Sho‘rlik yoshligimning hamrohi,  
Qadah qani, yondiradi g‘am,  
Kel, ichaylik, ketsin dil ohi.  
Kuyla menga, qushcha tashvishsiz  
Nechuk yashar dengiz ortida?

Kuyla, nechuk sohibjamol qiz  
Suvga kelar sahar paytida?  
Bo‘ron, zulmat ko‘k yuzin tatar,  
Qor-quyunni qiladi o‘yin.  
Dam hayvonday bo‘kirib o‘tar.  
Dam go‘dakday yig‘lab chekar un.  
Kel, ichaylik, mehribonginam,  
Sho‘rlik yoshlik chog‘lar hamrohi,  
Qani, qadah, yondiradi g‘am,  
Kel, ichaylik, ketsin dil ohi.

1825 Mirtemir tarjiması

<sup>1</sup> Buvim – shoirning enagasi – Arina Rodionovna.

## BO'RON

Hayqirgan bo'ronda, zulmat ichida,  
Qirg'oqlar-la o'ynab yotganda dengiz,  
Oppoq libos kiygan, to'lqin ustida  
Qoyatosh uchida ko'rdingmi bir qiz;  
Ko'rdingmi, chaqmoqlar yarqirab turib,  
Hardam yoritganda uni qizg'ishroq,  
Shamol tinmay, o'zin haryonga urib,  
Uning o'rtugi-la ucha ketgan choq!  
Bo'ron zulmatida ko'rksamdir dengiz,  
Ham zangor jilosiz yarqirar osmon;  
Ammo, o'sha qoya ustidagi qiz  
To'lqindan, osmondan ham,  
Dahshatli bo'rondan ham –  
Chiroyli, inon!

1825

*Mirtemir tarjimasi*



## STENKA RAZIN<sup>1</sup> HAQIDA QO'SHIQLAR

### 1

Volga ko'z ilg'amas, oqadi yoyiq,  
Yuzib borar unda tik tumshuq qayiq,  
Qayiqning ichida eshkakchilari –  
Kazak yigitlari – mard, yovqur bari,  
Uchida xo'jayin o'zi o'ltirar,  
Bahodir Stenka Razin o'zi bor.  
Uning qarshisida chiroyli bir qiz.  
Eron malikasi, ko'rkan asir qiz.  
Boqmas malikaga Stenka Razin,  
Ona-Volga tomon qadagan ko'zin:  
«O, sen, bor bo'l, Volga – mehribon ona!  
Go'daklikdan ichdim suv qona-qona,  
Allalab uxlatding uzun tunlarda,  
Qanchalar tebratding sho'x to'lqinlarda,  
Men yigit uchunmi mudramading sen,  
Elimga yaxshilik ayamading sen.  
Senga biz qilmadik hali hech siylov».  
Shunda sakrab turdi Razin – qo'rqinch dov.  
Eron malikasin dast ko'tardi-yu –  
To'lqinlarga otdi. Botdi u suluv,  
Shu bilan bosh egdi ona daryoga.

### 2

Yurdi Razin u zamon –  
Astraxan shahri tomon,  
Yurgizar savdo-sotiq,  
Talab qila boshladi  
Voevoda ko'p tortiq.  
Berdi Razin ayamay  
Shildiragan kimxoblar,  
Parcha gulli ko'p mato,  
Ham yaltiroq zarboflar.

<sup>1</sup> Stenka Razin – Stepan Timofeyevich Razin – XVIII asrdagi dehqonlar qo'zg'olonining boshlig'i.

Voevoda unamas,  
Talab qilar po'stinlar.  
Po'stini qimmatbaho:  
Yap-yangi etaklari,  
Bittasi qunduz yoqa,  
Bittasi nuqul savsar.  
Unga Stenka Razin  
Bermadi po'stinlarin.  
«Ber, Stenka Razin, ber,  
Yaxshilikcha yechaver.  
Bersang, berganing – qulluq;  
Bermasang, naq ko'rasan,  
Haydayman taqir cho'lga.  
Osgayman yashil tolga,  
Osilarsan o'larsan –  
It po'stini kiyarsan».  
Shunda Stenka Razin  
Botdi chuqur xayolga:  
«Xo'p, mayli, Voevoda.  
Ola qol po'stinimni –  
Pasaytir shovqiningni».

### 3

Bu – na ot dupuri, odam g'avg'osi,  
Na ovloq dashtlarda karnay sadosi.  
Bo'kirgan, o'shqirgan – bu havo, dovul,  
Gurkirar to'lqinlar, qoplanar o'ng-so'l.  
U meni, Razinni chorlar qoshiga,  
Chaqirar ko'k dengiz tomoshasiga:  
«Sen, tanti er yigit, abjir yo'lbosar,  
Sen, sarson qaroqchi, kayfi chog' qaysar  
Sen uchqur qayiqqa darrov o'tirgin,  
Yoyib bo'z yelkanni yel tomon burgin,  
Sen jadal yur yashil dengiz oralab,  
Men haydab kelaman uch kichik korabl:  
Birinchi kemada oltin to'ladir.  
Ikkinchida nuqul kumush bo'ladi.  
Uchinchisida jonon bir qiz keladi».

Mirtemir tarjimasi 1826

## PAYG‘AMBAR

Ruhiy tashnalikda horg‘in, sargardon,  
Zulmat sahrosida ko‘p sanqib yurdim.  
Ham olti qanotlik farishta ko‘rdim –  
Ikki yo‘l ustida bo‘ldi namoyon.

Yengil barmoqlari – yengil tush kabi  
Ko‘z-u kiprigimga to‘qinib o‘tdi,  
Bashorat nuri-la charaqlab ketdi –  
Seskanib, ko‘z ochgan burgut qush kabi.  
Quloqlarimga ham tegib o‘tdi u,  
To‘ldi quloqlarga sado va shov-shuv;  
Tuydim men – larzada edi osmon,  
Malaklarning baland uchishin ko‘rdim.  
Dengiz maxluqlari yuzishar chunon,  
Vodiylarda ko‘kat so‘lishin ko‘rdim.

U mening og‘zimga yopishdi shu dam,  
Gunohkor tilimni sug‘urib oldi,  
Kazzob, safsataboz edi tilim ham.  
Jonsiz og‘zim ochib, o‘rnata qoldi –  
Hikmatli ilondon olib zahar til,  
Qonli qo‘li bilan darrov isrofil.  
Qilich-la siynamni etib chok-u chok,  
Titroq yuragimni yulib oldi u,  
Yolqinlangan ko‘mir cho‘g‘ini shu choq  
Siynayi poramga joylay qoldi u.

Dashtda yotar edim murda misoli,  
Vahiy tushdi ko‘kdan – tangri maqoli:  
«Qo‘zg‘al, ey payg‘ambar, menga quloq sol,  
Irodam-la to‘lib haqlik taratgil,  
Dengizda, tuproqda aylan, ayt maqol,  
So‘z aytib insonlar qalbin yoqa bil».

1826  
*Mirtemir tarjiması*

## ENAGAMGA<sup>1</sup>

Og‘ir kunlardagi yagona hamdam,  
Ey mening suyukli, keksa enagam!  
Xilvat qarag‘ayzor go‘shasidasan,  
Ko‘pdan buyon meni yolg‘iz kutasan.  
O‘z uying oynasi yonida hamon –  
Kuyib-o‘rtanasan vaqt o‘tgan sayin.  
Ajin bosgan qo‘llar qimirlar biyron,  
Ohista to‘qiysan sira qo‘ymayin.  
Unutilgan eshik sari qaraysan,  
Yiroq, xilvat yo‘lga tikasan ko‘zing.  
G‘ussa, andishaga dilni o‘raysan.  
Ko‘kragingni ezar, sarg‘ayar yuzing.  
Ko‘zingga ko‘rinar, nogahon...

1826

*Mirtemir tarjimasi*



<sup>1</sup> Bu tugallanmagan she’rni Pushkin o‘zining enagasiga – Arina Rodionovaga bag‘ishlagan.

\* \* \*

Arzanda sipohlar ichida shoir  
Shohlarning fikrini o‘zga jalb etib –  
Kulgi, ko‘zyoshlarni egallab mohir,  
Achchiq haqiqatga yolg‘onni chatib,  
O‘tmaslangan didni qitiqlar, izlar,  
Boyarni shon-shuhrat sari gizzizlar.  
Ularning bazmiga o‘zi bir savlat,  
Baland maqtovlarga etadi diqqat.  
Tishda zinalarda xalq, u olomon  
Vazmin eshiklarning ortiga kelib,  
Malaylar itargan holda tiqilib,  
Narida kuychini tinglaydi shu on.

1827

*Ramz Bobojon tarjimasi*



## ZAR BILAN XANJAR

«Hamma narsa menikidir», – dedi zar;  
«Hamma narsa meniki», – dedi xanjar.  
Zar dediki: «Barin sotib olaman»;  
Xanjar dedi: «Barin tortib olaman».

1827–1836  
*Rustam Komilov tarjiması*



\* \* \*

Kuylama yonimda, o, sohibjamol,  
Gruziyaning g‘amgin qo‘shig‘in, hayhot,  
Kuylasang, yodimga tushadi darhol  
Yiroq sohil va o‘zga hayot.

Hayhot, hech shafqat yo‘q bu qo‘shig‘ingda,  
Xotirimga solar olis sahroni,  
Ham oydin kechada – oy yorug‘ida  
Yiroqdagi qizni – sho‘rlik siyemoni...

Aziz, mash’um xayol chiqar yodimdan,  
Unutilar seni ko‘rganda, dildor,  
Sen kuylaysan, tag‘in men ko‘z oldimda  
Tasavvur etman o‘shani takror.

Kuylama yonimda, o, sohibjamol,  
Gruziyaning g‘amgin qo‘shig‘in, hayhot,  
Kuylasang, yodimga tushadi darhol  
Yiroq sohil va o‘zga hayot.

1828  
*Mirtemir tarjiması*



## ANCHAR<sup>1</sup>

Xasis tuproq, namsiz, giyohsiz,  
Kunda qovjiragan biyobon,  
Shunda turar, yer uzra yolg'iz,  
Anchar – go'yo dahshatli posbon.

Tashna cho'lida tabiat uni  
G'azabli bir kunda tug'arkan,  
Shoxlardagi o'lik bargini,  
Tomirin zahr ila sug'organ.

Zahar silqib tomib po'stlog'idan  
Kunaptida erib oqadi,  
Quyulib kunbotar chog'ida  
Musaffo mum bo'lib qotadi.

Yaqinida qush qoqmas qanot,  
Undan hatto yo'lbars ham qochar.  
Goh duch kelib qora girdibod  
Ajal hidin taratib uchar.

Namlab o'tsa bir daydi bulut  
Uning nursiz qora yaprog'in,  
Shoxlaridan zaharday bo'lib  
O'tli qumga sachraydi yog'in.

Ammo unga odamni odam  
Yo'lladi hukmron nazar-la,  
Itoat-la yo'l oldi u ham.  
Ertasiga qaytdi zahar-la.

Ajal mumin keltirdi odam,  
Ham barglari so'lgan bir butoq,  
Rangsiz, sovuq peshonasidan  
Ter oqardi, go'yoki buloq.

---

<sup>1</sup> Anchar – zahar daraxti.

Keltirdi-yu, bo'ldi bemajol,  
Chayladagi xasga yotdi-da,

Bechora qul shunda berdi jon  
Hukmdorning oyoq ostida.

Knyaz esa o'qlar nishiga  
Bu zaharni surkab bir mahal.  
Shu o'q bilan o'z qo'shnisiga –  
Yot ellarga yog'dirdi ajal.

1828

*Asqad Muxtor tarjimasi*



## GUL

Qurigan, hidi yo'q, unutilgan gul –  
Kitobni ocharkan ko'rib qoldim men.  
G'alati xayolga to'ldi-da ko'ngil,  
Parishon termilib, turib qoldim men:

Qayerda va qachon, qaysi bahorda –  
Gullagan? Uzoqmi? Kim uzdi ekan?  
Yot qo'lmi, tanishmi uzgan nahorda?  
Nima uchun bu yerga qo'yildi ekan?

Nozik bir visolning esdaligimi.  
Yoki shum ayriliq – firoq yodgori?  
Yoki tinch sahroda, o'rmon soyasida  
Yolg'iz sayr, tomosha xotiralari?

Tirikmikan yigit, tirikmikan qiz?  
Shu paytda ularning qayda go'shasi?  
Yoki shu qurigan – so'lg'in, belgisiz  
Gul kabi so'ldimi har ikkalasi.

1828

*Mirtemir tarjimasi*

## VIDOLASHUV

Xayolimda dilkash qiyofang  
Erkalayman bukun so'nggi bor.  
Qalbda umid uyg'otib arang,  
Qo'rqoq, g'amli huzur-la sevging  
Eslamoqni qildim ixtiyor.

O'tib borar umrimiz, yillar –  
O'zgartirib har ikkimizni,  
Endilikda shoirga sendan  
Sovuq qabr epkini yelar,  
Va sen uchun shoir ham so'ngan.

Yuragimning so'nggi vidosin  
Qabul etgin, e yiroq jonon:  
Go'yo beva qolgan bir xotin,  
Jo'natarkan quvg'inga do'stin,  
Sukut ichra quchgan do'ssimon.

1830

Zulfiya tarjiması



## QISH ERTASI

Naqadar ajoyib kun; ayoz va oftob!  
Hali sen uyquda, go'zal mohitob –  
Latofatli do'stim, paytidir, uyg'on;  
Ochgil nozli suzuk ko'zlarling sekin,  
Shimol Avrorasi qarshisida sen  
Shimol yulduzidek bo'lgil namoyon!

Yodingdami, o'tgan oqshomgi quyun,  
Xira ko'kni zulmat qoplovdil butun;  
Osmonda nimrang dog' oy kabi suzar,  
Sarg'ayib boqardi bulutlar aro,  
Sen ham o'lтирарding g'amgin, benavo –  
Bugun esa... oynadan tashlagil nazar;

Quyosh nurlaridan tovlanib ming bor,  
Serhasham gilamday yotar oppoq qor,  
Cheksiz moviy osmon ostida ko'r kam,  
Qorayib ko'rinar shaffof bir o'rmon,  
Yam-yashil archalar unda bepoyon,  
Muzlarning tagida yarqirar suv ham.

Yop-yorug' turardi butun bir xona,  
Kahrabo nuridan berib nishona.  
Charsillab yonardi pechdag'i o'tin,  
Mazza xayol surish yotib o'rinda,  
Ammo bilasanmi: chanaga shunda  
Bo'z otni qo'shishni amr etaymikin

Ertalabki qorda sirg'anib, toyib,  
Uchqur ot jilovin juda bo'sh qo'yib,  
Aziz do'stim, yelib boramiz shaxdam,  
Kezamiz bo'shagan dala – har yonni,  
Kun-kecha barglari quyuq o'rmonni,  
Men uchun qadrdon sohillarni ham.

1829  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

## O'SMIRGA

Sovuq dengiz sohilida to'r yoymoqda baliqchi;  
Bola unga qarashmoqda. Baliqchini qo'y, o'smir,  
Seni o'zga istiqbollar, o'zga tashvishlar kutar;  
Sen aqlar ovlagaysan, qarashgaysan shohlarga.

1830

*Asqad Muxtor tarjimasi*



## SHOIRGA

Shoir! Xalqning mehriga hech tikib yurma ko‘z.  
Maqtovlarning o‘tajakdir oniy shovqini,  
Eshitarsan galvars to‘da hukmini ma’yus,  
Qoim bo‘l-u, osuda tut ko‘ngil lavhini.

Sen podshosan: tanho yasha. Erkka burib yuz,  
Hur idrok-la topa bilgil hurlik zavqini,  
Ardoqlagil xush o‘ylaring samar-shavqini,  
Mardliging-chun ehson kutma, ochma bundan so‘z.

O‘zingdadir ehson bori. Sen oliv hakam.  
Qattiqqo‘lsan o‘z-o‘zingga sen barchadan ham.  
Ko‘ngling to‘qmi yozganiningdan, ey sohibkamol?  
Ko‘ngling to‘qmi? Qo‘y, olomon koyisa uni,  
Bulg‘asa-yu sha‘ming yongan mehrob yuzini,  
Minbaringni o‘yin qilsa sho‘x bola misol.

1830

*Muhammad Ali tarjimasi*



## AKS SADO

O‘kirarmi o‘rmonda hayvon,  
Chalinarmi burg‘u nogahon,  
Guldurarmi momaqaldiroq,  
Kuylarmi qiz adirda nogoh,  
Mayli, qanday un, –  
Sen qo‘sasan javob, aks sado,  
Havoda to‘lqin.

Gulduraklar guldurashiga,  
To‘lqinlarning gurkirashiga,  
Bo‘ronlarga solasan qulqoq,  
Ham cho‘ponlar hoy-hoy tovushiga  
Javob hozir;  
Senga javob – un yo‘q... O‘shandoq  
Sen ham, ey shoir!

1831

*Mirtemir tarjimasi*



## BULUT

Bo'ronda tarqalgan, ey so'nggi bulut!  
Yolg'iz sen chopasan ko'kda shu minut;  
Yolg'iz sen tashlaysan mungli ko'lanka,  
Shodmon kunda g'amgin yolg'iz sengina.

Boya sen qurshovding osmon yuzini,  
O'rovdi dahshatli chaqin o'zingni;  
Sen – sirli, vahmali guldirading-u,  
Tashna yer qo'yniga to'ldi yomg'ir-suv.

Bas, bo'ldi, tarqalgin! Fursating o'tdi,  
Yer salqin va toza; bo'ron ham ketdi.  
Shamol ham erkalar tol barglarini,  
Tinch ko'kdan nariga haydashdi seni...

1835

*Mirtemir tarjiması*



\* \* \*

...Yana keldim  
Yorug‘likning bu go‘shasiga, –  
Sezilmagan u ikki yilni  
Quvg‘inlikda kechirgan joyga.  
O‘n yil o‘tdi o‘shandan beri,  
Mening uchun ushbu hayotda  
Ko‘p o‘zgarish bo‘ldi. O‘zim ham  
Bo‘ysunib bu umum qonunga,  
O‘zgargandim, – bu yerda tag‘in  
O‘tmish quchar daf‘atan meni.  
Kecha yurdim, shekilli, sarson  
Bu tolzorda...  
Mana g‘arib uy –  
Enagam-la bunda yashardim.  
U yo‘q endi, devor ortida  
Eshitilmas og‘ir qadamlar,  
Kechalari boshim ustida  
O‘tirmaydi bo‘lib parvona...

Mana tolzor tepa, ko‘pincha  
Qimirlamay o‘tirardim men.  
Boqar edim ko‘lga shu yerdan –  
Eslar edim hasratga cho‘mib,  
O‘zga qirg‘oq va to‘lqinlar...  
Oltin dala, yashil sayhonlar;  
O‘rtasida yoyiq, ko‘m-ko‘k ko‘l;  
Ajib suvi uzra baliqchi  
Sudrab yuzar to‘zgan to‘rini.  
Yon bag‘rida, ko‘l qirg‘og‘ida  
Ko‘rinadi tarqoq qishloqlar.  
Undan nari qiyshiq tegirmon –  
Qanonini zo‘rg‘a ko‘targan.  
Aylanadi shamol zARBida.  
Bobo mulki chegarasida,  
Toqqa tomon yo‘l chiqqan joyda  
Yomg‘ir yuvgan uchta qarag‘ay,  
Biri turar tanho narida.

Ikkisining orasi yaqin;  
Oydin, yorug' kecha qo'ynida  
Men o'tganda bular yonidan,  
Barglarining shitirlashlari,  
Tanish sado qutlagan meni...

O'sha yo'ldan o'tdim yana men,  
Yana ko'rdim qarag'aylarni.  
Ko'z oldimda... hamon o'shalar,  
O'shalarning oshna sharpasi.  
Ammo, ko'hna ildizlarining  
Yon-berida yaydoq yerlarda  
Yosh novdalar o'sibdi hozir,  
To'p yashillik; qalin shoxlari –  
Soyasida cho'zishibdi bo'y,  
Go'yo uning bolalariday...  
Narida bu qarag'aylarning  
Bitta do'sti xo'mrayib turar,  
Eski bo'ydoq, so'qqabosh tanho  
Ilgari bir ko'rganim kabi  
Aylanasi bo'sh.

Salom, salom –

Ey, notanish navqiron nasl!  
Men ko'rmasman sening qudratli  
Kamoloting so'nggi zamonda  
Menga oshna qarag'aylardan  
Yuksalganda, o'zib o'tganda;  
Menga oshna qarag'aylarning  
Boshlariga soya to'kkanda,  
O'tganlardan berkitganingda,  
Men ko'rmasman. Biroq nevaram  
Do'stona bir suhbatdan qaytib,  
Xursand, shirin fikrga to'lib  
Yoningizdan tunda o'tganda,  
Salomlashgan shovqiningizni  
Eshitar va xotirlar meni...

1835

Mirtemir tarjimasi

## PETR BIRINCHINING BAZMI

Kemalarning rang-barang tug‘i,  
Hilpiraydi Nevada uzoq;  
Eshkakchilar ahl qo‘shig‘i  
Qayiqlardan tarqalar yangroq,  
Shoh qasrida katta ziyofat;  
Mehmonlar mast, so‘zda shov-shuv bor.  
To‘p otishdan Neva ham behad  
Zilzilaga keldi shiddatkor.

Nega bunday bazm-u ziyofat  
Berar ekan Piterburgda shoh?  
To‘p o‘kirar jamuljam ulfat,  
Eskadra daryoda nogoh?  
Yangi shon-la nurga to‘ldimi,  
Rus nayzasi, rusning yalovi?  
G‘addor shved mag‘lub bo‘ldimi?  
Sulh so‘rarmi qattol bir yovi?

Yo shvedni quvlagan elga  
Brant qurgan ko‘hna bot keldi,  
Bobosini kutgali yo‘lga –  
Bir oila yosh flot yeldi,  
Va jangovar nabiralar ham  
Shu keksaning yonida turdi,  
Fan sharafi uchunmi shu dam  
Qo‘shiq yangrab, to‘plar o‘kirdi?

Yo Poltava shonli yilligin  
Zo‘r tantana qilarmi shodon,  
Rus podshosi davlatin, elin  
Shu kun Karldan saqlagan omon;  
Yo tug‘dimi Yekaterina?  
Yo qora qosh, suluv xotini,  
Mo‘jizalar kashf etgan siyna,  
Tug‘ilganmi o‘zi shu kuni?

Yo‘q! Afv etar u fuqaroni;  
Gunohkorga qo‘yib zo‘r gunoh,  
Xursandchilik etar bu oni;  
Ko‘piradi u bilan qadah,  
Qalb va yuzi sochar edi nur,  
Manglayidan o‘padi mana;  
Yovni mag‘lub etgandek mag‘rur,  
Afv etganin qilar tantana.

Shuning uchun bu ulfat, shovqin,  
Piterburgda shoh bazm qurar,  
To‘p o‘kirar, muzika butun,  
Eskadra daryoda turar,  
Shuning-chun bu quvonchli soat  
Shohona jom to‘la, jarangdor,  
To‘p otishdan Neva ham behad  
Zilzilaga keldi shiddatkor.

1835

*Ramz Bobojon tarjimasi*





## EXEDI MONUMENTUM<sup>1</sup>

Qo‘l bilan tiklab bo‘lmas haykal qo‘ydim o‘zimga,  
Xalqning kelar yo‘lini maysa-o‘tlar qilmas band:  
U mag‘rur qad ko‘tardi bosh egmasdan ta’zimga,  
Aleksandr qubbasidan ham baland.

Yo‘q, butunlay o‘lmayman – qalbim yashar liramda,  
Tuprog‘im-la chirimay, yashaydi u to abad,  
To biron shoir-poir qolar ekan olamda,  
Meni sira tark etmaydi shon-shuhrat.

Ovozim-la chulg‘anur poyoni yo‘q ulug‘ Rus,  
Undagi barcha ellar meni yodlaydi har dam,  
Mag‘rur slavyan nasli, bugungi avom tungus,  
Fin xalqi-yu dashtlar do‘sti qalmoq ham.

Uzoq zamon xalq mehriga bo‘lajakman musharraf,  
Chunki, rubobim bilan ezgu hislar tug‘dirdim.  
Shu yovuz zamonamda kuyladim erkni maqtab,  
Xor-zorlarga achinmoqqa chaqirdim.

Tangri hukmidan chiqma, ey ilhomim parisi,  
Ranjida xotir bo‘lma, toj-u gulchambardan kech,  
Loqayd qabul eta ber madh-u tuhmat barisin,  
Ahmoq bilan esa o‘chakishma hech.

1836  
*Ramz Bobojon tarjimasi*

---

<sup>1</sup> Men haykal tikladim.

## SAN'ATKORGA

Ham hazin, ham shod kiraman korxonangga, san'atkor:  
Marmar senga itoatchan, gipsga jon berasan:  
Qancha xudo, malak, botir... Zevs – chaqmoq tangrisi  
Mana Satir nay chaladi yer tagidan tikilib.  
Ishni boshlab bergen Barklay, shon keltirgan Kutuzov.  
Bu Apollon – orzu-umid, Niobeya – g‘am-g‘ussa...  
Shodman. Ammo shuncha jonsiz mo‘tabarlar ichida  
Xafaholman: yonginamda yo‘qdir mehribon Delvig;  
San’at do‘sti, kengashchisi qora go‘rda yotibdi.  
Bo‘lsa Seni quchar edi! Faxr etardi sen bilan!

1836

*Asqad Muxtor tarjimasi*



## SHE'R TO'QUVCHI DO'STIMGA

Arist! Sen ham ko‘plarday topinibsan Parnasga!  
Tez egar urmoqchisan asov, qaysar Pegasga<sup>1</sup>;  
Gultoj uchun shoshasan xavf-xatarga boqmasdan,  
Beayov tanqid bilan jang boshlaysan qo‘rmasdan!  
Arist, menga ishon-u, qog‘oz, qalamdan voz kech;  
Soy, o‘rmon, mozorlarni olmagin yodingga hech;  
Shumshuk tizmalar to‘qib, ishqda yonmay qo‘ya qol;  
Tog‘dan qulamay turib, tezroq pastga tushib ol!  
Sensiz ham shoirlar ko‘p, tag‘in chiqar, bo‘lmas kam,  
She’rlari nashr etilar-u darrov unutar olam.  
Ehtimol, shu topda ham shovqin-surondan yiroq,  
Tentak bir havas bilan umrbod bo‘lib inoq.  
Maktabning panasida yashiringandir bironta.  
Yangi «Telemaxnoma» ulg‘aytar o‘zga ota...  
Bema’ni tizmachilar taqdiridan qo‘rq zinhor,  
Bemaza she’rlar to‘qib berishar bizga ozor!  
Avlodlar hurmatiga shoirlardir sazovor:  
Pindda gultoj mo‘l, lekin chaqirtikanak ham bor.  
Sharmanda bo‘lishdan qo‘rq! Gap yetib Apollonga,  
Ma’lum bo‘lsa sening ham chiqqaning Gelikonga,  
Jingalak sochli boshin chayqab turib, darg‘azab,  
Sening dahongga kaltak siylov qilsa, ne ajab?  
Qalay? Qovog‘ing soliq, javob aytishga shaysan,  
Bilamanki: «Ortiq gap ne ham darkor, – degaysan,  
Men ra'yidan, so‘zidan qaytuvchilardan emas.  
Bilgil, baxtim yor bo‘lib, rubob tanladimmi, bas;  
Olam, mayli, deyversin men to‘g‘rimda ne desa,  
Achchig‘lan, koyi, baqir, – yozaman she’r men esa».

Arist! Qofiyaboz – bu shoir degan gap emas,  
Tinmay yozganing bilan birov uni she’r demas.  
Yaxshi she’r yaratmoqlik oson emas unchalik,  
Ya’ni fransuzlarni Vitgenshteyn yenggunchalik!  
Ammo rus elin faxri – uch san’atkor, uch ustoz,  
Dmitriyev, Derjavin, Lomonosov – uch shovvoz –

<sup>1</sup> Pegas – she’riyat ilhom, u qanotli ot tarzida tasavvur qilinadi.

Ko‘p donishmand bo‘lishgan va bizga qilgan xitob;  
Dunyoga kelar-kelmas o‘ladi qancha kitob!  
Qofiyabozlar talay, safsata yaratadi,  
Kitob do‘konlarida bari chirib yotadi;  
Puch gaplarni kim o‘qir, qolib ketar hammasi,  
Hammasiga bosig‘liq Febning la’nat tamg‘asi!

Faraz qilaylik, Pindga chiqib olarsan xushbaxt.  
Shoir atalishga ham haqli bo‘larsan u vaqt,  
Zavq bilan o‘qimoqqa tushar seni el butun.  
Lekin sen o‘ylaysanki, shoir bo‘lganing uchun  
Oqib kela beradi boyliklar daryo-daryo,  
Mamlakat senga qaram boylik zo‘ridan go‘yo,  
Po‘lat sandiqlaringda saqlanar oltin, kumush,  
Yeb-ichasan, uxlaysan, osoyishta – ko‘ngil xush!  
Shundaymi?! Yo‘q, azizim! Shundaymas, bari bekor;  
Yozuvchi manglayida na marmar koshona bor,  
Na oltin to‘la sandiq!.. Shoir boy bo‘lmas bundoq:  
Yer tagida yerto‘la, baland tashlandiq chordoq –  
Mana yozuvchilarda koshona, yorug‘ zallar,  
Shoirni hamma maqtar, lekin boqar jurnallar;  
Fortuna g‘ildiragi yondoshmaydi butunlay,  
Dunyoga yupun kelib, Russo o‘ldi yupunlay.  
Gadolar qo‘nalg‘asi Kamoens yotog‘ida,  
Kostrov o‘lib ketgan allakim chordog‘ida,  
Allakimlar ko‘mdilar: ular kechirgan turmush –  
Qayg‘ulardan iborat; yuksak donglari – bir tush!

Chamamda sen shu mahal botding andak xayolga:  
«O‘zi nima gap,— deysan,— o‘xshab naq Yuvenalga,—  
Jiddiy hukmlar aytding, nom-banom, bo‘lak-bo‘lak,  
Poeziya haqida fikr yurgizding andak;  
Parnas hamshiralarin gapga unatalmayin,  
She’riy va’z aytish uchun kelibsan-da atayin?  
Jinnimisan, sog‘misan? Nima bo‘ldi o‘zingga?»  
Arist, ko‘p gap ne hojat, javobim shu so‘zingga:  
  
Esga tushdi, qishloqda yashar edi bitta chol,  
O‘zi xudojo‘y edi, oqargandi soch-soqol,

Qo'ni-qo'shnisi bilan totuv edi, to'q edi,  
Undan o'tar donishmand shu atrofda yo'q edi,  
Bir kun nikoh to'yidan kelar edi kech oqshom,  
Andakkina mast edi, bo'shatgandi talay jom,  
Yo'l-yo'lakay duch keldi bir talay sodda dehqon:  
«Gunohkor bandalarmiz, yo'l ko'rsatgin, taqsirjon,  
Gap shuki, bizga-ku sen ichgani yo'l bermaysan,  
Hushyorlikka undaysan, buyurasan, tergaysan,  
Biz senga ishonamiz; bugun sen o'zing, lekin...»  
«To'xtang, – dedi xudojo'y qishloqilarga sekin, –  
Umr ko'ring, cherkovda aytganimdan jilmang hech,  
Aytganimni qiling-u, qilganimni qilmang hech!»

Senga ham mana shunday javob berishim darkor,  
O'zimni oqlamoqchi emasman zinhor, zinhor:  
Baxtlidir she'r to'qishga havasi yo'q har kishi,  
Umrini o'tkazar tinch, bo'lmas g'ami tashvishi,  
Ketma-ket oda yozib, jurnallarga qilmas jabr,  
Badiha ustida oylab o'tirmas, besabr,  
Sayr qilishni yoqtirmas u yuksak Parnasda ham,  
Izlamas pok muzalar, uchmas sho'x Pegasda ham,  
Qalam tutgan Ramakov unga mudhish so'z demas,  
U – tinch ham xushvaqt. Arist, chunki u shoir emas!

Lekin gap cho'zildi-ku, zeriktirmayin, deyman,  
Satirik qalam bilan azob bermayin deyman,  
Azizim, gapim adoq, kengash berdim sen uchun,  
Nayingni chalasanmi, yo yo'q – hal etgin bugun?..  
O'ylab ko'r, qaysi ma'qul, o'zing saylagin, biroq:  
Dovruq olmoq yaxshi-ku, tinch yashamoq yaxshiroq!

1814  
*Mirtemir tarjiması*

## JUDOLIK

Soya-salqin litsey xilvatgohi,  
Ulfatimiz she'rlarimni tinglar so'nggi bor.  
Litsey hayotining dilkash hamrohi,  
Bu – sen bilan so'nggi lahza ko'rishmoq diydor,  
Birgalik yillari qoldi orqada:  
Ahil ulfatimiz tarqalar.  
Xayr! Omonda asragay xudo,  
O'z erkingdan bo'limagin judo,  
Febdan ham ajrama, aziz birodar!  
Umidli, quvonchli, totli muhabbat,  
Men ko'rmagan sevgi mahringga tushsin:  
Umringning kunlari osoyish va baxt  
Qo'ynida tush kabi uchib o'tishsin!  
Xayr! Qayda bo'lsam: qonli jangdami,  
Aziz daryo bo'yi, tinch yalangdami,  
Muqaddas do'stlikka sodiqman har vaqt,  
Barcha (taqdir eshitarmi tilaklarimni?)  
Barcha do'stlaringga yo'ldosh bo'lsin baxt!

1817

*Asqad Muxtor tarjimasi*



\* \* \*

Yaxshi qol, qadrdon yashil o‘rmonzor!  
Yaxshi qol, qayg‘usiz dala quchog‘i!  
Siz ham, ey tez uchgan xushvaqt baxtiyor  
Kunlär – yengil qanot ermaklar chog‘i!  
Xayr, Trigorskoye, shodmon hayotim,  
Mudom xushvaqt kutgan sevikli diyor!  
Sizga o‘rgandim men, tuzingiz totdim,  
Nahot, ayrılamан manguga takror?  
Sizdan esdaliklar olib ketaman,  
Lekin qoldiraman sizga bu qalbim.  
Bir kun (shirin xayol!) – tag‘in qaytarman  
Orombaxsh dalangiz qo‘yniga, balkim.  
Yurarman jo‘kazor soyalarida,  
Men do‘stona erkka bosh eguvchiman,  
Qiya tepalarning oralarida –  
Aql, go‘zallikni xo‘p sevguvchiman.

1817

*Mirtemir tarjiması*



## CHAADAYEVGA ATAB

Sevgi, umid, jimjit shon aldoqlari  
Ermak bo'lolmadi bizga ko'p zamon,  
O'tdi yoshligimiz ovunchoqlari  
Go'yoki tush, go'yo tongdag'i tuman:  
Ammo yonar hali bizda ishtiyoq,  
Yovuz bu saltanat qilsa hamki jabr,  
Qalbimiz talpinar betoqat, besabr,  
Vatan da'vatiga solamiz qulqoq.  
Oshiq yigit shirin visol damini  
Zoriqib kutganday, bo'lib nigoron –  
Muqaddas ozodlik minutlarini  
Ishonch-la kutamiz entikib hamon.  
Hali erk maylida yonar ekanmiz,  
Yurak hayot ekan nomusga-shonga:  
Do'stginam, vatanga jonne tikkanmiz,  
Ko'ngil orzulari fido o'shang!  
Ishon, shubha qilma, kelar u zamon,  
Balqar baxt yulduzi – dilbar va porloq!  
Rossiya uyqudan uyg'onar, inon,  
Shohlik vayronasi ustiga, o'rtoq,  
Yozilajak bizning nomlar begumon.

1818  
*Mirtemir tarjiması*



Eskulapga<sup>2</sup> chap berib qoldim,  
 Oriqman, taqirbosh, lekin salomat;  
 Azob panjasidan qutulib oldim,  
 Boshginamdan ketdi og‘ir malomat;  
 Priapning quvnoq hamrohi sog‘liq  
 Ham uyqu, ham farog‘atli dam  
 Yana xuddi ilgarigidek,  
 Oddiy, tor kulbamga qo‘ydilar qadam.  
 Kel, chala bemorni yupatgin sen ham!  
 U seni ko‘rmakka juda intizor,  
 Seni, qonunlardan xolis, baxtiyor,  
 Pindning tanbal fuqarosini.  
 Ozodlik va Vakxning sodiq farzandi.  
 Veneraning muxlis dilbandi,  
 Ayshi farog‘atning sohibi, seni!  
 Poytaxtning bekorchi tashvishlari-yu  
 Nevaning sop-sovuq go‘zalligidan,  
 Nodonlarning chirkin mish-mishlari-yu  
 Shuncha xil ziqlalik bezorligidan  
 Qo‘rg‘onlar, o‘tloqlar chorlaydi meni,  
 Boqchalarning yashil salqini,  
 Dala-dashtda daryo sohili  
 Va erkin qishloqlar chorlaydi meni.  
 Qo‘lingni ber. Boraman o‘zim  
 G‘amgin sentabrning avvallarida:  
 Yana birgalashib quramiz bazm,  
 Bu yerning pattalik malaylaridan,  
 Tentagidan, amaldoridan  
 Ochiq ko‘ngil bilan so‘zlab qolarmiz.  
 So‘zlarimiz osmon hukmdoridan,  
 Goho yerdagisin tilga olarmiz.

1819

Asqad Muxtor tarjimasi

<sup>1</sup> V.V. Engelgardt (1785–1837) – «Zelenaya lampa» to‘garagining a’zosi. Pushkinning do‘sti.

<sup>2</sup> Eskulap – yunonlarda tibbiyot tangrisi, umuman vrachlarning hazil laqabiga aylanib qolgan.

\* \* \*

Kunduz mash' alasi sekin so'narkan,  
Zangor dengizga tushar kechalik tuman.  
Shovqin sol, shovqinlar sol, itoatli oq yelkan,  
To'lqinlar ot tagimda, g'azabnok okean.  
Ko'zimga ko'rinati olis u qirg'oq.  
Janub dalalari – sehrli diyor:  
G'ussaliman, jo'shqinman, shoshaman bu choq,  
Meni sarkush etgulik xotiralar bor...  
Payqayman: ko'zlarimda yana yosh ko'rinati;  
Oshna xayollarim uchishar aylanamda;  
Qalbim bir tug'yon etib yana darrov so'nadi,  
Kechmish, u tentak sevgi esga tushar bu damda –  
Sayoq yillar, butun g'am, suyukli har ne borkan,  
Orzular, umidlarim aldagani beomon...  
Shovqin sol, shovqinlar sol, itoatli oq yelkan,  
To'lqinlar ot tagimda, g'azabnok okean.  
Kema, uch, yetkaz meni tezroq u olis yoqqa;  
Aldoqchi zo'r dengizning tahlikali maylicha,  
Yondashako'rma faqat g'amgin – tanish qirg'oqqa,  
Tumanli vatanimga yondashako'rma picha, –  
Qaynoq hirsim dastavval yolqinlar ila to'lgan,  
Sezgim va orzularim o'tday yongan yerkarga,  
Nozli muzalar sirli va yumshoq kulgan,  
Suzuk boqishlarini bag'ishlagan yerkarga, –  
Yaqinlashma, yondashma yoshtagim tor-mor qilgan,  
Bo'ronlarda ertaroq so'lgan, so'ngan yerkarga.

Yengil qanot sevinchim menga vafosiz bo'lgan,  
Yuragim sovuq hasrat-g'amda qolgan yerkarga...  
Men yangi taassurot izlagan yo'lovchiman,  
Sizdan qochdim vatanim – suyukli aymoqlarim;  
Sizdan qochdim, ey, faqat zavq-shavq allalagan,  
Bir damlik yoshtagidagi bir damlik o'rtoqlarim,  
Siz ham ey, muhabbatsiz o'zimni qurban etgan,  
Shoshqin xayollarimning, ey, ozg'in sirdoshlari,  
Tinchligim, shonim, erkim, yuragim egallagan  
Yoshtagimning vafosiz, minutlik tutoshlari,  
Barchangizni unutdim... Oltin bahorlarimning

Sirli ey sirdoshlari, sizni-da unutganman.  
Ammo yuragimdag i o'sha eski yaramga,  
Chuqr sevgi dardimga hech narsa bo'lmas darmon...  
Shovqin sol, shovqinlar sol, itoatli oq yelkan,  
To'lqinlar ot tagimda, xo'mraygan okean...

1820

*Mirtemir tarjimasi*



\* \* \*

Uchishgan bulutlardan bo'shab qoldi ko'k yuzi;  
Ey sen qayg'uli yulduz, ey sen oqshom yulduzi,  
So'lg'in dala, biyobon shu'langdan kumush bo'ldi,  
Qora qoya, mudragan ko'rfa ham nurga to'ldi;  
Miltillagan nuringni sevaman haqiqatan,  
Uxlagan o'ylarimni uyg'otdi u qaytadan.  
Vodiylar adil-bo'ychan teraklar bilan to'lgan,  
Nozik, umrbod yashil daraxtlar mudrab turgan.  
Janubning to'lqinlari dardli shovqinlar solgan,  
Har nima ko'ngillarga yoqimli va xush bo'lgan –  
Tinch va sokin o'lkada – suyumli, yorug' yulduz,  
Porlashingni yodimda saqlab yuraman hanuz.  
U yerlarda bir kezlar samimi o'y surardim,  
Erinchak xayollarda dengiz bo'ylab yurardim,  
Kulbalarni quchganda kechaning soyasi jim,  
Qorong'ida izlardi sohibjamol qiz seni,  
Qizlarga ko'rsatardi senga taqib ismini.

1820



## XANJAR

O'lmas Nemezidaning<sup>1</sup> qo'li uchun yaratmish  
Seni Lemnoss<sup>2</sup> xudosi,

Erkning maxfiy posboni – qasoskor xanjar  
mudhish –  
Xo'rlik va haqoratning so'nggi hukmfarmosi.

Zevs yashinlari jim, qonun qilichi mudroq  
Yerlarda la'natlar, umidlar yaratasan.  
Seni asrar shohona u sarpolar panaroq,  
Sen taxt ko'lankasida yashirinib yotasani.

Yovuzning ko'zlariga yarqirar bu tilsiz tig‘,  
Jahannamning shu'lasi, tangri chaqmog'i yanglig‘,  
Ham yovuz titrab ketar, alanglar haryon  
O'z bazmida nogahon.

Kutilmagan zarbalaring uni topar har joyda,  
Cherkovda-yu, chodirda, quruqlikda va suvda,  
Sirli qulflar urilgan sirli uyda – har  
qayda,

Oilada yoki shirin uyquda.  
Ezgu Rubikon shovlar Rumi Qaysar<sup>3</sup> ostida,  
Olampanoh Rim qulab, qonun egdi boshini,  
Ammo erk sevgan Brut qo'zg'adi isyon:  
Xanjar, yana qon to'kdining – u ham o'lik tusida –  
Quchoqlaydi viqorli Pompey marmar toshini.  
Isyon nasli ko'tarar qahr-g'azab g'ulg'ulasi,

<sup>1</sup> *Nemezida* – taqdir va qasos ma'budasi.

<sup>2</sup> *Lemnoss* – vulqon, temirchilik tangrisi (grek rivoyati).

<sup>3</sup> *Qaysar* – Yuliy Sezar – Mashhur Rim sarkardasi, davlat arbobi ham yozuvchi. Davlat hokimiyatiga to'la ega bo'lish niyatida 49 yilda o'z askari bilan Italiya chegarasidagi Rubikon nahridan o'tgan ham qattiq ichki urushlar natijasida imperatorlikka ko'tarilgan. Shunga qaramay, unga qarshi respublikachilar fitnasi tashkil etilganki, uning o'g'li sanalgan Brut ham shularga qo'shilgan.

1821

*Mirtemir tarjiması*



O'limlar payg'ambari deb shoir buyuk fransuz revolyutsiyasi davrining revolyutsion mayda burjuaziyasining ulkan yetakchilaridan birini – «xalq do'sti» – Jan Poliy Maratni aytmoqchi (1743–1793). Marat kontrrevolyutsioner Sharlot Korde tomonidan o'ldirilgan. Shoir uni «Evmenida» deb, ya'nı qasos tangrisi deb ataydi. Pushkin fransuz revolyutsiyasining birinchi qadamlarini suyunib qarshi olgan edi.

## ALOMATLAR

Turli-tuman alomatni kuzat har qachon,  
Yosh bolalik yillaridan podachi, dehqon,  
Ko‘k g‘arbida ko‘lankaga ko‘z tashlab bir dam,  
Olddan aytar shamolni ham, ochiq kunni ham;  
Aytar dala bahrin ochar yomg‘ir sharrosni.  
Uzumlargacha xavfli bo‘lgan erta ayozni.  
Agar oqshom oqqush suzib tinch suvda yursa,  
Kelishingdan xabar berib, qichqirib tursa,  
Yoki g‘amgin bulutlarga botsa quyosh-nur,  
Bilki, erta uyg‘otadi qizlarni yomg‘ir,  
Yo urilar darchaga do‘l: tongda qishloqi –  
Shaylanarkan o‘rish uchun bo‘liq boshoqni,  
Bo‘ronlarni eshitib u chiqmaydi ishga,  
Yana qayta yalqovlanib boshlar mudrashga.

1821

*Ramz Bobojon tarjimasi*



\* \* \*

Kechirarmikansan, orzumdagı rashk,  
Ishqdagi bu sıfat telba yonishni?  
Sodiqsan! Ne uchun sevasan, yakkash —  
Fikr-u xayolimga qo‘rquv solishni.  
Jazmanlar qurshagan sening atrofing,  
Ko‘rinmak istaysan barchaga dilbar.  
Goh munis, goh ma'yus sening nigohing  
Hammaga nechun puch umid baxsh etar?  
Aqlimni band etib, o‘zimni maftun,  
Bu baxtsiz sevgimga ishonching komil,  
Ko‘rmaysan, shovqinli gurungda butun  
Suhbatga begona, iztirobda dil, —  
Tanhlik hasratin chekaman tolib,  
Mahrumman iltifot va shafqatingdan...  
Ketmoqchi bo‘laman: qo‘rqib, yolvorib  
Ko‘zlarining qidirmas mening izimdan.  
Ishvali so‘zlar-la qilmoq bo‘lib rom,  
Meni gapga tutib qolsa bir jonon, —  
Sen beg‘am, osuda; quvnoqsan mudom,  
Bu ta’nang men uchun o‘limdan yomon!  
Gapir-chi, ne uchun mening raqibim,  
Men-u sen – ikkovni ko‘rarkan xilvat,  
Senga nechun sirli qiladi ta’zim?..  
Ayt-chi, kim beribdi bunga ijozat?  
So‘yla-chi! Ne uchun to‘lg‘anar rashkda,  
Ne uchun oqarar jamoling ko‘rib?  
Ne uchun kun va tun o‘rtasi paytda  
Onangsiz, sen tanho olasan kutib?!

Lekin men sevimli... Men-la qolganda  
Shu qadar munissan, shu qadar dildor!  
Bo‘sang o‘t! Sen ishqidan suhbat ochganda  
Samimiyl yuraging etilar izhor!  
Senga kulgilidir mendagi azob  
Va lekin sevasan, yetadi aqlim.  
Azizim, qiynama, hech qolmadi tob.  
Bilmaysan, naqadar kuchlidir ishqim,  
Bilmaysan, qanday zo‘r menda iztirob.

1823

Zulfiya tarjimasi



\* \* \*

Tun yeli g‘ir-g‘ir,  
Taratur sehr.

Kelar,  
Yelar  
Vodiy ul-Kabir<sup>1</sup>.

Zar tusli oy chiqdi ko‘k aro,  
Sukunat... o... gitara yangrar.  
Yosh ispan qiz balkonda tanho  
Panjaraga suyanib qarar.

Tun yeli g‘ir-g‘ir,  
Taratur sehr.

Kelar,  
Yelar  
Vodiy ul-Kabir.

Ro‘molingni tashlab bu chog‘da  
Kun misli kel, hoy qizgina, qiz!  
Panjarani qoldirib dog‘da,  
Nozikkina oyog‘ing o‘tkiz!

Tun yeli g‘ir-g‘ir,  
Taratur sehr.

Kelar,  
Yelar  
Vodiy ul-Kabir.

1824

Muhammad Ali tarjiması

<sup>1</sup> Ispaniyada bir daryo nomi.

## CHAADAYEVGA

Axir, bu bachkana gumonlar nechun?  
Inondim butun:  
Bu joy qo‘rqinch ehrom bo‘lmish bir zamon,  
Bunda qonga tashna tangrilar uchun –  
Tutunday burqigan qurbanlik va qon:  
Yovuz Evmenida xusumatlari  
Shu yerda tugalib – bo‘lmish xotirjam;  
Qo‘lini uzatmis og‘asi sari –  
Shu yerda Tavrida darakchisi ham;  
Do‘slikning muqaddas ahdi, shukuhi –  
Vafo rasmin qurmish bu vayronada,  
G‘ururlanmish ulug‘ tangrilar ruhi –  
O‘z ijodlaridan shu butxonada.

.....

Chaadayev, o‘tmish xotiringdami?  
Yaqindaydi yoshlik shavqlari bilan  
O‘ylardimki mash’um – mudhish ismni  
O‘zga xarobotga topshirmoqni man.  
Bo‘ronlari tingan qalbimda, biroq,  
Tanballig-u sukut topibdi qaror,  
Dilim jo‘shqin mehr-u ilhomga inoq.  
Ezgu do‘sligimiz topishga takror  
Ismlarimizni yozaman, o‘rtoq.

1824

Mirtemir tarjiması

## SHON-SHUHRAT ORZUSI

Tiz cho‘kib qoshingda tilsiz bir nafas  
Farog‘at, ishq bilan bo‘lganimda mast,  
Ko‘z tashlab o‘yladim: sevgilim jonon,  
Shuhrat istadimmi, bu senga ayon;  
Bilasan, beqaror dunyodan ketib,  
Hovliqma shoirlik nomin tark etib,  
Bo‘ronlardan charchab solmadim qulqoq,  
G‘o‘ng‘illagan maqtov, g‘iybatga biroq,  
Mish-mishlar solarmi qalbga hayajon,  
Qiyo boqqanida bo‘lib nigoron,  
Bo‘ynimga chirmashib, shivirlagan payt:  
Sevasanmi, jonio, baxtlisman, ayt?  
Sevmaysanmi o‘zga yorni mensimon?  
Unutmaysanmi, ayt, do‘stim, hech qachon?  
Men esa, uyalib turar edim lol,  
Zavqlarga g‘arq bo‘lib, surardim xayol,  
Kelgisi dahshatli judolik damlar –  
Bo‘lmaydi... qanday hol? Ko‘z yoshi, g‘amlar,  
Bo‘hton, bevafolik boshimga bari  
Birdan yopirildi... qaydaman? Qani?  
Cho‘lda yashin urgan yo‘lchiday shu vaqt –  
Turaman, ko‘z oldim zim-ziyo behad.  
Hozir menda yangi orzu azobi:  
Shon-shuhrat istayman, istayman, toki –  
Nomimni eshitib qol taajjubda,  
Senga duch kelay men hamma tarafda.  
Baland ovoz bilan butun narsa ham  
Men haqda so‘ylasin, kuylasin ko‘rkam,  
Vafodor ohangni kuylab osuda,  
Bog‘chada, kechasi tim qorong‘ida,  
Hijron payti so‘nggi yolvorishim u,  
Sening xotirangdan chiqmasin mangu.

1825

Ramz Bobojon tarjiması

Esimdadir ajib dam hali:  
Ko'z oldimda bo'lding namoyon,  
Pok go'zallik dahosi kabi,  
Bir lahzalik xayol, tushsimon.

G'am-alamdan dilim yonganda  
Tushlarimda ko'rdim chehrangni,  
Hayotdagi bo'm-bo'sh suronda  
Kelib turdi tovshing jarangi.

Yillar o'tdi. Isyon bo'roni  
Xayollarim sovurdi dildan.  
Va unutdim dilbar sadongni,  
O'chdi aziz chehrang yodimdan.

Quvg'unlikning changida nursiz  
G'amga to'lib kunlarim botdi;  
Xudo, ilhom va ko'z yoshisiz,  
Ishq, iztirob hayotsiz oqdi.

Mana, qalbga oshno bo'ldi nay,  
Ko'z oldimda bo'lding namoyon,  
Go'zallikning sof parisiday,  
Bir lahzalik ajib tushsimon.

Ruhim yana uyg'ondi bu dam,  
Yana unda tirildi najot;  
Yana dilda Xudo va ilhom,  
Ko'z yoshi-yu muhabbat, hayot.

1825  
Zulfiya tarjimasi

\* \* \*

Agar seni aldasa hayot,  
Sen noumid bo'lma hech qachon.  
G'amli kunga qilgin itoat,  
Xushnud kunlar keladi, ishon!

Qalb kelajak ishqil-la yashar;  
Bukunimiz qayg'u va dog'li:  
Bari oniy, o'tishga shoshar,  
O'tgan esa, hamisha totli.

1825

*Zulfiya tarjiması*



## BOXUS QO'SHIG'I

Nimadan tindi, hey shodumon ovoz?  
Yangra, boxusona<sup>1</sup> qo'shiq, yangroq soz!  
Bor bo'lsin sarvinoz qizlar, jononlar!  
Bizni nazokat-la sevgan juvonlar.  
Qani, qadahlarni to'ldira boshlang!  
Jaranglab tursin,  
Boda ko'pirsin –  
Noyob uzuklarni tagiga tashlang!  
Ko'taring bir yo'la, sipqaraylik oq,  
Bor bo'lsin muzalar, bor bo'lsin idrok!  
Sen, ey ezgu oftob, porla yorqinroq!  
Yorug' tong otganda, mana bu chirog',  
Rangi o'chib, lip-lip so'nganisimon,  
Soxta donishmandlik so'nar beomon –  
Porloq aql quyoshi oldida, albat.  
Bor bo'l, ey oftob, yo'qol, ey zulmat.

1825

Mirtemir tarjimasi



<sup>1</sup> *Boxus* – may va xursandchilik tangrisi (yunon rivoyati).

\* \* \*

Qonimda yonadi orzu otashi,  
Sen mening dilimga solding jarohat;  
Bo'sa ol: sharob-u boldan ham shirin  
Sening bo'salaring, bag'ishlar rohat.  
Kel, mehr-u sevgi-la boshimga egil,  
Beisyon, oromda tin olsin jonim:  
Quvnoq kun botguncha ufqqa yengil,  
Quyulguncha tunning tumanlari jim.

1825

Zulfiya tarjimasi



## VYAZEMSKIYGA

Qadim jon ofati – dengiz shunchalik  
Olovlanlardimi dahongni sening?  
Madh etding sen oltin lirangni chalib  
Neptunning dahshatli panskhasasini.

Madh etma. Bu bizning badbin davrda  
Yerga ittifoqdosh u keksa Neptun.  
Odam – barcha bebosh olag‘ovurda  
Yo zolim, yo xoin va yoki tutqun.

1826

*Asqad Muxtor tarjimasi*



## YAZIKOVGA

Yazikov, senga kim baxsh etdi ilhom  
Bu sho‘xchan nomani yozmoqlig uchun?  
Buncha hazilkashsan, buncha mehribon,  
Bu qadar toshibdi hislaring, kuching,  
Jo‘sh urgan g‘ayrating buncha navqiron!  
Yo‘q, sen o‘z sozingni qonib sug‘organ  
Kastal chashmasining suvlari emas;  
Senga boshqa yerdan tuyog‘i bilan  
Ippokren chashmasin ochibdi Pegas.  
Sizilib oqmaydi undan muzday suv,  
Achigan sharobday ko‘pirmaydi u;  
Yaroqsiz suvlardan xoli, ozoda,  
Rom bilan vinoning aralashmasi –  
Go‘yo Trigorskda, bizning zamonda  
Erkin tashnalikning ochgan chashmasi –  
Sof va olivjanob ichimlikday u,  
Mast qilar, uyg‘otar besabr tuyg‘u.

1826

*Asqad Muxtor tarjimasi*



\* \* \*

Achchiq satiraning otash muzasi!  
Kel, mening otashin da'vatimga kel!  
Menga kerak emas maqtov lirasi,  
Menga Yuvenalning qamchisini ber!  
Lekin, bu badhazm epigrammam  
Nodon taqlidchilar, asti sizgamas,  
Ey, badnafs tarjimon, qofiyaparast –  
Bechora no'noqlar, bo'ling xotirjam!  
Xotirjam bo'lingiz, sho'rlik shoirlar!  
Jurnal muridlari – yuragi kirlar!  
Omon bo'ling siz ham, tentaklar! Biroq,  
Ey, siz muttahamlar, chiqing yaqinroq!  
Sizning hammangizni, razil, ablahlar,  
Vijdon qiyinog'iga olaman yomon!  
Qaysi biringizni unutsam agar,  
So'rayman, janoblar, aiting shu zamon.  
O, qancha mis manglay – qovoqkallalar,  
O, qancha benomus, orsiz aft-angor,  
Bularning hammasi mendan barobar –  
O'chmaydigan tamg'a olishga tayyor!

1820 – 1826  
*Turob To'la tarjiması*



## 1827-YIL 19-OKTABRDA

Tangri yor bo‘lsin, jo‘ralar, sizga –  
Shoh xizmati-yu hayot g‘amida.  
Do‘stona ishrat bazmlari ham  
Sevgining sirli, shirin damida.

Tangri yor bo‘lsin, jo‘ralar, sizga –  
Bo‘ronlarda-yu tiriklik dardida,  
Yot diyorda ham olis dengizda,  
Ham u qorong‘i yerning qa’rida...<sup>1</sup>

1827

*Mirtemir tarjimasi*



<sup>1</sup> Bu she'r dekabristlarga, Pushkinning litseyda birga o'qigan va keyin Sibirga surgun qilingan do'stlariga (Kyuxelbeker va Pushchinga) bag'ishlangan.

## SHOIR VA OLOMON

### Procul este, profani<sup>1</sup>

Shoir qalbin yondirib ilhom  
Parishonhol chertar lirasin.  
U kuylardi – tegrada avom  
Quloq solar kibrli, xudkom,  
Anglab yetmay gapning sirasin.

Befarosat qora xalq so‘ylar:  
«Yorilguday bo‘lmoqda qulqoq,  
Namuncha u xush sas-la kuylar?  
Qayoqlarga boshlaydi bu choq?  
Ne o‘rgatar, kuylar ne haqda,  
Ko‘ngillarni tutib qiyinoqda  
O‘zboshimcha jodugar misol?  
O‘lani – hur bamisli shamol,  
Ammo shamol yanglig‘ besamar:  
Unda bizga ne naf, ne zarar?»

#### Sh o i r

Tilingni tiy, muhtojlikka g‘arq,  
Aqli qosir, farosatsiz xalq!  
Dod-voy etma manfur va nolon,  
Sen – chuvalchang, ko‘k o‘g‘limas, yo‘q,  
Naf bo‘lsa bas, nafdan ko‘ngling to‘q,  
Senga axir nedir Apollon<sup>2</sup>  
Unda naf yo‘q, xullasi kalom.  
O, marmar-ku bu ma‘bud!... Biroq  
Sening uchun mo‘ndi nafliroq:  
Bo‘lur unda pishirsa taom.

<sup>1</sup> Keting nari, besavodlar (Lot.)

<sup>2</sup> *Apollon* – yunon afsonalarida oftob ma‘budi, san’at homiysi. Bu yerda qadimgi yunon haykaltaroshi Leoxares (eradan avvalgi IVasr) yaratgan va Vatikandagi Belveder muzeyida saqlanayotgan Apollon haykaliga ishora. Haykal san’atning yuksak namunasi hisoblanadi. (*Tarjimon*).

## Olomon

Xo‘p, sen ko‘k o‘g‘li, ilohiy elchi,  
Zakovating, aqlingni, kel-chi,  
Sarf ayla-chi mundoq bizni deb,  
Qalblarimiz pokla-yu ber zeb:  
Jur’atsizmiz, ayyormiz juda,  
Uyatsiz-u badkormiz juda:  
Yurak emas bizdag – kesak,  
Biz – tuhmatchi, biz – qul, biz – tentak;  
Bijg‘ib yotar illatlar tog‘-tog‘,  
Yaqin olib bizlarni siylab  
Koshki bersang ibratli saboq,  
Tinglar edik jon-quloq ila.

### Sh o i r

Bas, shoirga ekanmi havas,  
E, siz bilan nechog‘ ishi bor?  
Fahsh loyiga botmaysizmi! Bas!  
Lira sasi qila olmas kor!  
Siz tobutdek ko‘zga yomonsiz,  
Tentaklikda xo‘p beomonsiz.  
Asradingiz avaylab hanuz,  
Darra, bolta, zindon... bu ne so‘z?!

Yetar endi, ey telba qullar!  
Shaharlarda suprilur yo‘llar –  
Ha, supurmoq – foydali yumush...  
Nima deysiz?.. Kechibon o‘zdan  
Toat qilmay kohinlar sizdan  
Supurgini olsinlarmi?.. Xo‘sh?..

Tirikchilik ikir-chikiri  
Va yo g‘araz, yo savash emas,  
Biz tug‘ildik ilhom sururi,  
Shirin sas-u ibodat deb, bas!

1828

Muhammad Ali tarjimasi

\* \* \*

Gruziya qirlarida tun qorong‘isi,  
Ko‘z oldimda Aragva shovqin soladi.  
G‘amginman va yengilman, dilim qayg‘usi  
Ravshan; sog‘inish mungi dilga to‘ladi.  
Faqat sog‘inish mungi... Mening mungimni –  
Hech nima azoblamas, tashvishga solmas.  
Yangidan sevgim o‘ti olar ko‘ngilni,  
Chunki u sevmay turmas, sevmay turolmas.

1829

*Mirtemir tarjimasi*



## MEHNAT

Totli dam bu: necha yillik mehnatimni tugatdim,  
Nega tag'in sirli hasrat notinch qilar ko'nglimni?  
Yo, ulkan işh bajarilgach, turibman haqqin olib –  
Bekor qolgan mardikordek, bo'lak ishga begona?  
Yo muqaddas kuychilarning, oltin tongning do'stini,  
Tunning tilsiz hamrohini – mehnatimni ko'z  
qiymas?

1830

*Asqad Muxtor tarjiması*



\* \* \*

Shovqinli ko‘chada sarson yursam-da,  
Xalq to‘la cherkovga borib kirsam-da,  
Sho‘x yigitlar bilan bir o‘tirsam-da,  
Meni xayol bosar, o‘y bosar hamon.

Men deyman: bu yillar shoshib o‘tadi,  
Son-sanoqsiz odam bir-bir ketadi,  
Dunyoda kimki bor – bori bitadi,  
Kimningdir so‘ng dami yaqin shu zamon.

So‘qqabosh chinorni har ko‘rganimda –  
O‘rmonlar bobosi, deyman, dilimda –  
Otalarim asrin ko‘rding umringda –  
Mendan so‘ng ham qolib, surasan davron.

Go‘dakni erkalab turganda xushhol,  
Darrov o‘ylab deyman: erkam, yaxshi qol,  
Mening o‘rnimni bos, ko‘rmagil zavol,  
Men tutoqdim, so‘ldim, sen gulla omon!

Har kun, har yilimni o‘tkazib shundoq,  
Odatim – xayolga botaman uzoq,  
Har yil so‘ng nafasdan olaman so‘roq,  
Har soat topaman o‘limdan gumon.

Bilmayman, ajalim duch kelar qayda,  
Jangdami, safarda yo toshqin soyda,  
Yoki go‘rim anov vodiy, to‘qayda,  
Sovuq xokim olar og‘ushi tomon!

O‘likka hamma yer birdak har qalay,  
Tuyg‘usiz tan go‘rda qolmas chirimay,  
Har nechuk istagim: Vatanda o‘lay,  
Aziz tuproq bo‘lsin so‘nggi oshiyon.

Qabrim tegrasida yosh hayot kulsin,  
Qushlar bosh ustimda sayrashib tursin,  
Beparvo tabiat doim barq ursin –  
Mangilik chiroyda yashnab bearmon.

1829 Mirtemir tarjiması

\* \* \*

Qirmizi yuz tanqidchim, bo'rdoqi askiyaboz,  
Doim mazax va ermak senga bizning tolg'in soz,  
Kel, bir nafas yonimda o'tirishga unagin,  
La'nat g'am-gussaga chidarmizmi, sinagin.

Qara, qandoq manzara: qator bu g'arib kapa,  
U yoni qora tuproq yonbag'ir, yassi tepa,  
Ustlarida quyilgan sur bulutlar, tumanlar.  
Qani yorug' dalalar? Qani qalin o'rmonlar?

Qayda anhor? Boq, anov pastak qo'ra ichiga –  
Ikki sho'rlik tol turar ko'zlarning quvonchiga,  
Ikki, xolos... Uning ham biri yaydoq-yalang'och.  
Kuz yomg'iri dastidan qup-quruq qolgan yog'och.  
U birida sap-sariq uvib qolgan yaproqlar,  
Ko'lma kni bulg'ash uchun yelga faqat intizor,  
Shugina! Qo'rasida yo'q tirik biron kuchuk.  
Rostdan ham, ana dehqon, yalang bosh eltar o'lik.  
Chaqaloqning tobuti, izma-iz ikki ayol,  
Erinchak pop bolasin uzoq hayhaylar dehqon:  
Otangni chaqir-chi, – der, – cherkovni ochsin darhol.  
Jadalroq! Hech fursat yo'q! – Ko'mardim allaqachon.  
Nega xo'mrayding? – Qani, tentaklikni tashlasang.  
Bizni yupantirgali bir xirgoyi boshlasang?

Sen qayoqqa? – Moskvaga! Bu yerda yurmay bekor,  
Graf to'yidan qolmay! – To'xta, hay, karantin bor,  
Axir bizning o'lkada hozir hindu vabosi.  
O'tir, bir choq muhtasham Kavkazning darvozasi –  
Yonida itoatkor navkaring o'tirganday.  
Sho'xlik qani, og'ayni? Ha! G'ussa bosdi – hay, hay!

1830  
*Mirtemir tarjiması*

## YOLVORISH

O, agar bu rost bo'lsa, tunda –  
Bitganida odamning umri,  
Qabrlarning toshiga shunda  
Yalt-yalt tushsa ko'kdan oy nuri,  
O, agar bu rost bo'lsa, shundoq  
Bo'sh qolsa tinch mozorning bari –  
Men Layliga bo'lib ko'p mushtoq;  
Chorlayman: kel, do'stim, men sari!

Avvallari ko'ringaniningday  
Mahbub ruhi, bo'lgil namoyon,  
So'nggi g'amdan o'zgarib chiroy  
Rangsiz, holsiz, qish kunisimon.  
Kel, yengil kuy yoki shamol, yo –  
Olisdagi yulduz singari,  
Kel, misoli dahshatli siymo,  
Menga farqsiz: kelgil men sari!

O, seni men chaqirishim bu,  
Sevgilimni kek bilan xazon –  
Etganlarga ta'na emas-ku,  
Yoki meni ahyon va ahyon –  
Qiynagandan shubhalar qahri,  
Tobut sirin fosh etish emas...  
G'amgin deyman: sevaman payvast,  
Senikiman, kelgil men sari!

1830

*Ramz Bobojon tarjimasi*

\* \* \*

Meri uchun ichaman,  
Meriginam dirlab,  
Jim eshik berkitaman,  
Mehmonim yo‘q, men tanho,  
Meri uchun ichaman.

Merimdan chiroyliroq,  
Bo‘lsa bo‘lar, ehtimol,  
Bunday parining biroq, –  
Bo‘lishligi ko‘p mahol,  
Bunday mehribon, quvnoq!

Baxtiyor bo‘lgin, Meri.  
Hayotimning quyoshi.  
G‘am, hijron ko‘rma, pari,  
Yasha, bilmay ko‘z yoshi,  
Baxtiyor bo‘lgin, Meri.

1830

*Mirtemir tarjiması*



## NASL-NASABIM

Gala-gala rus qalamkashlar  
Hamkorini qilib masxara,  
Meni zodagon deb atashar,  
Bu bema'ni gaplarni qara!  
Na ofitser va na asessor,  
Na zoti-nasabim dvoryan,  
Akademik va na professor;  
Men anchayin rus meshchaniman.

Davr illati menga tushunarli,  
Unga qarshi turmayman biroq:  
Bizda yangi – tug'ma nomdorlik,  
Yangi bo'lgan sari nomdorroq.  
Qaqshab bitgan urug'lar yodi  
(Baxtga qarshi, yolg'iz emasman),  
Men qadimgi boyar avlodii;  
Birodarlar, men mayda meshchan.

Mening bobom quymoq sotmagan,  
Bo'yoqchilik qilib shohlarga  
Quldan knyazlikka o'zin otmagan,  
Jo'r bo'lman u maddohlarga,  
Avstriyaning upa surkagan  
Qo'shinidan qochgan soldatmas,  
Men oqsuyak emishmanmi? Bas,  
Men, xudoga shukur, meshchanman.

Jangda ezgu Nevskiy uchun  
Xizmat qilgan Racha – ajdodim;  
Tojdar zolim – Ivan IV  
Rahmi shafqat qilgan avlodin.  
Shohlar-la el bo'lgan Pushkinlar;  
Ko'plarining taralgan shoni  
Polyaklar-la olishgan kunlar  
Nijenovgorod meshchani.

Barham berib makr-u adovat  
Ham shiddatli urush-xavflarni,

Yorliq tutib, Romanovlarni  
Xalq taxtga qilganda da'vat,  
Shu yorliqqa imzo chekkanmiz,  
Jafokashning o'g'li rahm etgan.  
Bir vaqt biz ham bo'lganmiz aziz;  
Ha, bo'lganmiz... lekin men – meshchan.  
O'jarlikdir bizni xor qilgan:  
Opoq bobom bir so'zli edi,  
Petr bilan chiqishmay didi,  
Shuning uchun dorga osilgan.  
Bu bizlarga saboq bo'lsinki,  
Podshoh bahsni yoqtirmas ekan.  
Baxtli – knyaz Yakov Dolgorukiy  
Aqlidir u yuvosh meshchan.

Mening bobom Petergof qasri  
Ichra bo'lgan isyon paytida  
Sodiq qoldi Minix singari,  
Petr III ning halokatiga.

Shunda bo'ldi Orlovlar aziz,  
Bobom esa tushdi zindonga,  
Bosh egdi shiddatli naslimiz,  
Va men, meshchan, keldim jahonga.

Gerbli muhrim ostiga ko'mdim  
Qo'limdag'i to'p-to'p yorliqni,  
Kiborlar-la yo'q bordi-keldim,  
Tiydim qonda isyonkorlikni.  
Men bir savodxonman, bir nozim,  
Musin emas, faqat Pushkinman,  
Na boy-u saroyda mulozim,  
O'zim katta odam: men – meshchan.

#### Post scriptum

Figlyarin to'qipti uyda o'ltirib:  
Mening qora tanli bobom Gannibal  
Go'yoki bir shisha romga sotilib,

Shkiper qo'liga tushgan mish tugal.  
U shkiper shonli va bizning elni  
Harakatga solgan bir darg'a edi,  
Jonajon kemada tutganda rulni  
Unga kuchli davlat sur'atin berdi.

Darg'a betakalluf edi bobomga,  
Arzon tushgan arab bardoshli edi,  
Sidqidillik bilan chiqdi dovonga,  
Shohning quli emas, sirdoshi edi.

Gannibal bobomning mashhur farzandi,  
Chesmenda u boshliq bo'lgan janglarda  
Azim korabllar lovullab yondi,  
Quladi Navarin birinchi marta.

Figlyarin ilhomning jazavasida  
Dvoryan meshchani deb atabdi meni.  
O'zi kim mo'tabar oilasida?  
Umi?.. Meshchan ko'chasining dvoryani.

1830  
*Asqad Muxtor tarjimasi*



## BUDRIS VA UNING O'G'ILLARI

(Adam Mitskevichdan)

Budrisda bor uch o'g'lon, litvalik uch navqiron,  
Keldi ular qoshiga chol maslahat solgani.  
«Egarlarni qiling taxt, ot shay bo'lsin hammavaqt.  
Charxlab qo'ying, bolalar, qilichni, oyboltani.

Haqiqatdir shu xabar: uch tomonga barobar  
Yurish qilish niyati Vilnoda tug'ilibdi.  
Hokim Kestut ruslarga, Olgerd esa pruslarga,  
Paz polyaklarga qarshi yurish qilmoq bo'libdi.

Siz hali navqironsiz va abjir pahlavonsiz,  
(Hammang Litva xudosin panohida omon bo'l!),  
Chiqolmayman safarga, sizni yo'llay zafarga;  
Uchovlonsiz, uchingizga mana uchta ochiq yo'l.

Hammangga ulush katta: biring Novegradda  
Ruslardan o'lya olib, yashay bersin badavlat.  
Rus xotinlar xushbichim, egnida qimmat kiyim,  
Ro'zg'orida mo'lchilik, saxiylik rasm-odat.

Biringiz pruslardan, la'natি iblislardan  
Qimmatbaho narsalar topa olar bir talay,  
Dunyo-dunyo pul unda, movutlar gul-gul unda,  
Kahrabo-chi, behisob, dengizdagи qumlarday.

Paz bilan uchinchingiz lyaxni ursin qo'rquvsiz:  
Polshada moli davlat, zebi ziynat ko'p emas,  
Olsa arzir shamshirin; ammo u yerdan biring,  
Aminmanki, uymiga kelinsiz qaytib kelmas.

Polyak qizidan go'zal malika yo'qdir azal,  
Pech yonida o'ynagan mushukchaday xushchaqchaq –  
Yiltillar ko'zları ham, xuddi yonar ikki sham,  
Atirgulday qirmizi, yuzları momoqaymoq.

Hali yigit ekanman, qallig‘ olib kelganman,  
Hay bolalar, o‘zim ham shu Polshaga borganda.  
Mana, qarib qolsam ham uni eslayman har dam  
Hamon o‘sha tomonga ko‘zim tushib qolganda».

O‘g‘illar qo‘l siqishdi va safarga chiqishdi.  
Ko‘z tikar yo‘llariga uydan jilolmagan chol.  
Kunlar o‘tar basma-bas, birontasi ham kelmas,  
O‘ldirdilar, shekilli, deb Budris qildi xayol!

Qor yog‘adi gupillab, otliq kelar dukurlab,  
Chakmonining tagida kattagina bir tugun.  
«O‘g‘lim, sovg‘ami? Nima? Obbo, sen-ey, pulmi-a?»  
«Yo‘q, otajon, pul emas, polyak qizin keltirdim».

Pag‘a-pag‘a qor tushar, otliq shamolday uchar,  
Qora chakmon ostiga yashiribdi bir tugun.  
«Chakmoningda nima bor? Movut emasmi gul dor?»  
«Yo‘q, ota, movut emas, polyak qizin keltirdim».

Qor yog‘adi gupillab, so‘nggi otliq dukurlab,  
Qora chakmon ostida olib kelar bir tugun.  
Chol Budris tinim bilmas, so‘ragisi ham kelmas,  
Birdaniga uch to‘yga mehmon chaqirar bugun.

1833  
*Asqad Muxtor tarjimasi*

\* \* \*

Aqldan ozdirma, Xudo taolo;  
Yo‘q! Tayoq va xurjun baridan a’lo,  
Mehnat, zahmat chekishlik oson.

Aql-u idrokning qadr-u qimmati,  
Undan ajralishning yomon illati  
Shundagina emas, bu ayon:

Meni erkinlikda qo‘ysalar tanho  
Chaqmoq tezligida uchardim go‘yo  
Qop-qorong‘u o‘rmonzor sari!  
O‘rtanib, alahlab kuylardim shunda,  
Ajib xayolotdan chiqqan tutunda  
Ko‘rinmasdan bo‘lib sarsari.

Men ham to‘lqinlarga solardim qulqoq,  
Baxt-u saodatga to‘lib o‘sha choq, –  
Ochiq ko‘kka qarardim sekin.  
O‘zimni sezardim, dashtni uchirgan,  
O‘rmonni joyidan yiqib ko‘chirgan  
Quyun kabi qudratli, erkin.  
Aqldan ozdingmi, bu yomon kulfat,  
Qo‘rinchli bo‘lasan, misoli ofat,  
Ustingdan qulf solinur xuddi,  
Ahmoqni zanjirband etarlar darrov.  
Qafasdagi yirtqich singari birov  
Seni o‘ynab qiladi kulgi.

Men bo‘lsam tinglayman qorong‘u kecha:  
Na bulbulning yangroq ovozin picha,  
Na emanzor guvillashini,  
Tinglayman do‘stlarning chaqiriqlarin,  
Tungi soqchilarning so‘kinishlarin  
Va kishanlar shaldirashini.

1833

Ramz Bobojon tarjiması

\* \* \*

Bas, yetar, bas, jon do'stim! Tinchlik so'raydi yurak,  
Kun ketidan kun uchar – umrimizdan bir bo'lak –  
Har soat uzib ketar; biz bo'lsa ikkalamiz  
Yashamoqchi bo'lamiz, ammo rosti – o'lamiz.  
Yorug'likda baxt yo'q, ammo tinchlik va erk bor,  
Ko'p zamonki, bir havas keladi xayolimga,  
Ko'pdan charchagan quling qochishni o'ylab yurar  
Pok mehnat, rohat yurti – u uzoq makoniga...

1834

*Mirtemir tarjimasi*



## G'ARBIY SLAVYAN QO'SHIQLARI

### GAYDUK XRIZICH

G'or ichida, chaqir toshlar aro  
Dadil gayduk Xrizich berkindi.  
Katerina – uning xotini  
Ikki o'g'ilchasi bilan yonida.  
Chiqolmaydi ular bu g'ordan. –  
Yovuz dushman poylab turibdi,  
Agar jindak bosh ko'tarsalar  
Qirq miltiqqa bo'lارlar nishon.  
Taom ko'rma dilar uch kecha-kunduz,  
Toshlar chuqurida to'plangan  
Yomg'ir suvin ichdilar faqat.  
To'rtinchi kun balqidi quyosh.  
Chuqurlikda suv qurib bitdi.  
Katerina oh tortdi shunda:  
«Rahm-shafqat qil, parvardigor!»  
Shundayoq yiqilib jon berdi.  
Xrizich unga qarab yum-yum yig'ladi;  
O'g'illar yig'lashga qilmadi jur'at,  
Xrizich yuzin chetga burganda  
Ko'z yoshtarin artdilar, xolos.  
Beshinchchi kun, aqdan ozib,  
Uxlagan kiyikka boqqan bo'riday,  
Ona jasadiga tikildi o'g'il.  
Buni ko'rib qo'rqqan kichigi  
Akasiga qarab qichqirdi:  
«Joningni qiynama, akajon!  
Ichgin mening issiq qonimni,  
Bunda agar ochlikdan o'lsak,  
Kechalari chiqib qabrdan  
Uxlagan dushmanning qonin so'rarmiz». –  
Xrizich turib, der ularga: «Bas!  
Ochlik, tashnalikdan o'q afzal».  
Shunda uchovi ham qoyadan pastga  
Quturgan bo'riday sakrab chopdilar.

Har biri o'ldirdi yetti dushmanni  
Va har biri yedi yetti o'q;  
Dushman qirqib ularning boshin,  
Nayzalarga sanchib ko'tardi.  
Ammo yov ularga boqolmadi tik –  
Xrizichlar dushmanga shu qadar dahshat.

*Asqad Muxtor tarjimasi*



## IAKINF MAGLANOVICHNING MOTAM QO'SHIG'I

Oq yo'l, uzoq safarga tushgin!  
Yo'l toparsan, Xudoga shukur.  
Kecha oydin; charaqlaydi oy;  
Tagigacha sipqarildi may.

O'q afzaldir yotgandan bemor;  
Erkin yashab va erkin o'lding.  
Yoving qochdi bo'lib tor-mor;  
Ammo uni o'ldirdi o'g'ling.

U dunyoda bizni esga ol,  
Diydor ko'rishsanglar, ehtimol.  
Unutmagan, ukam, azizim,  
Otamizga mendan ham ta'zim!

Uchrashganda otamga aytgil:  
Yaram bitdi, bo'lsin xotirjam,  
Salomatman. Yan degan o'g'il  
Tug'ib berdi menga rafiqam.

Bobo hurmatiga, ismi – Yan,  
Aqli raso yigit bo'ladi.  
Nayza ushslashni ham o'rgangan,  
Miltiq otishni ham biladi.

Qizim mening Lizgorda yashar,  
Eri bilan totuv va xursand.  
Tvark qildi dengizga safar,  
Tirikmi, yo'q – o'zing bilarsan.

Oq yo'l, uzoq safarga tushgin!  
Yo'l toparsan, Xudoga shukur.  
Kecha oydin; charaqlaydi oy;  
Tagigacha sipqarildi may.

*Asqad Muxtor tarjimasini*

## BULBUL

Bulbulim, ey bulbulginam,  
O'rmonlarda kezgan qushcha.  
Sen qushchada shirin biram  
Tengsiz, noyob uch qo'shiqcha.  
Menda-chi, men mard o'g'londa –  
Uch zo'r qayg'u-mashaqqat bor!  
Birinchisin aytsam agar –  
O'ylantirgan yosh chog'imda;  
Ikkinchisin aytsam agar –  
Tulpor otim horg'in, charchoq.  
Uchinchisin aytsam agar –  
Go'zal qizdan tushdim yiroq,  
Ayirdilar shum odamlar.  
Mening uchun go'r qazinglar  
Keng dalada, keng dalada,  
Bosh yog'imni eting gulzor,  
Yashnab tursin qizil gullar,  
Oyog'imda oqsin buloq,  
Ariqchada muzdek suvlar.  
Go'zal qizlar o'tgan choqda  
Bog'lab olar chambar guldan.  
Chol bobolar o'tgan choqda,  
Hovuch-hovuch ichar suvdan.

*Asqad Muxtor tarjimasi*

## VURDALAK

Vanya sho'rlik o'zi qo'rqoqroq:  
Qabristonda, bir kun bemahal,  
Terga botgan qo'rquvdan oppoq,  
Uyga qaytib borardi jadal.

Qoqinadi Vanya bechora,  
Go'r oralab borar jonsarak,  
Birdan quloq solsa – qabr ora  
Kimir uvlab kemirar suyak.

Qotdi, jilolmadi joyidan.  
Xudovando! – deb o'yladi u, –  
Go'ristonda suyak g'ajigan  
Og'zi qizil vurdalak-ku bu.

Nima qildim! Quvvatim kamroq;  
Bu alvasti yeidi-ku meni,  
Agar o'zim duo o'qiboq  
Yeb olmasam go'r tuprog'ini.

Qarasaki, qayda vurdalak –  
(Jahlin ko'rsang Vanyaning shunda!)  
Go'rlar orasida bir ko'ppak  
Suyak g'ajib yotibdi tunda.

*Asqad Muxtor tarjiması*

## SINGIL VA AKALAR

Ikki eman daraxt o'sgandi qator,  
Bular o'rtasida bir nozik archa.  
O'sgan eman emas – ikki og'ayni,  
O'sib-ulg'ayishib birga yashardi:  
Biri Pavel edi, biri Radula,  
Bular o'rtasida – singil Yelitsa.  
Akalar sevardi yolg'iz singilni,  
Unga chin yurakdan bo'lib mehribon:  
Bir kuni bir pichoq taqdim etdilar,  
O'zi zarhallangan, qini kumushdan.  
Ranjiydi yangasi – u yosh Pavlixa,  
Qayin egachiga qiladi hasad.  
«Ovsin, menga qara, qadrdon singil,  
Deydi Radulaning xotiniga u:  
Eshitmaganmisan shunday bir o'tni:  
Uni ezib ichgan kishi daf'atan –  
O'z tug'ishganiga ko'rinsin yomon?»  
Radula xotini beradi javob:  
«Xudo haqqi, opa, qadrdon ovsin,  
Bilmayman bundayin irimli o'tni,  
Bilganda ham senga aytmasdim aslo.  
Akalarim shunday meni ham sevgan,  
Menga ham xilma-xil sovg'a berishgan».  
Mana, otxonaga bordi Pavlixa,  
To'riq otni so'yib qonin oqizdi,  
Qaytib kelib dedi o'z eriga u:  
«Singlingni sevishing o'zingga balo.  
Sovg'alar berasan unga behuda:  
O'ldiribdi sening to'riq otingni».  
Pavel Yelitsani qiladi so'roq:  
«Bu nega? Ayt menga, ayt, xudo haqqi»,  
Singlisi yosh to'kib, javob beradi:  
«Men emas, akajon, juvonmarg bo'lay,  
Va yosh hayotimiz haqqi qasamyod!»  
Ishonar, hech narsa demas akasi.  
Mana ko'm-ko'k boqqa kirdi Pavlixa,  
Shartta ko'k lochinning boshini uzdi,

Qaytib kelib dedi o'z xo'jasiga:  
«Singlingni sevishing o'zingga balo,  
Sovg'alar berasan unga behuda:  
Mana o'ldiribdi ko'k lochininingni».  
Pavel Yelitsani qiladi so'roq:  
«Bu nega? Ayt menga, ayt, xudo haqqi?»  
Singlisi yosh to'kib javob beradi:  
«Men emas, akajon, juvonmarg bo'lay,  
Va yosh hayotimiz haqqi, qasamyod!..»  
Bu gal ham ishonar akasi yana.  
Qorong'i kechada Pavlixa sekin  
Qayin egachisin pichog'in oldi,  
O'zining norasta yolg'iz o'g'lini  
Oltin beshigida so'yib o'lindi.  
Ertalab yugurib bordi eriga,  
Yig'lab, faryod solib sochlarin yuldi:  
«Singlingni sevishing o'zingga balo,  
Sovg'alar berasan unga behuda:  
Mana, o'ldiribdi o'g'limizni u,  
Agar ishonmasang bu gal ham menga,  
Borib ko'rgil uning zarhal pichog'in».  
Sakrab turdi Pavel shu zamon,  
Yelitsa uyiga yugurib bordi:  
Singlisi to'shakda uxlab yotardi,  
Boshida osig'liq zarhal pichog'i.  
Qinidan sug'urib qaradi Pavel –  
Pichoq bo'yalgandi qip-qizil qonga.  
Siltab tortdi qizning oppoq qo'lidan:  
«Xudo urgur singil, bu nega, aytgin,  
Otxonada to'riq otni o'ldirding,  
Bog'da ko'k lochinning uzzding boshini,  
Endi bolamizni so'yibsan, nega?»  
Singlisi zor yig'lab javob beradi:  
«Men emas, akajon, juvonmarg bo'lay,  
Va yosh hayotimiz haqqi, qasamyod!..  
Agar ishonmasang mening ontimga,  
Olib chiq mayliga taqir dalaga,  
Bog'lagin yugurik otlar dumiga,  
Ular sudrasinlar oppoq tanimni,

Sadpora qilsinlar, roziman, mayli».  
Singlisiga endi ishonmas aka:  
Olib chiqdi uni taqir dalaga,  
Yugurik otlarning dumiga bog'lab,  
Sudratib haydadi otlarni quvib.  
Uning tomchi qoni tomgan har yerdan  
Qirmizi lolalar, chechaklar undi.  
Begunoh va oppoq tani ustida  
Katta cherkov bo'libdi paydo.  
Shundan bir oz fursat o'tgach Pavlixa  
Bir og'ir kasalga bo'ldi mubtalo,  
To'qqiz yilcha davom etdi shu kasal,  
Butun suyagidan o'tlar ko'kardi,  
Bu o'tga in qo'yib yovuz ilonlar  
Kunduz ko'zin so'rib, tunda yotardi,  
Ilon Pavlixani qiyndi shunday.  
Oxiri eriga yalinib dedi:  
«Arzim eshit, to'ram, meni olib bor –  
Qayin egachimning cherkovi tomon:  
Zora shifo topsam men usha joydan».  
Eri yetakladi cherkovga tomon.  
Yaqinlashar ekan oq uyga ular,  
Birdan u cherkovdan chiqdi bir ovoz:  
«Kelma bu tomonga, e yosh Pavlixa,  
Bo'lmaydi sen uchun bu joyda shifo».  
Ovozni eshitgach bu yosh Pavlixa,  
Yalinib-yolvordi o'z xo'jasiga:  
«To'ram, xudo haqqi, so'rayman sendan,  
Olib borma meni oq uyga, to'xta!  
Yugurik otlarning dumiga bog'lab,  
Keng, taqir dalada sudrat meni ham!»  
Xotinning arzini tingladi Pavel,  
Yugurik otlarning dumiga bog'lab  
Keng, taqir dalaga qo'yib yubordi.  
Uning tomchi qoni tomgan har yerdan  
Tikan, qichitqonlar o'sib chiqardi.  
Uning oppoq tani qolgan o'rinda  
Ajoyib, katta bir ko'l bo'ldi paydo.  
To'riq ot shu ko'lda suzib yuribdi,

Uning orqasidan zarhal beshik ham;  
Beshikning ustiga ko‘k lochin qo‘ngan,  
Unda norasida go‘dak yotibdi;  
Bolaning bo‘g‘zida onaning qo‘li  
Hamda ammasining zarhal pichog‘i.

*Mamarasul Boboyev tarjimasi*



## OT

«Tulporim, ne uchun kishnamakdasan,  
Ne uchun bo'yningni sen egib olding,  
Ne uchun yollariningni to'lqinlatmaysan,  
Ne uchun suvlig'ingni chaynamay qolding?  
Yoki o'ynatolmay qoldimmi sani?  
Yoki yemadingmi to'yib arpani?  
Yo egar-jabdug'ing go'zal emasmi?  
Jiloving ipakdan to'qilmaganmi,  
Yo, taqang kumushdan quyilmaganmi,  
Uzanging qip-qizil zarhal emasmi?»

Javob qaytaradi qayg'uli tulpor:  
«Ma'yus bo'lganimning sabablari bor,  
Eshitdim uzoqda tuyoqlar sasin.  
O'qlarning tovushin, karnay sadosin:  
Kishnashimga sabab shuki, maydonda  
Uzoq kezolmayman yolim o'ynatib,  
Uzoq yasholmayman yashnab oromda,  
Go'zal jabdug'imni maqtab ko'rsatib,  
Chunki, tez orada beshafqat dushman  
Egar-jabdug'imni yechib oladi,  
Shamol kabi yengil oyoqlarimdan  
Kumush taqamni ham tortib oladi:  
Qayg'um bejiz emas, egarimni yov –  
Ustidan tortqilab olib ketadi  
Va sening teringni shilib beayov,  
Terlagan yag'rinim yopib ketadi».

1834

*Hamid G'ulom tarjiması*

\* \* \*

Oramizda yashagandi ul<sup>1</sup>  
Unga yot qavm aro; ko'nglida zarra  
Yo'q edi bizlarga kin-u adovat.  
Biz uni sevardik. Yuvosh, beozor –  
Barcha suhbatlardan qolmas edi u,  
Orzular, qo'shiqlar edi o'rtada,  
(Haq inoyatidan olardi ilhom,  
Hayotga ham ko'kdan boqardi). Tez-tez  
So'yldari kelajak zamonlar haqda,  
Derdiki: «Nizoni unutib xalqlar  
Ulug' oilaga birlashajaklar!»  
Ochiqib tinglardik shoirni. G'arbga  
Jo'nab ketdi shoir. Tilashib oq yo'l,  
Xushlashib qoldik biz. Biroq-chi, endi  
Yuvosh mehmonimiz yovliq qilmoqda,  
Bevosh olomonning ra'yiga qarab,  
She'riy pardalarga nafrat joylabon  
Zahar quymoqdadir kalomlariga.  
Qahrvor shoirning sasi olisdan  
Eshitilib turar!.. O. Tangri, o'zing  
Darg'azab qalbiga tinchlik ato et,  
Va unga qaytargil...

1834  
*Muhammad Ali tarjiması*

<sup>1</sup> She'r buyuk polyak shoiri Adam Mitskevich (1798–1855)ga bag'ishlangan.  
(*Tarjimon*).

\* \* \*

O'yladimki, yurak unutdi  
Muhabbatning ezgu azobin,  
Dedim: o'tgan barisi o'tdi,  
O'tdi! Qaytib kelmaydi tag'in.

O'tib ketdi zavq-da, qayg'u-da  
Va havoyi yengil umidlar...  
Ammo o'tkir husn oldida  
Tushdi yana larzaga ular.

1835

Zulfiya tarjiması



Yoshlik bayramimiz bizning bir vaqtlar  
 Shod edi, yashnardi gulchambar kiyib,  
 Qadahlar jaranglar kuyga jo'r bo'lib,  
 Tig'iz o'ltirardi davrada saflar.  
 Beg'am va beparvo qalb-la u zamon –  
 Yashardik mushkulni etib bartaraf,  
 Qadah ko'tarardik umid va armon,  
 Yoshlik – hammasiga ro'shnolik tilab.

Endi o'zgachadir: suronli bayram,  
 Yillar o'tish bilan biz kabi abgor,  
 Tiyildi, tinchlandi, unda yo'q viqor.  
 Jarangi bo'g'ildi qadahlarning ham.  
 Davramizda so'zlar oqmaydi sho'xchan,  
 Siyrak o'ltiramiz g'amgin, bemajol.  
 Kulgi kam, qo'shiqlar oralab ba'zan,  
 Ko'proq oh tortamiz va qolamiz lol.

Mana payti keldi: yigirma besh bor  
 Ezgu litsey kunin etamiz bayram.  
 Sezdirmay quvlashib o'tdi yillar ham,  
 Bizni o'zgartirib yubormish zinhor!  
 Behuda emas – yo'q! O'tdi chorak asr!  
 Zorlanmang: taqdirda qonuniyat shu;  
 Inson atrofida dunyo aylanur,  
 Nahot, harakatsiz qolar u mangu?  
 Eslaysizmi, do'stlar, davramizni naq  
 Taqdir qovushtirgan u kun, u zamon.

Biz nelar guvohi bo'ldik, bu ayon!  
 Sirli bir o'yinda misli o'yinchoq,  
 Xalqlar qahr-g'azabdan qildi g'alayon,  
 Shohlar taxtga chiqdi va kunpayakun,  
 Inson qonlaridan qizardi maydon,  
 Goh sharaf, goh erklik, goh g'urur uchun.

Eslaysizmi: litsey bo‘lganda bino,  
Biz uchun shoh ochdi shohona bir ko‘shk,  
Biz keldik. Kunitsin kutib oldi xush,  
Tabriklab shohona mehmonlar aro.  
U choq o‘n ikkinchi yil gulduragi  
Hali mizg‘ir edi. Hali Napoleon  
Ulug‘ xalq kuchini sinamagandi –  
Tahdid, ikkilanish qalbida hamon.

Eslaysizmi: o‘tdi ketma-ket qo‘shin,  
Og‘alarimiz-la vidolashdik biz.  
Ma‘rifatga qaytdik – alamlar cheksiz,  
Havas-la qaradik biz o‘lim uchun –  
Ketayotganlarga... nasllar jang qildi,  
Rus halqaga oldi maqtanchoq yovni,  
Moskva yong‘ini yoritdi uning –  
Polklari yo‘lida qor va qirovni.

Eslaysizmi: bizning g‘olib Agamemnon,  
U tutqun Parijdan bizga kelganin,  
Uning ko‘z oldida sevinch yelganin!  
U qanday ulug‘vor, ko‘rkam, pahlavon.

Xalqlar do‘sti edi, erkiga posbon,  
Yodingizda bordir – shunda naqadar  
Suvlar to‘lqin urdi, gullab bog‘-bo‘ston,  
U hordiq chiqargan yerda, jilvagar.

U endi yo‘q! – etib boshlarni osmon,  
Hayratda qoldirgan Gusni tark etmish,  
Unutilgan quvg‘in umr qoyada o‘tmish,  
Barchaga begona, so‘ndi Napoleon,  
Va yangi dahshatl, qudratli podsho  
Yevropa yurtida taxtdadir tetik,  
Yer ustida yangi bulutlar paydo,  
Va ularning bo‘roni...

1836  
*Ramz Bobojon tarjimasি*

## ELEGIYA

Beparvo yillarning so‘ngan sho‘x dami  
Sarxush bosh og‘rig‘i kabi azobli.  
Xuddi sharob kabi u kunlar g‘ami  
Qanchalik eskirsa, shuncha zardobli.  
Yo‘l og‘ir. Istiqbol bo‘ronli ummon;  
Mehnat, qayg‘u va‘da qiladi hamon.

Ammo istamayman, do‘sstar, o‘lishni,  
Istayman qiynalish, fikr qilishni.  
Ko‘raman – zo‘r g‘avg‘o, g‘amlar ichradir,  
Tashvishlar ichradir men uchun huzur.  
Goh bo‘lib kuylarg‘a maftun, osuda,  
Xayollarim uzra men to‘kaman yosh.  
Balki, ishq umrimning g‘amli so‘ngida –  
Ko‘rinar alvido tabassumi-la.

1830

*Mamarasul Boboyev tarjimasি*

## DO'STLARIMGA

Xudo sizga in'om aylamish  
Oltin kunlar, zarrin kechalar.  
Xumor ko'z-la boqib siylamish  
Gulday qizlar, necha-nechalar.  
O'ynang, kuling, chiqquncha izdan,  
To tong sahar ko'tarmangiz bosh.  
Sizning beg'am shodligingizdan  
Jilmayurman ko'zlarimda yosh.

1816

*Muhammad Ali tarjiması*



## SHCHERBININGA<sup>1</sup>

**Ey qadrdon, kimnidir bu dam**

Qiziqtirmas telba ehtiros,  
Boshqaning ham ishqqa vaqtı kam,  
Turfa ishga qo‘ygandır ixlos;  
Kimdır, oqshom Nadenka<sup>2</sup> ikkov  
Don olishar bir chetda shu tob,  
Strasburgcha pirog yeb darrov  
Orqasidan tortadi sharob.  
Tashvishlarni kimdir unutib  
Berilgancha zavq-shavqqa butun,  
Taqvodorday dinni yod etib  
Monax qiz-la o‘tkazadi tun.  
Mudrab olar ertalab to‘yib,  
«Invalid»ni varaqlar keyin;  
Vaqtichog‘lik, surur – kun bo‘yi,  
Tunda avjda yana «ot o‘yin».

O‘tmasmidi kuminiz shundoq,  
Shcherbinin, ermaklar do‘sti,  
Amur, sho‘xlik, mayni urdik oq,  
Yosh, sog‘lommiz, ko‘nglimiz o‘sdi.  
Biroq yoshlik uchdi-da ketdi,  
Vaqtichog‘lik etdi bizni tark,  
Xohishga zid tuyg‘ular endi,  
Dil qaqradi, sovidi yurak.  
Endi – kuy yo‘q, yo‘q dildorlar ham,  
Na farog‘at, na xohish, na zavq,  
Shodlik topay, deya do‘stginam,  
Bo‘lajakmiz xotiraga g‘arq.  
Bosh tebratib deyman o‘shal on,  
Go‘r og‘zida, so‘zimda tamiz:  
«Esingdami, Fanni, qadrdon?...» –  
Ikkimiz ham kulib qo‘yamiz.

1819

Muhammad Ali tarjimasi

<sup>1</sup> Shcherbinin Mixail Andreyevich (1793–1841) – ofitser, «Yashil chiroq» to‘garagi a’zosi.

<sup>2</sup> Nadenka Forst, Fanni – Peterburgning «ko‘ngilochar qizlari».

## OSGAR

Qabr toshlari aro borar yo'lovchi tanho,  
Hushyor qadam tashlaydi, zim-ziyo tun qop-qora,  
Kimsasiz chor atrofda tumanli zulmat aro  
Qo'nishga joy izlaydi, topilsa deydi zora.  
Qirg'oq ham yalang, bo'm-bo'sh, g'or ham uchramas biron,  
Yo'q hatto baliqchinining kulbasidek xilvat joy.  
Qo'rqinchli shovullaydi yiroqda qalin o'rmon,  
Tong uxlaydi dengizda, bulutlar ortida oy...

Ko'rар: keksa bir kuychi yo'sin<sup>1</sup> bosgan qoyada  
O'lтирар, ayqирган ul kuchli oqимга boqib.  
Kuychi o'tмishdan so'ylar kuy gohi hikoyada,  
Xayolan zamonlarning sas-sadosida oqib.  
G'amgin tolning shoxida osig'liq o'tkir qilich.  
Mo'ysafid yo'lovchiga sokin tashlaydi nazar,  
Yot ellar o'g'li esa qo'rqrar, dilda bir ilinj:  
«Tezroq bundan daf bo'lay, ochay, balodan hazar!»

«To'xta, yo'lovchi! To'xta! – kuychi chol nido qilar, –  
Bunda mardlar yotibdi, ta'zim aylagil bajo!  
Qahramonlar qabrini tavof etar yaxshilar!»  
Yigit tiz cho'kar qalbdan... shu on adirda go'yo –  
Bir necha arvoh qonli boshlari baland holda  
Egildilar yo'Ichiga, yuzlarida tabassum...  
«Kimning tobuti o'sha?» – yigit so'raydi choldan,  
Hassasi bilan sohil yoqni ko'rsatib shu zum.

Tik qoyaga mixlangan po'lat dubulg'a, sadoq  
Oy nurida tovlanib nur sochar edi xira.  
«Evoh! Bunda jon berdi Osgar, yosh edi biroq,  
Bu qoyalari, daralar uni unutmas sira!  
Men ko'rdim, jasur Osgar jangovar safda shodmon,  
Yovga birinchi o'qni otmoqni istar edi.  
Va oldinga tashlandi! Halok bo'ldi-da o'g'lon...  
«Qabringda tinch yot! Topding sharafli qismat!» – dedim.

<sup>1</sup> Yo'sin – mox(rus.)

Senga aytsam, sevardi Malvinani shavq ila,  
Birga kutib olishar sirli oqshomlar aro  
Vodiya oqayotgan oy nurini zavq ila  
Ham qoyalar soyasin qilishardi tamosha.  
Yuraklari bir bo‘lib yonmoq istardi go‘yo;  
Nafas olardi Osgar Malvina bilan faqat.  
Ammo baxt, ishq onlari o‘tdi bamisli ro‘yo,  
Yigit boshiga tushdi shomi g‘am-anduh, kulfat.

Kunlardan bir kun, namxush qish kechasi, zimiston,  
Yosh malakning eshigin qoqadi jigarso‘xta...  
Shivirlaydi: «Gulim, och! Bo‘lay men joningga jon!»  
Ammo kulbadan sas yo‘q. Yigit lol, bir oz to‘xtab,  
Eshikni urar. Sas yo‘q... Shamol guvullar yolg‘iz.  
Uxladingmi, Malvina?... – pag‘a-pag‘a yog‘ar qor,  
Sovuqdan oshiq yigit sochlarini bosar muz, –  
Nega jimsan, bu – menman, menman, Malvina dildor!»

U bot urar eshikni, eshik ochilar mana,  
Ichkari kirar. Sho‘rbaxt yigit boqar-u... qotar!  
Ko‘z oldin tuman bosar! Titrab-qaqshar Malvina,  
Malvinaning qo‘ynida Zvignel degan yotar!..  
G‘azabdan yonar Osgar, ko‘zлari qonga to‘lar,  
Qo‘rquvdan tili bog‘liq, dir-dir titraydi xushtor.  
Shart qilichin sug‘urib Zvignel boshin olar,  
Ruhi uchar, yo‘q bo‘lar tun-kechada sharmisor!

Malvina uchar zor-zor bebaxt xushtor tizzasin,  
Yuzin o‘girib deydi Osgar: «Mayli, tirik qol!  
Nafrat qilurman sendan! Hayf senga ishq izzasi,  
Bevafoning dog‘ini unutarman, ehtimol!»  
Asta chiqar jim, sokin ostonadan tashqari,  
Alam ichini o‘rtar, garang, yuzida qon yo‘q.  
G‘oyib bo‘lar ishq sehri, olamning ham gashtlari,  
U yolg‘izdir, yonida hech kim, joniga jon yo‘q...»

Sho‘rlik yigitni ko‘rdim: bosh eggancha asabiy  
Malvinaning nomini shivirlardi dam-badam;  
Xuddi dengiz qa‘rini qoplagan zulmat kabi

Dunyo qorong‘i edi, yurak to‘la g‘ussa, g‘am.  
U bolalik do‘stiga shoshilib qarar, ammo  
Bir nuqtaga boqqancha do‘stni tanimas uncha.  
Bazmlarga borish yo‘q, tanho g‘am – sahro aro,  
Yolg‘izlikda g‘amiga o‘zi edi ovunchoq.

Osgar bir yil dard chekdi gumon-u armonlarda...  
Birdan jang sado berdi! Odennenning o‘g‘li Fingal  
Qilich tutib mardlarni boshladи maydonlarga,  
Osgarning ham qalbiga o‘tlar tushdi shu mahal!  
Yarq etganda qilichi, o‘lim qochar begumon;  
U – yarador, yiqildi murdalar uzra nogoh!  
Yiqildi – lekin qo‘li qilichin izlar hamon,  
Va asrlar uyqusi uni elitar, evoh!

Dushman zirillab qochdi – tinch uxla, ey qahramon!  
Adirdagi qabr ham sarishtadir, shovqin yot.  
Faqt kuz, namchil havo, oysiz tunda nogahon,  
Tog‘larning cho‘qqisiga qo‘nganida zulumot,  
Qirmizi bulutlar ham tumanga o‘ralgan chog‘,  
Cho‘kar qabr toshiga arvoh, dili to‘la roz...  
Jaranglab uchar o‘qlar, shaqillar qilich-sadoq,  
Zarang daraxti titrab sirli shovullar, xolos...»

1814

*Muhammad Ali tarjimasi*

## ROMANS

Namchil kuzning shomida yolg‘iz  
Bir qiz borar kimsasiz, g‘arib.  
«Bebaxt sevgi mevasin» holsiz  
Qo‘llarida olgan ko‘tarib.  
Atrof sokin – tog‘lar va o‘rmon  
Bari uxlар g‘ira-shirada.  
Olazarak boqib har tomon,  
Borar sho‘rlik, dillari zada.

Tikiladi go‘dakka al’on  
Xo‘rsinadi, yig‘laydi zor-zor:  
«Uyqudasan beg‘am, bolajon,  
Sen bilmassan, dilda ne qaror.  
Ko‘zing ochsang ertaga agar,  
Sen qo‘ymassan ko‘kragimga bosh.  
Onang seni o‘pmas muqarrar,  
Artib qo‘ymas ko‘zlariningdan yosh.

Benaf, uni chorlab naylarsan!..  
Umrim bo‘yi sharmisorman men.  
Meni-ku sen unut aylarsan,  
Ammo... men, men... sen-la borman men!  
Kimdir seni choyshabga o‘rab:  
«Bu bizlarga, deydi, yetti yot!»  
«Ota-onam qayda?» – deb so‘rab,  
Bila olmay, lol qolbung... Hayhot!

Baxtsizginam! Bolalar aro  
O‘ksinasan, qisinib yana.  
Ko‘rib diling bo‘lar yuz pora  
Erkalasa bolasin ona.  
Qayda bo‘lsa tanho yurgaysan;  
Qismatingdan yozg‘irib doim.  
Har joyda ham dashnom ko‘rgaysan,  
Kechir meni, kechir, iloyo.

Sen uxlarsan – kel, baxtiqaro,  
Bosib olay bag‘rimga so‘ng bor.  
Nohaq qonun bizni doimo  
Azoblarga aylaydi duchor.  
Soya solib yillar sitamdan  
Shodligingga qilmasin havas.  
Uxla, jonio! Qayg‘u va g‘amdan  
Bolaliging yiroq bo‘lsa, bas!»

Oy ham o‘rmon ortidan chiqib  
Bir kulbani yoritar pastda.  
Titrab-qaqshab, sho‘rlik, entikib  
Yaqinlashar eshikka asta...  
Egilar-u jish chaqaloqni  
Yot ostona uzra qo‘yar ul.  
Ming azobda yengib firoqni,  
Zimistonda g‘oyib bo‘lar ul...

1814

*Muhammad Ali tarjiması*



## DO‘STLARIMGA

Yo‘q, xushomad qilmasman, har gal  
Shohga erkin bitarkan maqtov:  
Anglatgayman tuyg‘umni darrov,  
So‘zlagayman yurakdan dangal.

Sevib qoldim jo‘ngina, sabab.  
U sezgiru adolatli shoh;  
Jonlantirdi Rusni yor aylab  
Urush, umid, mehnatga nogoh.

Gar qonida yoshlik jo‘sh urar,  
Lekin emas qattol, badkirdor;  
U kimniki qatl etsa oshkor,  
Gunohini xufya kechirar.

Umrim mening kechdi surgunda;  
Jabrin tortdim ayriliq yo‘lin.  
Ammo nogoh shohona qo‘lin  
U cho‘zdi-yu, men yana bunda.

Ilhomimga ehtirom bilan  
U fikrimni ayladi ozod.  
Unga mehrim tovlanib, dildan  
Kuylamasam madhiya, nahot?

Xushomadgo‘y! Yo‘q, do‘stlar, u quv:  
Shoh boshiga keltirar ofat,  
Shohning barcha farmonidan u  
Chetlatadi shafqatni faqat.

U der: xalqni yomon ko‘r, yomon,  
Tabiatning mayin sasin bos,  
Ma‘rifatning mevasi, inon,  
Buzuqligu isyondir, xolos.

Taxtga faqat xushomadgo‘y, qul  
Yaqin bo‘lgan yurt – baxtiqaro,  
Xudo suygan shoir-chi, malul,  
Jim, qismatga boqar g‘amsaro.

\* \* \*

Tanishdir menga jang, tig‘lar kuyi ham;  
Jangovar shuhratni yoshlikdan suydim,  
Qonli ermaklarga ishqimni qo‘ydim,  
Qalbimga xush yoqar o‘lim uyi ham.  
Ey, erkning juvonmard jangchisi, bir dam  
Kimda-kim o‘limga qamti kelmagay,  
Demak, u quvonchning totin bilmagay,  
Noloyiq go‘zallar bo‘sasiga ham.

\* \* \*

Gurjistonning dardlarin, go‘zal,  
Kuylamgil chok etib dilni:  
U eslatur menga har mahal  
O‘zga hayot, olis sohilni.

Yodga solur, hayhot, undagi  
Shafqat bilmas ohang quyuni  
Dashtu tunni va oydindagi  
Olis, sho‘rlik qizning ro‘yini!..

Yozmishdagi sharpani men goh  
Unutgayman senga boqib lol;  
Lekin sen-chi, kuylaysan – nogoh  
Takror uni ko‘rgayman yaqqol.

Gurjistonning dardlarin, go‘zal,  
Kuylamgil chok etib dilni:  
U eslatur menga har mahal  
O‘zga hayot, olis sohilni.

1828

\* \* \*

## ...GA

So'rama, qayg'uli o'y bilan nechun  
Shavqli bazmlarda dilgirman bot-bot.  
Nechun men atrofga boqaman nighun,  
Lazzatli hayotning o'yi menga yot;

So'rama, men nechun sovuq qalb bilan  
Yuz burib sho'x ishqidan zinhor-bazinhor,  
Demadim hech kimni azizam, zotan,  
Kim sevsu bir bora, sevmagay takror;

Kim bilsa gar baxtni, bilmagay takror.  
Qisqadir berilgan rohat umri, so'ng –  
Yoshlikdan, lazzatdan, safodan yodgor  
Qolgusidir faqatgina mung...

1817

\* \* \*

Asra meni, asra, tumorim,  
Asra quvg'in, sargardon paytim,  
Bezovta-yu pushaymon paytim:  
Ey qayg'uli kundan yodgorim.

Bahri muhit titratib borim,  
Bulutlarni yeldirib olg'a,  
Ko'targanda telegramda dolg'a –  
Asra meni, asra, tumorim.

Xorijlarda bitib qarorim,  
Yot oromdan bezgan chog'imda,  
Jang shiddatin sezgan chog'imda  
Asra meni, asra, tumorim.

Totli yolg'on – qutlug' sharorim,  
U – qalb uchun sehrli yog'du...

U – bevafo, nihon bo‘ldi u ...  
Asra meni, asra, tumorim.

Qalb yarasin, ey do‘st-u yorim,  
Tirnamasin xotir – mustabid.  
Uxla, orzu; alvido, umid;  
Asra meni, asra, tumorim.

1825

\* \* \*

Tasodifiy, behuda himmat,  
Nechun ato etilding, hayot?  
Yana nechun sen sirli qismat  
Amri bilan mahkum-u barbod?

Kim, ayt, meni g‘arazli qudrat  
Ila pastdan ko‘tarib chandon,  
Shavqqa qalbim to‘ldirib behad,  
Notinch etdi aqlim gumondan?..

Men bilmayman maqsad zavqini:  
Yurak bo‘m-bo‘sh, idrok – behuda,  
Bir xildagi hayot shovqini  
Quritadi tinkamni juda.

1828

\* \* \*

Tentiymanni ko‘cha bo‘ylab goh,  
Kiramanmi gavjum jomega –  
Bo‘lamanmi yoshlarga hamroh,  
O‘ylar meni tortar domiga!

Deyman: yillar uchar besabr,  
Saflar qancha bo‘lmasisin tig‘iz,

Biz yo‘qlikka singamiz bir-bir, –  
Balki kimdir jon berar shu kez.

Tikilaman: yakkahol eman,  
O‘rmonlarga ul nuroni yir  
Qadimdanki shovullab turgan, –  
Mendan so‘ng ham ko‘rar ko‘p umr.

Chaqaloqni erkalatsam ham  
O‘yim shudir: alvido nihol!  
Senga o‘rin bo‘shatib bu dam,  
Men so‘lgayman, sen yashna xushhol!

Odat: har kun, har yilni sinchil  
O‘ylar bilan kuzatmoq, zotan –  
Menga o‘lim keltirguvchi yil  
Ayon bo‘lsa deyman oldindan.

Ravo ko‘rgay o‘limni taqdir  
Jangdami yo yo‘lda, to‘lqinda?  
Olgaymikan yo qo‘shni adir  
Jasadimni bag‘riga tunda?

Jonsiz vujud, qayda bo‘lsa ham  
Chirimog‘i muqarrar, lekin  
Istar edim, har qalay, yotsam  
Jondan aziz yurtimga yaqin.

Sag‘anamning qoshida ul vaqt  
Bir yosh o‘g‘lon, mayli, o‘ynasin  
Va bu loqayd, yam-yashil xilqat  
Yosharishni mangu qo‘ymasin.

1829

\* \* \*

Ozdirmagil aqldan, Xudo.  
Undan avlo to'rva-yu aso;  
                          Undan zahmat, ranj avlo.  
Bu – aqlimni qadr qilganim,  
Ayrilmoqni dahshat bilganim  
                          Uchun emasdир aslo:

O'z erkimga qo'ysalar, ul kun  
Yayrab-yayrab, misli sho'x qulun  
                          Chopardim o'rmon tomon!  
Men entikib kuylardim qo'shiq,  
Unutardim o'zimni jo'shib,  
                          Sirlı o'ylardan komron.

Tinglar edim mavjlarni bedor,  
Boqar edim mamnun, baxtiyor  
                          Bo'm-bo'sh osmonga uzoq;  
Bo'lar edim cho'ng qudrat tuqqan,  
Yerni titib, emanni yiqqan  
                          Quyun misoli u choq.

Biroq: ozsang aqldan – yomon:  
Qo'rqinchlisan o'latdek ul on,  
                          Seni bandda tutarlar  
Va zanjir band qilishib har kun,  
So'ng panjara ortidan maymun  
                          Kabi mazax etarlar.

Tunda esa men – sho'rlik jinni  
Na bulbullar taratgan unni,  
                          Na o'rmonni tinglayman –  
O'rtoqlarim chinqirar faqat,  
Nazoratchi qichqirar faqat,  
                          Faqat shaldirar kishan.

\* \* \*

Favvoralar salqinidan dur  
Sachragan ul ko'shk aro, bir payt,  
Baxsh etardi xonlarga huzur  
Madhiyaboz shoir aytgan bayt.

Sho'x bazmlar ipiga u shod  
Quv qo'l bilan tizardi sekin  
Xushomadning sof durin kushod,  
Donolikning oltin tasbehin.

Kuylar edi sevib Qrimni  
Sa'diy o'g'li – mashriqlik maddoh.  
Ochar ekan u she'r sirini,  
Tong qolardi Bog'chasarov goh.

Yoyilardi hikoyatlar boz  
Ervanning gilami misol,  
Ular bilan bezanardi soz  
Garoylarning xos bazmi alhol.

Lekin hech bir dono sehrgar, –  
Bo'lsa hamki, benazir g'oyat,  
To'qimagan aslo bu qadar  
Qudrat ila she'r-u hikoyat, –

Yigitlari mag'rur va norg'ul,  
Ayollarli hurdek izzatmand,  
Karomatli va qanotli ul  
Ajib yurtning shoiri monand.

1828

\* \* \*

Podshoga dedilar bir kun: «Nihoyat  
Isyonkor Riego qatl etildi».  
Dedi bir yaltoqi: «Xursandman g‘oyat,  
Yana bir ablahdan dunyo qutuldi!»  
Hamma birdan jimb, yer chizdi nochor,  
Kimlardir iljaydi bu gapdan mulzam.  
Riego Fernando oldida aybdor,  
To‘g‘ri bu. Osildi shuning uchun ham.  
Ayting-chi, lozimmi shu taxlit, biroq,  
Jallod qurbanini haqorat qilmoq?  
Hatto hukmdor ham, qarang, o‘ng‘aysiz,  
Qani jilmaysa, yo bir narsa desa:  
Oliyanob bo‘ling, yaltoqilar, siz  
Razillik bobida jilla qurmasa!

1825

## QUR’ONDAN IQTIBOS

*P.A. Osipovaga bag‘ishlanadi*

### I

Ont ichaman juft-u toq haqqi,  
Qilich haqqi, g‘azovat haqqi,  
Ont ichaman men Zuho haqqi,  
Xuftondagi ibodat haqqi:

Ayt-chi, seni qachon tark etdim?!

Men go‘shai taskin ichra, ayt,  
Boshin silab, kimni berkitdim  
Sinchil nigoh ta’qib etgan payt?!

Men emasmi, sen – tashna uchun  
Sahro suvin yo‘qdan bor qilgan?  
Men emasmi, tilingni butun  
Aqllarga hukmdor qilgan?

Mardona bo'l, yov bil yolg'onni,  
Haq yo'lidan dadil yur, marg'ub,  
Yetimlarni suyub, Qur'onni  
Qullarimga aylagil targ'ib.

## II

Ey, Rasulning pok ayollari,  
Ustuvorsiz jami ayoldan:  
Sizga dahshat – fisq xayollari.  
Siz orombaxsh go'sha ichra sha'n,  
Ma'sum yashang: sizgadir meros  
Bibi Maryam yopingan libos.  
Sadoqatli qalbni asrangiz  
Halol og'ush, qutlug' ishq uchun,  
Osylarning nazari bu kun  
Yuzingizga tushmagay hargiz!

Sizlar esa, ey sahabalar,  
Muhammadga bo'larkan mehmon,  
Zinhor uni g'ayri yo'l tomon  
Boshlamoqqa qiling tavbalar.  
U ilohiy vahiyga shaydo –  
Yashar ekan, boqmagay aslo  
Madhiyalar, hissiz so'zlarga:  
Shukr deya, e'zozlab bazmin,  
Pok dil bilan qilingiz ta'zim  
Uyidagi yosh kanizlarga.

## III

Qovoq uydi, ko'ngli g'ashlanib,  
Ko'r sharpasin sezgan payg'ambar:  
Yugurar-u, yomonlik yanib,  
Dilga raxna solishga ko'rqrar.

Kalomullo senga, payg'ambar,  
Berilmagan shakkoklar uchun.

Targ‘ib ayla Qur’onni, magar  
Osiylarni zo‘rlamoq nechun!

Nimasiga kekkayar inson –  
Tug‘ilgani uchunmi ojiz?  
Qo‘g‘irchokdek yashab notavon,  
So‘ng o‘lgani uchunmi ojiz?

Tangri avval o‘ldirib farshda,  
So‘ng jon ato etganigami?  
Kunlarini qo‘riqlab Arshda –  
Qismatga jo etganigami?

Yo bergani uchunmi rizq-ro‘z,  
Zaytunni ham, xurmo, nonni ham?  
Mehnatini olqishlab beso‘z  
Tokzorni ham, paykal, donni ham?

Sur tortar-u, duv bor Isrofil;  
Yerda qo‘par qiyomat kuni:  
Onasidan bezadi o‘g‘il,  
Og‘asini tark aylar ini.

Quti o‘chib shunda qo‘rquvdan,  
Barcha enur Tangrini tanib  
Va osiylar qular yuztuban  
Lovillagan o‘tga chulg‘anib.

#### IV

Ko‘p qadimda, qodir Yaratgan,  
Kibrdan mast hokim bir kuni  
Bahslashmoqchi bo‘ldi sen bilan;  
Bosib qo‘yding, lekin sen uni.  
Deding: «Yerga baxsh etib hayot,  
Jazolarman o‘lim bilan bot,  
Izmimdadir mening bor dunyo».  
«Men ham, – dedi u, – berib hayot,

Jazolarman o‘lim bilan bot:  
Men sen bilan tengman, ey Xudo».  
Lek sendagi ilohiy shaxtdan  
O‘chdi osiy takabbur uni:  
«Men chiqardim quyoshni sharqdan,  
Qani, chiqar g‘arbdan sen uni!»

V

Yer turg‘undir; gumbazi samo  
Dastingdadir, dasting tolmagay,  
U quruqlik yo suvga aslo  
Qulab, bizni bosib qolmagay.

Sen quyoshni yoqding, Yaratgan,  
U yoritgay yer-u ko‘kni tek  
Billur ichra yog‘du taratgan  
Zaytun moyi singgan pilikdek!

Yaratganga sig‘in, u qodir:  
Jazirama kunda himoya;  
Bulutlarni ko‘kka yig‘adir;  
Baxsh etadir og‘ochga soya.

U shafiqdir: u Muhammadga  
Ochdi porloq Qur’onni Arshdan;  
Topinaylik nuri abadga,  
Ko‘zimizdan arisin tuman.

VI

Kirmadingiz tushga behuda  
Salla o‘rab, aytib takbirlar,  
Qo‘lda tutib qonli shamshirlar  
Siz xandaqda, qal’a ustida.

Tinglang shodon da’vat sasini,  
O‘tli sahro o‘g‘lonlari, siz!

Kanizlarni asir olingiz,  
Bo‘lishingiz jang o‘ljasini!

Siz yengdingiz: sizga shon kular,  
Qo‘rqoqlarning ahvoli xarob.  
G‘azovotga bermadi javob  
Sirli tushga inonmay ular.

Suqlangancha o‘ljaga bu dam,  
Qilmishidan pushaymon, sekin,  
Qo‘sib oling, derlar, bizni ham:  
Sizlar esa rad eting keskin.

Jangda shahid ketganlar, albat,  
Jannatmakon deya oldi nom.  
Ular endi doxilsiz orom,  
Farog‘atga cho‘mdi to abad.

## VII

Qo‘zg‘al, ey xavfnok:  
Bu tun g‘oringda  
Muqaddas chiroqlar:  
Yonur tonggacha.  
Sidqiy toat-la  
Quvgil, payg‘ambar,  
G‘amgin o‘ylarni,  
Nopok ro‘yon!  
Tonggacha toat,  
Ibodat ayla;  
Arsh kitobini  
O‘qi tonggacha!

## VIII

Vijdoningni sotib rangpar faqirlik uzra,  
Ehson sochma sen tamagir qo‘l bilan sira;

Arshga maqbul bo‘lgay faqat to‘liq saxovat,  
Mahshar kuni bo‘liq hosil bergen yer monand,  
Urug‘ sochgan, baxtli ixlosmand,  
U yuz karra taqdirlagay zahmating, albat.  
Lekin agar bu dunyoda fe‘ling qilib tor,  
Sen xasislik bilan tutsang gadoga nisor,  
Baxil qo‘ling yumib tursang og‘rinib, malul,  
Bilki: bergen xayr-ehsoning xarsangdan jala  
Yuvgan garddek ketar bir yo‘la, –  
Yaratganning dargohida bo‘limgay qabul.

## IX

So‘ng horg‘in yo‘lovchi shakkoklik qildi:  
Suv ila soyani Tangri deb bildi.  
Sahroda tentirab uch kecha-kunduz,  
Harorat va changdan zo‘rg‘a ochib ko‘z,  
Boqarkan atrofga noumid, nolon,  
Xurmo-yu quduqni ko‘rdi nogahon.

U tanho xurmoga otdi o‘zini,  
Yorilgan tili-yu qaqrqoq ko‘zini  
Orombaxsh suv ila sarafroz etdi,  
So‘ng xachir yonida uyquga ketdi  
Va o‘tdi ustidan yillar karvoni:  
Biru bor Tangrining shudir farmoni.

Kelganda yo‘lchiga uyg‘onmoq oni,  
Ko‘z ochib tingladi olis nidoni:  
«Ko‘pdanmi uyquga ketding sahroda?»  
U javob beradi: «Kecha samoda  
Choshgohning quyoshi kezardi yuksak,  
Choshgohdan to choshgoh uxlabman, demak».

Nido der: «Yo‘q, yo‘lchi, uxlading uzoq,  
Yotganda yosh eding, qaribsan-ku boq,  
Boq, xurmo o‘rnida bir hovuch kukun,  
Bu suvsiz maskanda qurimish butun

Qum bosgan ul quduq – sahro bulog‘i;  
Boq, yotar oqarib xachir chanog‘i».

G‘am bilan oh tortdi bir lahzalik chol  
Qaltiroq boshini egib bemajol...  
Mo‘jiza ro‘y berdi shu dam sahroda:  
Bariga jon kirdi, yangi jiloda  
Yana bosh silkidi epkindan xurmo,  
Yana suvga to‘ldi quduq ruhafzo.

Oqargan so‘ngaklar tiklanib bir-bir,  
Vujudga kirdi-yu, hangradi xachir;  
Yo‘lchi quvonch tuydi, kuchi jo‘sh urdi,  
Qonida tirilgan yoshlik gupurdi;  
Ilohiy bir hayrat qo‘zg‘aldi unda:  
Xudoni yod aylab yo‘l oldi shunda.

1824

\* \* \*

Senga havas qilaman, dengizga sodiq o‘g‘lon,  
Yelkan, bo‘ron ostida sochi oqargan inson!  
Tinchgina bandargohga ko‘pdan qadam qo‘ydingmi –  
Ko‘pdanmi sukunatni lazzatini tuydingmi –  
Jozibali to‘lqinlar chorlamoqda seni boz.  
Qo‘lni ber – qalblarimiz bir tuyg‘u bilan hamroz:  
Olis osmon, olis yurt ishqisi bilan biz yonib,  
Ovro‘pani qirg‘oqda qoldiraylik quvonib;  
Men yerning charchoq o‘g‘li, xohishim – o‘zga suron;  
Qutlayman, salom senga, ey buyuk ozod ummon!

## FARISHTA

Yosh farishta behisht qoshida  
Bosh eggancha taratardi nur,  
Iblis esa do'zax boshida  
Charx urardi isyonkor, mag'rur.

Inkor ruhi, shakkoklik ruhi  
Pok ruh sari tashlarkan nigoh,  
Beixtiyor bir mehr cho'g'i  
Silab o'tdi uni banogoh:

«Kechir, – dedi, – menga, pok xilqat,  
Nur sochmading bekorga magar:  
Arshga butkul demadim la'nat,  
Yerdan butkul qilmadim hazar.»

1827

## HALOK BO'LGAN RITSAR

So'nggi bor yarq etib, o'rmondan oshib,  
Astagina so'ndi g'urub otashi,  
    Yalang vodiy sukut ichra lol.  
Xilvat bir tumanda to'lg'anar daryo  
Bulutlar erinchoq saflardek go'yo,  
    Ular aro suzar zar hilol.  
Tepalikda yotar cho'ng po'lat sovut,  
Nayza cho'rt singan-u, qo'lqop, xanjar – but,  
    Zang dubulg'a ostida qalqon.  
Botmishdir shabnamli moxga shporlar:  
Bari on jim va oyning o'rog'i o'rlar  
    Ular uzra sachratgandek qon.  
Atrofda aylanar botir do'sti – ot,  
Mag'rur ko'zlar endi o't sochmas, hayhot,  
    Ot jangovar boshini egar.  
Hissiz tuyoq bilan depsinib goh-goh,

Sodiq ot sovutga tikilib, nogoh  
Bir yovvoyi titroqda kishnar.  
Keladi adashgan bir yo‘lchi, abgor,  
Qalbida umid-u tun qo‘rquvi bor,  
Suyanchig‘i – yolg‘iz tayog‘i.  
Tepaga chiqib u, xira xilqatga  
Tikilib tusharkan, yangroq po‘latga  
Tegib ketar tolg‘in oyog‘i.  
Yo‘lchi titrar – sovut jaranglar tunda,  
Botir suyaklari shiqirlar unda,  
Toshdan toshga dubulg‘a tegar, –  
Unda bosh chanog‘i... bu bo‘g‘iq sasdan  
Ot kishnab, tepaga uchar bir pasda,  
Boqar-u... so‘ng yana bosh egar.  
Tunda olislarkan, yo‘lchi nazdida  
Suyaklar qisirlar oyoq ostida,  
Biroq quyosh uyg‘onar takror,  
Yotar jang qurboni do‘nglikda unut,  
Na yangrar dubulg‘a, na yangrar sovut,  
Kishnar faqat fodor tulpor.

1815

*Abdulla Sher tarjimalari*







## BOG‘CHASAROY FONTANI

Qovoq solib o‘tirar Garoy,  
Lablarida kahrabo chilim.  
Dahshatli xon atrofida jim  
Bosh egib tek turardi saroy.

Jimjit edi butun koshona:  
Hamma xonning xafa yuzidan,  
G‘am va o‘qli g‘azab izidan  
Payqar edi mubham nishona.  
Ammo mag‘rur sohibi farmon,  
Qo‘llarini bir siltab soldi:  
Barcha sekin tarqaldi har yon.

Ko‘shklar aro bir o‘zi qoldi;  
Erkin nafas oldi siynasi,  
To‘lqinlanib bilmay sukutni  
O‘ynab turgan ko‘rfaz oynasi  
Aks etganday qora bulutni  
Uning jiddiy manglayi ayon  
Dil to‘lqinin aylardi bayon.

U mag‘rur dil ne g‘am-la to‘lmish,  
Qanday fikr bilan band bo‘lmish,  
Yana Rus-la jang qilmoqchimi,  
Yo Polshani tang qilmoqchimi,  
Nega xafa, ne u sandirar,  
Va yo qonli o‘chmi yondirar,  
Yoki qo‘sishin aylamish isyon,  
Yoki tog‘li xalq janglaridan.  
Ginoyaning nayranglaridan  
Tashvish tortib o‘ylanarmi xon?

Yo‘q, endi u charchab qolmishdir,  
Zerikmishdir shuhrat, zafardan.  
Berahm qo‘l ortiq tolmishdir,  
Xayol uzoq qonli safardan.  
Nahot, haram ichra xiyonat,  
Nahot, yelga uchib diyonat,  
Asira qiz jinoyat qilmish,  
Kofirga dil inoyat qilmish?  
Yo‘q, Garoyning xotinlari hech  
Bunday ishga jur’at qilmaslar,  
Mungli nola chekib erta-kech,  
Yomonlikni asti bilmaslar.  
Oyna uyda o‘sar gul kabi,  
Oy yuzlari zindon ichra berk,  
Zulm ostida go‘yo qul kabi  
Ularda had yo‘qdir, yo‘qdir erk,  
Oy-u yillar navbatma-navbat  
G‘amgin oqin bilan o‘talar,  
Bildirmasdan yoshlik, muhabbat  
Barchasini olib ketarlar.  
Kunlar birday kechadir g‘amda,  
Bitta-bitta imillar soat.  
Yalqovlik amr etar haramda,  
Kam ko‘rinar safo-farog‘at.  
Yosh juvonlar qayg‘uga to‘lib,  
Bir ish qilib ovunmoq bo‘lib,  
Zeb berishib kiyim kiyishar,  
Gaplashishar, o‘ynab yeishar.  
Yoki o‘ynoq suvlar sasida,  
Toza, shaffof zamzamasida  
To‘p-to‘p bo‘lib sayr etishadir  
Chinorlarning zinch soyasida.  
Ortlarida ularni poylab,  
Yovuz og‘a<sup>1</sup> yurar hayhaylab,  
Undan qochish, berkinish bekor:  
Hasadli ko‘z, ding qulog‘i bor.  
U hiylakor, u laganbardor.

<sup>1</sup> *Og‘a* – haramda saqlanadigan bichilgan qul.

Har bir ishdan voqif, xabardor.  
Unga o'la o'rnashmish mangu  
Abadiy bir tartib saroyda,  
Unga xonning izmi har joyda  
Yagona bir qonundirki, u  
Uni Qur'on farzidek bilar;  
Dilda saqlar va bajo qilar.  
Uning ko'ngli sevgi istamas,  
U but kabi sezgidan mahrum,  
U hissizlik domida mahkum,  
Na ko'z yoshi, na yumshoq nafas,  
Na ta'naga bermas e'tibor;  
Asiralar chekkan oh-u zor  
Unga asti qilmaydi ta'sir;  
Pinagini buzmaydi taqir;  
Yolvorishga quloq solmaydi;  
Haqoratni qilmaydi pisand.  
Hech na uni yumshatolmaydi,  
Tosh qalbi-la mag'rur va xursand.  
Unga xotin odati ma'lum,  
U ko'p ko'rmish, har yerda har zum.  
Hurlikda ham, erksizlikda ham  
Yumshoq nigoh, ko'zlardagi nam  
Ko'ngliga hech hokim bo'lolmas.  
U ularga ortiq ishonmas.

Soch yozishib haram qizlari –  
Asiralar cho'milar ekan,  
Sehr sochgan go'zal yuzlari  
Chashmalarda ko'milar ekan,  
Qip-yalang'och qizlarga loqayd,  
Bee'tibor termilib, shu payt  
U poyloqchi hozirdir yana,  
Tutqunlarga nozirdir yana.  
Kechalari barg ham mizg'ir-u,  
U uxlamas. Ohista bosib,  
Har eshikka bir quloq osib,  
Haram ichra tanho izg'ir u:  
Kim dam olar, kim tushda ingrar,

Kim oh tortar – hammasin tinglar.  
Uydan uyga bildirmay ko‘chib  
Keng tashlaydi u makkor domni:  
Birontasi sandirab, cho‘chib  
Tilga olsa begona nomni,  
Yo mabodo do‘stiga bir oz  
Taqdiridan koyib, qilib roz  
Dildagini aylasa izhor,  
Balolarga bo‘lar giriftor!

Garoy nega tinmay chekar g‘am?  
Chilim o‘chib qolmish qo‘lida.  
Botinolmay dam olgani ham  
Ostonada, xonning yo‘lida  
Imo kutib turadir og‘a,  
Ibo tutib turadir og‘a.  
O‘yga botgan hukmdor turar:  
Oldidagi darcha ochiq, u –  
Ko‘ngli cheksiz qayg‘uga to‘lgan.  
Indamasdan ohista yurar  
Kechagina sevimli bo‘lgan  
Xotinlarin qabriga to‘g‘ri.

Xonni kutib, ko‘rish ko‘yida,  
O‘ynab turgan fontan bo‘yida  
Ipak gilam uzra o‘ynashib,  
Bir to‘da sho‘x qizlar osuda  
O‘ltirishar edi yayrashib:  
Bolalarday shodlanib, suvda  
Marmar tubda ko‘ringan liqqa  
Gir-gir yuzib yurgan baliqqa  
Termilishar edi yayrashib.  
Gohilari unga ataylab  
Oltin sirg‘a tashlardi boylab.  
Joriyalar atrofda xushbo‘y  
Sharbat tashib yurardi. Nogoh,  
Shirin qo‘shiq, jaranglagan kuy  
Bor haramni ayladi ogoh:

# T a t a r q o' sh i g'i

## I

Yig'i, jafolarni boshdan ko'tarib  
Tangri o'zi berar ehson:  
Baxtiyordir, yillar so'nggida qarib  
Makka borib ziyorat qilgan inson.

## II

Baxtiyordir Dunay sohillarini  
Qoni bilan taqdis etgan bahodir.  
Jannah qizi yozib kokillarini  
Unga shirin kulgi bilan boqadir.

## III

Ammo Zarema, eshitgil tag'i-da.  
Dunyo va rohatga bermay e'tibor.  
Xuddi gulday seni o'z quchog'ida  
Erkalatgan hammasidan baxtiyor.  
Ular kuylar. Ammo qani u,  
Muhabbatning yulduzi qani,  
Haram ko'rki – kunduzi qani,  
Qayda qoldi Zarema bonu?

Hayhot, uning gul rangi so'lmish,  
Hayhot, dili qayg'uga to'lmish,  
Maqtovlarga solmaydi quloq,  
Ko'zlarida yosh buloq-buloq,  
Yashin urgan xurmodek qaddi  
Bukilmishdir, yo'q endi haddi.  
Hech na unga yoqmasdan qoldi,  
Chunki Garoy boqmasdan qoldi.

Vafosizlik qildi xon... Ammo,  
Ey gurji qiz, sen-la chiroyda  
Kim tenglashar? Hattoki oy-da  
Da'vo qilsa, bo'lur muammo.

Chambar qilgan soching, ey pari,  
Ilon kabi yurak yoradir.  
Yarqiragan ko'zing javhari  
Kundan yorug', tundan qoradir.  
Dil dardini kimlarning sasi  
Sendan kuchli bayonlay bilar?  
Kimning shirin-shakar bo'sasi  
Senikidan jonlilik qilar?  
Senga bir yo'l ko'ngli tushgan er  
Qanday qilib boshqa ko'rknii der?  
Lekin loqayd, zolim Garoyxon  
Haramiga Polsha qizini  
Asir qilib olgandan buyon,  
Sendan nari tutib o'zini,  
Xo'rlab seni tashlab qo'ydi-yu,  
O'zi g'amgin, tunlar beuyqu  
Tanholikni ayladi odat.  
Qo'llaringdan ketdi saodat!..  
Yosh Mariya yaqindagina  
O'zga diyor ko'kini ko'rni:  
Gulday ko'rki bilan qizgina  
O'z yurtida gullab yururdi.  
Faxrlanar edi u bilan  
Qarib qolgan otasi har on,  
Lobarim, – deb, maqtanuv bilan  
Erkalatar edi bearmon.  
Uning bola erki chol uchun  
Qonun edi, tinglardi butun...  
Cholni qiynar edi bir tilak:  
Istardiki, bahor kunidak  
Ochiq bo'lsin qizining baxti,  
Xushnud kechsin umrbod vaqtin,  
Zarragina qayg'u ham uni  
Ranjitmasin, – der edi u chol,  
Hech bir narsa biron dam uni  
Lanj etmasin, – der edi u chol,  
Hatto erga chiqqanida ham  
Xotirlasin, – derdi, – tush kabi

O'tib ketgan, g'unchaday sabiy  
Betashvish-u beozor, beg'am  
Yashnab yurgan qizlik chog'ini,  
Osmonday keng erk quchog'ini.

Uning yumshoq sevimli nozi,  
Tabiati, laziz ovozi,  
Yonib turgan moviy ko'zları,  
Dona-dona shirin so'zları  
Bir-biridan jozibador edi;  
Hammasida ajib kuch bordi.  
Ochiq qo'lli, saxiy tabiat  
Ayamagan edi borini;  
San'at bilan u najib xilqat  
Bezar edi gul diydorini.

Sehr to'la arfa bilan qiz  
Uy bazmini jlonlantirardi.  
Amaldorlar, boylar izma-iz  
Orqasidan izlab yurardi.  
Yigit-yalang «Oh...» deb o'yida,  
Azob chekar edi ko'yida.  
Lekin go'dak bola edi u,  
Ko'ngli ishqni bilmasdi aslo.  
Na kam-u ko'st, na g'am, na qayg'u,  
Yuragini tilmasdi aslo.  
Otasingin qasrida ozod  
O'rtoqlari bilan o'ynab shod,  
Uchar qushday hur va xursand edi.

U ko'pdanmi bu yerda bandi?  
Bir vaqt tatar to'plari mahkam  
Daryo kabi Polshani bosdi;  
Xirmonlarga tushgan yong'in ham  
Bu qadar tez yoyilolmasdi.  
Kunpayakun bo'lib urushda  
Yetim qoldi gullab yotgan yurt,  
Bu berahm yovuz yurishda

Faryod soldi qonga botgan yurt.  
Butun atrof qayg'uga toldi:  
U kulgilar, o'yinlar bitib,  
Erkalatgan qo'yinlar bitib,  
Hashamatli saroy bo'sh qoldi.

Mariyaning uyi jimjit, bo'sh...  
Uy ma'badi ichra bir to'da  
Mumiyolangan o'liklar xomush  
Rohat qilib, sovuq uyquda  
Knyazlikka maxsus nishon-la,  
Oltin toj-la, haybatli shon-la  
Yotar ekan, u yerda yana  
Paydo bo'l mish yangi sag'ana...  
Ota go'rda, asoratda qiz.  
Koshonada baxil bir voris  
Amri farmon berib yuradir,  
Tavqi la'nat ostida, beor  
Xarob bo'l gan yurtni aylab xor  
Badnom etib, yerga uradir.

Hayhot! Saqlar qo'ynida quldek  
Bog'chasaroy yosh knyaz qizin,  
Erksizlikda yosh to'kar, guldek  
Sarg'aytirib Mariya yuzin.  
Ayaydi u baxtsizni xon:  
Uning munggi, u chekkan fig'on  
Uyqusini bezovta qilib,  
Garoyga hech bermaydi omon.  
Bechoraga xon rahmi kelib,  
Qat'iy haram qonunlarini  
Yumshoq tatar unga ataylab.  
Tund poyloqchi na kun, na tuni  
Qiz oldiga kirmaydi poylab;  
Yotar paytda joyiga uni  
Uning g'amxo'r, parvoli dasti  
Olib chiqib yotqizmas asti;  
Mariyaga nigoh tikmakka

Botinolmas uning kir ko'zi;  
Joriyasi bilan qiz yakka  
Xilvat uyda cho'milar o'zi;  
Asiraning g'amgin oromin  
Buzib qo'y may, bo'l may, deb zomin  
Xon o'zi ham qo'rqrar ichida;  
Haramning bir yiroq burchida  
Unga yashash ijozat etgan,  
Go'yo, unda samoviy bir jon  
Yashiringan, uzlatga ketgan.  
U yerda hech tinmasdan hamon  
Aziz qizning oldida butun  
Chiroq yonib turar kun-u tun.  
U yerda qiz ko'nglin yupatib  
Mas'ud kechgan o'tgan zamon-la  
O'z yurtini dilga eslatib,  
Umid yashar yuvosh imon-la.  
U yerda yosh to'kar timmay qiz  
Kundoshlardan narida, yolg'iz.  
Lekin atrof g'arq bo'l mish yaksar  
Tentaklarcha bir ishrat ichra.  
Mo'jiza-la ajralgan hujra  
Yosh sanamni berkitib asrar.  
Ozg'in o'ylar qurboni u dil,  
Buzuq kayflar orasida ham,  
Bir garovni saqlaydi har dam  
Bir ilohiy hisni muttasil...

Tun qoraydi, bosdi qorong'i  
Tavridaning gul bog'larini;  
Bor olamni mast qildi uyqu,  
Gullar egdi yaproqlarini,  
Uzoqlardan bulbul zorini  
Eshitaman: oy diydorini –  
Ko'rsatadir yulduz ketidan;  
Ko'm-ko'k, toza osmon betidan  
Nur to'kadir gulzor bog'larga,  
Vodiylarg'a, o'rmon, tog'larga.

Bog‘chasaroy ko‘chalarida  
Kechki paytlar oq ro‘mol o‘rab,  
Oppoq oydin kechalarida  
Bir-biridan hol-ahvol so‘rab,  
Gaplashishib o‘tirish uchun  
Oddiy tatar xotinlari tek  
Lipillashib yengil soyadek  
Uydan uyga kezishar butun  
Saroy tinchigan, uxlagan haram  
Tinch rohatga cho‘mib parvosiz:  
Tun tinchligin biron narsa ham  
Buzolmaydi, sodiq muhofiz  
O‘zi kezib chiqib bor-yo‘qni,  
Yotmish; ammo tinch qo‘ymas tashvish  
Hatto unda uxlagan ruhni.  
Xiyonatni kutib xavflanish  
Orom bermas asti ham bunga:  
Goh kimningdir shitirlagani,  
Goh birovning pichirlagani,  
Goh qichqiriq eshitilar unga.  
Bekorlarga aldanib birdan  
Sapchib turar, qaltiroq bosar;  
Atrofiga tinch quloq osar...  
Hamma sokit, sas yo‘q bir yerdan;  
Marmar hovuz ichra o‘ynashar  
Faqt bulbul dili poralar,  
Faqt shirin kuy favvoralar  
Sevimli gul uzra kuylashar...  
Bular uni uzoq band etar,  
Yana takror uyquga ketar.  
Qanday xushdir bilguvchilarga  
Sharq kechasin qora chiroyi!  
Payg‘ambarni sevguvchilarga  
Qanday shirin boqadir oyi!  
Ularning uy-o‘choqlarida,  
Maftun etar gul bog‘larida,  
Oy ostida sirlarga to‘lgan,  
Tinchlik bilan hamsuhbat bo‘lgan,

Shahvat bilan dard-u farog‘at  
Tashib yotgan haramlarida,  
Kechalarning tinch damlarida  
Qanday ko‘rk bor, qandayin rohat!  
Xonning hamma xotinlari tinch  
Uxlar edi, bittasi notinch,  
Uxlay olmay, o‘rnidan turib,  
Eshigini ochdi-yu, asta,  
Bitta-bitta ohista yurib  
Tashqariga chiqdi birpasda...  
Qushday mudrab, ko‘zi ilinib  
Qari og‘a oldida yotar.  
Agar bu ish unga bilinib  
Qolsa, umri qayg‘uga botar...  
Oh, u cholning qattiqdir qalbi.  
Yalinganga bermas e’tibor:  
Uyqusi ham aldamchi, ayyor!

Yonboshidan sekin, ruh kabi  
Sezdirmasdan o‘tib ketdi u.

Bir eshikka borib yetdi-yu,  
Titrab sekin ochdi qufini...  
Ichkariga kirdi, ham uni  
Sirli vahm bosdi shu zamon.  
Ajablanib boqdi to‘rt tomon:  
Shamdon yonar, to‘kar so‘niq nur,  
Yaltiraydi burchakda bir but,  
Qiz yotadir, yuzida sukut,  
Ko‘ksida xoch porlab ko‘rinur.  
Ey gurji qiz, bular hammasi  
Eslatdilar senga moziyni,  
Go‘yo o‘tgan kunlarning sasi  
Aytgan kabi bo‘ldi rozini.  
Ko‘z o‘ngida tinch rohat bilan  
Uxlab yotar u knyaz qizi,  
Qizlikka xos harorat bilan  
Anor kabi qizarib yuzi.

Oshkor ekan sarin yosh izi,  
Zaif kulgi ostida yonar:  
Yomg'ir yuvib, o'chib ketgan rang  
Oyning xira nurida arang.  
Xuddi shunga o'xshab tovlanar.  
Go'yo jannat o'g'li osmondan  
Uchib tushib, uxbab yotganday,  
Asiraga achinib jondan  
Uyqusida yig'lab yotganday...  
A, Zarema, ne bo'ldi senga!  
Chidolmadi, qalbi siqildi,  
Beixtiyor yerga yiqildi.  
Va yalinib: «Achingil menga.  
Rad etmagin arzimni!» – dedi,  
Uning so'zi, u chekkan fig'on  
Uxloq qizni cho'chitib shu on  
Tinch uyqudan uyg'otgan edi.  
Knyaz qizi turib, oldida  
Begona bir xotinni ko'rni;  
Qo'rqib, unga qarab oldi-da,  
Hayajon-la qaltirab so'rni;  
«Kimsen? Tunda, tanho nechun sen  
Bu yerdasen?» – «Senga keldim men:  
Meni saqla; taqdirim uchun  
Menga faqat qoldi bir chora...  
Rahm aylasang, yo'qolsa zora  
Umrim ufqin qoplagan tutun.  
Baxt qo'ynida ko'p huzur qildim,  
Na qayg'uni, na g'amni bildim...  
O'tdi orom bergan u soya,  
Tingla, halok bo'lmayin zoye,  
Men bu yerda tug'ilganim yo'q,  
Mening yurtim yiroqdir, yiroq...  
O'tgan kunlar, u dardli firoq,  
Yodimdadir hali ham to'liq.  
Yodimdadir gullagan bog'lar,  
Osmon bilan o'pishgan tog'lar,  
Tog'dan oqqan irmoqlar, soylar,

O'tib bo'lmas o'rmon-to'qaylar;  
Yodimdadir kechgan saodat,  
O'zga qonun, o'zga bir odat.  
Ammo, qanday taqdir-la nechun  
O'z yurtimdan ayrilganimni,  
Bu yoqlarga qayrilganimni  
Bilmayman men; faqat, qora tun  
Yelkan uzra turgan odam-u  
Hamda dengiz esimda, xolos...  
Shu choqqacha qo'rqinch va qayg'u,  
Alamlardan men edim xalos.  
G'avg'odan chet tinchlikda xandon  
Haram ichra gullab yurardim,  
Itoatli ko'ngil-la har on  
Ishq darsini kutib turardim;  
Bu yashirin orzularim tez  
Ushaldilar. Qonli urushdan  
Charchab dahshat sochgan yurishdan  
Qaytib keldi haramga xunrez.  
Ta'zim qilib, xonning oldiga  
Biz hammamiz chiqdik. U menga  
Diqqat bilan indamay, so'zsiz  
Ochiq, nurli nazarin soldi,  
So'ngra, meni chaqirib oldi...  
Shundan berli biz kami ko'stsiz  
Tinim bilmay, rohatda masrur  
Nafas oldik baxt bilan har dam;  
Biron yo'l ham na fitna, na dam;  
Na tuhmat-u na shubha, qusur,  
Na azobli rashkning sitami,  
Na xafalik va na alami  
Bizga tashvish sololmagandi,  
Vaqtimizni ololmagandi,  
Mariya, sen duch kelding unga,  
Bir ko'rishda xush kelding unga,  
Shundan beri ko'ngli toraydi,  
Jinoyatli o'y-la qaraydi!  
Xiyonat-la yetkazib ozor

Eshitmaydi hech itobimni,  
So‘ramaydi asti tobimni.  
U noladan, fig‘ondan bezor;  
U, eskiday menga topinmas,  
Menda endi eskiday nafis  
Na shirin so‘z unga na his  
Go‘yo bitgan, go‘yo topilmas.  
Jinoyatga bedaxlsan sen,  
Men bilaman, ayb senda emas...  
Tingla meni: chiroyliman men,  
Menga hech kim tenglashay demas.  
Bir sengina haramda butun  
Raqib bo‘la olarding menga;  
Ammo, aytib qo‘yay men senga,  
Tug‘ilganman ehtiros uchun,  
Sen men kabi seva olmaysan;  
Sovuq ko‘rking bilan sen nechun  
U bir ojiz dilni qiyansan?  
Na haqing bor, na hadding sening,  
Qo‘y Garoyni menga; u mening.  
Bo‘salari yonar betimda,  
Issig‘i bor hali etimda,  
Menga qat’iy qasamyod etgan.  
Borlig‘im-la ko‘pdan armonin.  
O‘y va xohish, butun farmonin  
Birga qo‘shgan, ittihod etgan:  
Xiyonati meni o‘ldirar,  
Xazon etar, gulday so‘ldirar...  
Men yig‘layman: ko‘rgin, tizimni  
Bukdim endi qarshingda mana,  
Sarg‘aytirma mening yuzimni,  
Yalinaman, qaytarib yana  
Sevinchimni, oromimni ber,  
Ul burungi Garoyimni ber...  
Menga zarra etma e’tiroz;  
U meniki: senga asirdir,  
Yo‘llaringda ko‘zi basirdir.  
Xoh tahqir-la, xohi qilib roz,

Ne istasang, aylagil shuni,  
Ammo, bezdir o'zingdan uni.  
Ont ich... (garchi, men Qur'oni deb,  
Muhabbatni hamda xonni deb,  
O'z dinimni otgan bo'lsam ham,  
Ammo, mening onamning dini  
Sening dining edi) kel, meni  
Xalos ayla, yod etki qasam,  
O'sha dil-la ont ich Garoyni  
Zaremaga qaytarmoq uchun...  
Ammo tingla: esla xudoyni,  
Gar, yo'q desang, xanjarning kuchin  
Ko'rsatmoqqa qodirman oz-moz,  
Zero, mening vatanim Kavkaz».  
Shu so'zlarni aytdi-da, birdan  
G'oyib bo'ldi darrov u yerdan,  
Ta'qib etmoq uchun izma-iz  
Botinolmay, dov qilmay dili,  
Orqasidan chiqolmadi qiz,  
U azobli ehtiros tili  
Beayb qizga asti ma'lummas:  
Ammo, uning ovozi, u sas  
Sal anig'-u ajoyib edi,  
Qo'rqinch edi, g'aroyib edi.  
Qanday yoshlar, qandaydir faryod  
Bu xo'rlikdan aylaydi ozod?  
Ne kutadir uni? Nahot, u  
Qolgan achchiq yosh kunlarin, bu –  
Asoratda o'tkazadir xor?  
Ey Xudoyim, ey Parvardigor!  
Agar Garoy baxtsizni mangu  
U mahbasda unutsa edi,  
Yo, g'amlardan xalos aylab u,  
Tez o'limga yuz tutsa edi,  
Qanday shodlik bilan g'am to'lgan  
Bu jahonni otar edi qiz!  
Ko'pdan o'tgan hayotning laziz  
Lahzalari, ko'pdan yo'q bo'lgan!

Ne bor endi unga dunyoda!  
Vaqt yetdi, kutarlar uni:  
Katta ohib tinchlik qo‘ynini  
Chaqiralar uni samoda.

.....

Kunlar o‘tdi, ketdi Mariya,  
Tarki umr etdi Mariya.  
Ko‘pdan orzu etgan olamni  
Yangi malak kabi yoritdi.  
Ammo uni, go‘zal sanamni  
Nelar siqdi? Nelar horitdi?  
Nechun, nechun daf etdi tobut?  
Nelar uni ayladi nobud?  
Asoratmi, hasratmi, g‘ammi,  
Erksizlikda tortgan sitammi,  
Kasallikmi yo boshqa bir sir,  
Kim biladi? O‘lmish bexabar...  
Latofatli Mariya o‘lmish...  
U yosh g‘uncha ochilmay so‘lmish!..  
Bo‘shab qol mish tumraygan saroy;  
Uni yana qoldirmish Garoy;  
Yana o‘zga qirg‘oqlar tomon,  
Yovuz yurish boshlamish yomon,  
Tag‘in to‘fon, bo‘ronlar aro  
G‘amgin uchar qon quasar xunrez.  
Ammo, uning yuragi qora,  
Olovlanar unda boshqa his.  
U ko‘p choqlar to‘qinishlarda  
Qilichini tikka ushlar-da,  
Yana birdan qotib qolardi,  
Jinnilarcha nazar solardi  
Atrofiga bo‘zarib, go‘yo  
Vahimaga to‘lganday dili,  
Allanelar g‘o‘ldirab tili  
Yosh to‘kardi bamisli daryo,

Unutilgan u sodiq haram  
Xon yuzini ko‘rmaydi bu dam;

Unda, azob qo‘ynida mahkum.  
Sovuq muxsiy qo‘lida mazlum.  
Qarimoqda xotinlar g‘amda.  
Ko‘pdan ular ichra haramda  
Gurji xotin ko‘rinmas; uni  
Muhofizlar daryoga otgan,  
Bechora suv ostiga botgan...  
Knyaz qizi mahv o‘lgan tuni  
Bajarilib bu qonli sazo  
Ko‘zin yumgan Zarema... Evoh,  
Qandaygina bo‘lmasin gunoh,  
Ko‘p dahshatli bo‘lgan bu jazo!

Kavkaz oldi tuproqlarini,  
Rusiyaning tinch qishloqlarini  
Urush bilan qilib ming vayron  
Tavridaga qaytib keldi xon.  
Saroyning chet burchini saylab,  
Mariyaga esdalik aylab  
Marmarlardan yasatdi fontan.  
Tepasiga xoch o‘rnatilmay,  
Musulmonlar oyi osilmish.  
(Bu, albatta, bo‘lmag‘ur bir ish;  
Nodonlikning aybi butunlay).  
Yovuzlar bor, kechib ko‘p yillar  
Hali uchib ketmagan ular  
Hali marmar hovuzdan suvlar  
Qirg‘oqlardan toshib g‘uvullar,  
Tinim bilmay, to‘xtamay bir on  
Dona-dona yosh to‘kar fontan:  
O‘g‘li harbda jon bergen ona  
Xuddi shunday yig‘laydi yana...  
O‘tmishning bu rivoyatini  
U yoqlarda qizlar bilishgan,  
So‘ngra g‘amgin haykal otini  
«Yosh fontani», bo‘lsin deyishgan.  
Men shimolni tashlab nihoyat,  
Bazmlarni ko‘pga unutib,

Bog'chasaroy tomon yo'l tutib,  
Mudroq ko'shkni qildim ziyorat;  
Xalq ofati, jangari tatar  
Ishrat qilib, bazmlar qurgan  
Urushlardan so'ngra bexatar  
Bekami ko'st farog'at surgan  
Tinch uylarda, bog'larda sezdim –  
Hamon rohat yashar kun-u tun;  
Suylar o'ynar, gul chechak otar,  
Tok zanglari tovlanib yotar,  
Devorlarda yarqirar oltin.  
Men u yerda tinmay oh urib,  
Yig'lab, haqiq tasbeh o'girib,  
Bahorida yashnamay so'lgan  
Xotinlarning makoni bo'lgan  
Panjarali darchalar ko'rdir,  
Kungurali parchalar ko'rdir.  
Ko'rdir xonlar qabristonini;  
Xo'jalarning so'ng makonini.  
Go'rlardagi marmar ustunlar  
Go'yo taqdir haqida sekin  
Hazin-hazin taratib unlar  
So'zlaganday tuyuldi... lekin,  
Xonlar qani? Qayda u haram?  
Butun atrof mukaddar va jim,  
O'zgarmishdir... ammoki, u dam  
Bu bilan band emasdi dilim:  
Oq gullarning mayin nafasi,  
Fontanlarning kuylagan sasi  
Jazb ayladi, qildi faromush,  
Ixtiyorsiz, menda aqli hush  
Nomuayyan to'lqinga tushdi.  
Shunda saroy ichida bir qiz  
Soya kabi sirli va izsiz  
Ko'z oldimda lipillab uchdi!..

Do'stlar, kimning soyasin ko'rdir?  
Aytin menga, men sizdan so'rdir:

Daf mahal bo'lgan u yumshoq  
Kimning shakli meni o'sha chog'  
Ta'qib etgan edi? Kim edi?  
Hayhot! Butun atrof jim edi.  
Mariyaning toza jonimi,  
Yo, Zarema rashk bilan to'lib  
Bo'sh haramda bir ko'lka bo'lib  
Ko'z oldimda o'tgan onimi?

Esimdadir shunday bir chiroy,  
Xuddi shunday sevimli nigoh...  
Dil o'shangta ketar butunlay,  
Surgunda ham g'ussasi, evoх,  
Qalbimdadir, tillarimda – oh...  
Ey aqlsiz! Bo'ldi! Endi bas,  
G'ussa chekma, hech foyda bermas.  
Bebaxt ishqning notinch, noiloj  
Oromiga bermishsan xiroj.  
Hushingni yig', to'siqlarni buz,  
Tokaygacha sen ojiz mahbus  
Kishanlarni o'pib yotasan?  
Tokaygacha yengil tor bilan,  
Bu olamda oh-u zor bilan  
Jununingni oshkor etasan?  
Men muzaning muxlisi, yori,  
Men tinchlikning murid, xushtori  
Tezda butun shuhrat o'ylari  
Ham sevgini tamom unutib,  
Yana sizga tomon yo'l tutib  
Ko'raman, ey Solg'ir bo'ylari!  
Xotiralar asiri bo'lib,  
Men boraman o'sha yoqlarga,  
Dengiz bo'yi baland tog'larga.  
Yana Tavrid suvlari to'lib  
Xursand etar haris ko'zimni,  
Hur sezarman yana o'zimni.  
Sehrli yurt, diyda yupanchli!  
Yuragimning erka quvonchi!

U yerlarda harna jonlidir:  
O'rmon, vodiy, gulistonlik qir,  
Uzumlarki, yoqut, kahrabo,  
Teraklar-u suvlar salqini;  
Erta bilan quyosh yolqini  
Taralganda, esganda sabo,  
Ayiq tog'ning aylanasida  
Zangor havo yarqirar ekan,  
Tiniq, ko'm-ko'k suvning pastida  
Qizil nurlar barq urar ekan,  
Tog'lar oshib, qirg'oq yo'llardan  
Uchar ekan yo'lchinining toyi,  
Uning hissin o'ng-u so'llardan  
Jazb etadi bu yer chiroyi!..

*Usmon Nosir tarjimasi*



## KAVKAZ ASIRI

N.N. Rayevskiyga

### Bag'ishlov

*Tabassum-la qabul etgil, aziz do 'stginam,  
Bu erkinlik muzasining hadiyasini:  
Bag'ishladim senga quvg 'in sozning sasini  
Va ilhomda shirin o 'tgan damlarimni ham.  
Men begunoh, qayg 'ularda bo 'larkan halok.  
Chor atrofsda kezar ekan g 'iybat va bo 'hton,  
Xiyonatning xanjarlari dilni etib chok,  
Muhabbatning og 'ir tushi meni beomon  
Halokatga sudrab qiy nab so 'raganda jon,  
Men yoningda orom topib yashardim bedod;  
Biz do 'st edik – topib qalbim sendan tasallo:  
Uzoqlashar edi boshda quturgan balo,  
Etdim najot sohilida tangrilarini yod.  
Hijronzada o 'tar ekan kunlarim g 'amda,  
O 'yga tolgan tovushlarim shu og 'ir damda  
Kavkaz yurtin tushirdilar mening esimga,  
Ulug ' tanho u Beshtovning<sup>1</sup> boshlari tuman,  
Ovuli va cho 'llar hokimi besh boshli sulton  
Yangi parnasim bo 'ldi-yu, ruh berdi menga.  
Do 'stim, Kavkaz qoyalarin unutarmanmi?  
U sharqiroq buloqlarni, so 'lg 'in cho 'llarni,  
Qaynoq dashtlar, o 'lkalarki, sirdosh ikkovlon  
Kezmish edik, gar unutsam bo 'larman osiy.  
U tog 'larki, qaroqchilar sanqir, saqlar jon  
Va Ilhomning u yovvoyi asov dahosi  
Sukunatning quchog 'ida topmishdir makon!*

<sup>1</sup> Beshtov – Beshtog'. Kavkaz tog 'laridan biri.

*Balki yurak uchun oshno sevimli damlar,  
Xush kunlarning topilajak unda asari  
Va hirslarning zid, beomon orom, ozori,  
Uchrar tanish o'y, xayollar, oshno sitamlar  
Hamda mening bu ruhimning sir to'la zori.  
Har xil yo'llar bilan ketdik biz bu hayotda,  
Sen farog'at quchog'ida sal topib kamol,  
Yashnading-ku botir otang izidan darhol  
Yov o'qining bulutlari ostida parvoz  
Eta kirding qon cho'llari ichra, ey shovvoz,  
Sen orzular vafodori va aziz qurban;  
Men yosh ekan xiyonat-u, jahl ila bo'hton  
Quvg'indilik boshga yetdi, yopishdi balo.  
Lekin bardosh va hurlikni dilga etib jo  
Kutar edim men xayrli kunlarni faqat  
Do'stlarimning boshlariga kelib qo'ngan baxt  
Menga doim bo'lar edi shirin tasallo.*

## BIRINCHI BO'LIM

*Davra qurib bo'sag'alarda,  
Laqillashar bir talay cherkas,  
Kavkazning er o'g'illariga  
Bo'l mish edi bukun mavzu bahs:  
Janglardagi tahlika, g'avg'o,  
Arg'umoq ot, hayot va jo'shqin  
Hirs kechirgan ishrat va savdo,  
Moziydag'i dahshatli bosqin,  
Qishloqlarki, talonda butkul,  
Yakson bo'lgan, yonib bo'lgan kul,  
Aldov bilan kun ko'rgan vijdon,  
Jinoyatkor makkor ulug'lar,  
Qilichidan tirqiragan qon;  
So'z bo'ladi bari haqqida  
Va shahlo ko'z asira dilbar,  
Hikoyaga monanddir juda.  
Jimjitlikda o'tardi suhbat  
Oy suzardi tun tumanida,*

Otliq cherkas ular yonida  
Hozir bo'ldi to'satdan shul vaqt;  
Arqonlangan bitta o'spirin –  
Sudrab keldi, etibdi tutqun;  
«Mana o'rur!» deya u butun  
Yirtqichlarcha ko'tardi shovqun.  
Tovushiga ovul shul zamon  
Chopib keldi misli olomon.  
Lekin asir behol va besas  
Chavaqlangan boshdan oqib qon,

Murda kabi yotardi bejon.  
Dushmanlarning tusini ko'rmas,  
Hiddatlarin eshitmas aslo,  
Charx urarkan boshida balo,  
Nimjon, sovuq olardi nafas.

Va yosh asir behush va tanho,  
Yotib qoldi uzoq bir zamon.  
Qizg'in quyosh uning boshida  
Laxchalanib etardi javlon,  
Hayot hissi uyg'onib unda,  
Ko'kka uchdi achchiq bir sado;  
Oftob nuri isitib shunda  
Bosh ko'tardi bu baxtga gado,  
Va tashladi zaif bir nigoh;  
Buyuk tog'lar ko'rdi banogoh.  
Yuksak tog'lar, unda yo'l bosar  
Qabilalar ini, uyasi,  
Cherkaslar erkining qal'asi  
Yuksalmishdir qatorma-qator.  
Va mudhish bir tushning vahmasi –  
Simon xotirladi: u tutqun:  
Kishanlangan oyoqlar birdan  
Shaqirlashar ko'tarib shovqin...  
Voyif etdi uni har sirdan.  
Xiralandi ko'ziga dunyo.  
Ey muqaddas hurlik, alvido!  
U qul.

Ovul jim. Yakka tutqun  
Bostirma ketida uzun kun  
Tikan g'ovlar oldida yotdi.  
Poyloqchi yo'q, cherkaslar bari  
Cho'lda edi; asir nazari  
Uzoqdagi yo'llarga botdi.  
Yashil parda kabi o'ngida  
Yastangandi tep-tekis yerlar,  
Va bir yonda bo'lib silsila  
Yotar edi qirlar, adirlar;  
Olislarda oraliqdagi  
Yo'l tumanlik ichra yo'qolur:  
Va tutqunning yigit ko'kragi  
Og'ir xayol bilan o'rtanur...

Rusiyaga eltar uzoq yo'l,  
Sho'x yoshligin unda baxtiyor  
Va betashvish boshlagandi ul;  
U ilk shodlik berolgan diyor,  
Unda sevgan bor nazokatni,  
Iztirobdan ko'ksi bo'lgan chok,  
Butun istak, armon, shodlikni  
Sayoq turmush etmishdir halok.  
U xush kunlar esdaliklarin  
Siniq qalbga ko'mmishtir barin.

.....

Totdi kibor hayotni, ammo,  
Angladikim, jirkanch, behayo  
Do'stlarida ko'rdi xiyonat,  
Va muhabbat, ishq xayolida  
Bir aldoqchi tush bordir faqat,  
Nafratlangan foniy hayotning  
Bir qurban bo'lishdan qochib,  
Adovatlar, fitna va beso'ng  
Oddiy tuhmatlardan o'rtanib,  
Kiborlikdan pushaymon bo'ldi,  
Yurak-bag'ri laxta qon bo'ldi.

Tabiatning otashin do'sti  
Tashlab ketdi ona o'lkasin,  
Uzoq elga axtarib ketdi  
Ozodlikning xushbaxt ko'lkasin.

Ey ozodlik! U yolg'iz seni  
Izlab ketdi bo'm-bo'sh dunyodan.  
Ehtiros-la toptab sezgini  
Ko'ngli sovib rubob, xayoldan  
Sening noming bilan jonlanib,  
Kuylamakni bilmishdi savob:  
Imon, e'tiqod-la ul yonib...  
Sanamingni etgandi tavof...

Hamma bitdi... Tutqun benavo  
Hech tomondan izlamas panoh.  
So'ng xayollar, mana, hatto siz,  
Hatto siz ham tashlab ketdingiz.  
Qul endi ul, erki ketgan, xor,  
Qo'yar ekan boshini toshga,  
G'amgin hayot ajaliga zor,  
Ko'zni tikar kechki quyoshga,  
Mozor ko'lkasiga intizor.

Tog' ortida quyosh miltirar,  
Eshitilar uzoqdan dovruq.  
Qir, daladan qaytar xaloyiq,  
Cholg'ilari kunda yaltirar,  
Xonadonlarda yondi chirog',  
Dovruq tindi, ohista-sekin,  
Tun qo'ynida hammani bu choq  
Bir yumshoqlik qurshadi sokin.  
Qoyalardan uchib olisda  
Yarqirardi jo'shqin sharshara,  
Mudroq cho'qqilar ham bir tusda  
Yopinmishdir bulutdan parda...  
Lekin kimdir bu oydinlikda  
Shuncha qalin, jonsiz tinlikda  
Qadam tashlar ohista, yolg'iz?

Ziyraklanib ko'z ochsa tutqun  
Qarshisida yuz berdi shu hol:  
Ta'zim qilib kulimsirab, lol  
Turar edi go'zal cherkas qiz.  
Tutqun tilsiz, qizga qaraydi.  
Aldamchi bir tush deb o'ylaydi.  
Jilva qilur holsiz hislarim,  
Deya, qizga tikiladi jim.  
Oppoq oy nuriga belanib,  
Qiz engashdi va bukdi tizni.  
Shafqat bilan nafis jilmayib,  
Muzday salqin, davo qimizni  
Sekin tutdi: titradi qo'llar;  
Unutildi qimiz, betoqat  
Jonso'z, shirin so'zning sehrgar  
Jarangini yutoqib tinglar,  
Va ko'zlarin izlaydi faqat  
Anglamaydi, so'zlar unga yot,  
Totli nigoh va yaqin oraz,  
Yasha, — deydi jon fido nafas.  
Va asirda tirilar hayot:  
Asir yig'ib so'nggi majolin,  
Itoat-la turdi o'rnidan  
Va marhamat piyolasidan  
Serob etdi chanqagan holin.  
Og'ir boshin toshga qo'ydi-yu,  
Yana behol sezdi o'zini,  
Cherkas qizga so'nik to'ndi-yu,  
Uzolmadi undan ko'zini.  
Qiz ham unga g'amgin termilib,  
Xayol ichra o'tirdi uzoq,  
Va go'yoki xomush, tek turib,  
Bo'lar edi uni yupatmoq,  
Nedur aytib lablar har nafas  
Beixtiyor ochilar edi;  
Oh urardi siqqanday qafas,  
Ko'zlardan yosh sochilar edi.

Kunlar o'tar ko'lka singari...  
Poda boqib o'tar tog'larda  
Kishanlangan asir kunlari.  
Namkash va zax, salqin mag'ora  
Uni asrar yoz quyoshidan.  
Kumushday oy kamon singari  
Yarqirarkan tog'ning boshidan.  
Yo'lga chiqar u sohibjamol,  
Olib kelar asirga sharob,  
Zog'ora non va xush hidli bol,  
Qimiz bilan qilardi serob,  
Tutqun bilan yashirin yeysigar;  
Jonso'z qarash, nafis bir nigoh,  
Mubham so'zlar va ishoralar  
Bilan qilar istakdin ogoh;  
Ko'mib tashlar tog' qo'shig'iga,  
Baxtli Gruziya kuyularin  
Aytar edi, asov xotirga  
Yot bir tilni singdirar darin.

Ma'sum yurak ko'z ochib endi  
Sevgan edi, baxtni do'st tutgan;  
Lekin tutqun qachonlar edi  
Ehtirosni unutib ketgan;  
U, oshkora ma'sum sevgiga  
Javob berolmaydi yurakdan –  
Unutilgan sevgi tushini  
Qo'rqrar balki xotirlamakdan.

Yoshlik bo'lmas noxosdan xazon,  
Zavqlar birdan ketmas beasar,  
Hali qancha saodatli on  
Yana bo'lar bizga tuyassar:  
Lekin siz-chi, jonli xotirot,  
Siz dastlabki, ey pok muhabbat,  
Ey osmoniy jo'shqin bir hayot,  
Qaytib uchib kelmassiz, albat.

Ko'nikkanday ko'rinar edi  
Ojiz asir mungli hayotga;

Qullik g‘ami, isyon dardini  
Yashirin tutar, yormas hech zotga.  
Sarinlikda ilk-erta sahar  
Qoyalarda tanho sudralar,  
Yosh tutqunning maftun nigohi  
Cho‘zilardi oq va zangori,  
Ol tog‘larning uchiga qadar.  
Ajoyibdir bu manzaralar!  
Qorliklarning mangu taxtgohi,  
Bulutlarning jonsiz halqasi –  
Kabi ko‘rinardi zirvalar<sup>1</sup>.  
Muz toji yarqirar bir diyor,  
Ikki boshli dov bu qatorda –  
Elbruski, buyuk, ulug‘vor,  
Oqaradi ko‘m-ko‘k samoda.  
Zo‘r g‘ovurga qo‘shilib bo‘ron  
Xabarchisi momaqaldiroq  
Dahshatida gurlarkan har yoq  
Asir otli bu tanho inson  
O‘ltirardi tog‘likda har choq!  
Quyuqlashsa pastda tumanlar,  
Sakrab o‘ynar edi quyonlar,  
Hurkkan ohu qoyaliklarda  
Izlar edi jonga parvarda;  
Uchisharkan burgutlar har yon  
Qiyqirishar edi havoda,  
Yilqilarning kishnashi, poda  
Ma‘rashini ko‘mardi bo‘ron...  
Qora bulut quyar shul zamон  
Chaqmoq bilan do‘l, sel vodiyga,  
To‘lqinlarda tikkaliklarni  
Ag‘daradi va asir diyda  
Xarsanglarni qulatib yo‘lda  
Sel beomon bosardi jarni.  
Asir esa tog‘ cho‘qqisida  
Turar edi yakka-yu, tanho,

<sup>1</sup> Zirvalar – cho‘qqilar.

Qora bulutlarning ketidan  
Kutar edi chiqar deb oftob.  
Dovul yetmas joylarda hamon  
U bo'ronning kuchsiz va betob  
Uvlashini tinglardi shodon.

Lekin ovrupolik diqqatin  
Bu ajib el etgan edi jalb,  
Tog'liklarda tarbiya mazhab,  
Odatlarni kuzatar tutqun;  
Sodda hayotlari xush kelar,  
Mehmondo'stlik, jangovar sifat,  
Bilak kuchi va yelday ko'char  
Chaqqonlikni sevmishdi behad;  
Uchqur cherkas gohi-gohida  
Xo'p yasanib, shaylanib juda  
Qora chakmon kiyib, shaldirab  
Popoq kiyib olib boshiga,  
Uzangiga oyoqni tirab  
Ko'krak berib egar qoshiga,  
So'ngsiz sahro, qiya tog'larda  
Zo'r ishq bilan yoshlikdan jangni  
Mashq qilishib choparkan otda,  
Soatlarcha asir nigohi  
Bo'lar edi uchgan qanotda.  
Yoqar edi unga bejirim  
Juda oddiy harbiy bu kiyim.  
Cherkas yaroq bilan ko'milgan;  
Shunga mag'rur va ko'ngil to'lgan!  
Ko'hna miltiq, sadoq, zirh bir,  
Qo'bon yoyi, xanjar va chilvir  
Va qilichki, mangu yo'ldoshi,  
Yupanchig'i, oltin quyoshi,  
Hech bir narsa buzmas ko'nglini,  
Jarang chiqib koyitmas uni,  
Unga doim yordir shu sifat:  
Yayovmidir, minganmidir ot,  
Hamon o'sha, o'sha kayfiyat,  
O'sha g'olib va yengilmas zot.

Uning butun ko'rki, davlati,  
Beg'am kazaklarning ofati,  
Tog' yilqisi naslidan bir ot.  
Bu vafodor, chidamli, uchqur  
Uning do'sti, – shu unga qanot.  
Mavorada, o'tlar ichinda  
Makkor, yirtqich birga topar joy.  
Yo'lovchini ko'riboq shunda  
Otiladi go'yoki o'q-yoy.  
Qudratli zarb va to'g'ri nishon  
Ishni darhol qilar saranjom,  
Shu lahzada uchuvchi arqon  
Yo'lovchini sudrar jar tomon.  
Ot uchadi cho'lida quyunday,  
Bir o't uni eltar ilgari,  
Unga yo'ldir; botqoqlik, to'qay,  
Qoyalarning, g'orlarning bari;  
Qonli izlar chopar ketida,  
G'ovur bilan to'ladi sahro.  
U suv ichra kirgan kezida  
Shag'illaydi sho'x, keksa daryo.  
Va daryoga tashlangan yo'lchi  
Yuta boshlar loyqa to'lqinni,  
Holdan ketib tilaydi o'lim,  
O'tmay turib bir lahza, bir zum  
U ajalni ko'radi peshvoz...  
Qudratli ot egasin olib  
Qirg'oklikda qiladi parvoz.

Yo qora tun misli bir parda  
Yotar ekan adirliliklarda,  
Cherkas kelar qirg'oqqa yakka,  
Va duch kelib, qattiq dovulda  
Daryoga qulagan to'ngakka,  
Yengsiz chakmon, sovut, qalqonni,  
Jihozlarki, bisotida bor,  
Temir qalpoq, sadoq, kamonni  
Butoqlarga ilar beqaror.

So‘ngra jimjit, chiqarmay nafas,  
Uni izlab nishab to‘lqinga  
O‘zni tashlar bu tinim bilmas.  
Jimjit kecha. Shag‘irlar daryo  
Bo‘ylab yolg‘iz, xilvat qirg‘oqlar,  
To‘lqin eltar uni uzoqqa,  
Nayzaga suyanib kazaklar  
Tepalikdan qaragan yoqqa:  
Kazaklar tim daryoga qarar,  
Shu lahzada badkor yarog‘i  
Tunning shu tim, qop-qora chog‘i  
Suv yuzida chayqalib borar...  
Kazak, o‘yga chulg‘anding nega?  
O‘lim cho‘lidagi o‘rdugoh,  
Janglaringmi tushdi esingga,  
Polklar aytgan madhiya – duo,  
Yo vatanmi?.. Yo‘l bo‘lgay senga  
Hiylagar tush, yolg‘onchi ro‘yo!  
Alvido, ey erkin manzillar,  
Ota yurti, sokin Don – daryo,  
Siz ham ey jang, chiroyli qizlar!  
Qirg‘oqlarda bir sirli dushman –  
Paydo bo‘ldi, o‘q vizillaydi,  
Konga botgan tepaliklardan  
O‘qqa uchgan kazak qulaydi.  
Yog‘ingar damlarda oila  
Bilan ota xonadonida  
O‘ltirarkan cherkas va uyni  
Bosar ekan ko‘mir tutuni.  
Tog‘liklarda kezib kechikkan  
Yo‘ichi tushib vafodor otdan  
Horiqqancha kirar ichkari  
Va talpinar shu gulxan sari;  
Uy egasi peshvoz bo‘lib  
Olqish, hurmat bilan turadi  
Va mehmonga xo‘sbo‘y kosada  
Chog‘ir-qirmiz sharob tutadi.  
Hech tinmayin burqirar tutun,

Yo‘lchi qo‘nar xonada bir tun,  
Va yopinib nam chakmonini,  
Boshin qo‘yar shirin uyquga;  
Azon payti mehmondo‘st uyni  
Bo‘sh qoldirib, u tushar yo‘lga.  
Hayit kuni yigit-juvonlar  
To‘planishar yayrashar jonlar;  
Har qachonki, o‘yin-kulgi bor  
Barchasini etarlar takror:  
Bo‘m-bo‘sh qolar yon to‘la sadoq,  
Osmon sari yo‘l ochib shu choq  
Qanotli o‘q uchar kamondan,  
Bulutlardan burgutni urar,  
Goh tik qiya yon bag‘irlardan  
Sabrsizcha qatorma-qator  
Bir imo-la qulaydilar duv,  
Bamisolli bir to‘da ohu,  
Yerni topib etarlar poymol,  
Chang bostirib dalani, – xushhol  
Gurros-gurros, ovullar sari  
Tapillashib choparlar bari.

Biroq jangga tug‘ilgan qalbni  
Zeriktirar yaknasaq dunyo,  
Ko‘p vaqlar yalla kayfini  
Xarob etar qattiq bir g‘avg‘o.  
Kayf chalg‘itar boshlarni kushod  
Yarqiraydi qilich shiddatda.  
Qullar boshi ketgan bir paytda  
Yosh-yalanglar o‘ynashadi shod.

Ammo qonli ovunchoqlarga  
O‘rus aslo qilmasdi parvo.  
Dong o‘yinin sevmishdi avval,  
O‘lim chanqog‘iga mubtalo.  
Yonar edi ojiz har mahal.  
U beshafqat sharafga banda.  
Ko‘rar edi o‘limin yaqin.

Mag‘rur turib yakka janglarda  
Qarshilardi halokat o‘qin.  
Va balki u, botib xayolga,  
Bir vaqtlar qadrdon do‘sstar  
Va yoronlar ahli-la birga  
Safo surgan kunlarni eslar...  
Eslar ekan tutqunda endi  
Umidlarni bo‘shta chiqargan  
U kunlarga achirmi dili?  
Yo tog‘liklar sodda ermagin  
Ishtiyooq-la qilib tomosha,  
Vahshiy xalqning urf-odatlarin  
Oynada etarmi insho. —  
U qalbining talpinishlarin  
Yashirin tutmoq ko‘rardi ravo;  
Manglayida birorta ajin  
Shuncha o‘tib bo‘lmabdi paydo.  
Uning sipo jasoratiga  
Qolishdilar cherkaslar hayron,  
Rahm etdilar bag‘ishlab hayot,  
G‘ururlanib o‘z o‘ljasi-la  
Shivirlashib va bo‘lishar shod.

## IKKINCHI BO‘LIM

Yashash zavqi, jo‘shib qaynashlar  
Tog‘ malagi, senga bo‘ldi yor.  
Va muhabbat, shodlik bag‘ishlar  
Yoniq, ma’sum ko‘zlar, nigor,  
Tun qo‘ynida sevganing seni  
O‘par ekan, beso‘z, beozor,  
Orzularga to‘lib to‘lg‘anar,  
Unutarding tamom dunyoni,  
Va der eding: «Erksizim, jonim,  
Chiroyingni ochgil jahonim,  
Boshingni qo‘y, ko‘ksim senga yurt,  
Ozodlikni, Vatanni unut!  
Jon deb ochay sen-la cho‘llarga,

Yolg'iz sen-la, ruhimning shohi!  
Sevgil meni, hali bokira,  
O'pilmagan qizning yonog'i;  
Va qora ko'z cherkas tun chog'i  
Mening tanho yolg'iz va yakka  
Yotog'imga kirmagan tikka.  
Omonsiz deb bo'ldim ovoza,  
Go'zalligim, nomusim toza.  
Faqat bitgan qismatim mahkam,  
Meni otam, rahmsiz akam  
Yot ovulga – olib oltin-zar,  
Bir yomonga sotmoqni istar.  
Yolvoraman otam, akamga,  
Hech bo'lmasa, u vaqt menga  
Topilar-ku, og'u yo xanjar.  
Beixtiyor bir qodir quvvat  
Senga tortdi, soldi savdoga,  
Erksiz do'stim, senga bo'ldim band,  
Sen-la yetar jon muddaoga...

Va lekin u, sokin qizg'onib,  
Ehtiroskor qizga to'nardi;  
Og'ir o'ylar ichida yonib,  
Sevguvchining so'zin tinglardi.  
Xotiralar bir-bir jonlanar,  
O'ltirardi suzgun, parishon  
Va hattoki ko'zlardan yoshlар  
Tirqirab ketmishdi bir zamон.  
Sevgi dardi qo'rg'oshindayin  
Qalbda yotar, qiyndardi g'oyat  
Va yosh qizga iztiroblarin  
To'ka ketdi bir-bir nihoyat.

«Unut meni: men arzimayman  
Quvonchlaring, muhabbatingga.  
Mahv etma kunlarni men bilan:  
Oshino bo'l o'zingga tengga.  
So'zlardagi yolqin, alanga,

Lablardagi otash, harorat,  
Go‘zalliging, jon qarashingga  
Etar vafo, qilmas xiyonat;  
Mening g‘amgin, so‘nik ruhimdan  
Ishqi uning bo‘lar ming a‘lo:  
Men ehtiros ichra so‘larman  
Beorzu va betasallo.  
Yongan qalbning mudhish asari,  
Men sevgi, ki kuli sovrilgan,  
Meni tark et va lekin, sho‘rli –  
Qismatimga ozgina qizg‘on.  
Boyaqish yor, nega burunlar  
Bo‘limganding ko‘zga namoyon,  
Men umidga ishongan kunlar,  
Xayollarga topingan zamon!  
Men baxt uchun bo‘lganman odosh,  
Umid qushi bosh olib ketgan;  
Injaliklar uchun bo‘lib tosh,  
Sevgi nima, do‘sting unutgan...

Tirik bo‘salarga o‘lik lab  
Javob etsa og‘ir naqadar,  
Yoshli ko‘zlar boqsa javdirab,  
Qarshilasa sovuq xandalar!  
Va o‘rnatib behuda g‘ashda  
Bir tosh bo‘lib uyquga ketmak,  
Ehtiroskor qiz og‘ushida  
O‘zga yorni og‘ir yod etmak!..

Shuncha nozik va shuncha sekin,  
Meni o‘pib, tinch, bexavotir,  
Sevgi soatlari sen uchun  
O‘tar ekan osudaxotir;  
Sukunatda yosh to‘kib shunda  
O‘ltirarkanman parishon hol,  
Jonlanadi mening qarshimda  
Mangu dildor bir yori timsol;  
Yurak uning sari talpinar,

Eshitmasman, ko'rmas va xomush,  
Ruhim seni unutgan bo'lar  
Va xayolga ochaman og'ush;  
Men uni deb cho'llarda yakka  
Yosh to'kaman... U menda yashar,  
Butun yerda birga adashar,  
Qayg'u solar yetim yurakka.

Meni tark et, tanho xayollar.  
Kishanlarim qolsin o'zimga,  
Xotiralar, ko'z yosh, alamlar,  
Bo'lolmassan sherik sen unga.  
Qalb arzini tinglading, vido!  
Qo'lingni ber... kechir... alvido!  
Uzoq emas va yig'latmas zor  
Qizni sovuq g'ussali hijron,  
Unutilar sevgi, xafaqon  
Bo'lar, qayta yor topar dildor».

Ko'z yoshisiz, ma'yuscha yig'lab,  
Qiz o'ltirar bag'rini tig'lab:  
Tuman to'la, botgan nigohi  
Sukut ichra gina tashlardi;  
Ko'lka kabi so'niqdi, titrar;  
Qo'li yotar oshiq qo'lida,  
Sovuq edi, xuddi muz qadar;  
Va nihoyat, sevgining dodi  
Tilga keldi, yondi faryodi:

«O'russ, o'russ, oh, bu ne balo,  
Men ko'nglingni bilmasdan aslo,  
Nega sevdim seni umrbod!  
Quchog'ingda sening ko'p kunlar  
Yasholmadim g'amdan bexabar,  
Va sanoqli baxtiyor tunlar,  
Taqdir etdi menga tuyassar!  
U qaytmasmi hech qachon endi?  
Mahv bo'ldimi sevinch umrbod?  
Va sen, tutqun, bu sodda dilni

Aldab qila olar eding shod,  
Hech bo‘lmasa, muruvvatparvar  
Sukut saqlab, erkalab yolg‘on:  
Qismatingni men ham ovutar,  
Bo‘lar edim g‘amxo‘r mehribon  
Va tunlarda jafodiyyda yor  
Farog‘atin saqlar beozor;  
Istamading... Qani et izhor.  
Kim ekan u sevgiling dildor?  
Sevasanmi? Sen sevgilimi?  
Azoblarining ravshandir menga...  
Sen ham kulma yonishlarimga,  
Yoshlarimni kechir bir yo‘la».

Tindi. Faryod va ko‘z yoshlari  
Qiz ko‘ksiga bo‘lmishdi qafas.  
Pichirlardi lablar shikoyat,  
Asir tizin quchib nihoyat  
Behush zo‘rg‘a olardi nafas.  
Qiz sho‘rlikni ko‘tarib asta  
So‘z boshladidi tutqun javoban:  
«Quvg‘indiman men ham, yig‘lama;  
Qalb azobin tatib ko‘rganman.  
Yo‘q, sevgili etmagan yozmish;  
Sevdim yolg‘iz, o‘rtandim tanho.  
Dudli yolqinsimon, shu bo‘m-bo‘sh  
Vodiyarda bo‘larman ado.  
Aziz qirg‘oqlardan ko‘p uzoq  
O‘lib ketib, qolarman cho‘lda.  
Zanglab ketar bu og‘ir tuzoq,  
Quzg‘un yegan ustixonimda...»

Xiralanar ko‘kda yulduzlar,  
Shaffof olislikda ko‘rinar  
Qor tog‘larning yuksakliklari;  
Boshlar quyisi, yer sanab ko‘zlar  
Jimjit ajraldilar ikkovi.

Shundan beri qayg'uli tutqun  
Ovul sirtin darbadar, sokin,  
Kezar edi tanho uzun kun.  
Tong tunlarning ortidan kunni  
Va tunlarni har tong ketma-ket  
Ko'tarardi qaynoq ufqqa,  
O'tar edi tunlar birma-bir  
Va g'amzada bechora asir  
Qutulishni kutardi yo'qqa:  
Miltirarmi butoqlar aro  
Tog' echkisin sharpa-qorasi.  
Qorong'ida sakrarmi sayg'oq,  
Cho'chir yangrab kishanning sasi.  
Ko'z tutadi: kirarmi kazak –  
Kechalarning omonsiz sho'ri,  
Qullarning xaloskor g'amxo'ri.  
Chaqiradi... Jimjitdir har yon,  
Hayqiradi faqat to'lqinlar,  
Va insonni yovvoyi hayvon  
Sezib qolib o'zini urar  
Qora sahro, tunlikka tomon.  
Asir o'russ noxos bir kuni  
Qiy-chuvlarni eshitib qoldi;  
Yangrar edi harbiy bir nido  
Tog'liklarda har yoqda sado:  
«Yilqiga!» der Yugurar, yangrar  
Mis so'liqlar jarang-jaranglar.  
Chakmonlar tim, sovutlar yashnar.  
Egarlangan ayg'irlar kishnar,  
Butun ovul bosqinga tayyor,  
Va urushning vahshiy avlod  
Adirlardan daryoday yog'ar.  
Yo'rtib borar bo'ylab Kubanni.  
O'lja olmoq niyati – yodi.

Ovul tindi. Quyoshda kushod  
Pishib uxlар poyloqchi itlar

Va yalang‘och sabzak go‘daklar  
Erkinlikda o‘ynashadir shod;  
Davra qurib o‘ltirar ajdod;  
Naydan chiqar moviy bir tutun,  
Qizlar kuylar, sokit keksalar  
Tanish, oshna qo‘sinqni tinglar,  
Ko‘ngillari yasharar butun.

### Cherkas qo‘s shig‘i

#### 1

Daryoda chopar to‘lqin,  
Tog‘liklarga tun qo‘nmish,  
Kazak hormishdir butun,  
Nayzaga boshin qo‘ymish.  
Kazak, sen uxlama: tun.  
Daryo ortida chechen.

#### 2

Qayiqda suzar kazak,  
To‘rini sudrab suvda.  
Kazak, botishing beshak,  
Go‘daklar issiq kunda  
Cho‘milib botgandayin:  
Daryo ortida chechen.

#### 3

Muqaddas qirg‘oqlarda  
Bo‘la qishloqlar gullar;  
O‘ynarlar to‘da-to‘da.  
Rus kuychilar, qochinglar,  
Uyga, ahli nozanin,  
Daryo ortida chechen.

Qizlar kuylar. Qirg‘oqda bu hol  
O‘rus qilar qochmoqni xayol;  
Lekin, erksiz, kishani og‘ir,  
Daryo toshqin, telba va chuqr...

Qoyalarning boshlari siyoh,  
Sahroga ham cho'kdi qora tun,  
Oq tomlarning ustida suzgun  
Oydin tushgan, kuchsiz bir ziyo;  
Suv ustida mudrar ohular,  
Burugtlarning so'nggi nidosi  
Tinib ketdi. Tog'larda hurar  
Uzoqdagi yilqi sadosi.

Shunda kimdir kela boshladи,  
Qiz ro'moli jilva tashladи;  
Mana – g'amgin, so'nik va ado  
Qarshisida u bo'ldi paydo.  
Go'zal lablar kalima izlar,  
Bosmish edi g'am ko'zlarini,  
Siyoh to'lqin kabi kokili  
Ko'krak, kiftin yopib yozilar.  
Bir qo'lida yarqirar arra,  
Bir qo'lida bor po'lat xanjar  
Va go'yoki, qiz maxfiy jangga,  
Bir harb sari etmishdi safar.

Asir sari tashlarkan nigoh,  
«Qoch, – deb berdi tog' qizi nido. –  
Duch kelmagay hech qayda cherkas,  
Tezroq, shoshil, tun o'tmasin, tun!  
Ol xanjarni, hamma yoq tim-tin,  
Izlaringni kimsa payqamas».  
Arra tutgan qo'llari titrar –  
Cho'kdi tutqun oyog'iga tiz...  
Arra tirnar, temir chiyillar,  
Duv to'kildi yosh ixtiyorsiz. –  
Parchalandi kishan sharaqlab,  
«Bo'lding ozod, – der unga qarab, –  
Qoch!» – der, lekin shaydo qarashi  
Ichra yonar sevgi otashi.  
Azoblanar, lek daydi ellar  
Urtigini uchirib o'ynar.

O'rus dedi: «Yorim, men seni,  
Seni dedim, abad, umrbod,  
Mudhish yurtdan ketaylik, hayhot!  
Qochaylik kel!...»

«Yo'q, o'rus, tamom!

Hayot zavqi bitdi benishon:  
Men shodlikni bilardim, ishon,  
Bari bitdi va ketdi benom.  
Endi bo'lmas! Bordur sevganing!  
Axtarib top, sev va ovuntir;  
Yana nedan alamim mening?  
Ma'yuslikning boisi nadir?..  
Xayr! Sevgim xayrixohligi  
Har qayerda yor bo'lar senga.  
Xayr! – unut azoblarimni  
Qo'lingni ber... so'ng daf'a... menga»

Va u qizga qo'lin uzatdi,  
Qalb jon topib bo'ldi parvona,  
Va hijronning uzoq bo'sasi  
Ishq ahididan berdi nishona.  
Qo'l ushlashib, ma'yuscha, shunda

Qirg'oq sari siljidilar jim,  
Ana, o'rus nishob oqinda  
Suzib borar, to'lqinlar gajim;  
Ortiq yetti o'zga qirg'oqqa  
Va boshladi tirmashinmoqqa...  
Chalg'ib ketdi to'lqinlar shu choq.  
Va olisda chiqdi bir fig'on...  
O'rus chiqib qirg'oqqa shu on  
Ketga boqdi... Yorirdi qirg'oq,  
Faqt toshlar qubba-qubba, oq,  
Na sohilu, na yon bag'irda  
Qizdan asar yo'q edi sira.  
Hamma bejon... Yolg'iz shabboda  
Kezar uxloq qirg'oqlarida  
Oy nurida, chalqigan suvda

Bitar edi cho'ziq doira.  
Bari ayon...

Tutqun so'nggi bor  
Nigohini otdi vidoda.  
Jilvalandi: bo'sh ovul, devor.  
Dalalarki, boqmishdi poda.  
Va omonsiz cherkas tog'ma-tog'  
Erk qo'shig'in kuylagan onlar,  
Kun yarmida dam olgan buloq,  
Kishanini sudrab o'tgan jar.  
Keng osmonda zulmat tarqalar,  
Vodiylardan tunni haydar kun,  
Tong yarqirar, uzoq so'qmoqlar  
Bo'ylab borar erk olgan tutqun;  
Ko'z o'ngida uning tumanda  
Rus nayzalar yarqirar edi,  
Posbon kazak ko'hna qo'rg'onda  
Ovoz berib hayqirar edi.

## EPILOG

Xayol do'sti muza tinmayin  
Osiyoga otardi quloch,  
Kavkazning yovvoyi chechagin  
Uzar edi etgali gultoj.  
Jangda o'sgan bu toifalar  
Ziynatlari etardi shaydo,  
Shu yangi libosda sehrgar  
Bo'lar edi qarshimda paydo:  
Kimsasiz ovullar girdidan,  
Qoyalarda tanho, darbadar  
Kezar edi va o'sha yerdan  
Yetim qizlar qo'shig'in tinglar:  
Yoqmishdi jangovar manzillar,  
Dov kazaklar ko'targan suron,  
Yilqilar kishnashi, shov-shuvlar,  
Jimjit maqbaralar va qo'rg'on

Hikoyatlar, kuylar ilohi!  
Xotiralar unga bo‘lmish yor,  
Omonsiz Kavkazning u balki,  
Qissalarin etajak takror;  
Uzoq ellar ertagin so‘ylar.  
Mstislavdan<sup>1</sup> qadim jangnoma  
Va ruslarki, gruzin dilbarlar  
Og‘ushida botmishlar qonga:  
Kuylay u onniki: shon yo‘ldosh,  
Qonli jangni sezar ekan bot,  
Isyonkor Kavkazda ikki bosh  
Burgutimiz<sup>2</sup> yozganin qanot;  
Oqsoch Terek uzra ilk avval  
Buyuk janglar gurlagan mahal,  
Va o‘ruslar dovul chalgan on,  
Jimib manglay, qirg‘inda har gal  
Jo‘shqin Sisiandir<sup>3</sup> namoyon  
O, Kotlyarevskiy<sup>4</sup> bahodir  
Kavkaz boshi uzra bir balo!  
Sen yashiday ucharkan qodir,  
Nasllarni, yo‘llaring vabo  
Bo‘lib qildi yakson, benavo...  
Urush endi bermas tasallo.  
O‘ch qilichin sen etding kanda,  
Dodi dunyo, shuhratga banda,  
O‘z jimjit yurtingda tinch, kushod  
Yotmoqdasan ayshlarga tolib...  
Lekin mana – sharq chekar faryod!  
Qor boshingni eg, endi ey zot.  
Topin Kavkaz: kelar Yermolov<sup>5</sup>.  
O‘chdi jangning dahshatli dodi,  
Rus qilichi qoldi hukmron.  
Ey Kavkazning kibor avlodи,

<sup>1</sup> *Mstislav* – Botir nomini qozongan va Kavkazda urush qilganlardan. Yakkama-yakka kurashda knyaz Radedyuni yenggan odam.

<sup>2</sup> *Ikki boshli burgut* – rus imperatorligi ma’nosida.

<sup>3,4,5</sup> *Sisianov* (1754–1806), *Kotlyarevskiy* (1782–1852), *Yermolov* (1772–1861) – Kavkazni olishda ishtirot etgan va tog‘liklarga nisbatan qilgan vahshiyiliklari bilan mashhur bo‘lgan generallar.

Tortishdingiz, bo‘ldingiz yakson;  
Na vahshiy erk ishqil: bizning qon,  
Na yarqiroq zirh-u qanotlar,  
Na-da tog‘lar, na uchar otlar  
Saqlolmadi sizlarni omon!  
Kavkaz, Botu<sup>1</sup> qavmiday beor,  
Ajdodiga keltirar isnod,  
Unutar tamakor jangni bot,  
O‘q-yoyini tashlar, etar xor,  
Yo‘ichi kelar sizlar yashagan  
Dalalarga bexavf-bexatar.  
Rivoyatlar, mubham ertaklar  
So‘ylar sizning qora qismatdan.

*Hamid Olimjon tarjimasi*



---

<sup>1</sup> *Botu* – Botuxon. XIII asrda Rusiyani olgan mo‘g‘ul xoni.

## MIS OTLIQ

*Peterburg qissasi*

### SO‘ZBOSHI

Bu qissada tasvir etilgan voqealay ayni haqiqatga asoslanganadir. Toshqinga doir tafsilotlar o’sha vaqtidagi jurnallardan olindi. Qiziquvchilar V.N. Berx tuzgan axborotni ko’rib chiqishlari mumkin.

### KIRISH

U yaydoq to‘lqinlar sohilida jim  
Ulug‘vor o‘ylarga tolib turardi;  
Uzoqlarga qarar. Qarshida lim-lim  
Daryo to‘lib-toshib to‘lqin urardi;  
Daryoda bir qayiq yolg‘iz, notavon  
Suzardi. Mox<sup>1</sup> bosgan botqoq qirg‘oqda  
Faqir chuxonlilar qurmishdi oshyon,  
Kulbalar ko‘rinar yaqin-yiroqda;  
Tumanlar ortiga yashiringan kunda —  
Oftob nurlaridan bebahra o‘rmon  
Tinmay shovullardi.

U o‘ylar hamon:  
Shvedga biz tahdid qilamiz bundan.  
Takabbur qo‘shnining jig‘iga tegib,  
Biz bunda bir shahar etamiz barpo.  
Dengiz qirg‘og‘iga tirar oyoqni,  
Bunda Yevropaga darcha ochmoqni  
Tabiat bizlarga ko‘rmishdir ravo.  
Biz tomon, bu yangi to‘lqinlar sari  
Barcha davlatlarning korabllari

<sup>1</sup> Mox – yo‘sin.

Mehmon bo'lish uchun qilajakdir jazm,  
Yayrab kengliklarda qurajakmiz bazm.  
Yuz yil o'tdi, mana, navqiron shahar –  
Shimol yurtlarining faxri va ko'rki,  
Sizot va botqoqlar, qora o'rmonlar  
Bag'ridan yuksalmish mag'rur va durkun.  
Bunda tabiatning o'gay va o'ksiz  
O'g'li – baliqchi fin ko'p mahal burun  
Asov suvga tashlab uvada to'rin  
Pastak sohillarda yurardi yolg'iz;  
Endi-chi, serqatnov bu sohillarda  
Yuksalmish muhtasham qasr-u binolar;  
Endi jahondagi barcha ellardan  
Gavjum pristanga shoshar kemalar.  
Neva uzra osma ko'priklar metin;  
Metin libos kiygan tikka qirg'oqlar;  
Burkab Nevadagi orollar betin  
Gurkirab yotibdi yam-yashil bog'lar.  
Yosh poytaxt oldida, shon borasida  
Xiralashib qoldi keksa Moskva,  
Go'yo shahzoda qiz ro'parasida  
Shohona yasangan keksa bir beva.

Sevaman, ey Pyotr yaratgan shahar,  
Sevaman ulug'vor, ko'rkm qaddingni.  
Ey qudratli Neva, metin sohillar,  
Sizga bag'ishlayman muhabbatimni.  
Sevaman panjarang cho'yan gullarin,  
Sevaman shu'lador oqshomlaring ham.  
Oysiz charoqlagan o'ychan tunlaring.  
O'qiyman, yozaman uyda yoqmay sham,  
Bo'm-bo'sh ko'chalarda uyquga tolgan  
Basavlat binolar ko'rinar aniq,  
Admiralitetning baland yuksalgan –  
Qirrali nayzasi kunduzday yorug'.  
Oltin ufqlarga tungi zulmatni  
Yaqin yo'latmasdan va qora tunga  
Yarim soatgina berib fursatni,

Tonglar bir-biriga ulanar bunda<sup>1</sup>.  
Sevaman shiddatli qish kunlarida  
Qahraton havongni, qor-u muzlaring,  
Chenalar uchganda Neva bag‘rida  
Qizlarning loladay yoniq yuzlarin,  
Shavqli bazmlarning shov-shuv sasini,  
Ulfat yigitlarning o‘ltirishlarin,  
Qadahning vijirlab ko‘pirishlarin,  
Sharobning ko‘kimtir alangasini.  
Sevaman ko‘ngilli Mars maydonida  
Mashqlarning jangovar quvnoqligini,  
Qo‘sishinlar, otliqlar saflanganida  
Ularning chiroyli yig‘noqligini.  
Shu ko‘rkam, buzilmas safda polklarning  
G‘olib bayroqlari hilpirashini,  
Janglarda o‘q teshgan mis qalpoqlarning  
Quyoshda charaqlab yiltirashini.  
Shamol malikasi tug‘ib o‘stirgan  
O‘g‘lin shoh taxtiga baxsh etar chog‘i,  
Yo zafar qozonib dushman ustidan  
Rossiya tantana qilarkan tag‘in,  
Yo Neva ko‘kimtir muz parchalarin  
Dengiz tomonlarga quvlagan paytda,  
Istiqlolni sezib, quvnagan paytda,  
Sevaman, jangovar poytaxt, seni,  
Qal‘ang tutunini, dabdabasini.

Yashnayver, Pyotrning ulug‘vor shahri,  
Turaver Rossiya kabi mustahkam,  
Tabiatning mag‘lub ofati-qahri  
Qudrating oldida boshin qilsin xam;  
Butunlay unutsin fin to‘lqinlari  
Qadim xusumatin, eski alamin,  
Yovlikning behuda achchig‘-kinlari  
Buzmasin Pyotrning mangu oromin.

<sup>1</sup> Knyaz Vyazemskiyning grafinya Zavadovskayaga bag‘ishlangan she’riga qaralsin.

Dahshatli edi zamonlar g‘oyat,  
Jonli xotirasi yodimda hali...  
Shu haqda siz uchun boshlay rivoyat,  
Do‘sstar, bu hikoyam bo‘lar g‘ussali.

## BIRINCHI QISM

Xo‘mraygan Petrograd ko‘kida hali  
Izg‘ir noyabrnning sovuq shamoli.  
Neva shovullaydi to‘lqin sachratib  
Tik, ko‘rkam to‘sqli qirg‘oqlar sari,  
To‘lg‘anar o‘zini har yonga otib  
To‘sakda bezovta bemor singari.  
Vaqt kech, qorong‘i; kuzning yomg‘iri  
Jahl bilan oynani savalar satta,  
Mungli g‘uvullaydi achchig‘ izg‘irin.  
Mehmendorchilikdan naq shu fursatda  
Yosh yigit Yevgeniy qaytdi yotoqqa...

Shunday deb atalsin bizning qahramon,  
Yoqimli eshitilar bu nom quloqqa.  
Qalamim u bilan eski qadrdon.  
Bizga hojat emas zoti-nasabi,  
Garchi, balki bir vaqt dong taratgan u,  
Uni Karamzinning sozi – qalami  
Sevimli madhlarda jaranglatgan-u  
Lekin endilikda kibor va avom  
Unutib yuborgan uni batamom.  
Kolomnada turar bizning qahramon;  
Qaydadir xizmatda; kiborlarga yot.  
Parvoyiga kelmas na marhum ajdod  
Va na unutilgan u o‘tmish zamon.  
Xo‘p, xullas, Yevgeniy uyga keliboq,  
Shinelini qoqib, yechindi, yotdi.  
Ammo ko‘zga uyqu ololmay uzoq,  
Har xil hayajonli o‘ylarga botdi.  
O‘ylar: yashaganin bir mahal qashshoq,  
Zahmat chekib topgan qadr-e’tiborin,  
O‘ylar u: xohlasa, menga aql, yo

Pul-mul baxsh etardi Parvardigorum;  
Axir g'irt bekorchi, aqli noraso,  
Tanbal baxtiyorlar bor-ku dunyoda,  
Ammo hayotlari mendan ziyoda!  
O'ylar u ikki yil xizmat qilganin,  
O'ylar ob-havo yomon kelganin;  
To'lib toshayotgan daryoni o'ylar;  
Neva ko'priklari ko'tarilgandir, –  
Endi Parashadan ololmay xabar,  
Illi-uch kungacha ko'rolmasman, der.  
Yevgeniy qalbidan bir uh tortdi-yu,  
Shoirday o'y surib ketdi shu topda:

«Uylansammi? Men-a? Hech gap emas-ku?  
Bu ish anchagina mushkul, albatta,  
Lekin, nima bo'pti, sog', navqironman,  
Tun-u kun ishslashga tayyorman mana,  
Amal-taqal qilib axir qurarman  
O'zimga tinchgina, oddiy boshpana.  
Unda Parashaning ko'nglin olardim.  
Bir yoki ikki yil o'tganda bormi, –  
Biror uy-joylik ham bo'lib qolardim,  
Xotinga yuklardim butun ro'zg'orni,  
Bola-chaqalarning tarbiyasin ham...  
Totuv yashar edik umrbod birga,  
Qo'lga qo'l berishib, doimo hamdam,  
O'lsak, nevaralar eltardi go'rga...»

U shunday xayollar surardi hamon,  
Yuragin ezardi bu g'amgin kecha.  
Shu mungli izg'irin tinsaydi picha,  
Yomg'ir derazani buncha beomon  
Savalay bermasa...

Mana nihoyat

Yumdi uyqu bosgan ko'zlarin butun.  
Namgarchilik tunda tarqalib zulmat,  
Tong xira, yorishib, tug'ilmoqda kun...  
Mudhish kun!

Neva ham tun bo‘yi betin  
Dengiz dovuliga qarshi talpindi,  
Ammo bo‘ronlarning bebosh xurujin  
Yengolmay, bu bahsda madori sindi...  
Uning sohiliga tongda shu kuni  
To‘da-to‘da bo‘lib to‘plandi kishi,  
Bir tomosha bo‘ldi darg‘azab suvning  
Tog‘-tog‘ ko‘pirib ko‘kka sapchishi.  
Yurolmay dengizning ko‘rfazi sari  
Dovul zo‘ri bilan to‘silgan Neva  
G‘azab bilan qaytib, oqib teskari  
Yo‘lda orollarni g‘arq etar suvga.  
Havo borgan sari bo‘ldi darg‘azab,  
Neva goh ko‘pirdi, goho pishqirdi,  
Qozondek bug‘lanib, shaqillab, qaynab,  
Quturgan yirtqichday tinmay o‘shqirdi  
Va shahar ustiga otildi birdan,  
Yo‘lida hech narsa berolmay bardosh,  
Atrof bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi daf’tan.  
Qaznoqlarga kirdi o‘pirib bebosh,  
Vorillab otildi panjaralardan.  
Xuddi tritonday beldan suv kechib  
Suzardi Petropol o‘rnidan ko‘chib.  
Qamal! Bosqin! Qahrli to‘lqin  
O‘g‘riday, uylarga qarab o‘rmalar,  
To‘lqin zarbi bilan kelib kemalar  
Deraza oynasin qilar chilparchin.  
Yelkani chirmashgan pachoq qayiqlar,  
Vayron kulbalarning sinchlari, tomi,  
Savdoning naqdina mulki-anjomni,  
Sel yuvgan mozordan oqqan tobutlar,  
Toshqinlar o‘pirgan ko‘prik xarisi,  
Ojiz qashshoqlarning yuki, barisi –  
Ko‘chalar to‘ldirib oqar!

### Xaloyiq

Tangri qahrin ko‘rib, jazosin kutar.  
Bari xarob bo‘ldi; uy yo‘q, oziq yo‘q,  
Evoh, tirikchilik qay xilda o‘tar?

Rossiyada marhum shoh bu mudhish kez  
Hali dovruq solib surardi hukmin;  
U balkonga chiqdi, xafa va g‘amgin:  
«Xudo ofat salsa, shohlar ham ojiz».  
O‘ltirdi, ko‘zida alam va qayg‘u,  
Yovuz baxtsizlikka boqar edi u.  
Ko‘l-ko‘l bo‘lib turar har yalanglik joy,  
Ko‘chalar keng oqin daryo singari;  
Hazin orol kabi turardi saroy.  
Podsho buyruq berdi — generallari  
Uzoq-yaqindagi ko‘chalar sari  
Gangib, uyi bilan g‘arq bo‘lganlarga  
Toshqin-to‘lqin aro madad bergali  
Chiqib jo‘nadilar xavfli safarga.

Pyotr Maydonida, xuddi shu choqda,  
Yangi bir imorat tushgan burchakda,  
Yuksak zina uzra, go‘yo posbon,  
Oldi oyoqlarin baland ko‘tarib,  
Tirikday turardi ikkita arslon;  
Shu marmar yirtqichga naq minib olib  
Qo‘llarin ko‘ksiga qo‘yib, boshyalang,  
Beharakat, qolmay yuzlarida rang,  
Yevgeniy o‘ltirar. Sho‘rlik dahshatda,  
O‘zi uchun emas, albatta.  
Oyoq uchlarida, yalab poshnasin  
Ochko‘z to‘lqinlarning har yon tashlashin,  
Yomg‘ir yuzlarini savab o‘tganin,  
Atrofida shamol izg‘irib g‘uv-g‘uv,  
Birdan shlapasin yulib ketganin –  
Hamma-hammasini sezmas edi u,  
Qahr-u alam to‘la ko‘zlari uning  
Jonsiz tikilgandi faqat bir tomon;  
Qalqardi darg‘azab qa‘ridan suvning  
Tog‘ kabi bahaybat to‘lqinlar hamon,  
To‘lqinlar badjahl, o‘shqirar dovul,  
Taxta parchalarin oqizar toshqin,  
Yo rabbiy! Yo rabbiy! Nima ko‘rar u!

Ana, to'lqin urgan ko'rfazga yaqin  
Yolg'iz tol turipti, bir faqir kulba,  
Bo'yoq ham ko'rmagan taxta devori,  
Bir tul xotin bilan qiz turar shunda,  
Uning Parashasi, uning dildori...  
Yo bari tushmikan? Yo bor umrimiz  
Bekorchi bir tushday ma'nisiz, puchak?  
Yo yerni masxara qilmoqda falak?  
Joyidan tusholmas Yevgeniy hargiz.  
Makr-jodu bilan uxlagan kabi,  
Xuddi shu marmarga mixlangan kabi!..  
Hammayoq faqat suv, atrof kimsasiz!  
Unga orqasini o'girgan holda,  
Darg'azab Nevaning ustida yolg'iz  
Turar bir qo'lini uzatib olg'a  
Yuksak maqomida mahkam, ulug'vor,  
Mis ot minib olgan buyuk hukmdor'.

### IKKINCHI QISM

Mana, ko'ngli to'lib vayronalikdan,  
Orsiz quturishdan o'zi ham tolib,  
Qahr-u g'azabiga o'zi tang qolib,  
Olgan o'ljasini tashlab, bepisand,  
Neva orqasiga qaytmoqda. Ba'zan  
Xuddi mana shunday, qaroqchi g'addor  
O'zining quturgan to'dasi bilan  
Qishloqqa bostirib kiradi beor,  
Buzadi, talaydi, so'yadi; faryod,  
Tahqir, zo'ravonlik, to'polon va dod!..  
So'ng zo'rg'a ko'tarib talon mulkini,  
Quvg'indan xavotir olib, bedarmon,  
Qaroqchilar shoshar uyiga tomon,  
Yo'lda to'kib-sochib o'lja yukini.

Suv qaytdi, ochildi toshko'chalar ham;  
Yevgeniy, tepishdan tinganday qalbi,

<sup>1</sup> Peterburgdagagi Pyotr maydoniga (hozirgi dekabristlar maydoniga) qo'yilgan Pyotr I haykali.

Ko'zlarida qo'rquv, umid va sitam,  
Tingan daryo tomon yugurib qoldi.  
To'lqinlar g'alaba zavqiga to'lib,  
Hali g'azab bilan qaynar betinim,  
Tagida o't-olov yongayday bo'lib,  
Ko'pik qoplagandi suvning betini.  
Jangdan jadal qaytgan arg'umoqsumon  
Yevgeniy qarasa: yolg'iz bir kema;  
Og'ir nafas olar, hansirar Neva.  
Xazina topganday, chopdi shu tomon.  
Darhol chaqiradi u qayiqchini –  
Beg'am qayiqchi ham shuni kutardi,  
Bir tanga kiraga jon-jon deb uni  
Qo'rinch to'lqinlardan olib o'tadi.

Ko'p ko'rgan qayiqchi o'z ishin bilar,  
Asov to'lqinlar-la olishdi uzoq,  
Qayiq bu dovyurak yo'chilar bilan  
G'arq bo'lib ketishga sal qoldi. Biroq  
Nihoyat qirg'oqqa yetdi.

#### Bechora

Tanish ko'chalardan tanish joy tomon  
Yugurar, alanglar; mudhish manzara!  
Hech tanib ololmas, hammayoq vayron;  
Bir yon o'pirilgan, toshqin mahv etgan,  
Bir yonda qiyshaygan kulbalar nimjon,  
Ba'zisin butunlay yer bilan yakson,  
Ba'zisin to'lqinlar shipirib ketgan;  
Go'yo jang maydoni – har yonda jasad.  
Yevgeniy es-hushin yo'qotdi tamom;  
Azobdan entikib toliqqan asab;  
U o'qday uchardi, chopardi hamon.  
Unda uni, go'yo muhrlangan xat,  
Sirli xabar bilan kutardi qismat.  
U tanish joylardan borardi endi,  
Kulba ham yaqindir, ko'rfaz ko'rindi...  
Ammo bu nimasi?..

U to'xtab qoldi.

Orqasiga qaytdi, qayrildi yana.  
Boqdi... qadam qo‘ydi... tag‘in ko‘z soldi.  
Ularning kulbasi shundaydi, mana;  
Mana tol. Bor edi bunda darvoza –  
Sel yuvib ketipti. Uy-chi, uy qani?  
Mash‘um qayg‘u bilan o‘rtanib toza,  
Tinmay aylanardi u vayronani;  
Qattiq-qattiq so‘zlab o‘ziga-o‘zi.  
Birdan manglayiga urib bexosdan  
Qah-qah otib kului.

Tun qorong‘isi  
Dardli shahar uzra tushdi birpasda.  
Ammo uxlay olmay shu tun fuqaro.  
O‘tgan kun haqida so‘zlab o‘zaro  
Uzoq gurunglashdi.

Tong nuri oppoq  
So‘lg‘in bulutlardan ko‘rsatib yuzin  
Jimjit poytaxt uzra charaqlagan choq  
Topmadi kechagi ofatning izin;  
Mudhish yovuzlikni qopladi shu’la.  
Har yerda eskicha tartib jobajo.  
Ofatdan qutulgan ko‘chalar bo‘ylab  
Xaloyiq kezardi sovuq, beparvo;  
Tungi yotog‘ini tark etib hozir  
Amaldor toifa xizmatga shoshar.  
Epchil savdogar ham bamaylixotir  
Neva talab ketgan podvalin ochar,  
Ko‘rgan ziyonini yor-jo‘ralardan  
Undirishni chog‘lar. But qo‘ralardan  
Qayiq to‘plashardi.

Graf Xvostov ham,  
Samo e’zoziga sazovor shoir,  
Neva sohilining dardiga doir  
O‘lmas misralarni tizardi shu dam.

Ammo Yevgeniyim, sho‘rlik, bechora...  
Afsus! Iztirobda karaxt bo‘lgan bosh  
Mudhish tug‘yonlarga bermadi bardosh!

Neva izg‘irini, isyonkor na’ra  
Uning qulog‘ida hali ham g‘uvlar.  
Mudhish o‘ylar bilan tentirar xomush,  
Unga azob berar noaniq bir tush.  
Vaqt o‘tar, haftalar oylarni quvlar,  
Uyda Yevgeniydan darak yo‘q edi.  
Uning huvillagan bo‘m-bo‘sh hujrasin,  
Muhlat tamom bo‘lgach, uyning xo‘jası  
G‘arib bir shoirga baholab berdi.  
Yodiga tushmadi uydagi bisot,  
Tezda odamlarga bo‘lib qoldi yot,  
Piyoda tentirab o‘tardi kunlar,  
Pristanga borib uxlardi tunlar.  
Har choq derazadan ehson etilgan  
Non bilan qornini to‘yg‘azib olar,  
Egniga ust-boshi juldur, titilgan,  
Ortidan tosh otar yomon bolalar,  
Ba‘zan kucherlarning qamchisi tushib  
Jizzillatar edi uning yelkasin,  
Chunki endi hech vaqt uning es-hushi  
Farq qilmas ko‘chaning yo‘lin-yo‘lkasin,  
Qamchi zarbin sezmas. Ichki hayajon  
Shov-shuvi vujudin qilgandi karaxt.  
Shunday o‘tkazardi umrini bebaxt,  
Na inson edi u, na yirtqich hayvon,  
Na o‘lik arvohdir va na tirik jon...  
Neva pristanida uxlardi bir kun.  
Yoz oylari tugab kirgandi kuzak,  
Nam yomg‘ir shamoli esardi muzdak;  
Pristanda chayqalib qoramtil to‘lqin,  
Beparvo sudyaning ostonasiga  
Arz-u dod-la kelgan fuqarodayin,  
Silliq zinalarga urar manglayin.  
Bechora uyg‘ondi. G‘amgin, osuda,  
Yomg‘ir tomchilardi, yel shitirlardi  
Qora tun, uzoqdan eshitilardi –  
Qorovul hushtagi el-la basma-bas.  
Yevgeniy bir sapchib turdi-da yerdan,

O'sha kun dahshatin esladi birdan;  
Shoshib jo'nab ketdi, tentidi birpas.  
Yana birdaniga to'xtab qoldi-da,  
Atrofga ko'z soldi, yuzida qo'rquv.  
Qarasa, kattakon uyning oldida,  
Stunlar tagida turar edi u.  
Zinapoya uzra, go'yo posbon,  
Oldi oyoqlarin ko'tarib tikka  
Tirikday turardi ikki arslon.  
To'g'rida, qorong'i bir balandlikda,  
Qal'aband qoyatosh uzra ulug'vor  
Bir qo'lini cho'zib to'g'riga tikka  
Turardi Mis Oqliq — buyuk hukmdor.

Yevgeniy seskanib ketdi. Ongida  
Dahshatli xayollar chaqnadi nogoh;  
To'fon bosgan joydan u bo'ldi ogoh;  
Yovuz isyon qilib uning yonida  
Vahshiy to'lqinlar ham shunda quturgan.  
Tanidi ikkita sherni, otni ham;  
Ana, yuksaklikda jimjit o'tirgan  
Qorong'i tun aro mis boshli odam.  
U zo'r hukm bilan dengiz bo'yida  
Shu ulug' shaharga solgan poydevor...  
Naqadar bahaybat zulmat qo'ynida!  
Uning manglayida ne xayollar bor!  
Naqadar yashirin kuch-qudrat unda!  
Ot-chi, ot olovday tovlanar tunda!  
Qaylarga uchasan, mag'rur arg'umoq.  
Qayerlarga borib bosarsan tuyoq?  
Taqdirling qudratli hukmdori, ayt,  
Senmasmi, jarlikka kelib qolgan payt,  
Temir tizgin bilan, bu yuksaklikda  
Rossiyani shunday ko'targan tikka?

Ulug' hukmdorning oyoq ostidan  
Sho'rlik savdoyi bir aylanib chiqdi.  
Yarim olam shohin bo'yi-bastiga  
Vahshat-la olaygan ko'zlarin tikdi

Va ko'krak qafasi siqildi birdan,  
Sovuq panjaraga bosdi manglayin,  
Xira ko'zlarini qopladi tuman,  
Qalbiga alanga chirmashgandayin  
Qoni qaynab ketdi. G'azabli edi  
Bu mag'rur, bezabon qoya ostida,  
Musht qisib, tishini tishga bosdi-da,  
Iztirob ichida, shivirlab dedi:  
«Mayli, seni qara!.. Mu'jiz binokor!»  
Mashum vasvasada naq devonavor,  
Birdan o'qday uchib yugurdi o'zi.  
Uning nazarida, bu dahshatli shoh  
Bir zum g'azab bilan lovullab yuzi  
Sekin bu tomonga qayrildi nogoh...  
Bo'm-bo'sh maydon bo'ylab chopardi tinmay,  
Ortidan chalinar quloqlariga:  
Momaqaldiroqning gumburlashiday.  
Chopayotgan otning tuyoqlaridan  
Jaranglab titrardi toshko'cha, maydon.  
Qo'lini uzatib oldinga tomon,  
Yuksakda, so'lg'in oy nurida yilt-yilt  
Mis Otliq kelardi uning ortidan  
Jarangli dukurlab chopgan otida;  
Tun bo'yi, shu xilda, hushsiz bechora  
Tentirab qayerga bosmasin qadam,  
Mis Otliq izidan qolmadi sira,  
Gurs-gurs tuyoq tovushi keldi orqadan.

Shu bo'ldi-bo'ldi-yu o'shandan buyoq  
U maydondan o'tib qolsa basharti,  
Yuziga qalqardi iztirob, titroq,  
Shoshib yuragiga qo'lin bosardi,  
Shu bilan tinganday qalbida dardi,  
Boshidan olardi eski qalpog'in,  
Cho'chigan ko'zlarin ko'tarmay, tag'in  
Chetlab o'tar edi.

Sohilga yaqin  
Bir kichik orol bor. Ba'zan u joyda

Kech qolgan baliqchi bo‘lardi paydo,  
Shunda qaynatardi obiyovg‘onin.  
Yo bo‘m-bo‘sh orolga yakshanba kunlar  
Kemada sayr etib kelar amaldor.  
Bunda na bir ko‘kat, na bir giyoh bor.  
Bunda toshqin vaqtি o‘ynab to‘lqinlar  
Ko‘hna bir kulbani surib keltirgan.  
Suv uzra soyaday qaqqayib turgan  
Shu uyni o‘tgan yil bahor faslida  
Barkada qirg‘oqqa sudrashdi. Biroq  
Kulba bo‘m-bo‘sh edi, abgor va pachoq.  
Telbamni topdilar ostonasida.  
Sovuq jasadini shu zahotiyoy  
Darrov dafn etdilar bahaqqi-xudo.

1833

*Asqad Muxtor tarjimasi*







## • YEVGENIY ONEGIN

«*Muhabbat dostoni*» maqolasidan.)

\* \* \*

Pétri de vanité il avait encore plus de cette espéce d'orgueil qui fait avouer avec la même indifférence les bonnes comme les mauvaises actions, suite d'un sentiment de supériorité peut-être imaginaire.

*Tiré d'une lettre particulière<sup>1</sup>.*

\* \* \*

Kibor elning zavqi deb emas,  
Alqab do'stlik iltifotini,  
Taqdim etay sidqingga evaz –  
Senga loyiq dil bayotini.  
To muqaddas o'ylarga maskan –  
Go'zal qalbga bo'lsin u loyiq;  
She'riyatki, tirik va ravshan –  
Sodda, oliv o'ylarga to'liq!  
Bas, rag'batli qo'lllar bilan san  
Et rang-barang boblarni qabul,  
Kulgi, qayg'u qorishgan, bori –  
Xalqona-yu oliv, to'pori  
Zavqlarimning mevasidir bul;  
Sengadir – xom va kechgan yillar  
Uchqur ilhom, bedor tunlari;  
Sovuq shuur yiqqan hosillar,  
Dardli qalbning faryod-unlari<sup>2</sup>!..

<sup>1</sup> U maqtanchoqlikka moyil bo'lib, buning ustiga yana alohida mag'rurlikka ham egadir kim, bu mag'rurlik, balki, xayoliy bir mag'rurlik, balki, xayoliy bir ustunlik tuyg'usi natijasida, o'zining yaxshi fe'l-atvori kabi, yaramas qiliqlarini ham birday beparvolik bilan e'tirof etishga majbur qiladir.

<sup>2</sup> Bu *muqaddima* qo'shig'i A.S. Pushkinning qadrdon do'sti Pyotr Aleksandrovich Pletnyovga (1792–1865) bag'ishlangan.



## BIRINCHI FASL

Ham yashashga oshiqar, ham shoshar his etmoqqa.

*Kn. Vyazemskiy<sup>1</sup>.*

### I

Tartibparast, pokdil amakim  
Chin dardgaki bo‘lmish giriftor,  
Avlo tadbir topmay, qarangkim,  
Izzattalab bo‘libdi nochor!

Har bir fe’li – o‘zgaga ibrat;  
Lekin, yo Rabb, bu qanday kulfat –  
Jilmay bemor yonidan hech ham,  
Qarab yotmoq kunduz ham, kech ham!  
Nechog‘ tuban nayrang-u yolg‘on,  
Tirik murda ko‘nglin ko‘tarmoq,  
Yostiqlarin tuzatib turmoq,  
G‘amgin eltnaq dori-yu darmon;  
Xo‘rsinmog‘-u, aytmoq besado:  
Qachon seni ko‘targay Xudo!

### II

Shundoq o‘ylar yosh, quv yigitcha,  
Pochtavoyda dala-qir osha;  
Go‘yo oliv Zevs<sup>2</sup> hukmicha,  
Bor aqrabo vorisi – o‘sha.  
Ey Lyudmila bilan Ruslanning

<sup>1</sup> Knyaz Vyazemskiy (1792–1878) – shoir, munaqqid, knyaz Pyotr Andreyevich Vyazemskiy; Pushkinning qadrdon do‘sti.

<sup>2</sup> Zevs – qadimgi yunon afsonalarining qahramoni.

Yor-do'stlari!<sup>1</sup> Shu zum romanning  
Qahramonin muqqadimasiz  
Tanushtiray, ruxsat bering siz:  
Onegin bu – tanti bir oshnam,  
Zodgoh unga – Neva bo'ylari.  
Balkim, unda tug'ilib, nari –  
Nash'u namo topgansiz siz ham!  
Sayr etganman men ham bir zamон,  
Ammo shimol – men uchun ziyon<sup>2</sup>.

### III

Xizmat qilib mardona, tugal,  
Qarzga yashab otasi faqat,  
Yilda bazm tuzardi uch gal,  
Bori kasod bo'ldi, nihoyat.  
Yevgeniyni asradi qismat,  
Avval *Madam*<sup>3</sup> etdi tarbiyat,  
So'ngra *Monjur* almashdi o'rин;  
Bola sho'xroq edi, lek shirin.  
*Monjur* – asli faqir bir farang,  
Qiynalmasin bola, deb, jo'shib,  
Saboq berdi hazillar qo'shib,  
Nasihat-la ko'p qilmadi tang.  
Sho'xlik qilsa, koyiydi yumshoq,  
Yozgi bog'da o'ynatar har choq.

### IV

Yoshlik – jo'shqin, beqaror fasl,  
Nozik dard-u umidlar undan;  
Bas, Yevgeniy yetilgach asl,  
Murabbiyni haydashdi uydan.

<sup>1</sup> Ey Lyudmila bilan Ruslanning

Yor-do'stlari!.. Pushkin o'sha mahal xalq ichida tarqalgan Ruslan va Lyudmila dostoniga ishorat etib, uning o'quvchilariga murojaat qilmоqda.

<sup>2</sup> Bessarabiyada yozilgan. (Pushkin bunda o'zining Peterburgdan janubga surgun qilinganiga ishora etmoqda. (*Tarjimon*.)

<sup>3</sup> Madame — xonim, bu o'rinda murabbiya.

Mana endi Onegin ozod,  
So'ngra urfda soch qo'ydirib shod,  
Kiyinishda – London *dandysi*<sup>1</sup>  
Ko'rdi kibor muhitni ko'zi.  
Endi farang tilida ravon  
Yoza bilar, bemalol so'ylar,  
Mazurkaga u yengil o'ynar,  
Ta'zim bajo keltirar oson.  
Bas, ne kerak? Kibor el yakdil  
Tan berdi: u – dilkash va oqil.

## V

O'rganganmiz barchamiz oz-moz  
Qay hunarni, amallab, bir qur.  
Tarbiyada ko'rinmoq mumtoz,  
Bizga oson, Xudoga shukur.  
Ko'pchilikning fikriga ko'ra,  
(Zo'r hakamlar hukmiga ko'ra),  
Onegin sal olim, lek quruq,  
Unda – baxtli iste'dod, yo'riq:  
Suhbatlarda qiyalmay asta  
Har sohadan ozgina cho'qir,  
Olimona tus olib, chuqur  
Sukut saqlar muhim bahsda.  
Tag'in o'tli hajv ila dildor –  
Xonimlarni kuldirishi bor.

## VI

Urfdan qoldi bukun lotincha;  
Haqiqatni aysam sizga gar,  
Lotin tilin bilar u ancha –  
Onaso'zlar ma'nosin yechar .  
Yuvenaldan<sup>2</sup> so'zlar bir qadar,

<sup>1</sup> *Dandy* – olifta, po'rim. Yuksak dvoryan jamoasi axloq va muomalasiga mos tarbiyalangan shaxs.

<sup>2</sup> *Yuvenal* – qadimgi Rim shoiri, eramizdan avvalgi 42–125-yillarda yashab o'tgan. Dekabristlarning siyosiy she'riyatida sobit, egilmas siymo sifatida tavsiflanadi.

Xat so'nggida Yale<sup>1</sup> deb bitar.  
Adashsa ham, aytar yodidan  
Ikki misra «Eneida»dan<sup>2</sup>.  
U tarixlar changiga botib,  
Qadim dunyo kechmishi aro  
Izg'immoqni istamas aslo,  
Ammo Romul<sup>3</sup> davridan tortib,  
Shu kungacha tillarda kezgan  
Latifani chiqarmas esdan.

## VII

Umrin hayot sadolariga  
Baxsh etmoqqa yo'q unda havas.  
Yamb va xorey arolarida  
Ne farq bordir, urinmang, bilmas.  
So'kar Homer<sup>4</sup>, Feokritni<sup>5</sup>.  
Ammo o'qir Adam Smitni<sup>6</sup> –  
Iqtisodchi edi u teran,  
Demak, fikr qilardi ravshan:  
Qanday qilib boyiydi davlat,  
Nima bilan kechirar hayot,  
Bo'lsa unda *oddiy mahsulot*,  
Nechun bo'lmas oltinga hojat<sup>7</sup>.  
Tushunmasdi otasi uni,  
Garov qo'yar edi mulkini.

## VIII

<sup>1</sup> Yale – Omon bo'l! (Lotincha)

<sup>2</sup> «Eneida» – qadim Rim shoiri Publiy Virgiliy Maronaning epik dostoni.

<sup>3</sup> Romul – Rimning afsonaviy asoschisi va birinchi shohi.

<sup>4</sup> Homer – qadim yunon xalq shoiri, mashhur «Iliada» va «Odisseya» dostonlarining muallifi.

<sup>5</sup> Feokrit – qadimgi yunon shoiri.

<sup>6</sup> Adam Smit (1723–1790) – ingliz iqtisodchisi.

<sup>7</sup> Bu misralar o'z davrining siyosiy-iqtisodiy arboblardan hisoblangan Karl Marks e'tiborini tortgan edi.

Yevgeniyning barcha bilganin  
So‘ylamoqqa rag‘bat menda kam.  
Qaysi bobda u dahodir chin,  
Qay ilmni bilar chinakam? –  
Kunlar bo‘yi uning tayanchi,  
Zahmati-yu g‘ami, quvonchi,  
Yalqov umrin to‘ldirgan hilqat –  
Bu muhabbat ilmikim, bir payt  
Nazon<sup>1</sup> uni kuylab o‘tgandi;  
Jabr-u jazo ko‘rib shu bois –  
Italiyadan quvilib, olis  
Moldaviyani makon etgandi;  
Isyonkor va porloq umrin, bas,  
Cho‘llar ichra tugatdi abas.

## XI

---

---

---

---

---

---

---

---

---

## X

Riyo kasbin o‘rgandi u tez,  
Yashiradi umidni, rashkni.  
Ko‘rinadi ma'yus, g‘amangez,  
Boplar ishontirish, avrashni.  
Goh mag‘rur-u, goh itoatkor,  
Goh diqqatli, goh bee’tibor!  
Sukutlari qanday xumorli,  
Nutqi nechog‘ o‘tli, ohorli,  
Ishqiy xatda qo‘pol qandayin!  
Birin suyib, biriga yetib,

---

<sup>1</sup> *Ovidiy Nazon* – qadimgi Rim shoiri.

Yashar go‘yo o‘zin unutib!  
Nigohlari keskin va mayin;  
Uyatchan va beor, ba’zida  
Yiltiraydi yoshlар ko‘zida!

## XI

Hazillashib, o‘zgarib birdan,  
Ma’sum dilni hayratga solar,  
Cho‘chitar-u ma’yuslik birlan,  
Xushomadlab yupata qolar.  
Ilib olib mehr lahzasin,  
Qizning iffat mulohazasin  
Yengib aql-u ehtiros ila,  
Noxos mehrin kutib, so‘z ila,  
Rizoligin istab, tirishar.  
Tinglar qalbning ilk sadosin, oh,  
Yor izidan ergashib, nogoh  
Maxfiy visolga ham erishar...  
So‘ng xilvatda sukunat chog‘lar  
Jononaga berur saboqlar!

## XII

O‘rtashni ko‘p o‘rgandi erta  
Dong‘i ketgan tannozlar dilin.  
Raqiblarin butkul agarda  
Yo‘qotmoqchi bo‘lsa u, tilin  
Zahar qilib, yomonlar chunon!  
Bas, tuzoqlar qo‘yar beomon!  
Lek baxtliman, degan erlar, siz  
U bilan do‘sst bo‘ldingiz, esiz!  
Siylar uni hiylakor er ham,  
Ham Foblasning<sup>1</sup> shogirdi, battol,  
Ham hech kimga ishonmas bir chol,  
Go‘sxo‘r, dayus ulug‘vor er ham;

<sup>1</sup> *Foblas* – farang yozuvchisi Luve-de-Kuvrening (1760–1797) «Xushtor Foblasning kechinmalari» romani qahramoni.

Tag‘in rozi o‘zi o‘zidan,  
Xotinidan, rizq-u ro‘zidan.

### XIII. XIV

---

---

---

---

---

---

---

### XV

Turmasdanoq hali o‘rnidan,  
Unga necha maktub tatarlar.  
Ne bu? Taklifnomami? Birdan  
Uch xonadon bazmga chorlar.  
Bal, bolalar bayrami unda,  
Qayga yelar arzandam shunda?  
Kimdan boshlar? Unga – bari bir,  
Hammafiga ulgurar bir-bir.  
Keng bolivar<sup>1</sup> qo‘ndirib boshga,  
Xiyobonga<sup>2</sup> yo‘l olar asta.  
Hozircha u tongi libosda,  
Qo‘ng‘iroqli soat ham tushga  
Sado berib, chorlaguncha to,  
Keng maydonda sayr etar tanho.

### XVI

Qosh qorayar. Chanaga minar.  
«Hayda, jonvor!» – uchar hayqiriq.  
Qor changidan kumushga do‘nar

<sup>1</sup> *Bolivar* – Pushkin bunga «A-L d Bolivar» – «Shlapaning nomi» deb izoh bergen. Yevropa liberallarining dohiysi Simon Bolivar nomi bilan ham bog‘liq.

<sup>2</sup> *Xiyobon* – bu o‘rinda o‘sha mahal ma’lum toifaning sayrgohi hisoblangan Neva ko‘chasi nazarda tutilgan.

Qunduzmo'yna yoqasi, tiniq.  
Yelar Talon<sup>1</sup> – matbaxi<sup>2</sup> tomon,  
Kutar unda Kaverin<sup>3</sup>, ayon.  
Kirar, tiqin dumli yulduzday  
Shu zum shipga uchar, toshar may.  
Seli sizib turgan qovurdoq,  
Yoshlik zavqi – zamburug‘ oshi –  
Farang dasturxoni gultoji,  
Strasburgning somsasiga boq!  
Yangi Limburg pishlog‘i ham bor,  
Ham oltinrang ananas tayyor!

## XVII

Istar hali ko‘ngillar sharob,  
Changab seryog‘ ul qiyma etdan.  
Qo‘ng‘iroqli soat-chi, shu tob  
Xabar berar yangi baletdan.  
Teatrda yovuz hukmdor,  
Go‘zal aktyor xonimlarning zor  
Va beqaror oshiq-shaydosi,  
Sahna ortin faxriy a’zosi –  
Oneginim ul tomon yelar.  
Bunda barcha erkinlik aro  
Raqs olqishlab, izzalab hatto  
Fedra, Kleopatradan kular;  
Moinani<sup>4</sup> chorlashar (nechun? –  
Har kim hukmin o‘tkazmoq uchun!)

<sup>1</sup> *Talon* – mashhur restoran sohibi (A.S. Pushkin).

<sup>2</sup> *Matbax* – yemakxona, oshxona.

<sup>3</sup> *Kaverin Pyotr Pavlovich* (1794–1855) – Pushkinning yoshlikdagi do‘sti. Hettingen dorilfununida tahsil ko‘rgan, sargashta hayoti va erkin fikrliligi bilan tanilgan.

<sup>4</sup> *Fedra*, *Kleopatra*, *Moina*... Pushkin bu bandda tomoshagohlarda ijro etilgan rollarning o‘sha davrdagi yig‘ma manzarasini tasvir etgan. *Fedra* – Rasining «*Fedra*» degan fojiasidan yaratilgan opera qahramoni. *Kleopatra* – qadim Misrda podshohlik qilgan go‘zal ayol. *Moina* – Ozerovning «*Fingal*» fojiasi qahramoni.

## XVIII

O, sehrli diyor! Bir zamon  
Hajv ustozi, jasur erk do'sti –  
Mard Fonvizin<sup>1</sup> topdi unda shon,  
Ham taqlidchi Knyajnin<sup>2</sup> o'tdi.  
Xalqning erksiz ko'zyosh xirojin,  
Olqishlarin baham ko'rди, chin,  
Ozerov<sup>3</sup>, yosh Semyonova<sup>4</sup> ham.  
Unda bizning Katenin<sup>5</sup> o'ktam  
Tiriltirdi Kornel<sup>6</sup> dahosin;  
Zahar Shaxovskoy<sup>7</sup> bir zamon  
Mazhakadan<sup>8</sup> sochdi ko'p suron,  
Didlo<sup>9</sup> kiydi shuhrat libosin.  
Unda – parda ko'lkasida, bas,  
O'tdi yoshlik kunlarim abas.

## XIX

Parilarim! Qaylarda sizlar?  
Yetarmikin sizga bu faryod?  
Sog' bormisiz? Yo o'zga qizlar  
O'rmengizni oldimi, hayhot!

<sup>1</sup> *Fonvizin* — XVIII asrda yashagan mashhur rus dramaturgi.

<sup>2</sup> *Knyajnin Yakov Borisovich* (1742–1791) – yozuvchi, dramaturg.

<sup>3</sup> *Ozerov Vladislav Aleksandrovich* (1769–1816) – dramaturg. «Edin Afinada», «Fingal», «Dmitriy Donskoy» fojialari shov-shuv bo'lib, shuhrat qozongan.

<sup>4</sup> *Semyonova Yeketerina Semyonovna* (1786–1849) – Gnedichning shogirdi, fojialarda o'ynaguvchi mashhur aktrisa bo'lgan. Pushkin uning iqtidorini juda yuksak baholagan.

<sup>5</sup> *Katenin Pavel Aleksandrovich* (1792–1853) – dekabristlar harakatining faol ishtirokchisi, harbiy jamiyatning boshlig'i.

<sup>6</sup> *Kornel Per* (1606–1684) – farang klassik fojiasining asoschilaridan biri.

<sup>7</sup> *Shaxovskoy Aleksandr Aleksandrovich* (1777–1846) – dramaturg, rejissyor, teatr arboblaridan biri.

<sup>8</sup> *Mazhaka* – komediya.

<sup>9</sup> *Didlo Karl* (1767–1837) – Peterburgda atoqli baletmeyster bo'lgan. Uning tomoshalari behad shuhrat qozongan.

Yana tinglab kuyingiz sasin,  
Samimiy rus Terpsixorasin<sup>1</sup>  
Ko'rermenmi samoviy raqsin?  
G'amgin nigoh tanishlar aksin  
Yoki bezavq sahnada topmas?  
Yo o'ksigan durbinim<sup>2</sup> hayron  
Boqib o'zga bir olam tomon,  
Loqayd muxlis shodlanar-u, bas,  
Yo men esnab, yutib unlarni,  
Yod etgaymen o'tgan kunlarni?..

## XX

Bino to'lgan. Lojalar porlar.  
Mavj zo'r parter va kursilarda.  
Xalq chapakda besabr chorlar –  
Ko'tarilar sas berib parda.  
Sir-sehrli komoncha kuyin  
Kutib, ko'kka shaylangan ko'yi  
Chin parilar davrasi aro  
Istomina<sup>3</sup> turar, dilrabo.  
Yerga tegar-tegmas bir oyoq,  
Bir oyoqda aylanar birdan;  
Pat uchgandek Eol<sup>4</sup> labidan –  
Nogoh sakrab, ucha boshlar, boq.  
Burar, tiklar qomatin gulrux,  
Oyoqlarin urishtirar sho'x.

## XXI

Qarsak, olqish... Kirar Onegin,  
Qatorlardan o'tgani zamon  
Qo'sh durbindan boqadi sekin

<sup>1</sup> *Terpsixora* – qadimgi yunon asotiridagi, raqs ilohasi.

<sup>2</sup> *Durbin* (*lornet*) – dastakli, ochilib-yopiladigan, oynagi qo'sh qavatlari durbin.

<sup>3</sup> *Istomina Avdotya Ilinichna* (1799–1848) – Peterburg baletining o'sha davrdagi yetakchi balerinasisi.

<sup>4</sup> *Eol* – qadim yunon asotiridgi shamol ilohasi.

Yot xonimlar lojasi tomon.  
Qavatlarga tashlaboq nigoh,  
Ko'rdi: yuzlar, kiyimlar nogoh  
Etdi behad ta'bini xira.  
Har tarafga bosh egib so'ngra,  
Erkaklarga ayladi ta'zim.  
So'ng sahnaga boqib parishon,  
Yuz o'girib, esnadi shu on,  
Dedi: «Barin yangilash lozim;  
Baletga ko'p chidadim, endi  
Didlosi ham jonimga tegdi»<sup>1</sup>.

## XXII

Ishq malagi, jinlar, ilonlar  
Hali jo'shib sahnada izg'ir.  
Yo'lakda-chi, horg'in qarollar  
Po'stinlarga o'ralib mizg'ir<sup>2</sup>.  
Hali tinmas yer tepish, olqish,  
Chapak, yo'tal, ham burun qoqish.  
Hali bino ich-u toshida  
Fonuslari nur sochar juda.  
Sovuq: otlar depsinar kishnab –  
Egar-jabduq aylamish zada.  
Izvoshchilar gulxan girdida  
Janoblarin so'kar qo'l ishqab.  
Onegin ham chiqadi, mana,  
Uyga borib kiyinar yana.

## XXIII

Chizarmenmi aniq lavhasin  
Tanho bo'lma-xonaning zinhor –  
Unda har xil na'ma bandasi  
Kiyim tanlar takror va takror.

<sup>1</sup> Chayld Haroldga mansub bo'lgan tuyg'ular tasviri.

<sup>2</sup> XIX asr rus teatrlarida garderob bo'lмагандан ustki kiyimlarga qarollar qarab turar edi.

Hoyu havas, zavq uchun chandon  
Neki sotsa nozikta'b London,  
Boltiq dengiz to'lqini bukun  
Ne keltirsa yog'och, moy uchun,  
Yo ochko'z did Parijda bilsa  
Nimaniki go'zal san'at deb,  
Neni rohat, zeb-u ziynat deb,  
Yo ermak deb ixtiro qilsa, –  
Bular bari bezamish, tayin,  
O'n sakkiz yosh faylasuf o'yin.

## XXIV

Istanbuliy za'far chilimlar,  
Birinj, chinni idishlar bunda.  
Nozik hislar zavqi – atirlar  
Sof, qirrador billur ichinda.  
Taroq va yo po'lat arracha,  
To'g'ri-egri qaychilar necha,  
Cho'tkalarning o'ttizdir xili –  
Tish yo tirnoq uchun bir xili.  
Russo<sup>1</sup> – chechan devona biroq  
Anglamadi, (qayd etib o'tay)  
Grimm<sup>2</sup> uning oldida atay  
Tozalovdi ne uchun tirnoq<sup>3</sup>.

---

<sup>1</sup> Russo Jan Jak (1712–1778) – farang adibi va faylasufi. Bunda Russoning na'maga qarshi holati bayon qilinmoqda.

<sup>2</sup> Grim (Grimm) Melxior (1723–1807) – farang yozuvchisi, Russoning do'sti.

<sup>3</sup> A.S. Pushkin izohi: Uning oq moybo'yoq ishlatisini hamma bilardi. Men avval bunga mutlaq ishonmasdim. Keyinroq ishona boshladim. Bu fikrga kelganimning boisi faqat uning yuzlari rangi yaxshilanib borganidan yoki faqat pardoz stolida oq moybo'yoq idishchalarini ko'rganimdan emas, yo'q, buning boisi shuki, bir kuni ertalab men uning uyiga kirib, maxsus cho'tkacha bilan tirnoq tozalayotganini ham ko'rib qoldim. Bu mashg'ulotini u mening huzurimda ham viqor bilan davom ettiraverdi. Men xulosa qildimki, har kuni ertalab tirnoq uchun ikki soat vaqtini isrof etayotgan kishi yuzidagi g'adir-budurlarni oq moybo'yoq bilan sillqlash uchun bir necha daqiqani ayamasligi mumkin. Jan Jak Russo. («Tavba»).

Grim o'z asridan ilgarilab ketgan: hozir butun ma'rifatli Yevropada tirnoqni maxsus cho'tkacha bilan tozalaydilar.

Erk-u huquq qo‘riqchisi naq  
Shu o‘rinda tamoman nohaq.

## XXV

Mashg‘ul arbob bo‘lsang-da butun,  
Tirnoq rangin o‘ylarsan, balkim:  
Zamon bilan tortishmoq nechun?! –  
Urf-u odat – insonga hokim.  
Yangi Chadayevdir<sup>1</sup> – Onegin,  
Qo‘rqib qizg‘onch ta’nadan lekin;  
Kiyinishda pedant<sup>2</sup> u, puxta,  
Biz aytgandek, po‘rim, olifta.  
Uch soatlar, eng kamida, rost,  
Jilmas edi ko‘zgu yonidan.  
So‘ng chiqardi pardozxonadan, –  
Go‘yo kiyib erkakcha libos,  
Maskaradga chiqqan parizod –  
Veneraday<sup>3</sup> sollanib ozod.

## XXVI

So‘nggi pardoz zavq-didiga mos,  
Diqqatingiz jalb etib butun,  
Dono qavm qarshisida xos  
VASF etsaydim uning bisotin;  
Zo‘r jasorat bo‘lar o‘zi ham,  
Tavsif, axir, mening vazifam.  
Qarang: *jilet, pantalon, frak* –  
Bunday so‘zlar yo‘q bizda biroq.  
Qarshingizda aybdorman ammo:

<sup>1</sup> *Chadayev (Chaadayev) Pyotr Yakovlevich* (1794–1856) – jamoat arbobi, faylasuf.

<sup>2</sup> *Pedant* – bu o‘rinda qarashlari, did-farosati kibor doira qarashlariga mos kelguvchi kishi ma’nosidadir. Birinchi fasning V bandida ham bu so‘z uchraydi. Lekin o‘sha o‘rinda biz buni «quruq» deb olishni lozim topgandik.

<sup>3</sup> *Venera* – Qadimgi Rim asotirida, ishq va go‘zallik ilohi.

Akademik lug‘atni<sup>1</sup> garchand  
Titar edim azaldan harchand,  
Mana, o‘zi qashshoq, benavo  
Lug‘atimni ajnabiy so‘zlar  
Olaquroq aylab, ko‘z-ko‘zlar.

## XXVII

Mavzuyimiz boshqadir endi,  
Hozir balga shoshganimiz soz.  
Karetani kiralab yeldi  
O‘sha yoqqa Onegin shovvoz.  
Tiyra uylar yonidan bot-bot  
Qator, mudroq ko‘chalarga shod –  
Sho‘x nur sochib qo‘sh fonuslari  
Aravalor o‘tar, tuslari –  
Qor ustida kamalak chizar.  
Tegrasida g‘ujg‘on chiroqlar –  
Zo‘r, muhtasham bir uy charaqlar;  
Cho‘ng oynada soyalar kezar:  
Ular xonim hamda na’masoz  
Tentaklarning shaklidir, xolos.

## XXVIII

Mana, keldi qahramonimiz,  
O‘qdek darbon yonidan o‘tib,  
Chiqdi marmar zinalardan tez,  
Sochlarni qo‘lda tuzatib,  
Kirdi – sahn odamga to‘lgan:  
Yangrayverib musiqa tolgan.  
Mazurkaga olomon banddir,  
Atrof shovqin hamda tirbanddir.  
Suvoriyda jaranglar mahmiz,  
Xonimlarning oyoqchalari  
Uchar, sohir izlari sari

<sup>1</sup> Akademik lug‘at – Rossiya Akademiyasining lug‘ati. Birinchi marta 1794-yilda nashr etilgan.

Uchar o‘tli nigohlar ham tez;  
Ko‘mar g‘ijjak sadosi sirin –  
Tannozlarning rashkli shivirin.

## XXIX

Shod, orzuli kunlarim butun  
Edim behad ballarga shaydo.  
Izhor uchun, xat bermoq uchun  
Joy topilmas bundan-da a’lo!  
Ey muhtaram er-u xotinlar!  
Xizmatimni qabul etinglar,  
Diqqat qiling so‘zimga, hayhot,  
So‘rovim shu: bo‘ling ehtiyyot.  
Onajonlar, sizlar ham illo  
Ta‘qib eting hur qizingizni,  
To‘g‘ri tuting durbinizingizni!  
Yo‘qsa... Yo‘qsa, asrasin Xudo!  
Bul so‘zimga shuldirki izoh,  
Ko‘pdan beri qilmadim gunoh.

## XXX

Evoh, turfa ermaklar uchun  
Qancha umrim ayladim isrof!  
Hanuz balni sevardim, bukun  
Axloq qolsa bezavol va sof.  
Men sevaman jasur yoshlikni,  
Dabdabani, yalpi shodlikni,  
Xo‘b bezangan xonimlarning-da,  
Oyoqhasin sevarman juda.  
Ammo butun Rossiyada siz  
Uch juft birday latif oyoqcha  
Topgaymisiz? Bir juftin qancha  
Unutmadi!.. Mahzun va behis  
Yod etaman, hatto tushlarda  
Dil o‘rtanur yod etishlarda.

## XXXI

Qachon, qayda, qaysi sahroda  
Unutarsan uni, tentagim?  
Eh oyoqlar! Siz qay ma'voda  
Bosmoqdasiz bahor chechagin?  
Ardoqlanib sharq diyorida,  
Shimol yurtin g'amgin qorida  
Qolgani yo'q sizdan biron iz.  
Chunki ko'proq sevardingiz siz  
Yumshoq gilamlarning safosin.  
Siz deb, axir, unutdim ko'pdan  
Shon-u shuhrat chanqog'in obdon,  
Ota yurt-u surgun jafosin.  
Yoshlik baxtim yo'q bo'ldi uvol  
O'tloqlarda sizning iz misol.

## XXXII

Diananing<sup>1</sup> siynasi porloq,  
Floraning<sup>2</sup> yonoqginasi.  
Do'stlar! Menga go'zaldir ko'proq  
Terpsixora oyoqginasi.  
Nigohlarga tengsiz, alomat –  
Zo'r mukofot aylar karomat,  
Oliy husni ko'ringan onda  
Orzularim dod etar jonda!  
Sevdim uni, do'stim, Elvina<sup>3</sup>,  
Ko'rib stol ostidan, sevdim,  
Bahor – o'tloq ustida sevdim,  
Qishda – pechning yonida yona  
Sevdim, parket oynasida ham,  
Dengiz – qoya siynasida ham.

<sup>1</sup> Diana – Qadim Rim asotirida go'yo oy ilohasi.

<sup>2</sup> Flora – Qadim Rim asotirida go'yo gullar ilohasi.

<sup>3</sup> Elvina – shartli shoirona bir ism.

### XXXIII

**Yodda: dengiz kutardi dovul,**

To'lqinlarga qildim ko'p hasad –  
Yugurardi muhabbat-la ul  
Oyoqlarga bosh urib faqat.  
O'shal aziz oyoqlarga jim  
Mavjlar ila teksaydi labim!  
Yo'q, yo'q, yoshlik gupurgan asno,  
Yonib yurgan chog'larim aslo  
Bu azobda istamovdim hech  
Armidalar<sup>1</sup> cho'g'dek labidan,  
Yo pursitam ko'kraklaridan,  
Gul yuzidan olmoqni o'pich!  
Hislar zabti hech biror bora  
Bag'rim buncha etmagan pora!

### XXXIV

Yodimdadir o'zga bir zamon!  
Shirin o'ylar ichra men goho  
Tutgum xushbaxt uzangi, shu on  
Oyoqchasi... kaftimda go'yo.  
Yana yangi xayolot zabti,  
Yana latif oyoqlar tafti  
Yoqgay so'ngan dilimni faqat,  
Yana sog'inch, yana muhabbat!..  
Makkoralar vasfini jo'shib  
Chechan sozing madh etmasin, bas,  
Dardlaringga ular arzimas,  
Hayf ularga ilhom va qo'shiq:  
Sehrgarlar so'zi va ko'zi  
Oyog'idek aldoqchi o'zi.

---

<sup>1</sup> *Armida* – Italian shoiri Torkvato Tassoning (1544–1595) – «Ozod etilgan Quddus» dostoni bosh qahramoni.

## XXXV

Xo'sh, Onegin qalay? U tamom  
Mudrab, baldan yotoqqa yelgan.  
Nog'oralar bu payt beorom  
Peterburgni uyg'otib bo'lgan.  
Tujjor turar, hammol-chi, kelar,  
Birjasiga izvoshchi yelar.  
Sutchi ayol shoshar – xurmador,  
Poyida sas berar tongi qor,  
Tong g'ovuri uyg'onar ajib.  
Derazalar ochildi; tutun –  
O'rlar go'yo moviy bir ustun.  
Nemis novvoy do'konin ochib,  
Ko'pdan, qog'oz qalpog'i boshda,  
Non sotadi, juda sarishta.

## XXXVI

Bal shovqini horitib biroq,  
Subhidamni aylab yarim kech,  
O'yin, ziynat erkasi bu choq  
Uxlar orom og'ushida tinch.  
Uyg'onadi choshgohda alhol,  
Tongga qadar yana shu ahvol –  
Umr kechar rangin, bir izday,  
O'tgan kunga bu kun egizday.  
Eng gullagan chog'lari lekin  
Zo'r zafarlar ziyosi aro,  
Kunlarning aysh, safosi aro  
Baxtlimidi erkin Onegin?  
Bazm-u ziyofatlarda butkul  
Sog'lommidi, beg'ammidi ul?

## XXXVII

Yo‘q, hislari sovudi erta,  
Tez bezdirdi muhit suroni.  
Jononalar oz fursat o‘rtab,  
Xayolining bo‘ldi mehmoni.  
Xiyonatlar bevaqt toldirdi,  
Do‘slik, do‘sstar ko‘ngliga urdi.  
Keyin, doim osonmas to‘yib,  
Bifshteks-u somsalarni yeb,  
So‘ng shampanga qonmoq kiroyi;  
Bosh beomon og‘rigan kezlar  
Socholmaydi u tig‘dor so‘zlar.  
Bo‘lsa ham o‘t-olov, havoyi,  
Qiziqtirmay qo‘ydi oxir hech  
Jang-u jadal, nayza-yu qilich.

## XXXVIII

Kelmishdir u mubtalo bo‘lgan  
Dard sababin aniqlash oni:  
Misli ingliz *ziqligi* olgan,  
Alqissa shu, rus *xafaqoni*  
Asta-sekin chulg‘amish uni.  
Yo‘q, Xudoga shukur, o‘zini  
Nogoh otib o‘ldirmadi ul,  
Lek yashashdan sovidi butkul.  
G‘amgin, Chayl Harolddek<sup>1</sup>, siniq  
Dargohlarda ko‘rinar yana.  
Na g‘iybat-u na qarta va na  
Xumor ko‘z, na oshkor xo‘rsiniq  
Etar edi ko‘ngliga ta’sir;  
Hech narsani xushlamas taqir.

<sup>1</sup> *Chayl Harold* (Child Harold) – buyuk ingliz shoiri Jorj Gordon Bayronning «Chayld Harold ziyyaratlari» dostoni qahramoni.

**XLII**

Hey kibor el nozaninlari!  
 U sizni tark etdi eng avval.  
 Rost, kibor el yuksak unlari –  
 Bezdirguvchi ohang bu mahal.  
 Biron xonim nutqida kam-kam  
 Uchrar balki Sey<sup>1</sup> bilan Bentam<sup>2</sup>,  
 Lekin ular suhbat zinhor  
 Bema'nidir, garchi beg'ubor.  
 Tag'in ular juda begunoh,  
 Ko'p ulug'vor, behad oqila,  
 Diyonatga qalblari to'la,  
 Ehtiyotkor, ziyrak va ogoh,  
 Go'yo erkak yaqin yo'lamas,  
 Ko'rsang, ziqlik boshlanadi, bas<sup>3</sup>.

**XLIII**

Ey navnihol, ma'sum go'zallar,  
 Peterburgning tosh yo'llaridan  
 Aravalar kechki mahallar  
 Sizni olib ketardi birdan;  
 Ha, sizdan ham Yevgeniy kechdi,  
 Qizg'in aysh-u safodan qochdi.

<sup>1</sup> *Sey* (Se) Jan Batist (1767–1832) – farang publisisti va iqtisodchisi.

<sup>2</sup> *Ventam* Ieremiya (1748–1832) – ingliz burjua publisisti, huquqshunos.

<sup>3</sup> A.S. Pushkin izohi: Butun bu kinoyali band go'zal vatandosh xonimlarimizning nozik ta'rifidan bo'lak narsa emasdir. Bualo ham shundoq ta'na pardasi ostida Lyudovik XIV ni madh etgan. Bizning xonimlarimiz latofatga yo'g'rilgan ma'rifat va pokiza axloq bilan Stal xonimni benihoyat maftun etgan shu sharqona jozibani uyg'unlashtirganlar. («Dix années d'exil» – «O'n yil quvg'inda» asariga qarang).

U qamalib olib yotoqqa,  
Esnab, qalam tutdi yozmoqqa,  
Urindi-yu, bu zahmatli ish  
Ko‘nglin qildi behuzur, qalam  
Unga hamdard bo‘lmadi, u ham  
Bo‘lmadi bir tajang elga esh –  
Ki, bu elni netgum yozib man? –  
O‘zim axir, unga mansubman.

#### XLIV

Bekorlikka u yana sodiq,  
Qalb bo‘shlig‘i solib qiynoqqa,  
Maqtov uchun, kirishdi loyiq –  
O‘zgalardan aql olmoqqa.  
Kitoblarni tokchaga tizdi,  
O‘qib-o‘qib, uqmadi, bezdi:  
Unda – alдов, dilgirlik, yolg‘on,  
Yo‘qdir unda ma’no va vijdon.  
Hammasida turfa riyozat,  
Qadim hayot – eskigan juda,  
Yangi so‘zda eski safsata;  
Ayollardek tashlab, nihoyat,  
Chang qoplagan javonga shartta  
Tortdi qora – motamiy parda.

#### XLV

Kechib kibor davradan men-da,  
Shovqinlardan etak qoqqandim.  
Biz topishib do‘stlashdik shunda,  
Ko‘p xislati menga yoqqandi:  
Orzularga zo‘r sadoqati,  
O‘xshashi yo‘q ajib holati,  
Keskin,sovuj fe’li ham maqbul,  
Men – g‘azabli, ma’yus edi ul;  
Hirs o‘yinin bilardik andoq;  
Ikkimiz ham hayotdan to‘ngan,  
Qalbimizning olovi so‘ngan.

Umrizning tonglaridayoq  
Ikkovni ham kutardi nari  
Ko'r qismat-u odamlar qahri.

## XLVI

Yashab fikr qilguvchi inson  
Insonlarga nafratsiz bo'lmas.  
Hisli yurak topmagay omon –  
Qaytmas kunlar yodi tinch qo'ymas:  
U dilga yo'q hayrat, jozibot,  
Unga ilon bo'lgay xotirot,  
Bas, kemirgay uni nadomat,  
Berar ohor, nazokat har vaqt  
Buning bari so'zlash tarziga.  
Oneginning tili, avvalo  
Lol qoldirdi meni, so'ng ammo  
Ko'nikdim men achchiq bahsiga,  
Zahar hazil so'xtasiga ham,  
Mudhish she'riy qit'asiga ham.

## XLVII

Yoz mavsumi birga kezdik ko'p.  
Tungi samo Neva ustida<sup>1</sup>  
Lojuvard-u yorug' edi xo'b;  
O'ynoqi suv o'z ko'zgusida  
Ko'rsatmas oy – Diana aksin.  
Biz eslashib o'tmish qissasin,  
Kechgan muhabbatni etdik yod.  
Yana tuyg'u ichra beg'am, shod,  
Sermuruvvat tun havosidan  
Lazzat berdik jimgina jonga!  
Uyqusida yashil o'rmonga  
Keltirilgan tutqundek, chindan  
Uchar edik xayolan tamom  
Yosh umrining ko'klami tomon.

<sup>1</sup> A.S. Pushkin bu band izohida shoir Gnedichning Peterburg tunlari manzarasini vasf etib yozgan qasidasini eslatib o'tgan.

## XLVIII

Nadomatga to‘lib yuragi  
Tik qoyaga suyangancha tek,  
Oneginim o‘ychan turadi  
O‘z tasvirin chizgan shoirdek<sup>1</sup>.  
Jimjit edi hammayoq, xolos –  
Qorovullar berardi ovoz.  
Kelur Milon ko‘chasidan goh  
Aravaning taq-tuqi nogoh.  
Eshkak urib tanho bir qayiq  
Suzar edi mudroq daryoda;  
Bizni asir etdi – naryog‘da  
Yangroq burg‘u, otashin qo‘shiq.  
Lek lazizroq tunlar asnosi  
Torkvatoning she’riy navosi!<sup>2</sup>

## XLIX

Yadrondengiz<sup>3</sup> to‘lqinlari, siz!  
O, Brenta!<sup>4</sup> Ko‘rgumdir sizni!  
Ilhomlarim jo‘sh urib tinsiz,  
Tinglay sohir ovozingizni.  
Muqaddasdir bu sas Appolon<sup>5</sup>  
Avlodiga. Mag‘rur Albion<sup>6</sup>  
Sozidan u menga esh, dildosh.  
Venetsiya diyorining yosh –  
Goh so‘zamol, goho indamas

<sup>1</sup> A.S. Pushkin bu satrlar izohida shoir Muravyevning «Neva ilohalari» she’ridan to‘rt misra keltirgan.

<sup>2</sup> *Torkvato Tasso* – mashhur Italiany shoiri (1544 – 1595). Sakkiz misrali she’rlar (oktavalar) bilan «Ozod etilgan Quddus» dostonini yozgan. Uning bu asarini Pushkin juda sevar edi.

<sup>3</sup> *Yadrondengiz* – Adriatika dengizining turkcha atamasi.

<sup>4</sup> *Brenta* – Yadrondengiziga quyilguvchi daryo, uning belasida, ya’ni tarmoqlangan mansabida Venetsiya joylashgan.

<sup>5</sup> *Appolon* – Qadim yunon asotirida quyosh ilohi va she’riyat homiysi. «Appolon avlodii» deganda Pushkin shoirlarni nazarda tutgan.

<sup>6</sup> *Albion* – Angliya, lekin bu o‘rinda Pushkin g‘urur shoiri J.G. Bayron ijodini nazarda tutadi.

Guli bilan Italiyaning pok  
Tuni sirli qayiqda zavqnok  
Erk qo‘ynida suzarman sarmast.  
Ul go‘zaldan olurman bilib  
Petrarka<sup>1</sup> va muhabbat tilin.

## L

Kelarmikin erkim zamoni?  
Fursat yetdi! – deya dodlayman.  
Sohil kezib, kutib havoni,  
Kema yelkanini chorlayman<sup>2</sup>.  
O‘rab bo‘ron ridosin, shoshib,  
O‘r to‘lqinlar bilan kurashib,  
Ozod yo‘lim boshlarman qay choq?  
Asov adovatli to‘ng qirg‘oq  
Qolsin endi. Endi ko‘z tikay,  
Afrikamning osmonlariga<sup>3</sup>,  
Yayrab janub sayhonlariga;  
Tund Rossiyam o‘ylab, entikay:  
Sevdim unda, dard chekdim unda,  
Yuragimni dafn etdim unda.

## LI

Tayyor edi men-la Onegin  
Chet ellarni kezib, ko‘rmoqqa.  
Tezda taqdir bizni va lekin  
Uzoq zamon soldi firoqqa.  
U chog‘ vafot qildi otasi.  
Qarzchilarning ochko‘z to‘dasi

<sup>1</sup> Petrarka – XIV asr Italian klassik shoiri, muhabbat kuychisi sifatida dunyoga tanilgan..

<sup>2</sup> A.S. Pushkin izohi: Odessada yozilgan. (Surgun davriga ishora etmoqda. (*Tarjimon*))

<sup>3</sup> A.S. Pushkin izohi: «Yevgeniy Onegin»ning birinchi nashriga qarang. (Bu faslning birinchi nashrida Pushkin bunday deb izoh bergan: «Muallif ona tomondan afrikalikdir. Uning bobokaloni Abram Petrovich Gannibal 8 yoshligida Afrika sohillaridan olib qochilib, Istambulga keltirilgan...») (*Tarjimon*)

Yevgeniyni o‘radi darhol,  
Har birida o‘zga arzi hol.  
Da’volardan hazar qilgancha,  
O‘z chekidan bo‘ldi-yu rozi  
Qarzlariga ketdi merosi,  
U ziyon ham ko‘rmadi uncha.  
Chol amaki o‘lishin chindan  
Bildimikin yoki oldindan?

## LII

Sarkoridan Onegin filhol  
Oldi nogoh xabarnoma – xat.  
Yotmisht o‘lim to‘shagida chol,  
Rizolashuv istarmish behad.  
O‘qiboq bu noxush xabarni,  
Darhol lozim topdi safarni.  
«Pochtavoy»da yeldi u birdan,  
Uni esnoq tutdi hozirdan.  
Meros uchun shayladi shu choq  
Oh-u zorni, nayrang, yolg‘onni.  
(Shundan boshlab edim romanni);  
Ko‘rdi, yetgach qishloqqa biroq –  
Amakisi taxtada qotgan,  
Go‘rga tayyor sovg‘adek yotgan.

## LIII

Qo‘rg‘on – xizmat ahliga to‘lgan,  
Har tomondan ul mayyit sari  
Kelishardi do‘sht ila dushman,  
Hamda dafn ishqibozlari.  
Bas, mayyitni yerga ko‘mishdi.  
Pop, mehmonlar yedi-yu ichdi,  
Tarqalishdi so‘ng mag‘rur, malul,  
Go‘yo muhim bir ishga mashg‘ul.  
Qishloqlikdir Onegin endi,  
Yer-suv, zavod, o‘rmonga xoja.  
Lekin o‘zi shu fursatgacha

Tartibga yov, isrofgar edi.  
Endi mammun – u yo‘lni tashlab,  
Nelargadir oldi al mashlab.

## LIV

Ikki kuncha sokin dalalar,  
Jilg‘alarning jildirashlari,  
Quyuq, salqin emanzor – bular  
Yangichadek tuyuldi bari.  
Tepa, dasht-u daraxtzor lekin  
Uchinchi kun bermadi taskin.  
So‘ng uyqusin keltirdi chunon,  
Keyin esa ko‘rdi u ayon –  
Qishloqda ham o‘sha dilgirlik.  
Garchi bunda na bir ko‘cha bor,  
Na saroy-u na bal, na ash’or,  
Xafaqonlik aylab tixirlik,  
Soya va yo vafodor xotin  
Kabi unga ergashar betin.

## LV

Men tug‘ildim osuda hayot  
Hamda qishloq jimligi uchun;  
Ovloqlarda kuylarim obod,  
Ham ijodiy o‘ylarim butun.  
Men bokira onlarga fido –  
Ko‘l bo‘ylarin kezaman shaydo.  
Far niente<sup>1</sup> – umrimga g‘oya,  
Orom deya, erkinlik deya  
Uyg‘onaman har kuni nahor:  
Oz o‘qiyman, ko‘p uxbab faqat,  
Qiziqtirmas o‘tkinchi shuhrat,  
Yillarimni shu yo‘sin bekor  
Eng baxtiyor kunlarimning shod  
Soyasida o‘tkazdim, hayhot!

<sup>1</sup> Bekorchilik, erkinlik (*italyancha*).

## LVI

Gullar, sevgi, erkinlik, qishloq,  
Dalalar! Men sizga fidoman.  
Onegindan o‘zimning mutlaq  
Farqim aytib shodman juda man.  
Istehzoli o‘quvchim toki,  
Allaqaysi noshirmi yoki  
Biror tuhmat bandasi noxos  
Fe'l-atvorim aylabon qiyos,  
Demasmikim, ul mag‘rur shoir  
Bayron kabi men ham ijodda  
O‘z tasvirim etdim ifoda;  
Go‘yo boshqa odamga doir  
Doston bitmoq biz uchun dushvor.  
Shoir o‘zin aylarmish oshkor.

## LVII

Aytib o‘tay, barcha shoirlar  
Bir xayolchan sevgiga yordir.  
Menga aziz lavhalar, sirlar  
Tushlarimda avvaldan bordir.  
Qalbda pinhon edi barisi  
So‘ng tirkizdi ilhom parisi:  
Men bearmon kuyladim, yohu,  
Sof amolim – tog‘lar qizi-yu  
Solg‘irdaryo asiralarin.  
Endi sizdan, aziz jo‘ralar,  
Menga shunday savol taralar:  
«Sozing kim deb un chekar sarin?  
Rashkchi qizlar to‘dasi aro  
Sen qay qizga baxsh etding navo?»

## LVIII

«Ilhomningni qo‘zg‘ab qay nigoh,  
Hadya etur mehrini, shirin,  
Sening o‘ychan kuylaringga, oh?

O‘zi kimga fidodir she’ring?»  
Xudo haqqi, hech kimga, do‘sstar!  
Telba sevgi g‘alvasin bo‘zlab,  
Men boshimdan kechirdim nolon.  
Baxtiyordir, kim sevgi bilan  
Qofiyaning otash sasini  
Qo‘sib, she’riyatning muqaddas  
Sadolarin orttirsa-yu, bas,  
Petrarkaning bosib izini,  
Taskin topsa, shon ham topsa zo‘r!  
Men sevganda edim gung va ko‘r.

## LIX

Sevgi o‘tdi, ilhom parisi  
Zulmat fikrim yoritdi xiyol.  
Ozodman-u izlayman kezib  
Sehrli sas, tuyg‘u va xayol.  
Yozaman-u, yo‘q dilda g‘amim,  
Chizmas endi hushsiz qalamim  
Chala she’rlar yoniga shoshib  
Ayol oyoqchasin va boshin.  
Qayta yonmas yurakdagi kul,  
Qiynalaman, yoshsizdir ko‘zim  
Va hademay bo‘ronlar to‘zib,  
So‘nar, so‘nar ruhimda butkul;  
O‘shanda men yozurman rostdan  
Yigirma besh qo‘schiqli doston.

## LX

O‘ylab qo‘ydim asar rejasin,  
Ham ismini qahramonimning.  
Hozircha men birinchi faslin  
Tugalladim bu dostonimning.  
So‘ng diqqat-la qarab chiqdim xo‘b,  
Ziddiyatlar unda juda ko‘p.  
Ammo endi tuzatmam har zum,

Senzuraga to‘larman qarzim.  
Chaynash uchun tanqidchi xalqi  
Mehnatimning mevasi tayyor.  
Borgil, Neva bo‘ylariga bor,  
Ey navrasta ijodim, balqi! –  
Xizmat qilib, menga shon keltir,  
Shov-shuv, bo‘hton va suron keltir!



## IKKINCHI FASL

*O, Rus!..*

*Hor.*

*O, Русъ!..<sup>1</sup>*

Horatsiy<sup>2</sup>.

### I

Ul Yevgeniy zerikkan qishloq  
Go'sha edi, cho'mgan safoga;  
Bunda pok zavq shaydosi biroq  
Shukronalar aytur Xudoga.  
Soy bo'yida shundoq shohona  
Turar edi tanho koshona,  
Shamollardan to'sgandi tog'lar.  
Yashnar edi yaqin-yiroqlar –  
Yaylovlar-u oltin ekinzor.  
Goh qishloqlar elas miltirar,  
Unda-bunda poda tentirar.  
Tashlab quyuq ko'lka-yu shoxzor,  
Qarovsiz bir katta bog' turar,  
Unda o'ychan parilar yurar.

### II

Solinmish ul muhtasham qasr  
Barcha ulug' qasrlarga xos.  
Mustahkam-u tinch-u bekasr,  
O'tmishning did-idrokiga mos.

<sup>1</sup> O, Rus!.. O, qishloq!.. Horatsiy (lotincha). O, Русъ! – Pushkin bunda ikki tildagi shakldosh so'zdan tajnis yaratgan: lotincha rus – qishloq, ruscha Русъ – Rossiya ma'nosida kelyapti. Taajjubki, fors-tojik tilida ham qishloq degan so'zning o'zagi rusdir – rusto.

<sup>2</sup> Xorasiy Flakk – eramizdan oldingi 65–8-yillarda yashab o'tgan Rim shoiri.

Bo‘lmalari – baland, safoli,  
Mehmonxona – guldor matoli,  
Devorida shohlar rasmi bor,  
Pechlari ham silliq, koshindor,  
Bukun bari eskirmish alhol,  
To‘g‘risi, men bilmadim, nechun.  
Lekin mening do‘stginam uchun  
Qizig‘i kam, shundan ehtimol,  
Tinmay loqayd esnar shu onda  
Ham qadim, ham yangi dolonda.

### III

U joylashgan xonada qirq yil  
Oqsoch bilan urishib, filhol,  
Derazaga qarab muttasil,  
Pashsha ezib o‘tdi o‘troq chol.  
Bari oddiy bunda: pol – eman,  
Ikki shkaf, stol, par divan,  
Siyohdog‘ yo‘q biron yerida.  
Shkaflarni ochdi: birida  
Xarj daftari yotibdi abgor,  
Bittasida qator ko‘zalar –  
Olmasharob, musallas ular,  
Sakkizinchı yil taqvimi<sup>1</sup> bor.  
Chol ishi ko‘p bo‘lib erta-kech,  
Kitoblarga qaramagan hech!

### IV

O‘z mulkida Yevgeniy yolg‘iz,  
Vaqt o‘tkazish uchungina shod,  
Etmoq bo‘ldi avvalo ta’sis  
Bunda yangi usul, tartibot.  
Ovloqda dasht donosi tag‘in  
Qadim qullik bo‘yinturug‘in

<sup>1</sup> *Taqvim* – kalendar.

Almashtirdi yengil soliqqa;  
Qul ham shukur aytdi Xoliqqa!<sup>1</sup>  
Bir hisobdon qo'shnisi filhol  
Ko'rib bunda qo'rqinchli ziyon,  
Bir chekkada tumshaydi yomon,  
Boshqa qo'shni kului hiylahol.  
Hamma briday hukm etdi: beshak,  
Onegin ko'p xatarli tentak!

## V

Dastlab hamma yo'qlardi uni.  
Lekin katta yo'ldan eshitgach  
Aravaning taqa-tuqini,  
Qarollari orqa eshikdan  
Don ayg'irin tutqazar shu tob,  
Qochib qolar Onegin shitob.  
Bu qiliqdan xo'rlnib behad,  
Barcha uzdi do'stlikni minba'd.  
«Qo'shni – nodon, esi ham butmas,  
U – farmazon<sup>2</sup>, tanho qizil may  
Ichar, elga zinhor qo'shilmay;  
Xonimlarning qo'llarin tutmas;  
*Ha der, yo'q der, demas labbay , xo'sh...»*  
Umum fikri shunaqa – noxush.

## VI

O'sha mahal o'z qishlog'iga  
Bir zamindor surib kelib ot,  
Xuddi shunday gap-so'z o'qiga  
Nishon bo'lib qolgan edi bot.  
Vladimir Lenskiydir ul,

<sup>1</sup> Bunda *barshchina* va *obrok* to'g'risida gap bormoqda.

<sup>2</sup> *Farmazon* – yahudiylarning «Frank-mason» jamiyatiga mansub olifta odam ma'nosida. Bu o'rinda qo'shnilar Oneginni badmastlikda emas, isrofgarlikda ayblamoqdalar. Pastdag'i ikki satrda esa nazokatsizlik, adabsizlikda ayblaydilar.

Hettingenning<sup>1</sup> ruhida butkul,  
Ko'rkam, ayni gullagan to'kis,  
Shoir edi, ham Kantga<sup>2</sup> muxlis.  
Olis Olmon yurtidan bu zot  
Keltirgandi irfon gullarin,  
Erkinlikning pok orzularin,  
Ruhi jo'shqin, g'aroyib, ozod.  
Nutqi otash, yelkaga oshib  
Tushgan qora, qo'ng'iroq sochi.

## VII

Kibor muhit fahsh-u fisqidan  
To'nmay turib hali dunyosi,  
Ilitardi qalbini chindan  
Do'st salomi va qizlar nozi.  
Sodda edi ma'sum yuragi,  
Yo'l dosh edi orzu-tilagi.  
Dunyo ko'rki, g'alvasi – na sir,  
Yosh aqlni etgandi asir.  
Shirin o'y-la ovutar ammo  
O'z qalbini, borsa gumonga;  
Bizning hayot g'oyasi unga  
Jumboq edi, qiziq muammo;  
Bosh qotirib mudom beg'araz,  
Mo'jizalar aylardi faraz.

## VIII

Ishonardi, dildosh o'sha qalb  
O'zi bilan topishar bir kun.  
Va o'rtanib, intizor alqab,  
Faqt uni kutmoqda har kun.  
Ishonardi, uning sha'niga

<sup>1</sup> Hettingenning ruhida... Hettingen shahar dorilfununi faqat Germaniyaning emas, balki Yevropaning katta ilmiy dargohlaridan hisoblangan. Dekabristlar harakatining sardorlaridan biri A.I. Turgenev va boshqa ko'pgina erkin fikrli ruslar unda tahlil ko'rib kelgan.

<sup>2</sup> Kant Immanuil (1724–1804) – mashhur nemis faylasufi.

Do'stlar shaydir yov kishaniga.  
Qo'llari hech titramay birin,  
Sindiradi tuhmat shamshirin;  
Taqdir ravo ko'rgan tole bor,  
Elning aziz do'st-xalaflari  
Va ularning o'lmas saflari  
Hammamizni qachondir bir bor  
So'nmas nur-la yoritgay, albat,  
Bu dunyoga baxsh etgay rohat.

## IX

Afsuslari, qahr-u g'azabi  
Va tolega toza muhabbat,  
Shuhratning ham achchiq azobi  
Uning qonin qaynatdi barvaqt.  
U soz bilan kezdi-yu zamin,  
Ko'rdi Shiller, Gyote<sup>1</sup> olamin,  
Ul zotlarning she'r otashida  
Yolqinlandi yuragi juda;  
Hargiz ilhom parilarin u  
Xijolatda qo'ymadi, masrur,  
Qo'shiqlarda saqladi mag'rur  
Eng bokira tuyg'ularin u;  
Saqladi pok orzular erkin  
Ham ulug'ver soddalik ko'rkin.

## X

Kuylar sokin sevgini u mast,  
Qo'shiqlari oydin, musaffo,  
Soddadil qiz xayolidek, bas,  
Misli go'dak tushidek va yo  
Xuddi sirlar, ohlarga guvoh –  
Sokin samo sahosida moh!  
U kuylardi g'amni, firoqni,

<sup>1</sup> *Shiller*, Gyote... Shiller Fridrix (1759–1805) – buyuk nemis shoiri va dramaturgi.

*Nimanidir, yiroq-yiroqni.*  
Kuylar oliy xayol gullarin  
Va sukunat qo‘yniga qaynoq  
Ko‘z yoshlari bir zamon uzoq  
Tomgan o‘shal olis ellarin;  
U o‘n sakkiz yoshida hayot  
So‘lg‘in gulni kuylardi, hayhot.

## XI

Iste’dodin bu dashtda faqat  
Qadrlaydi Yevgeniy tanho.  
Qo‘shnilarning suyuq saltanat –  
Bazmlari yoqmaydi aslo.  
Qochib, shovqin gurungdan kechgan.  
Topgan gapi ularning – pichan,  
Urug‘-aymoq, sharob, itxona,  
Pok tuyg‘udan yo‘qdir nishona.  
Porlar unda na bir she’riyat,  
Na o‘tkir did, na teran naql,  
Ziyolanur na komil aql,  
Uchqun berar na biror san’at.  
Xotinlarin suhbat esa  
Bundan ko‘ra bema’ni rosa.

## XII

Lenskiy xo‘b xushfe’l, badavlat;  
Bir kuyovdek olinar peshvoz;  
Qishloq joyda shu asli odat...  
Hamma ham o‘z qizini bexos  
Mo‘ljallaydi shu chala rusga,  
Qayon borsa, suhbat ham o‘zga  
Rang oladi, so‘z aytsa qaysi,  
Bo‘ydoqlikning yo‘q, deydi, fayzi.  
Qo‘shni choyga da’vat etilar,  
Dunya quyib uzatadi choy,  
Shivirlashar unga: «Qara, hoy!»

So'ngra mezbon gitar keltirar:  
Qiz chiyillar: (Parvardigorum!)  
«Qo'rg'onimga kel endi, yorim!..»<sup>1</sup>

### XIII

Oiladek kishanga biroq  
Lenskiyda yo'q edi havas.  
U Onegin bilan sobitroq  
Do'st tutinsam derdi beg'araz.  
Topishdilar. To'lqin bilan tosh,  
She'r va nasr, muz bilan otash  
Bularchalik bo'lmas xilma-xil.  
Bir-biriga qarshi ikki dil  
Aro avval bo'ldi sovuqlik;  
Keyin har kun uchrashdilar, bas,  
Do'st bo'ldilar sira ajralmas,  
Asta paydo bo'lgach yovuqlik.  
O'zim shohid, odamlar mutlaq  
*Bekorlikdan do'stlashur shundoq.*

### XIV

Shu do'stlik ham yo'q lekin bizda.  
Sidirib bor xurofiy izni,  
Biz barchani yo'q sanaymiz-da,  
Yakto deymiz bir o'zimizni.  
Biz hammamiz Napoleonmiz,  
Bizga birday quroldir jonsiz  
Ikki oyoq jamiki jonzot,  
Kulgildir, yotdir hissiyot!..  
Yo'q, ko'plardan durust Onegin;  
Odamlarni bilsa-da, albat,  
Va ulardan qilsa-da nafrat,  
(Istisnosiz qonun yo'q) lekin

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: «Dnepr suv parisi»ning birinchi qismidan. (Bunda Gansler she'ri, F. Kauer musiqasi asosida yaratilgan «Dunay pariey» operasi nazarda tutiladi. Ruscha matn – N. Krasnopolskiyga mansub. (Tarjimon)

Ba'zilarni zab farqlar edi,  
Ezgu hisni ardoqlar edi.

## XV

Bir tabassum bilan tinglar u  
Shoirining o'tli so'zlarin.  
Beqaror o'y-fikrlari-yu  
Mudom yonib turgan ko'zlar  
Yangilikdir Onegin uchun;  
Tez ichiga yutardi beun  
Kelib qolsa bir sovuq kalom,  
O'ylardiki, telbalik tamom  
So'zin bo'lmoq, jo'shsa botini;  
Hukmni o'qir mensiz ham zamon,  
Mayli, hozir yashasin omon  
O'ylab dunyo kamolotini;  
Ma'zur bo'lsin, mayli, yosh yurak,  
Shoshqinlig-u o't-u guldurak.

## XVI

Hamma narsa ikki do'st aro  
Bahs qo'zg'ar, tafakkur, hukm.  
O'tgan kunlar shartnomasi<sup>1</sup> yo  
Fan mahsuli<sup>2</sup>,adolat, zulm.  
Qolmas asriy hukmlar, bari,  
Ajalning ham mash'um sirlari,  
So'ylanadi hayot va taqdir,  
Hukm aytishar bariga bir-bir.  
Fikr-u xayol o'tida goho  
Behad yonib shoirning joni,  
O'qib ketar Shimol dostoni

<sup>1</sup> *Ajdodlarning shartnomasi...* – Jan Jak Russoning «Jamoat shartnomasi to'g'risida» (1762) asari ko'zda tutiladi.

<sup>2</sup> J.J. Russoning «Axloqni poklash fani va san'atini tiklash imkoniyati yaratilganmi?» degan asari nazarda tutilgan.

Parchalarin<sup>1</sup>. Yevgeniy ammo  
Fahm etmasa hamki ko‘p teran,  
Tinglar edi tavoze bilan.

## XVII

Darvishlarim fikrini ko‘proq  
Band etardi zavq-u ehtiros.  
Hissiyotga berilmay biroq,  
So‘ylar edi Onegin, xolos,  
Noxos afsus va armon ila;  
Baxtlidir, o‘t-hayajon ila  
Yonib, oxir qo‘l siltagan zot,  
Baxtliroq, kim baridan ozod –  
Ko‘msa ishqni ayriliq bilan,  
Xusumatni g‘iybat bilan yo,  
Esnab xotin, do‘satlari aro  
Boqmasa rashk, g‘ayrlik bilan.  
Baxtlidir, kim bobolari bor  
Halol molin qilmasa qimor.

## XVIII

Oqilona jimlik bayrog‘i  
Ostida biz toparkan panoh,  
Ehtirosning so‘nib mayog‘i,  
So‘ng kulgili tuyularkan goh  
Bizga ishqning erk-u shiddati  
Va kechikkan so‘nggi da’vati,  
Yuvoshgina bo‘lib shunda biz  
Tinglamoqni maqbul ko‘ramiz  
O‘zgalarning otashin so‘zin,  
Cho‘g‘ soladi ular yurakka.  
Kulbasida bir o‘zi yakka

<sup>1</sup> Shimol dostoni parchalari... Shimol – rus she’riyati uchun odatiy bir atama edi. Bu o‘rinda Shotlandiyaning Qadim afsonaviy shoiri Ossian qo‘shiqlari va shu qo‘shiqlarga taqlidan yozilgan she’rlar nazarda tutilgan.

Qolgan qari askar shu yo'sin  
Sho'x, shop mo'ylov yoshlarning qaynoq  
Suhbatiga tutadir qulqo.

## XIX

Guvlab turgan olov yoshlik ham  
Hech narsani yashirmas alhol.  
G'araz, sevgi, qayg'u, shodlik ham  
Yonishlarda fosh bo'lur darhol.  
Muhabbatda qari askardek  
Onegin ham tinglar edi tek —  
Sevib turib, ko'ngil iqrarin  
Shoir nechuk fosh etur borin;  
U pokiza vijdoni sasin  
Soflik bilan aylaydi oshkor.  
Bilib oldi Yevgeniy ham bor  
Yosh sevgining ajib qissasin.  
Hisga to'lug' bu hikoyat, bas,  
Bizga bukun yangilik emas.

## XX

U sevardi, bizning yoshda, o,  
Hech kim bundoq sevolmas, mungli,  
Faqat mahkum sevmoqqa tanho  
Bir shoirning devona ko'ngli:  
Hamma joyda mudom bir xayol,  
Bir odatiy orzu, bir malol.  
Bezdirguvchi yiroq-yiroqlar,  
Na ko'p yillar kezgan firoqlar,  
Ilhom parilariga va na  
Fido bo'lgan onlar xayoli,  
Na begona yurtlar jamoli,  
Na ilm-u fan, na sho'x tantana —  
O'zgartmadi pok o't aro zor  
Yongan shoir qalbini zinhor.

## XXI

O'smirlikdan Olgaga asir,  
Bilmay hali dil dardlarini,  
Shohid bo'lib ko'rgandi, axir,  
Qizning go'dak ermaklarini.  
Yosh daraxtzor qo'ynida ul dam  
Zavqlariga bo'lgandi hamdam.  
Otalari – jon qo'shni-yu do'st,  
Qudalikdan deyishardi so'z.  
Latofatga yo'g'rilib butkul,  
Sokin, xilvat bog' panohida,  
Ota-onha ko'z-nigohida  
Ochilgandi bir marvaridgul,  
U bir gulki, o'tloqda nari,  
Na kapalak ko'rgay, na ari.

## XXII

Baxsh etgandi shoirga u qiz  
Yosh quvonchning ilk tushlarini.  
O'y-xayoli jonlantirdi tez  
Nayin nola etishlarini.  
Kechiring, ey dilkash o'yinlar!  
Sevdi qalin o'rmonni yillar,  
Jimlik, xilvat joylarni sevdi,  
Tunni, yulduz-oylarni sevdi;  
Oyni sevdi – samo charog'in,  
Baxsh etganmiz unga bir payt biz  
Ko'zyosh, zulmat aro sayrimiz,  
Sirli azoblarning maroqin...  
Endi oyga tikkanda ko'zni,  
Ko'rgaymiz bir xira fonusni.

## XXIII

Kamtar edi qiz, itoatkor,  
Hamisha tong misoli quvnoq;  
Shoir umri kabi beg'ubor

Va muhabbat bo'sasidek pok.  
Osmon yanglig' moviy u ko'zlar,  
Tabassumlar, jarang ovozlar,  
Zarrin kokil va yengil qomat –  
Olgadadir bari... Siz faqat  
To'g'ri kelgan romandan bukun  
Uning aksin topursiz – go'zal.  
Shunday qizni sevardim avval,  
Keyin jonga tegdi u butun.  
Ruxsat aylang, o'quvchim, bizga,  
Opasidan so'ylayin sizga.

## XXIV

Opasining ismi – Tatyana<sup>1</sup>.<sup>(10)</sup>  
Biz bundayin nom bilan ilk bor  
Asar nozik betlarin, mana,  
Yoritmoqni etdik ixtiyor.  
Nima derdik? Jarangdor va xush,  
Lek bu nomga bog'liqdir noxush  
O'tmish hayot xotiralari –  
Cho'rixona asiralari<sup>2</sup>.  
Chin e'tirof etaylik: bizda,  
Ismimizda did-nafosat kam,  
(Qo'ya qoling she'riyatni ham);  
Ma'rifat yo'q vujudimizda,  
Undan bizga yuqqani bir oz  
Quruq noz-u takalluf, xolos.

## XXV

Demak, qizning ismi Tatyana.  
Singlisiga xos go'zallig-u  
Unday qizil yonoq-la yana

<sup>1</sup> Jarangdor grekcha ismlar, masalan, Agafon, Filat, Fedora, Fekla va hokazolar o'sha vaqtida faqat oddiy xalq o'rtasida qo'llanilgan.

<sup>2</sup> Cho'rixona asiralari... – Zodagonlar jamoatining yuqori tabaqasida Tatyana degan ism kam bo'lgan. Bu nom faqat quyi tabaqa kishilaridagina uchragan.

Ko‘zlarни jalg aylamasdi u.  
Bir yovvoyi, kamgap va g‘amlig‘,  
Hurkak, o‘rmon ohusi yanglig‘.  
O‘z uyida go‘yo Tatyana  
O‘gay edi, edi begona.  
Erkalana bilmas qizaloq  
O‘z ota, o‘z onasiga, rost;  
Bola bo‘lib, bolalarga xos  
Chopib-sakrab o‘ynamas quvnoq.  
Bas, deraza yonida yolg‘iz  
Kun bo‘yi jim o‘ltirardi qiz.

## XXVI

Eng go‘daklik chog‘idan beri  
Xayolchanlik hamroh u bilan.  
Uni qishloq sokinliklari  
Ziynatlamish o‘y-orzu bilan.  
Igna ko‘rmay nozik barmog‘i,  
Kashta qo‘yib tizzaga, chog‘i,  
Ipak naqsh solib u, hayhot,  
Baxsh etmadi gazmolga hayot.  
Hokim bo‘lish belgisi ayon:  
Qo‘g‘irchoq-la o‘ynab, jo‘rttaga  
Kibor davra tartibotiga  
Tayyorlanar mittigina jon;  
Onajoni o‘rgatgan ne bor,  
Qo‘g‘irchoqqqa so‘ylaydi takror.

## XXVII

Yo‘q, Tatyana o‘sha paytlar ham  
Qo‘g‘irchoqqqa qaragani yo‘q.  
Shahardan-u na’madan ul dam  
Bijir-bijir sayragani yo‘q.  
Sho‘xliklar ham yot edi bari,  
Uzun, qora qish kechalari

Murg'ak dilni, yoqmay ermaklar,  
Asir etdi qo'rqnich ertaklar.  
Enagasi Olga yoniga  
O'rtoqlarin mudom to'plasa,  
Chamanzorda o'ynasin, desa,  
Qo'shilmasdi to'poloniga –  
Tatyana na qiyqiriqlar  
Yoqar edi, na sho'x qiliqlar.

## XXVIII

Sekin-sekin so'narkan oqish  
Samovotda g'ujg'on yulduzlar,  
Qiz tonglari ayvondan boqib,  
Sharq ufqidan uzmaksi ko'zlar.  
Zamin ko'ksi ziyo sezadir,  
Tong elchisi – sabo esadir,  
So'ng porlaydi quyosh tal'ati.  
Qish chog'lari kecha zulmati  
Qoplaganda yarim dunyoni,  
Va ma'nosiz jimlik boshida  
Tuman kiygan oyning qoshida  
Erinchak Sharq uxlagan oni,  
Uyqusidan bir payt u turar,  
Sham nurlari aro o'ltirar.

## XXIX

Yoshligidan qizni romanlar  
O'z domiga tortdi-yu rosa,  
Maftun etdi uni yolg'onlar,  
Goh Richardson<sup>1</sup>, gohida Russo.  
Qiz otasi – sodda bir inson,  
Yashar o'tgan asrda hamon.  
Yo'q deb o'ylar kitobdan zarar,  
Hech o'qimay o'zi, alhazar,

<sup>1</sup> Richardson Samuil (1686–1761) – ingliz adibi. «Klarisa Gorlou», «Grandison» kabi romanlari mashhur bo'lgan.

Puch o'yinchoq bilar kitobni.  
Qiz yostig'i ostida kecha  
Qaysi asar pinhon tonggacha –  
O'ylamasdi sira bu bobni.  
So'ng xotini tag'in netardi –  
Richardson deb esi ketardi.

### XXX

Xotin sevar xo'b Richardsonni,  
O'qigani sababmas ammo,  
Yo Lovlasdan Grandisonni<sup>1</sup>  
Ko'rganligi uchunmas avlo<sup>2</sup>;  
Lekin knyaz Alina xonim –  
Moskvalik bo'lasi doim  
Ul zotlardan so'ylardi chandon.  
Yosh kuyov u eri u zamon,  
Kelin uni istamas biroq,  
Ko'ngli edi mudom boshqada,  
Qalbi, aqli tamom boshqacha  
Bir yigitni xushlardi ko'proq.  
O'sha Grandison – bir to'ra  
Serjant edi, qimorga jo'ra.

### XXXI

Qiz ham o'sha po'rim yigitday  
Na'maga mos tanlardi kiyim;  
Ammo undan so'ramay-netmay,  
Boshqasiga berdilar keyin.  
Tарqasin deb alami, cheri,  
Uddaburro, fahmli eri  
Qishlog'iga olib ketdi jim,  
Xudo bilar, qo'ni-qo'shni kim!

<sup>1</sup> Lovlas, Grandison – Richardson romanlarining qahramonlari. Lovlas – axloqan buzuq, xotinboz odam, Grandison esa – XVIII asr burjua axloqining timsoli bo'lgan ijobjiy obraz.

<sup>2</sup> A.S. Pushkin izohi: Grandison va Lovlas – ikki mashhur asarning qahramonlari.

Avvaliga yig‘lab va g‘ingshib,  
Ketishiga oz qoldi kelin,  
Ro‘zg‘origa ovundi keyin,  
Ko‘nikdi-yu tan berdi tinchib.  
Ko‘nikma bu – Xudodan ato,  
Baxt o‘rnini bosur bexato<sup>1</sup>.

### XXXII

Ayolning cho‘ng dard-u g‘amini  
Bosdi o‘shal ko‘nikma g‘oyat.  
Bir kashfiyat esa so‘ng uni  
Tinchlantirdi butkul, nihoyat.  
Ish-dam aro topdi bir chora –  
U erini qilgay idora,  
Hokimona kechirgay hayot;  
Hamma narsa izga tushdi bot.  
Ish boshiga ot minib borar,  
Tuzlar qishga zamburug‘, mana,  
Xarj yurgizar, soch qirar yana<sup>2</sup>,  
Har shanbada hammomga kirar.  
Joriyani kaltaklar birdan –  
Ne ish qilsa, so‘ramas erdan.

### XXXIII

Bir payt qizlar albomin joni –  
Yurak qoni bilan bezardi.  
Polina deb Proskovyani<sup>3</sup><sup>57</sup>  
Ismni qo‘sish qilib cho‘zardi.  
Ruscha «H»ni farangcha «N»dak  
Dimog‘ bilan aytardi andak,

<sup>1</sup> Agar menda baxtga ishonish telbaligi bo‘lsa edi, men uni ko‘nikmadan qidirgan bo‘lardim. (Shatobrian.)

<sup>2</sup> Soch qirar xotin... – Zamindorlar o‘z qo‘li ostidagi qarollarni harbiy xizmatga berar, shundan oldin sochlarni qirar edilar.

<sup>3</sup> Polina deb Proskovyani... – Proskovya zodagonlar tasavvurida qora xalq nomi bo‘lgan, shuning uchun Polina deb yuqori tabaqa nomi bilan almashtirib aytilgan.

Belin qisgan ichki tasmacha; –  
O'tdi, bukun bari o'zgacha:  
Tasma, albom, bekqiz Alina,  
Hisga to'la she'riy daftari –  
Unutildi ohista bari,  
Akulkadir bukun Selina.  
Kiyib oldi oxir keyinroq  
Paxtalik bir guppi-yu qalpoq.

### XXXIV

Eri uni sevardi jondan,  
Aralashmas xotin ishiga.  
Bor yumushni unga ishongan,  
Beg'am yurar uyning ichida.  
Umri kechar osuda va tinch  
Dilkash qo'ni-qo'shni ba'zi kech  
Kelishardi yig'ilib bisyor.  
To'pori-yu ochiq do'st-u yor  
Hasratlashar, qilishar g'iybat.  
Nelardandir xo'b kulishardi,  
Vaqt o'tardi, buyurishardi  
Choy keltir, deb Olgaga bir payt.  
Kechlik shunda kechar, horigan  
Mehmonlar kech chiqar hovlidan.

### XXXV

Dilbar o'tmish rasm-u rusmini  
Tinch turmushda saqlamish bular.  
Qish kuzatish bayrami kuni  
To'kin kelar, quymoqlar bo'lar.  
Ro'za tutar yilda ikki kez<sup>1</sup>,  
Xonadonga arg'imchoq – aziz,  
Fol qo'shig'i, allalar xil-xil.

<sup>1</sup> *Parhez* (*ro'za*) – cherkov xizmatlariga qatnash va tavba-tazarru qilishga tayyorlanish, shu fursatda ma'lum taomlardan tiyilish odati bo'lgan.

Troitsa<sup>1</sup> hayitida el  
Tinglar ekan esnab munojot,  
Egib tutam giyoh uzra bosh,  
Bular to‘kar uch tomchi ko‘zyosh<sup>2</sup>;  
Kvas havo kabi zarurot<sup>3</sup>.  
Taom kelar mehmonlarga zab  
Daraja-yu nasabga qarab.

### XXXVI

Ular shunday qarishdi qo‘sha,  
Va nihoyat, erin bir safar  
Qabr tortdi darchasin ocha,  
Marhum kiyidi yangi gulchambar.  
Tushga yaqin jon berdi bu zot,  
Aza ochib, ko‘tardi faryod  
Xotin, farzand, qo‘shni, xeshlari...  
Sodda edi haddan tashqari,  
Xushfe’l edi, oddiy, kamtarin.  
Endi uning xoki boshida  
Bir lavha bor qabrtoshida:  
*Orom olur Dmitriy Larin,*  
*Tosh ostida, gunohkor banda –*  
*Tangri quli, brigadir<sup>4</sup> bunda.*

### XXXVII

Lenskiy boz qo‘msab diyorin,  
Kelgan zamon o‘z qishlog‘iga,  
Bot ziyyorat aylab mozorin,  
Bir oh chekdi qo‘shni xokiga.  
Hasratlari ko‘ksida sinib,

<sup>1</sup> *Troitsa* – nasroniy din hayitlaridan biri.

<sup>2</sup> Tasvirlangan voqeada go‘yo yozda qurg‘oqchilik bo‘lmasisin, degan munojot yashirin.

<sup>3</sup> *Kvas* – oddiy xalqning milliy ne’matlardan hisoblangan.

<sup>4</sup> *Brigadir* – polkovnik bilan general-mayor o‘rtasidagi harbiy unvon. XVIII asr oxirida bekor qilingan.

«Sho'rlik Yorik!<sup>1</sup> – dedi xo'rsinib, –  
O'ynatardi meni bir zamon,  
Men Ochakov nishonin<sup>2</sup> shodon  
Bolalikda qandoq o'ynardim!  
Bermoqchiydi Olgani menga,  
Yetarmanmi, derdi, u kunga?...»  
Shoir g'amga to'lib o'ylardi.  
Vladimir o'rtanib, shu kez  
Bir marsiya ado etdi tez.

### XXXVIII

Shu mozorda, shunday qabrtosh  
Ostidadir ota-onasi.  
U ziyorat etdi to'kib yosh...  
E voh dunyo mehmonxonasi!  
Unda oniy o'rimdek birdan  
Ilohiy bir iroda birlan  
Unar, pishar, qular bir nasl,  
Boz avlodlar kelur muttasil...  
Bizning beburd avlod ham, albat  
Unar-o'sar, toshar, hovliqar,  
Bobolarni qabrga tiqar,  
Kelur, kelur bizga ham fursat;  
Nabiralar qutlug' bir soat  
Daf etishar bizni ham abad!

### XXXIX

Hayot ila mast yashangiz, shod,  
Quvnang, do'stlar, g'animatdir dam!  
Menga esa hechdir bu hayot,  
Bu dunyoga mening mehrim kam.  
Orzularga siltaganman qo'l,

<sup>1</sup> «*Sho'rlik Yorik!*» – qiziqchining kalla suyagiga qarab, Hamletning qilgan xitobi. (Shekspir va Sternga qarang.)

<sup>2</sup> *Ochakov nishoni* – 1787–1791-yillarda bo'lgan rus-turk urushi davrida turk qo'rg'onini olishda ishtirok etganlarga berilgan. Bu xoch shaklida bo'lib, «Xizmati va mardligi uchun» degan yozig'i bor edi.

Lekin olis umidlar nuqlu  
Yuragimni o'rtagay yana:  
Qoldirmasdan biron nishona,  
Dunyoni tark etmagim nadir?  
Shuhrat uchun yozmadim yashab,  
Lekin ba'zan istardim, ajab,  
Topsin munuglug' qismatim qadr.  
Hech bo'lmasa, bir sado, bir dod  
Chin do'st kabi etsin meni yod.

## XL

Qay bir dilga yetib bu sado,  
Taqdir panoh bo'lib bariga,  
Cho'kmay qolur she'r larim va yo  
Balki, fano nahri qa'rige;  
Balki, (shunday nek umidim bor!)

Biron nodon shivirlar – dongdor  
Suratimga aylab ishora:  
«Shoir edi, o, bu bechora!..»  
Ilohalari muhibi, ey, zot,  
Shafiq qo'li keksaning sabil  
Shuhrat tojin silagan ey dil,  
Ey, sen, uchqur she'rimni ozod  
O'z hifzida saqlagan omon,  
Tashakkurim sengadir hamon!





## UCHINCHI FASL

### I

«Yo‘l bo‘lsin? Eh, shoirlar qursin!»  
— Yaxshi qol, men ketay, Onegin.  
«Ushlamayman, ketavergil sen,  
Tunlar qayda tunarsan lekin?»  
— Larinlarning uyida, — «Ajab!  
Afv et! Unda osonmi yashab,  
Kechalarni aylamoq qurban?»  
— Aslo. — «Qiziq, ko‘rurman ayon:  
Avval kutib, keltirib qiyom,  
(To‘g‘rimi, ayt?) kuymanib joni,  
O‘sha oddiy rus xonadoni  
Mehmoniga ko‘rguzar ikrom.  
Suhbatlaring keyin to oxir –  
Og‘ilxona, kanop va yomg‘ir...»

### II

— Bunda yo‘q hech fojia, zarar.  
«Zerikasan, fojia – shu, do‘st».  
— Sizning kibor muhitdan hazar,  
Menga oddiy oila durnst –  
Ki, men unda... — «Yana shoirlik!  
Xudo haqqi, bas qil, azizim, qadrlik!  
Netay, afsus, jo‘narsan, yasha.  
Menga qara, Lenskiy, o‘sha –  
Fikr-u zikring, qofiyang uchun,  
Ko‘zyoshlarining uchun sababkor  
Malagingni ko‘rsam-chi bir bor?  
Olib borgin». — Hazillashma. — «Chin». —  
Shodman! — «Qachon?» — Istanasang, shu on,  
Ular bizni qarshilar shodon.

### III

Ketdik.

Do'stlar otlandi oxir,  
Manzilga ham yetdilar o'shal.  
Goh mehmondo'st o'tmishning og'ir  
Manzarati haddan oshdi sal.  
Ma'lum udum bo'ladir bajo:  
Taqsimchada kelar murabbo,  
Keltirilar mumlangan, toza  
Chog'irlari saqlangan ko'za.

.....  
.....  
.....  
.....

### IV

Keyin ular eng yaqin yo'ldan  
Uyga yelar, ot choptirib, boq.  
Keling, gap-u so'zlarga bul dam  
Biz yashirin tutaylik qulqoq:  
– Esnayapsan, Onegin, juda? –  
«Odatim – shu, Lenskiy». – Bunda  
Zerikibsan ortiq. – «Yo'q, bir xil.  
Dalalarga kech tushdi; yurgil,  
Uchqur otim, yelsang-chi, axir!  
Bunday rasvo joy yo'q hayotda!  
Ha, darvoqe, Larina – sodda,  
Lekin ekan yaxshi bir kampir.  
Menga o'shal musallas endi  
Yomon ta'sir qilmasa edi.

### V

Tatyaniyi qaysi biri, ayt?»  
– Anov, Svetlanadek<sup>1</sup> g'amgin,

<sup>1</sup> *Svetlana* – Jukovskiyning «Svetlana» balladasi qahramoni. Aslida bu asar Byurgerning «Lenora» balladasining erkin ishlangan bir nusxasi.

Xomush; kirib o'ltirdi bir payt  
Derazaning yoniga sokin. –  
«Singlisini sevding, nahot, sen?»  
– Nima bo'pti? – «Shoir bo'lsam men,  
Unisini tanlardim, hayhot,  
Yo'qdir Olga yuzida hayot.  
Vandikaning ma'budasidek'  
Yum-yumaloq, shirmoyi yuzi,  
Huv bema'ni osmonda suzib  
Yurgan tentak oyning o'zidek».  
Vladimir javob berib to'ng,  
Bor yo'l bo'yi jim-jit ketdi so'ng.

## VI

Oneginning kelishi esa  
Qoldirgandi xush taassurot  
Larinlarning ko'nglida kecha.  
Qo'shnilar ham bo'lgan edi shod.  
Gap ketidan yurar duv-duv gap,  
Hamma xufiya ta'bir topar zab,  
Hazillashar, hukmi beayov –  
Tatyana ko'zlashar kuyov;  
Ba'zilari esa ro'yirost  
To'y tayin, deb ta'kidlar, tuzuk,  
Topilmasdan faqat mos uzuk,  
To'yi to'xtab qolganmish bir oz.  
Lenskiyning to'yin-ku obdan  
Shu insonlar hal etgan ko'pdan.

## VII

Bunday mish-mishlarni Tatyana  
Alam bilan tinglardi-yu lol,  
Yashirin bir quvonch-la yana  
Beixtiyor surardi xayol.

<sup>1</sup> XVII asrda yashagan Golland musavviri Van-Deykanivi «Kakliklar orasidagi ma'buda» asari ko'zda tutiladi.

Yuragiga o'ylar solmish u,  
Vaqt kel'mish, sevib qol'mish u,  
Yerga tushgan bir dona bug'doy  
Bahor bois jonlanur cho'g'day.  
Tasavvuri qizning qachonlar  
Sog'inch, mehr taftida shundoq  
Toleini kutardi mushtoq.  
Ko'pdan buyon qyinoq, armonlar  
Yongan dilga ko'ksi tor edi  
Va kimgadir intizor edi.

### VIII

Yetishdi ham... Ochilib ko'zi,  
Ha, bu – o'sha, bu – o'sha! – dedi.  
Evoh! Endi kechi, kunduzi  
Uning bilan faqat band edi,  
Tushlari ham... Hatto har narsa  
Sehrli kuch ila har lahza  
Qizga uni eslatar. Bo'zlar,  
Dilgir qilar muloyim so'zlar,  
Joriyalar shafiq nigohi.  
Hasrat aro ado bo'lди, bas,  
Mehmonlarning gapin tinglamas,  
Beg'amlarni qarg'aydi gohi, –  
Kutmaganda kelishib ular,  
Uzoq qolib, ezmalik qilar.

### IX

Endi ajib e'tibor bilan  
O'qir biron laziz romanni  
Va g'aroyib ixtiyor bilan  
Simiradi go'zal yolg'oni!  
Xayollarning baxtli qudrati  
Tiriltirgan zotlar suvrati –  
Yo Yuliya Volmar xushtori,  
Malik Odil, Do Linar – bari,

Yo iztirob farzandi – Verter<sup>1</sup>,  
Uyqumizni keltirgan inson –  
Ya’ni tengsiz ul Grandison<sup>2</sup>  
Bu xayolchan qiz uchun birdir:  
Barchasining aksida yolg’iz  
Oneginni ko‘rar edi qiz.

## X

Suyuk ijod ahlining yana  
Qahramoni bilib qiz o‘zin,  
Klarisa, Yuliya, Delfina<sup>3</sup>  
Misoli tinch o‘rmonda kezib  
Yurar, qo‘lda xatarli kitob,  
Undan izlar va topar shu tob  
Sirli jahd-u orzularini –  
Jo‘shqin qalbning injularini.  
O‘zgalarning dard-u mathubin  
O‘zlashtirib, xo‘rsinadi qiz  
Va xayolan to‘qiydi unsiz  
Aziz qahramonga maktubin...  
Kim bo‘lsa ham qahramonim ul,  
Grandison emas, har tugul.

## XI

Bir zamonlar otashin shoir  
Sozin yuksak pardada chalib,  
Qahramonin ko‘rsatardi bir –  
Barkamollik timsoli qilib.  
Hassoslig-u oqillik uyg‘un  
Va hamisha nohaq bir quvg‘in,  
Jozib, jo‘shqin ko‘ngil insoni

<sup>1</sup> Ulug‘ nemis adibi Gytening «Yosh Verterning iztiroblari» romani qahramoni.

<sup>2</sup> Yuliya Volmar – yangi Eloiza. Malik Odil – Cottin xonimning o‘rtacha romani qahramoni.

<sup>3</sup> Klarisa – Richardson romani qahramoni.

Yuliya – Yuliya Volmar ko‘zda tutiladi. (J.J. Russo «Yangi Eloiza»).

Delfina – farang adibasi De Stalning (1766–1817) «Delfina» romani qahramoni.

Qilib tasvir etmish siymoni.  
Pok tuyg‘ular istilosida  
Hamisha ham jo‘shqin qahramon  
Tayyor edi bo‘lmoqqa qurbon,  
So‘nggi bobning intihosida  
Jazo topib yomonlik va koj,  
Kiyar edi yaxshilik gultoj.

## XII

O‘shal o‘ylar qolmish tumanda,  
Nasihatlar esnatar butkul;  
Yomonlikning bukun romanda  
Qo‘li baland, muzaffardir ul.  
Britaniya ilhom parisi  
Yolg‘onlari – she’ri barisi  
Qiz uyqusin notinch etgandir,  
Sig‘ingani – xayolchan Vampir<sup>1</sup>,  
Yoki Melmot – qayg‘uli daydi,  
Mangu o‘lmas Agasfer, Korsar  
Va yo sirli – zolim Sbogar<sup>2</sup>;  
Lord Bayron ham nozik tanlaydi  
Hatto noumid xudbinlikka mos  
Tushkun romantizmdan libos.

---

<sup>1</sup> «Vampir» – Lord Baronga yanglish nisbat berilgan qissa. «Melmot» – Matyurinning dohiyona asari. «Jean Sbogar» – Karl Nodening mashhur romani.

<sup>2</sup> Banddag'i ismlar izohi:

Vampir – ingliz adibi D. Pledorining «Vampir» romani qahramoni.

Mel'mot – ingliz adibi Charlz Robert Matyurinning «Sayoq Melmot» romani qahramoni.

Agasfer – nasroniylar afsonasi qahramoni, mangu o‘lmaslikka va sayoqlikka mahkum etilgan.

Korsar – J.G. Bayronning «Korsar» dostoni qahramoni.

Sbogar – farang adibi Sh. Nodening «Jan Sbogar» romani qahramoni. Bu asar Rossiyada benihoyat shuhurat qozongan.

### XIII

Do'stlar, so'zim men sharh eturman,  
Hukm o'qilib balki samoda,  
Shoirlikni men tark eturman  
Telbaligim tutsa, mabodo.  
Feb<sup>1</sup> tahdidin ilmay nazarga,  
Bosh egurman vazmin nasrga.  
Eski usul romani-la man  
Shod shomimni balki bezarman.  
Yovuzlikning sirli dardini  
Men qo'rqinchli etmam rivoyat,  
Soddagina qilgum hikoyat  
Bir oila hayot tarzini.  
Tasvir etgum sevgi holatin,  
Ham o't mishning urf-u odatin.

### XIV

Yozgum ota yoki amaki –  
Cholning sodda so'zlashuvlarin;  
Bolalarning arg'uvon tagi, –  
Buloq boshi uchrashuvlarin;  
Baxtsiz rashkning qyynoq toshlari,  
Hijron, keyin yarash yoshlari,  
Urishtirib yana, nihoyat,  
Nikoh baxtin etgum inoyat...  
Yodimdadir o'tgan ayyomlar:  
Sevgilimning poyida o'zim,  
G'amga to'lug' muhabbat so'zim,  
Erkalashlar, yoniq kalomlar  
Tillarimdan to'kilgay edi...  
U hollardan yiroqman endi.

---

<sup>1</sup> Feb, ya'ni Appolon – go'yo quyosh ilohi va she'riyat homiysi.

## XV

Tatyana, o jonim, Tatyana!  
Endi sen-la yoshlar to'kay men.  
Po'rim g'addor qo'liga, mana,  
Berib qo'yding taqdiringni sen.  
Jonim, ado bo'lursan, ammo  
Avval nurli umidlar aro  
Xilvat safolarni ko'zlarsan,  
Hayot lazzatlarin izlarsan;  
Ichgung shirin istak og'usin,  
Quvib yurar seni orzular,  
Sen har qayda etgung qayg'ular  
Baxtli visollarning og'ushin.  
Hamma joyda qarshingda shaydir –  
Mash'um qattolginang yashaydir.

## XVI

Ta'qib etar qizni ishq dardi,  
Qayg'urardi kirsa ham boqqa.  
Birdan ko'zi jim yumilardi,  
Erinardi qadam bosmoqqa.  
Ko'kragi tik, yuzlari lov-lov  
Yonar, chulg'ab lahzalik olov,  
Lablarida nafas quriydur,  
Qulog'ida – shovqin, ko'zda – dur...  
Kech tushadi. Oy kezadir ul  
Cheksiz samo o'yłari aro.  
Daraxtzorning kuylari aro  
Qo'shiq boshlar xushnavo bulbul,  
Uxlamasdan Tatyana lekin,  
Enagaga so'z qotar sekin:

## XVII

«Uyqum kelmas, bibijon, ko‘p dim!  
Darchani och, yonimda o‘ltir».  
– Nima bo‘ldi, Tanya? – «Zerikdim,  
Kel, o‘tmishdan gaplashaylik bir».  
– Nimasini gaplashamiz, ayt?  
Yovuz jinlar, qizlardan bir payt  
Rost-u yolg‘on gaplarni xiyol  
Saqlar edi bu qurg‘ur xayol.  
Qorong‘idir endi u zamon:  
Bilganlarim yerdadir, bolam,  
Bir oyog‘im go‘rdadir, bolam!.. –  
«So‘ylab bergen menga, bibijon,  
O‘sha o‘tgan zamonalr bir payt  
Sen ham sevib qolganmiding, ayt?»

## XVIII

– Voh, sevgidan, Tanya, u zamon  
Eshitmagan edik sira ham.  
Bu dunyodan yo‘qsa, begumon,  
Quvar edi meni qaynonam.  
«Bibi, Qandoq er qilding unda?»  
– Qizim, Xudo hukmidir shunda:  
Men o‘n uchda bo‘lgan u chog‘im  
Vanyam yoshroq edi, chirog‘im.  
Ikki hafta sovchilar qator  
Qatnab turdi, oxiri otam  
Menga tole tiladi, u dam  
Qo‘rqqanimdan yig‘ladim zor-zor.  
Avval sochim mayda o‘rdilar,  
Qo‘sinq aytib, cherkov bordilar.

## XIX

Yot bir uyga uzatdilar ham...  
Voy, tinglagil, axir, gapimni... so‘zimni  
«Oh, bibijon, bibijon, bir g‘am

Ezyapti yomon qalbimni:  
Deyman, yig'lab faryod etay men!..»  
– Sen bemorsan, qizim, netay men,  
Rabbim, rahm et, asragil O'zing!  
Nima lozim bo'lsa, ayt, qizim...  
Qutlug' suvdan sepay, kel beri,  
Yonyapsan-ku... – «Yo'q, sog'dir bu jon,  
Men-chi, sevib qoldim, bibijon». –  
Bolam, senga yor bo'lsin Tangri! –  
Kampir titrar, duo o'qilar,  
Ozg'in qo'lllar ila cho'qinar.

## XX

«Sevib qoldim», – enagaga qiz  
Shivirlaydi oh chekib yana. –  
Sen betobsan, bag'rim, shubhasiz.  
«Qo'ygil, sevib qoldim men, ena».  
Bu chog' porlab samoning oyi,  
Tatyananing so'lg'in chiroyi  
Yorishadi ipak ziyoda,  
Sochlari ham yoyiq, aftoda,  
Tomchi yoshi va navnihol qiz –  
Bilan bedor bu yarim kecha  
Oq ro'molli, paxtalik nimcha  
Kiygan bibi yorishar shu kez.  
Hamma narsa mudrar narida  
Tinch, ilhombaxsh oyning nurida.

## XXI

Oyga boqib Tatyana xiyol,  
Fikri uchar uzoq-uzoqda...  
Tuyqus qizga kelar bir xayol...  
«Bibi, meni qoldir yotoqda.  
Bergil faqat qalam va qog'oz,  
Beriroq sur stolni bir oz.  
Xayr, tezda yotaman». Mana,

Jimlik ichra yolg‘iz Tatyana.  
Oy yoritar. Yozar, tirishar,  
Xayolida Onegin tanho,  
Soddagina maktubda, evoh,  
Bokira qiz sevgisi yashar.  
Noma bitdi, buklandi... faqat,  
Oh Tatyana, kimgadir bu xat?!

## XXII

Go‘zallarni ko‘rganman, juda  
Ayoz kabi sovuq, yaltiroq.  
Yolvorishlar ketar behuda,  
Tushunmaysan ularni mutlaq.  
Ko‘p g‘aroyib kibr-u havosi,  
Ham tabiiy fazl-u saxosi.  
Rosti, qochdim ulardan tamom,  
Qo‘rqinch ichra o‘qidim mudom –  
Manglayida – do‘zax lavhasi:  
*Umidlaring tark ayla zinhor’.*  
Ular uchun kulfat – ishq, izhor,  
Qo‘rqtishdir zavq-u havasi.  
Balki, Neva bo‘ylarida siz  
Shunday xonimlarni ko‘rgansiz?

## XXIII

Yuvoshgina ma’shuqlar aro  
Bordir boshqa nozaninlar ham —  
O‘z-o‘ziga faqat mahliyo.  
O‘tli oh-u maqtovga beg‘am.  
Xo‘s, ne topdim hayrat ichra man? –  
Besrafqat bir atvori bilan  
Muhabbatni cho‘chitib ular,

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: «Bu yoqqa kirguvchilar har qanday umidni tashlab kirsinlar»... Kamtarin muallifimiz ushbu mashhur misraning faqat yarmini tarjima qildi. (Satr Dantening «Illohiy komediysi» – «Do‘zax» qismidan olingen (*Tarjimon*).

Yana qayta jalb eta bilar.  
Hech bo‘lmasa, jindak shafqati,  
Hech bo‘lmasa, jarangdor ovoz  
Mehribondek tuyular bir oz;  
Qo‘ldan ketib erk-u toqati  
Yana sodda oshiq bechora  
Yor ko‘yida bo‘lgay ovora.

## XXIV

Gunohkormi Tatyana bukun,  
Uchib toza ko‘ngil arziga,  
Yolg‘onlarga yotligi uchun,  
Ishongani uchun orzuga?!

Rost hislarga bo‘ysunib, yohu,  
Sevganimi, uning gunohi?  
Ishonch, axir, aybimi? Xudo  
O‘zi unga aylamish ato  
Notinch xayol, tasavvur – tilak,  
Tirik idrok, erk etib yo‘ldosh,  
In’om etmish qaysargina bosh,  
Nozik hamda otashin yurak.  
Andishasin yengsa tuyg‘u-his,  
Nahot, uni kechirmaysiz siz?

## XXV

Satang xonim o‘ylar sovuqqon:  
Bu Tatyana chindan suygaydir  
Bir begunoh go‘dakday har on  
Ishq o‘tida rostdan kuygaydir.  
Bu qiz demas: biz aylab tarkin,  
Oshiramiz sevgining narxin;  
Tushiramiz tuzoqqa boplab,  
Umid bilan g‘ururin toptab,  
So‘ng dilini o‘rtaymiz har kun.  
Bu qiz demas: rashk o‘tin yoqib,  
Keyin sirli turamiz boqib,

Yo‘qsa, ayshdan zerikib bir kun  
Ayyor tutqun shaylanar birrov  
Zanjir uzib qochmoqqa darrov.

## XXVI

Qarshimda bor yana bir dovon:  
Ona Vatan nomusi uchun  
O‘girmog‘im shartdir, begumon,  
Tatyananing xatini butun.  
Qiz ruschani yaxshi bilmasdi,  
Jurnallarni o‘qiy olmasdi,  
Ona tilda ming bir jafoda  
Aylar edi fikrin ifoda,  
Fransuzcha yozardi, xullas...  
Netay! Yana ayturman takror.  
Hamon ruscha etilmas izhor,  
Xonimlarning muhabbatি, bas,  
Hanuz mag‘rur tilimiz, esiz,  
Arzi dilni aytmoqqa ojiz.

## XXVII

Men bilaman: tazyiqlar bo‘lar  
O‘qishiga xonimlar ruscha!  
Jurnal tutgan holatda ular  
Tasavvurga sig‘maydi uncha!  
Shoirlarim, yuzlanay sizga:  
Yolg‘onmi yo, ne suluv qizga –  
O‘zingizni sezib gunohkor,  
Bitganingiz pinhona ash’or?  
Qalbingizni berdingiz oxir,  
Dilrabolar hammasi, qarang,  
Ona tilda so‘ylashib arang,  
Nozik qilib, buddilar, axir!  
Chet til ular nutqida shu xil  
Bo‘lmadimi go‘yo ona til?!

## XXVIII

Duchor qilma meni, yo Xudo,  
Bal yo biron bekatda yakka –  
Sariq ro‘mol seminarchi<sup>1</sup> yo  
Kuloh kiygan akademikka!  
Tabassumsiz qizil lab yanglig<sup>2</sup>  
Sarf-u nahvi xatosiz – silliq  
Ruscha gapni sevmayman aslo,  
Mening bu sho‘r peshonamga yo  
Til qonunin o‘rgatur bizga  
Go‘zallarning yangi avlodi,  
Jurnallarning tinglab faryodin;  
She‘r o‘qish ham tushar yo izga.  
Men-chi... Nima ishim bor, faqat  
Men o‘tmishga sodiqman abad.

## XXIX

Palapartish, noaniq jumla,  
Yo nodurust, kibor talaffuz  
Avvalgidek ko‘ksim g‘ijimlab,  
Yuragimni o‘rtaydi hanuz.  
O‘kinmoqqa qolmas menda hol,  
Yoshlik yillar gunohi misol,  
Bogdanovich<sup>2</sup> she‘ridek laziz –  
Farangchilik tuyular aziz.  
Yetar endi. Bo‘layin mashg‘ul  
Ul mahbubam maktubi bilan.  
So‘z bergandim, Xudo haqqi, man  
Tonmoqqa ham tayyorman butkul.  
Chunki bukun Parnining<sup>3</sup> qaynoq  
Nozik nazmi modadan yiroq.

<sup>1</sup> Diniy maktabda (seminariyada) o‘qiydiganlarni seminarchi deb atashgan. Bu bandda soxta, o‘ziga olimona tus beradigan quruq ayollar masxara qilingan.

<sup>2</sup> Bogdanovich Ippolit Fyodorovich (1743–1803) – shoir, rus tilidagi ilk hafif (yengil) she‘riyat asoschisi deyiladi.

<sup>3</sup> Parni Evarist (Dezire de Forj 1753–1814) – farang shoiri, nafis, o‘ynoqi ishqiy she‘rlar muallifi...

### XXX

Bazm-u suzuk g‘amlar kuychisi<sup>1</sup>,  
O do‘stginam, bo‘lsang yonimda,  
To‘ng iltimos bilan, qo‘y-chi sen,  
G‘uluv qo‘zg‘ar edim joningda.  
Yoniq qizning, der edim, ya’ni  
Sen ajnabiy so‘zlarin, qani,  
Bir sehrli kuylaringga sol.  
Qaydasan kel, bor huquqim ol,  
Ta’zim ila topshirayin tez...  
E voh, munglug‘ qoyalar aro  
Maqtovlarni unutib ammo  
Fin osmoni ostida bu kez  
Kezib yurar shoir, eshitmas –  
Ruhi mening dodimga yetmas.

### XXXI

Tatyananing xati qarshimda;  
Men qutlug‘ deb asrayman abad.  
Pinhona dard yonur ichimda –  
O‘qib-o‘qib, to‘ymayman faqat.  
Kimdan oldi bu nazokatni,  
Bu takallum, bu fasohatni?  
Kimdan unga yalinchoq ko‘zlar,  
Ham ajab, ham xatarli so‘zlar –  
Yuragining qaysar qissasi?  
Men bilmayman, lekin mana, hal, –  
Tarjimasi – ojiz, notugal,  
Chin tasvirning rangsiz nusxasi.  
Hadiksirab shogird qizlar yo  
Freyshitsni<sup>2</sup> etgandek ijro.

---

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: E.A. Baratinskiy.

<sup>2</sup> Freyshis» («Ozod mergan») – nemis bastakori K. Veberning (1786–1826) operasi.

## TATYANANING ONEGINGA MAKTUBI

Xat yozurman sizga, ne chora?  
Yana ne ham aytay olurman?  
Men bilaman, endi bir bora  
Qahringizga balki qolurman.  
Lekin qaro baxtimga zora  
Ko'rib zarra shafqatni ravo,  
Ketmagaysiz tashlab benavo.  
Sukut qilmoq bo'lgandim avval;  
Ishoningiz, uyalganim siz  
Sira bilmas edingiz, esiz,  
Gar umidim bo'lsa edi sal  
Haftada bir bo'lsa ham yakka  
Bu qishloqda sizni ko'rmakka.  
Eshitolsam so'zlariningizni,  
Bir so'z desam, keyin betoqat  
Kecha-kunduz o'ylasam faqat,  
Faqat yana yuzlaringizni.  
Odamovi emishsiz ammo,  
Taskin bermas qishloq joy sizga.  
Bizlar... jozib emasmiz aslo,  
Lekin shodmiz tashrifingizga.

Biz yoqlarga keldingiz nechun?  
Kimsa bilmas qishloq, ovloqlar,  
Bunda sizni bilmasdum butun,  
Bilmasdum – ne achchiq qiyonoqlar.  
Balki, murg'ak jonda titroqlar  
(Qaydam) bir kun bosilib yana,  
Bir do'st topib o'zimga loyiq,  
Bo'larmidim vafodor qayliq  
Va mehribon, mushfiq bir ona.

Boshqasi!.. Yo'q, hech kim dunyoda  
Ololmasdi ko'nglimni mening.  
Hukm o'qilgan Arshi a'loda,  
Falak amri: men – sening, sening.

Butun umrim sen bilan go 'yo  
Uchrashuvning tanho garovi.  
Bildim, seni yuborgan Xudo,  
O'lgunimcha o'zing panohim...  
Ko'rinating goh tushlarimda,  
Sen g'oyibdan bo'lting qadrdon,  
O't nigohing o'rtadi yomon,  
Qalbim aro tovushlaring-da  
Yangrar edi... Yo'q, tush emas bu!  
Ko'rinding-u tanidim-qoldim,  
Behol bo'ldim, lovullab yondim  
Va xayolan dedim: mana, u!  
Rost emasmi, men quloq soldim:  
Biz gaplashdik sukul damida,  
Men gadoga in'om bergen chog',  
Ibodat-la orom bergen chog'  
Hayajonli dilim g'amiga!  
Xuddi o'shal lahzada, oyo,  
Sen emasmi, ey aziz ro'yo,  
Qorong'ida chaqnab ko'ringan,  
Yostig'imga egilgan asta?  
Sen emasmi, mehr-u havasda  
Labda umid so'zi uringan?  
Kimsan, axir, panohimmisan,  
Yo berahm bir zolimmisan?  
Yozgil shubha-gumonlarimni.  
Yoki bular bari beqaror  
Murg'ak qalbim yolg'onlarimi!  
Yo boshqa hol peshonamda bor...

Bo'lsa-bo'lsin! Bugundan boshlab  
Taqdirimni senga topshirdim.  
Va qoshingda ko'zlarim yoshlab,  
Himoyangni so'rab, bosh urdim...  
Tasavvur qil: men bunda yakka,  
Hech kim meni tushunmay qoldi,  
Hatto aql-u hushim ham toldi,  
Mahkumdirman jimjit o'lmakka.

Men kutaman, bir nazar bilan  
Umidimni qalbda tirlgizgil,  
Yoki og‘ir tushimni buzgil  
Evo, haqli bir g‘azab bilan!

Bitdi! Qayta o‘qiyman – dahshat...  
Nomus, qo‘rqinch ichra muzlar dil...  
Imoningiz – menga kafolat,  
Topshiraman o‘zimni dadil...

### XXXII

Goh tinar qiz, goh ohlar urur,  
Titrab turar maktub qo‘lida.  
Pushti konvert yopishar, qurir,  
Yallig‘langan qaqrqoq tilida.  
Boshginasin solar mung‘ayib,  
Tungi ko‘ylak tushar sirg‘alib  
Uning nozik yelkalaridan...  
Nur qochar oy halqalaridan.  
Yorishadi vodiy – tumanzor.  
Kumushlanar soy shalolasi.  
Cho‘pon chalgan qo‘biz nolasi  
Qishloq ahlin uyg‘otar takror.  
Tong: uyg‘onmish yaqin-u yiroq,  
Tatyana farqi yo‘q biroq.

### XXXIII

Tong nurlarin payqamas hatto,  
Boshin bukib o‘ltirar ma'yus.  
Maktubiga chekmaydi imzo –  
O‘yma muhrin urmaydi hanuz.  
Astagina eshik ochib lek  
Oqsoch Filipevna kirar tek –  
U patnisda keltiradi choy.  
«Dildorginam, turgil endi... Voy,  
O‘zing ham shay, uyg‘oq ekansan!

O tong qushi, saharxez qushim!  
Kecha rosa uchdi-ku hushim!  
Shukur, tetik ham sog' ekansan!  
G'amdan nishon qolmabdi, qizim,  
Ikki yuzing anordek qizil».

#### XXXIV

– Oh bibijon, bir iltifot qil. –  
«Izmingdaman, buyurgil, jonim».  
– Lekin-chi... bad gumon qilma... Kel,  
Yo'q demagil, oh bibijonim! –  
«Xudo kafil, dugonam, lekin».  
– Nabirangdan shu xatni sekin  
Borib yubor «O»... ga, anovga...  
Qo'shnimizga... Lekin birovga  
Biron og'iz gapirmasin, bas,  
Aytmasin ham mening otimni... –  
«Kimga bersin, jonim, xatingni?  
Endi esim joyida emas,  
Tavarakda qo'shni ko'p, qaydam,  
Hammagini eslayin qaydan?»

#### XXXV

– Befahmsan, buncha ham, ena! –  
«Jon-u dilim, keksaman, axir.  
Qariganda es ketar, Tanya,  
Eh, yoshlikda ziyrak edim bir,  
So'z aytdimi ulug'lar, unda...»  
– Bas, bibijon, cho'zding-ku juda!  
Esing menga ne kerak, ajab?  
Ko'ryapsan-ku, xatdan borar gap –  
Atalgandir Onegin uchun.—  
«Gap – gap u, sen qizishma, qo'zim,  
Bilasan-ku, essizman o'zim...  
...Ranging yana oqardi nechun?»  
– Qo'y, hech gapmas, sen bora qolgin,  
Nabirangni yubora qolgin.

## XXXVI

Bir kun o‘tdi, kelmadi xabar,  
Ikkinchı kun, yana yo‘q javob.  
Rangi o‘chib, kiyinib sahar,  
Kutar, kutar Tatyana xunob.  
Singlisining keldi majnuni.  
Beka tutdi savolga uni:  
«Ayting, qani do‘stingiz sizning?  
U unutmish tamomon bizni».  
Lov yonar-u titrar Tatyana.  
Javob berar Lenskiy unga: –  
Va’ dasi bor edi bugunga.  
Demak, pochta kechikkan yana. –  
Eshitgandek ta’nali bir so‘z  
Tatyana jim olib qochar ko‘z.

## XXXVII

Qosh qorayar; uyning to‘rida  
Yal-yal yonar kechki samovar.  
Chin choynagi qizib qo‘rida,  
Yengilgina hovur taralar.  
Olga quyib, etar marhabo:  
Xushbo‘ygina choyi – kahrabo,  
Uzatilar bir-bir piyola;  
Qaymoq tutar xizmatkor bola.  
Tatyana-chi: darcha yonida,  
O‘yga cho‘mib azizam besas,  
Purkabsov uq oynaga nafas,  
Nozik barmoq ila jonidan  
Hovur bosgan oynaga chizar –  
Orzudagi «O.Y.»ni yozar.

## XXXVIII

Tag‘in qizning o‘rtanur joni,  
Yoshga to‘lar intizor ko‘zi.  
Ot dupuri!.. Muzlaydi qoni...  
Yaqin, yaqin! Bu uning o‘zi –

Yevgeniy! «Oh!» – Soyadan ham tez  
Hatlar boshqa yo'lak tomon qiz,  
Hovliga-yu so'ng to'g'ri boqqa  
Chopib ketar, ammo bu yoqqa  
Qaray olmas. Zumda u tag'in  
O'tar gulzor, ko'prik, o'tloqdan,  
Ko'lga ketgan xiyobon yoqdan,  
Sindirgancha suman butog'in,  
Chashma sari uchar beqanot  
Va hansirab o'rindiqqa bot —

### XXXIX

Yiqiladi...  
«Keldi! U bunda!  
O Xudoyim, qilur ne gumon!»  
G'am zulmati bosgan dilida  
Miltillaydi bir umid hamon.  
Kutar: kelar balki? Yo'q, kelmas,  
Titraydi qiz, quriydi nafas.  
Bir farmonga binoan, to'lib,  
Meva terib bog'da, jo'r bo'lib  
Qo'shiq aytar joriya qizlar.  
(Bu farmonga bor shunday asos:  
Xo'jayinning mevasin oz-oz  
Yeb qo'ymasin makkor og'izlar –  
Ashulaga band bo'lsin sho'rlik:  
Qishloqqa xos bu ham bir quvlik!

### QIZLAR QO'SHIG'I

Hoy qizlar, jononalar,  
Jonga jon dugonalar,  
Kuylangiz, ma'sumalar,  
O'ynangiz, parvonalar.  
Ulab-ulab baytingiz  
Dil dardini aytингiz.

Anov barno yigitni  
Davramizga tortingiz.  
Yigitga ko'z tushganda  
Qochib qoling, qizlar-o.  
Olucha-yu malina  
Otib qoling, qizlar-o.  
Hoy yigitcha, poylama,  
Davramizga bo'ylama.  
Dil dardini pinhona  
Eshitay deb o'ylama.

## XL

Qizlar kuylar, lekin bediqqat  
Xush yallani tinglab bu mahal,  
Tatyamiz kutar betoqat,  
Bosilsin deb qalb dupuri sal,  
So'nsin deya olov yuzida.  
Ammo hanuz titroq ko'ksida,  
Yonoqlari – shu'lalar porlab,  
Yana yorqin yonar lovullab...  
Shunday titrar tutqun kapalak  
Sho'x bolakay qo'lida nogoh  
Pirpirab gul qanotchasi goh;  
Xuddi shunday titrar jonsarak  
Kuzgi buta ortida – u yon  
Ko'rib qolsa ovchini quyon.

## XLI

Nihoyat, qiz rostladi nafas,  
O'rindiqdan qo'zg'oldi. Yurdi.  
Xiyobondan qayrildi-yu, bas,  
Oneginni nogahon ko'rdi:  
U ko'zları yonib unda tek  
Turar edi mudhish soyadek.

Chulg‘agandek borlig‘in olov,  
Qiz to‘xtadi joyida darrov...  
Kutilmagan bu visol damin,  
Jon do‘stlarim, ammo bu zamon  
Qurbim yetmas etmoqqa bayon;  
Ko‘p so‘yladim axir, endi men  
Sayr-u orom sari ketgumdir,  
So‘ng amallab ado etgumdir.





## TO'RTINCHI FASL

*La morale est dans la nature des choses.*  
Necker<sup>1</sup>

### I. II. III. IV. V. VI.

### VII

Biz ayolni qancha kam sevsak,  
Shuncha oson yoqamiz unga;  
Shuncha nobud etamiz, beshak,  
Chulg‘ab uni domi afsunga.  
O‘z-o‘zini maqtab, jar solib,  
Sevmay turib rohatlar olib,  
Bir payt fahsh-u buzuqlik – tarab  
Ishq ilmi deb topgandi sharaf.  
Ammo bunday takabbur ermak  
Huv bobolar aylagan e’zoz  
Qari-churi maymunlarga xos.  
Lovlaslarning<sup>2</sup> dovrug‘i, demak,  
Bitdi, qizil poshna-yu ulkan  
Pariklarning shonidek so‘lgan.

### VIII

Kimni oxir bezdirmas riyo,  
Bir hukmning turfa takrori,  
Ko‘pdan barcha inonganga yo  
Inontirib uqdirmoq kori?!

Tinglab siyqa e’tiroz-radni,  
Yo‘q aylamoq puch xurofotni –  
Kimga zarur, garchi bular bir

<sup>1</sup> Axloq narsalarning tabiatidadir. Necker (fr.)

<sup>2</sup> Lovlaslar deb Pushkin bu o‘rinda fahshga berilgan xotinbozlarni aytadi. Ulkan pariklar XVIII asming birinchi yarmida rasm bo‘lib, keyin urfdan qolgan.

O'n uch yashar qizda ham yo'qdir!  
Kimni ezmas tahdid-taloshlar,  
Yolvorish-u qasam, vahima,  
Xatlar yozish olti sahifa,  
Aldov, g'iybat, uzuk, ko'zyoshlar,  
Xola, ona nazoratlari  
Ham erlarning do'stlik ahdlari?!

## IX

Xuddi shundoq o'ylar Onegin.  
Bo'lgandi ilk yoshlik zamoni  
U shiddatli xato-yu qizg'in  
Va betizgin hislar qurbanzi.  
Hayot tarzi erkabal faqat,  
U biriga maftun muvaqqat,  
Boshqasidan uzadi ko'ngul,  
Istaklardan bezadi so'ng ul;  
Yengil zafar toldirdi tag'in,  
Tinglab shovqin va jimlik aro  
O'z qalbidan mangu bir nido,  
Kulgi bilan bosur esnog'in:  
Umrining gul faslidan fuzun  
Sakkiz yili so'ldi shu yo'sin.

## X

Etmay qo'ysi go'zallar shaydo,  
U sudralar biroq bemurod;  
Rad etishsa – ranjimas aslo,  
Bevafolik qilsalar – u shod.  
Izlar endi ularni bezavq,  
Lek o'ksitib qo'ymasmi befarq  
Sal yod etib mehr-u qahrini.  
Loqayd mehmon shunday erinib,  
Kelur kechki qartabozlikka,  
O'lтирар-u, tugagach o'yin,  
Uxlash uchun xotirjam to'yib,

So‘ng uyiga jo‘naydi tikka:  
Tongda esa bilmaydi burun –  
Qayga borur o‘zi kechqurun.

## XI

Biroq olgach Tatyana xatin,  
Bir o‘t tushdi yigit joniga.  
Ma’sum orzularning suhbati  
O‘ylar qo‘shti hayajoniga.  
G‘amgingina, so‘lg‘in, parishon  
Tatyanani esladi shu on.  
Bir shirin o‘y, pokiza xayol  
Yuragini chulg‘adi darhol.  
O‘tgan hislar o‘t-guldurosin  
Bir zum qo‘zg‘atdi shu choq;  
Istamadi aldashni biroq  
Ma’sum qalbning ishonch-ixlosin.  
Endi bizlar yelaylik boqqa –  
Qiz u bilan ko‘rishgan yoqqa.

## XII

Avval bir oz turdilar kutib,  
Yaqin kelib Onegin shunda,  
Shivirladi: «Yozibsiz maktub,  
Tonmangiz, men o‘qidim unda  
Soddagina dil izhorini,  
Pokiza bir sevgi zorini.  
Samimiyat – men uchun aziz,  
Bu his qo‘zg‘ab qo‘ydi, shubhasiz,  
So‘nib ketgan tuyg‘ularimni.  
Ammo sizni maqtamay ortiq,  
Sizga shundoq etaman tortiq  
Men ham dilda yo‘g‘-u borimni;  
Qabul eting iqror so‘zimni:  
Hukmingizga berdim o‘zimni.

### XIII

Men hayotni faqat dunyoda  
Uy ichi deb bilsaydim agar,  
Xush qismatim er yoki ota  
Baxtin nasib qilsaydi agar,  
Oilaviy turmushga o'zim  
Mehr qo'ysam, hech yo'qsa, bir zum,  
Izlamasdim unda, haqiqat, biror daqiqa  
Sizdan boshqa biror rafqa.  
Aytay ortiq maqtovlarsiz, rost:  
Bo'lsaydi ilk xayol-u havas,  
Jami go'zalliklarga evaz –  
Faqat sizni tanlardim, xolos.  
Siz g'amimga yor bo'lib ul vaqt,  
Men... bearmon bo'lardim xushbaxt!

### XIV

Ammo baxtga mening qalbim yot;  
Yaralmabman halovat uchun.  
Behudadir sizning kamolot –  
Arzimayman man unga butun.  
Siz ishoning, (vijdonim kafil,)  
Turmush bizga g'am bo'lur, axir.  
Sizni qancha sevmayin o'zim.  
Ko'nikdimmi – soviyman shu zum.  
Yig'layapsiz, ko'zyoshlar nechun?  
Yo'q, yuragim hech ta'sirlanmas,  
Faqat battar quturgay bu, bas.  
O'ylab ko'ring endi: biz uchun  
Huv Himeney<sup>1</sup> atagan gullar  
Nechuk? Balki so'lmas ko'p kunlar.

<sup>1</sup> *Himeney* – qadim yunon asotirida nikoh va oila tangrisi.

## XV

Sho'rlilik xotin noloyiq erni  
Qarg'ab mudom oh-u voh ila,  
Anduh cheksa... Dunyoda bormi,  
Bormi bundan baxtsiz oila?!  
Er ham uning qadrini anglab,  
(Taqdirini tag'in la'natlab),  
Xo'mrayib, gung yursa har qachon,  
Ziq, darg'azab, sovuq-badgumon!  
Men shundayman. Yozib nomani  
Siz pokiza, yoniq dil bilan,  
Bu kamolot, bu aql bilan  
Istaganmi edingiz mani?  
Nahot, taqdir – berahm samo  
Sizga shuni ko'ribdi ravo?

## XVI

Qaytmas yillar, orzular hargiz;  
Yangilanmas endi yuragim...  
Sevgum sizni akadek har kez,  
Balki, ko'proq suyub qaragum.  
Tinglang, axir, meni beg'azab,  
O'zgartirar yosh qiz, ne ajab,  
Ba'zan orzu-havasni takror,  
Daraxtlar ham har yili bahor  
Yangilaydi bargain bir bora.  
Demak, shuni buyurmish samo.  
Siz-ku, yana sevarsiz, ammo...  
Etmoq kerak o'zni idora;  
Sizni har kim tushunmas bizdek;  
G'amga yo'llar tajribasizlik».

## XVII

Ha, Yevgeniy va'z aytdi shundoq.  
Hech ne ko'rmay ko'zyoshlar aro,  
Jim tingladi Tatyana biroq,

Zo‘rg‘a nafas olib, besado.  
Qo‘l uzatar qizga u. Asta  
Mahzuna qiz o‘zi bilmasdan  
Boshginasin quyi egib lol,  
Suyanadi yigitga xiyol.  
Poliz bo‘ylab yurar uy tomon,  
Ikkov birga kirarlar-u jim,  
Ta‘na qilmas ularga hech kim.  
Ne tong, mag‘rur Moskvasimon  
Qishloqda ham andak baxtiyor  
Huquqlar-u erkinliklar bor.

## XVIII

Ey o‘quvchim, ma’qullarsiz siz,  
G‘amgin Tatyanaga ko‘p shirin  
Muomala qildi oshnamiz.  
U qalbining nekbin hislarin  
Ko‘p bor shundoq etgan namoyon,  
Badxohliklar garchi hech qachon  
Ayamadi undan hech neni:  
Garchand uning do‘st-u dushmani  
(Yo ikkisin farqi yo‘q sira)  
Yomonlashdi uni betinim.  
Har kimda bor dunyoda g‘anim,  
Lekin, Tangrim, do‘stlardan asra!  
Oh, bu do‘stlar, do‘stlar, nobakor!  
Eslamadim ularni bekor.

## XIX

Nima deysiz? Rost gap. Rad etgum  
Puch va qora o‘ylarni minba‘d.  
Yo‘l-yo‘lakay faqat qayd etgum  
Mavjudligin manfur bir tuhmat  
Ki, chordoqda to‘qib nokas jon,  
Avj oldirur kibor olomon.  
Bordir andoq uydirma, sarob

Ki, hajvlar qilib ko‘chabop,  
Ko‘p mo‘tabar davrada tayyor  
O‘z do‘stingiz iljayib sekin,  
Go‘yo butkul beg‘araz, bekin,  
Yuz martabal o‘qiydi takror.  
Holbuki, u – suyanch tog‘ingiz,  
...Qarindoshday... chin o‘rtog‘ingiz.

## XX

Hey muhtaram o‘quvchim! Omon  
Bormi bari xesh-u aqrabo?  
Siz buyuring, men etay bayon,  
Mendan bilib oling, marhabo,  
Nadir o‘zi *qarindosh-urug‘*,  
Ularnimi, har qachon to‘lug‘  
E’zozlamoq, izzatlamoq shart,  
Suyub, dildan hurmatlamoq shart.  
Elning urf-u odati tayin:  
Hayit kuni yo‘qlamoq lozim,  
Yo xat bilan qutlamoq lozim,  
Toki butun yil bo‘yi keyin  
Eslashmasin bizlarni doim...  
Umr bersin, xullas, iloyim!

## XXI

Ammo nozik go‘zallar mehri  
Do‘slik, qarindoshlikdan avlo.  
Shu sevgiga haqlisiz, to‘g‘ri,  
Hatto turfa bo‘ronlar aro.  
Shak yo‘q. Lekin na’malari bor,  
Kibor elning ta’nalari bor,  
Tabiatning fe’llari xil-xil...  
Bu erka jins ukparday yengil.  
Xush, mehribon xotin uchun boz  
Erning fikr-u yo‘rig‘i butun  
Bo‘lmog‘i shart muqaddas qonun...

U vafodor gulingiz noxos  
Bir soniya chalg‘isa, rosti, –  
Ishq ila o‘ynashur alvasti.

## XXII

Kimni sevib, ishonmoq mumkin?  
Kim u, bizga etmas xiyonat?  
Barcha ishni, barcha gapni kim  
Bizning gazda o‘lchar beminnat?  
Kim biz haqda tarqatmas ig‘vo?  
Kim u, doim mehribon, fido?  
Kimga bo‘lmas aybimiz kulfat,  
Kim u, bezor qilmaydi hech vaqt?  
Yo‘q sharpani qidirgan, ey zot,  
Chekavermay behuda zahmat,  
Ey muhtaram o‘quvchim, faqat  
O‘zingizni sevingiz, hayhot!  
Loyiq shudir, chunki dunyoda  
Chin yor bo‘lmas bundan ziyoda.

## XXIII

Ne hol kechdi uchrashuvdan so‘ng?  
Payqash mushkul emas, vodarig‘!  
Muhabbatning iztirobi, mung  
Tark etmadi, bo‘lmadi forig‘  
Bu hasratdan yosh, tashna yurak.  
Yo‘q, yo‘q, battar beorom, halak,  
O‘rtanadi Tatyana joni;  
Uyqu tamom tark etdi uni.  
Sog‘liq, hayot rangi-yu toti,  
Qizlik rohatlari, tabassum  
Bir sadodek yo‘qolib, har zum  
So‘nib borar guldek hayoti.  
Endi chiqqan quyosh ziyyosin  
Kelur shundoq bulutlar bosib.

## XXIV

Hayhot, so'lib borar Tatyana,  
Kundan kunga so'nar-u, jimdir!  
Biron narsa ovutar va na,  
Na birovga ko'ngil ochsam der.  
Qo'shnilar bosh chayqab ma'nodor,  
Shivirlashur o'zaro takror:  
«Tezroq erga tegmog'i lozim!...»  
Yetar endi. Azizlar, o'zim  
Mas'ud sevgi tasviri bilan  
Xayolimni shodlantiray bot.  
Beixtiyor yonurman, hayhot,  
O'kinch, afsus ta'siri bilan.  
Ma'zur tuting, Tatyanamga, rost,  
Muhabbatim mening beqiyos.

## XXV

Asir bo'lib soatma-soat  
Yosh Olganing xush maqomiga,  
Vladimir berildi behad  
Tutqunlikning sirli domiga.  
Qiz hujrasi ichra xilvatda  
Kechalari doim suhbatda,  
Tong chog'lari berib qo'lga qo'l,  
Goh bog' aro sayr etishar mo'l.  
Ne tong! Yigit sevgidan sarmast,  
Istihola g'ulushi aro  
Qiz kulgisi daldasida goh  
Kokillarin o'ynaydi-yu, bas,  
Yurak yutib, u faqat sekin  
O'pib qo'yar qizning etagin.

## XXVI

U Olgaga goh ibratli, soz  
Kitob o‘qib bergaydir biron. –  
Muallifi behad ta’bshunos,  
Yo‘lda qolur Shatobrian<sup>1</sup>.  
Goh qizarib ammo ikki-uch  
(Bema’ni-yu beadab-u puch  
Ma’suma qiz uchun xatarli)  
Sahfasini tashlab o‘tardi.  
Odamlardan chetroqda, hamdam,  
Goh egilib shohmot uzra jim,  
O‘yga cho‘mib o‘ltirurlarkim,  
Ul parishon Lenskiy shu dam  
Urar goho, o‘y surib teran,  
O‘z ruhini piyoda bilan.

## XXVII

Shoir uyg'a ketsa ham, fikr  
Olga bilan band edi butun,  
Uning uchun albomning uchqur  
Sahfalarin bezardi betin:  
Goho qishloq lavhasi, yana  
Qabrisdagi ma’bad<sup>2</sup>, sag‘ona,  
Nafis ranglar bilan yo bitar  
Chiltor uzra jajji kabutar.  
Goh esdalik daftariga bir –  
O‘zga imzolardan so‘ng, ajab  
Orzularning yodgori aylab,  
Qoldiradi latifgina she’r;  
Oniy o‘ydan umruzoq nishon,  
Yillar o‘tur, u o‘chmas hamon.

<sup>1</sup> *Shatobrian Rene* (1768–1848) – fransuz adibi va siyosiy arbobi.

<sup>2</sup> *Qabrisdagi ma’bad* – yunon asotirida muhabbat ilohasi hisoblangan.

## XXVIII

Qishloqlik bir qiz albomini  
Siz ko'rgansiz, albat, ko'p kezlar.  
Boshdin-oyoq hamma yog'ini  
Bo'yab tashlar dugona qizlar.  
Imlo unda butkul tumtaroq,  
She'rlari ham bevazn-u turoq,  
Chin do'stlikning belgisi uchun  
Yozmishdirlar qisqa-yu uzun.  
Ilk betida ko'zga to'qinur:  
Qi' ecrirez-vous sur cez tablettes<sup>1</sup>,  
Imzosi: t. a v. Annette<sup>2</sup>;  
Va eng so'nggi betda o'qilur:  
«*Mendar ortiq sevsan kim sani,*  
*Bu yog'iga yozsin-chi, qani».*

## XXIX

Siz, albatta, ko'rursiz unda –  
Ikki yurak, mash'al va chechak;  
*To o 'lguncha sevishga undab*  
Bir qasam ham bitilgan, beshak;  
Allaqanday harbiy nazmboz  
Chirkin she'r-la bulg'abdi qog'oz.  
Do'stlar, bunday albomga har dam,  
Rosti, jon deb yozardim men ham.  
Komil erur zero imonim –  
Bu purixlos yolg'onim biror  
Iltifotga bo'lgay sazovor;  
Zo'rmi-yo'qmi manim yolg'onim –  
Zaharxanda qilib biror jon  
Bahs etmaydi keyin hech qachon.

<sup>1</sup> Bu betlarga siz ne yozursiz?

<sup>2</sup> Adoyi Anettangiz. (*Fransuzcha.*)

### XXX

Ey siz, jinlar kutubxonasi,  
Parokanda, ey qalin tomlar!  
Po'rim nazmbozlar modasi –  
Oliymaqom, ajib albomlar, –  
Tolstoyning<sup>1</sup> tasvir olami,  
Yo Baratinskiy qalami  
Jilo bergen matohlar! Qator  
Bo'ling Xudo qahriga duchor!

Albom tutib bir xonim, tannoz,  
Menden dastxat aylasa talab,  
Chulg'ar meni titroq va g'azab,  
Qalbimning tub-tubida noxos  
Qo'zg'aladi achchiq hajviya.  
Unga esa darkor madhiya!

### XXXI

Yosh Olganing albomiga, bas,  
Lenskiy puch madhiya bitmas;  
Sozi olur sevgidan nafas,  
Qaynoq hislar uni tark etmas.  
Neki ko'rsa, eshitsa shoir,  
Shuni yozur Olgaga doir:  
Haqiqatga to'lib o'ylari,  
Daryo bo'lur g'amgin kuylari.  
Sen ey, jo'shqin Yazikov<sup>2</sup>, dilinxun,  
O'z qalbingning avjin o'ylab san,  
Xudo bilar, kimni kuylabsan!  
Miskin she'rlar to'plami bir kun  
Taqdim etur o'zingga o'shal  
Qismatingning qissasin tugal.

<sup>1</sup> Tolstoy Fyodor Petrovich (1783–1873) – musavvir, jihozkash, haykaltarosh. Rassomlar akademiyasining vitse-prezidenti bo'lgan.

<sup>2</sup> Yazikov Nikolay Mixaylovich (1803–1847) – romantik shoir, Pushkinning do'sti, mayin elegiyalar muallifi.

## XXXII

Jim bo'l! Qattol munaqqid giryon<sup>1</sup>,  
G'amgin she'rlar ayançh gultojin  
Itqiting, deb berar-u farmon,  
Qofiyasoz do'stlarga ochiq  
Qichqiradi: «Basdir yig'lamoq,  
Hamon birday, bas, vag'illamoq,  
*Qo'msamoq bas o'tmish, moziyni,*  
*Kuylang endi boshqa mavzuni!*» –  
Haqsan, balki bizga tutarsan  
Niqob, xanjar yana burg'uni,  
Fikrlarning o'lik mulkini  
Tirgizmoqni farmon etarsan.  
Shundaymasmi? – «Aslo! Xitoblar:  
Qasidalar yozing, janoblar,

## XXXIII

Nechuk yozgan bo'lsalar gurros  
O'tmish yillar, yozingiz shundoq...»  
– Balandparvoz qasidami, bas,  
Bas, bari bir emasmi, o'rtoq?!  
Hajvnavis so'zin etgil yod!<sup>2</sup>  
Ko'chirmachi liriklar, nahot,  
Avlo bo'lsa sen uchun har dam  
Bizning tushkun nazmbozlardan? –  
«Elegiya ammo – puch narsa,  
Maqsadi ham go'yo puch danak;  
Qasidaning g'oyasi – yuksak,  
Ham xayrli...» Bu yerda rosa  
Bahslashmog'im mumkin-u, abas,  
Ikki asr talashmasin, bas.

<sup>1</sup> *Munaqqid* – V.K. Kyuxelbeker nazarda tutiladi. Quyiroqdagi «*Qo'msamoq bas o'tmish, moziyni*» degan so'zlarni Pushkin Kyuxelbekerning «She'riyatimiz yo'nalishi to'g'risida» degan maqolasidan olgan.

<sup>2</sup> *Hajvnavis* – bu o'rinda I.I. Dmitriyev (1760–1837) – shoir, Karamzinning safdoshi; balandparvoz qasidalar yozgan shoiri u nosamimiyl deb kulgan.

## XXXIV

U erkinlik, shuhrat shaydosi  
Tug‘yon-u o‘y quyuni aro  
Qasida ham tashlar-u yozib  
O‘qimas hech Olgasi ammo.  
Ayting, qaysi dardli bir shoir  
Sevgilisi qoshida axir,  
She’rlarini o‘qimish? Hayhot,  
Yo‘qmish bundan ortiq mukofot.  
Baxtiyordir kamtarin oshiq,  
Ishq-u qo‘sish ma‘budasiga –  
Xumor ko‘zli mahbubasiga  
Hasratini kuylasa ochiq!  
Baxtiyordir... garchi ul malak  
Xayolida boshqa bir tilak.

## XXXV

Va lekin men orzum kuylari,  
Xayollarim ohangini, rost,  
Bolaligim hamdami – qari  
Enagamga o‘qiymen, xolos.  
Yo tushlikdan keyin valdirab  
O‘tib qolsa qo‘sним tentirab,  
Shartta ushlab etagidan tez,  
Dardim bilan bo‘g‘aman shu kez.  
Va yoki (bu behazildir, oh),  
Toldirib g‘am, qofiya o‘yi,  
Ko‘l bo‘yida kezib, yovvoyi  
O‘rdaklarni hurkitaman goh:  
Tinglab jarang she’rimni, bari  
Uchib ketar qirg‘oqdan nari.

## XXXVI. XXXVII

Xo'sh, Onegin qalay? Ha, do'stlar!  
Sabringizga tilab men to'zim,  
Mashg'ulotin uning durustlab  
Yozajakman batafsil o'zim.  
Tarki dunyo aylab yurar u;  
Yozda yettilarda turar u,  
Anhor oqur tog'lar tegida, —  
Yengil-yelpi kiyim egnida,  
Gulnoraning<sup>1</sup> kuychisidek zab  
Hellespontni<sup>2</sup> suzib kechardi,  
Keyin qahvasini ichardi,  
Bemaza bir jurnal varaqlab,  
Kiyinardi...

## XXXVIII. XXXIX

Kezish, o'qish, uyqu damlari,  
Jilg'a sasi, o'rmon ko'lkasi;  
Goh qorako'z oqbadanlarning  
Tarovatli qaynoq bo'sasi;  
Yuvosh tulpor – minib uchishlik,  
Serxarxasha va nozik tushlik,  
Ham shu'larang sharob – bir shisha,  
Uzlat, jimlik, kimsasiz go'sha...  
Shudir uning qutlug' hayoti,  
Bog'lanmishdir shunga tuyg'usiz,  
Ardoq ichra kechar qayg'usiz  
Ajib yozgi kechalar toti.  
Unutilmish shahar, oshnolar,  
Bayramlar-u dilgir g'avg'olar.

<sup>1</sup> *Gulnor* – J.G. Bayronning «Korsar» dostoni qahramoni.

<sup>2</sup> *Hellespont* – Dardanel bo'g'ozining qadim yunoncha nomi. Bayron 1810-yilda shu bo'g'ozdan suzib o'tgan. Bu o'rinda Pushkin mubolag'a usulidan foydalanib, Oneginga istehzo qilmoqda.

## XL

Ammo bizning shimol yozlari  
Masxaradir janub qishiga –  
Ko‘rinar-u yo‘q bo‘lar, bori,  
Garchi malol bu gap kishiga.  
Kuz nafasi kezar havoda,  
Quyosh kamroq porlar samoda,  
Qisqaradi erinchak kunlar,  
Endi g‘amgin kuylab chekinar  
O‘rmonlarning sirli soyasi;  
Dalalarga tushgaydir tuman,  
Ko‘chib ketar janubga tomon  
G‘ag‘illagan g‘ozlar galasi.  
Zerikarli bir fasl yaqin,  
Ostonada qish turar tag‘in.

## XLI

Sovuq tunni quvar tong nuri,  
Ekinzorlar – jimjit va bequt;  
Yo‘lga chiqar jonivor bo‘ri  
Och juftini ergashtirib zud.  
Kishnab qolar yo‘lda sezgir ot,  
Ehtiyotkor yo‘lchi shu zahot  
Jon boricha yelar tog‘ tomon.  
Tong chog‘lari endi podabon  
Dashtga sigir haydmas bu kez.  
To‘plash uchun podani choshgoh  
Qo‘bizi ham sayramaydi goh.  
Kulbasida kuylab dehqon qiz  
Ip yigirar. Miltirar bu choq  
Qish tunlarin hamdamni – chiroq.

## XLII

Chirsillaydi, mana, ayoz, qor,  
Kumush gullar – dalalar aro...  
(Qofiyasin kutarsiz – *bahor*:



Ola qoling, mana, marhabo!)  
Kiyib olib soy ham muz libos,  
Yaltiraydi parket poldan soz.  
Bolakaylar ayoz changida  
Chuvvos muzni qirar chang'ida.  
Lapanglagan qizilpanja g'oz  
Suvda suzmoq bo'lib, yondashib,  
Muz ustiga oyog'in bosib,  
Sirpanar-u yiqlilar bexos.  
Birinchi qor charx urib o'ynar  
Yulduzlanib sohilga qo'nar.

### XLIII

Bunday chog'da ne bor ovloqda?  
Kezmoqmi? Yo'q, qish fasli, qara,  
Zeriktirar ko'zni qishloqda  
Birday ochiq, yalang manzara.  
Ot surmoqmi beomon cho'lda?  
Yo'q, yo'q, unda bilgilki, yo'lda  
Muzli yerda chopolmay ozod,  
Qulab tushar taqalangan ot.  
O'tiraver kulbangda o'zing.  
O'qi, Pradt<sup>1</sup> yo Valter Skott<sup>2</sup>.  
Yoqmaydimi – hamyonni ol bot:  
Yo g'azablan, yo ich; bu uzun  
Kecha kechar, erta ham, ayon,  
Qishdan bir nav chiqursan omon.

### XLIV

Onegin Chayld Haroldga o'xshar:  
Chulg'ab o'ychan yalqovlik butun,  
Sahar muzli vannaga tushar,  
Keyin uydan chiqmas uzzukun.

<sup>1</sup> *Pradt Dominik* (1759–1837) – farang publitsisti, Napoleon saroyining ruhoniysi bo'lgan.

<sup>2</sup> *Valter Skott* (1771–1832) – ingliz adibi: ham nosir, ham shoir.

Qo‘yib faqat ikkita soqqa,  
Tongdan bilyard o‘ynar u yakka.  
Uchsiz tayoq – yolg‘iz yarog‘i,  
Hisobining yo‘qdir adog‘i.  
Oqshom cho‘kar qishloqqa sekin,  
Qolar bilyard, tayoq bir zamon;  
Kamin oldi, yoziq dasturxon, –  
Lenskiyni kutar Onegin:  
Chana kelar, uch otli – uchoq,  
Kela qolgin tushlikka tezroq!

## XLV

Tul Kliko yoki Moeta  
Nomidagi mo‘tabar sharob<sup>1</sup>  
Shoir uchun muzdek holida  
Keltirilar shu lahza, shu tob  
Toshar misli Ipokrena<sup>2</sup>,  
Tovlanishi, ko‘pigi, yana  
Boshqa sifatlari, begumon,  
Maftun etmish meni bir zamon.  
Eslang, do‘srlar, berardim faqat  
So‘nggi baxtsiz chaqamni hatto:  
Bu may sehri etmishdir paydo  
Ne nomaqbul ishlarni bir payt;  
Bermish qancha she’rlar, kulgular,  
Qancha bahsu quvnoq orzular!

## XLVI

Uning jo‘shqin ko‘pigi lekin  
Sog‘ me’damni buzar mening sal.  
Men ham sokin *Bordoni*<sup>3</sup> bukun  
Ul sharobdan ko‘rurman afzal.

<sup>1</sup> *Kliko, Moeta* – shampan vinolarining yorliq-tamg‘alari.

<sup>2</sup> *Ipokrena* – qadim yunon asotirida she’riy ilhom bulog‘i.

<sup>3</sup> *Bordo* – qizil farang sharobi, yengil ichimlik.

*Aiga<sup>1</sup>* yo‘q endi parvoyim;  
*Ai – go‘zal, jo‘shqin, havoyi,*  
Qaysargina va ham bema’ni  
Ma’shuqaga o‘xshaydi ayni...  
Lekin, *Bordo*, sen sodiq yorsan,  
Shodlikda ham, musibatda ham  
Hamma joyda hamisha hamdam,  
Xizmat ila qatorda borsan.  
Bo‘sh paytga ham sheriksan borho,  
Yasha, bor bo‘l, do‘stimiz *Bordo!*

## XLVII

Olov so‘ndi; endi oltin cho‘g‘  
Ko‘zlarini qoplayotir kul;  
Sokingina taraladi bug‘,  
Kamin kam-kam soviydi butkul.  
Dud chilimdan o‘tar mo‘riga.  
Dasturxonning hanuz to‘rida  
Kuylayotir ul shu’larang jom...  
Asta-sekin cho‘kib qolar shom...  
(Men sevaman do‘stona sirlar  
Va do‘stona gulgun jomlarni,  
Bunday paytni – bunday shomlarni  
Bo‘ri-yu it orasi derlar.  
Nechun shundoq, bilmayman faqat).  
Do‘stlar endi quradi suhbat:

## XLVIII

«Qo‘shning nechuk? Nechuk Tatyana?  
Shaddod Olgang qalay, qadrdon?». – Yarim qadah suz menga yana...  
Bo‘ldi, do‘stim... Butun xonadon  
Sog‘-omondir. Yo‘llashdi salom.  
Oh azizim, Olganing tamom

<sup>1</sup> *Ai – Shampanidagi Ai shahri nomi bilan atalguvchi sharob.*

Yelkalari, ko'ksi ne go'zal!  
Qalbini ayt!.. Yana biror gal  
Xursand qilib borsak, og'ayni!  
O'ylab ko'rgin sen o'zing andak:  
Ikki marta berding-ku darak,  
Ko'rsatmading keyin qorangni.  
Men befahm, eh, qara meni!  
Chaqirganlar bu hafta seni.

## XLIX

«Meni-ya?» – Ha. Kelgusi shanba —  
Tatyananing tug'ilgan kuni.  
Bormaslikka sabab yo'q senda,  
Olga bilan onasi seni  
Xo'b so'rashgan. – «Ko'p bo'lar juda  
Qalang'i-yu qasang'i to'da...»  
– Hech kim bo'lmas, men kafil shu on!  
Bo'lar faqat ahli xonodon.  
Iltifot et, yura qol u kun!  
«Bo'pti». – Ey do'st, yaxshisan qanday!  
U shunday deb sipqoradi may  
Qo'shni qizlar sog'ligi uchun.  
So'ng Olgadan so'zlar yana u.  
Nima deysiz, muhabbatdir bu!

## L

U shod: ikki haftadir bori –  
Yonur baxtli kunning quyoshi.  
Ham nikoh to'shagin asrori,  
Ham sevgining ajib gultoji –  
Shavqlariga uning intizor.  
Oilaviy tashvish, oh-u zor  
Sovuq esnoqlarning-da gali  
Tushiga ham kirmagan hali...  
Biz-chi, Himeneyning dushmani,  
Oilada ko'rurmiz faqat

Horitguvchi lavhalar qat-qat,  
Xuddi Lafontenning<sup>1</sup> romani...  
Qalban sho'rlik Lenskiy – o'shal  
Hayot uchun yaralmish azal.

## LI

U sevilgan... Hech bo'lmaganda  
Shunday o'ylab, edi baxtiyor.  
E'tiqodga berilgan banda  
Baxtiyordir yanada yuz bor;  
Baxtli dir, kim mast yo'lchidek yo  
Tinchib, qotsa xonaqoh aro.  
Kapalakdan latif, ziyoda  
Bahor gulin suysa dunyoda!..  
Kimki ko'rsa barin oldindan  
Tajribalar ko'nglin sovutsa,  
Mastlik, behushlikni unutsa,  
Har imo-yu har so'zni chindan,  
Aynan anglab, yashasa horib,  
Bunday odam dunyoda g'arib!



<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Avgust Lafonten – oilaga oid ko'pgina romanlar muallifi.

## BESHINCHI FASL

*Bu mudhish tushlarni bilma sen hargiz,  
O, mening Svetlanam!*

Jukovskiy.

### I

O'sha yil kuz havosi behad  
Uzoq turib qoldi diyorda,  
Qishga intiq edi tabiat,  
Qor-chi, yog'di faqat yanvarda –  
Uchinchi tun. Uyg'onib sahar,  
Derazadan Tatyana boqar,  
Ko'rар: qo'ra, devorlar oppoq;  
Tomlar oppoq, gulzorlar oppoq;  
Oynada ham guli naqshning,  
Daraxtlarda – kumushdan libos,  
Qarg'alarning quvnashi na soz,  
Kiyib momiq po'stinin qishning,  
Olislarda yarqirar tog'lar,  
Har yon – yorqin, oq hamma yoqlar.

### II

Qish!.. Dehqon ham qilar tantana,  
Qo'rasiga ochadi yo'llar;  
Qari oti qor iskabgina  
Amal-taqał, zo'rg'a lo'killar.  
Yumshoq qorni ag'darib, ana,  
Uchib borar soyabon chana,  
O'ltilibdi chanakash epchil,  
Po'stin uzra qiyig'i qizil.  
Kuchukchasin o'tqazib sho'x-shan,

Chanasiga o'zi ot bo'lib,  
Dasht bolasi o'ynar shod bo'lib,  
Barmoqlarin muzlatdi, cho'xchan.  
Ham og'rinar, ham kular yana,  
Derazadan koyiydi ona.

### III

Balki bunday manzara, tasvir  
Jazb etmaydi sizni sira ham:  
Bu bir g'arib tabiat, axir,  
Nafosat ham unda juda kam.  
Boshqa shoir fasih kalomda,  
Xudo bergen o'tli ilhomda  
Tasvir etmish birinchi qorni,  
Qish gashtini, rang-u ohorni<sup>1</sup>.  
Sizni asir etgay u, albat,  
Chanalarda sirli sayrlar  
Sehrin aytur o'tli satrlar;  
Bellashmoqqa yo'q menda niyat  
U bilan ham, sen bilan hozir,  
Ey Fin qishin kuylagan shoir!<sup>2</sup>

### IV

Tatyana ham (rus qalbiga xos,  
Boisini bilmayin faqat),  
Ko'rki – sovuq chiroyiga mos  
Rus qishini sevadir behad.  
Ayoz kunda quyoshli qirov,  
Chana, kechki shafaqda lov-lov  
Qorning qizg'ish xil'atin sevar,  
Qutlug' tunlar zulmatin sevar.  
Mudom bunday kechalar xushhol,  
Uylarida tinmas tantana,  
Joriyalar ochilib yana,

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Knyaz Vyazemskiying «Birinchi qor» she'riga qarang.

<sup>2</sup> A.S. Pushkin izohi: Baratinskiyning «Ede» asaridagi Finlandiya qishining tasvirlariga qarang.

Bekqizlarga ochadilar fol:  
Har yil birday va'da-xabarlar –  
Harbiy er-u olis safarlar.

## V

Tatyana jo'n rivoyatga-yu  
Ishonadir turfa tushlarga,  
Oy so'ylagan karomatga-yu  
Qarta bilan fol ochishlarga.  
Shubhalanar har alomatdan,  
Har sharpa-yu har sinoatdan  
Bir noxushlik, darak sezardi,  
Sezganlari bag'rin ezardi.  
Tannoz mushuk pech ustida goh  
Yuzin yuvsa panjada, ayon,  
Demak, uyga kelmoqda mehmon.  
Samoning so'l so'yida nogoh  
Yangi hilol bir o'roq bo'lib  
Ko'rinsa yo ikkishox bo'lib, –

## VI

Rangi o'char, titrar og'rinib.  
Uchayotib yulduz nogahon  
Tilib qora osmon bag'rini,  
Kular ekan, shu lahza, shu on,  
Yulduz tushib ulgurmasdan tez  
Sarosima ichra sho'rlik qiz  
Tilagini tilashga shoshar.  
Biron joyda daf'atan agar  
Qora kiygan rohib kelsa duch,  
Yoki chopqir quyon dalada  
Yo'lin kesib o'tsa, yanada  
Qo'rqib, qolmas unda darmon, kuch,  
Yuragini qoplab rutubat,  
Bor, der edi, biron musibat.

## VII

Kasb etgaydir sirli latofat  
Dahshat, qo'rquv ichra ham go'zal.  
Ziddiyatga moyil tabiat  
Bizni shundoq yaratmish azal.  
Hayit kelur! O, bu ne shodlik!  
Follar ochur bealam yoshlik –  
Hech narsadan yo'qdir armoni,  
Qarshisida hayot maydoni –  
Go'yo yorug<sup>1</sup>, bepoyon, ravon.  
Keksalik ham follar ochur-da,  
Ko'zoynakda, bir oyoq go'rda, –  
Hamma narsa ortida, vayron;  
Yo'q, baribir umid – yashirin  
Aldar kulib boladek shirin.

## VIII

Shoyon nigoh bilan Tatyana  
Boqar erib yonguvchi mumga,  
Naqsh tuzib sham yona-yona  
Ajib sirlar so'ylaydir unga;  
Likopdag'i limmo-lim suvdan  
Chiqar bir-bir uzuklar; undan  
Uzuk chiqar Tatyana ham,  
Qadim qo'shiq kuylanur shu dam:  
«Barcha dehqon unda badavlat,  
Kuraklab zar yig'ur har qachon,  
Eshitganga bo'lsin sharaf-shon!»  
Kulfatlardan darakdir faqat –  
Kuy munglidir ushbu qo'shiqda,  
Qiz qalbiga ma'qul mushukcha<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> *Mushuk movni chorlaydi. Pech ustida uqlashga.* – Bu go'yo to'ydan darak beradi, birinchi qo'shiq esa go'yo o'lim alomatidir.

## IX

Ayoz bir tun. Osmon ochiqdir;  
Samovotda lojuvard chiroq –  
Jimir-jimir sokin qo'shiqdir...  
Yupqagina libosda bu choq  
Keng hovliga chiqib Tatyana  
Oyga oyna tutmoqda, ana.  
Ammo xira ko'zguda, e voy,  
Titranadi g'amgingina oy...  
Qor... ingranar... o'tmoqda birov;  
Qiz uchadi oyoq uchida,  
Nay navosi singari juda  
Mayin yangrar ovozi darrov:  
– Ismingiz kim sizning, akaxon?<sup>1</sup>  
Hayron yo'lchi deydi: – Agafon.

## X

Enagasi berib maslahat,  
Fol ko'rmoqchi bo'ldi qiz pinhon,  
Kech hammomda ikkovga faqat  
Tuzatingiz, dedi, dasturxon;  
Qo'rqinch bosdi lek Tatyanan...  
Men ham o'ylab Svetlanani,  
Dahshatlarga botdi xayolim.  
Bas, ochmadik Tatyana folin.  
Yechib ipak tasmasini qiz,  
Xob ko'yakda kirar to'shakka.  
Sevgi muhofizi Lel<sup>2</sup> yakka  
Charx uradi boshida unsiz;  
Par yostig'in ostida – ko'zgu.  
Atrof jimjit. Uxlab qolar u.

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Shunday qilib bo'lajak kuyovning ismini aniqlaydilar.

<sup>2</sup> Lel – Antik rim asotirida yoy-kamalak bilan qurollangan qanotli bola qiyofasidagi sevgi ilohi.

## XI

Qiz ko‘radi g‘aroyib bir tush:  
Qor qoplagan yobonda yakka  
Borar emish, tegrasi noxush  
Cho‘mgan hazin qorong‘ilikka;  
Qortepalar – qizning qoshida,  
O‘shal qorli ma’vo ichida  
Guvlab-toshib, o‘kirib, e, voy,  
Oqar qishga bo‘ysunmagan soy.  
Titrar qo‘sha ingichka xoda –  
Yopishgannish muzlab birikib,  
Bu soy uzra ajal ko‘prigi;  
To‘xtab qolmish hayron, aftoda  
Qora girdob qarshisida qiz,  
Noiloj-u notavon, ojiz.

## XII

Qolgan kabi dardli hijronda  
Zorlanadi Tatyana soyga;  
Kimsa yo‘qli ammo u yonda,  
Madad qo‘lin cho‘zsa bu soyga.  
Ul qortepa tebranib birdan,  
Qay jonzod deng chiqibdi qordan?  
Pahmoq ayiq, kattakon, zo‘rmish,  
Qiz: «Oh!» – demish, ayiq o‘kurmish.  
So‘ng tirnoqli, dag‘al panjasin  
Tatyana uzatmish, qarang,  
Qiz qaltirab ushlabdi arang;  
Qo‘rqa-pisa, mana shu yo‘sint  
Soydan o‘tib olibdi omon;  
Yursa, ayiq ergashar hamon!

## XIII

Ortga boqmay, etolmay jur’at,  
Qiz ildamroq borar tobora;  
Ammo paxmoq qaroldan faqat

Qutulmoqqa yo‘q emish chora;  
Maxluq kelar inqirab hamon;  
Ro‘parada – sokin bir o‘rmon;  
Qarag‘aylar qaragaylar tund,  
Qor ustida shoxlari butun  
Egilmishdir; tepalar, qirlar –  
Tog‘terag-u arg‘uvon, qayin  
Oy nurida yaltirar mayin;  
Yo‘l yo‘q sira; jangal-u jarlar  
Qorlar bosib qalin, benavo  
Yotar emish izg‘irin aro.

#### XIV

Qiz o‘rmonga kirmish, ayiq ham.  
Tizzasidan kelar emish qor.  
Dam bo‘ynini shoxlar tilib, dam  
Uning tilla sirg‘asin badkor  
Qulog‘idan olarmish yulib;  
Boshmoqlari gahi ho‘l bo‘lib,  
Qorga botib qolar emish goh;  
Ro‘moli ham tusharmish nogoh;  
Ammo qo‘rqrar, yerdan ololmas;  
Orqasida – ayiq izma-iz,  
Titroq qo‘li bilan hatto qiz  
Etagin ham sal ko‘tarolmas;  
Ergasharmish ayiq ham dajjol,  
Yugurishga qolmabdi majol.

#### XV

Qor ustiga yiqiladi qiz;  
Ayiq chaqqon ko‘tarib jo‘nar;  
Qiz indamas – behush-u ojiz,  
Qimir etmas, nafas ham tinar;  
Yelar ekan ayiq o‘rmonda,  
G‘arib chayla uchrar, zormanda;  
Atrof jimjit, chayla ham oppoq –  
Tomigacha qor emish biroq.

Darichasi yorug‘ – nurafshon,  
Chayla ichi – shovqinmish, qiy-chuv.  
Ayiq der: «Bir oshnam uyi bu,  
Isinib ol, kirib bir maydon!»  
Ayiq bosib o‘tib dahlizni,  
Ostonaga qo‘rgan mish qizni.

## XVI

Hushga kelib Tatyana ko‘rmish –  
Dahliz; o‘chgan ayiq daragi;  
Ichkarida – marosim, zo‘rmish  
Qiyqirig‘-u jomlar jarangi.  
Zarra ma’no anglamay lekin  
Qiz tirqishdan boqibdi sekin,  
Hayhot, davra qurmish ne zotlar?  
G‘aroyib-u g‘arib jonzotlar:  
Biri – shoxdor, bittasi qurg‘ur –  
Ittumshug‘-u, biri – xo‘rozbosh,  
Echkisoqol alvasti yondosh,  
Bir qoqsuyak – serta’zim, mag‘rur,  
Ana, dumli pakana – shumshuk,  
Yarimturna, ham yarimmushuk.

## XVII

Bundan dahshat, bundan vahmasi:  
Qisqichbaqa o‘rgimchak mingan.  
G‘oz bo‘ynida odam kallasi  
Kezar, qizil qalpoqni kiygan.  
Yel tegirmon raqsga tushar,  
Qanolari qirsillab uchar;  
Qo‘sinq, kulgi, itlar hurishi,  
Ot dupuri, inson tovushi!  
Ko‘rib qolgach davrada alhol  
Ham aziz, ham qo‘rqinch kimsasin –  
Dostonimiz bosh sababchisin,  
Tatyana ne ayladi xayol!  
Onegin ham unda o‘ltirar,  
Eshikka goh ko‘z yugurtirar.

## XVIII

U ishorat etsa – bilgaylar,  
Ichsa – ichib chinqirgay barcha;  
U biż kulta agar – kulgaylar,  
Qosh chimirsa – jim turgay barcha;  
Bu yerda u xo'jayin, ayon:  
Qo'rmas endi Tatyana chunon,  
Qiziqsiniib o'zi bu mahal  
Qiz eshikni qiya ochar sal...  
Birdan shamol ichkari urib,  
Tun shamlari o'char shu tobda:  
Avbosh to'da bo'lar bezovta;  
Nigohlari chaqnab, o'kirib,  
Onegin bot o'midan turar;  
Hamma turgach, eshikka yurar.

## XIX

Qo'rquv bosib, shoshib Tatyana,  
Qochay desa, yo'qmish chorasi;  
Sabri tugab, to'lg'onib yana  
Chinqiray der, chiqmas nolasi.  
Eshik ochar Yevgeniy shunda  
Va do'zaxiy gala qoshinda  
Paydo bo'lar daf'atan bu qiz;  
Vahshiy kulgi yangraydi shu kez.  
Ko'z, tuyog'-u egri xartumlar.  
Tish, mo'ylov-u qontalash tillar,  
Quruqsuyak barmoq sabillar,  
Shoxlar, bari, kokildor dumlar –  
Qizga imo qilib betinim,  
Qichqirarmish: Maniki! Manim!

## XX

Meniki! – der Yevgeniy badhol,  
Vahshiy to'da birdan tarqalar;  
Sovuq zulmat qo'ynida alhol

Navnihol qiz do‘sti-la qolar.  
Tatyanani keyin birpasda  
Chetga tortib Onegin asta,  
So‘ng omonat bir o‘rindiqqa  
O‘tkazar-u kiftiga shilqqa  
Boshin qo‘yar... Nogoh shu asno  
Olga kirar, Lenskiy keyin;  
Ziyo porlar; Onegin keskin  
Qo‘lin siltab, ko‘zлari bejo,  
Mehmonlarni so‘kar beomon;  
Tatyana-chi, yotar chalajon.

## XXI

Janjal qizir; Onegin shu payt  
Uzun pichoq sug‘urar, hayhot,  
Qulab tushar Lenskiy... Dahshat,  
Zulmat bosar; Uchar bir faryod...  
Lopillaydi chayla ham yana...  
Va... uyg‘onar qo‘rqib Tatyana...  
Qarar, yorug‘ tushgan xonada,  
Muzlab naqshin bo‘lgan oynada  
Yolqinlanib o‘ynar tong nuri;  
Shimol Avrorasiday<sup>1</sup> yal-yal  
Yonib-yonib Olga shu mahal  
Qaldirg‘ochday kirar charx urib;  
Der: «Sen menga aytgin-chi shunda,  
Bu kech kimni ko‘rding tushingda?»

## XXII

U singlisin payqamas ammo,  
Kitob ushlab yotar to‘shakda,  
Bir-bir varaqlaydi-yu, aslo  
Og‘iz ochmas unga tush haqda.  
Garchi kitob shirin, safoli  
Shoirona xayoldan xoli,

<sup>1</sup> Shimol Avrorasiday... – Avrora – qadim yunon asotirida tonggi shafaq ilohasi.

Na hikmat bor, na tasvir-tazyin;  
Na Vergiliy<sup>1</sup>, ammo, na Rasin<sup>2</sup>,  
Na Skott, na Bayron, Seneka<sup>3</sup>,  
Na xonimlar Moda jurnalı<sup>4</sup>  
Bu kitobga tenglashmas hali;  
Do'stlar, bu zot – Martin Zadeka<sup>5</sup>,  
Xaldey<sup>6</sup> donishmandlarin piri,  
San'ati – fol va tush ta'biri.

## XXIII

Ajoyib-u teran bir asar,  
Buni ovloq go'shaga bir payt  
Keltirgandi sayyor savdogar,  
Tatyana ga maqtab, nihoyat,  
«Malvina»ni<sup>7</sup> qo'shibon shunga  
Zo'rg'a berib uch yarim so'mga,  
Ustama ham olgandi tag'in —  
Ko'cha masallari to'plamin,  
Til kitobi, «Pyotrnoma»<sup>8</sup>,  
Marmontelning<sup>9</sup> uchinchi tomi —

<sup>1</sup> *Vergiliy* – eramizdan avvalgi 70–19-yillarda yashab o'tgan Rim shoiri. «Eneida» dostonining muallifi.

<sup>2</sup> *Rasin Jan* (1639–1699) – farang dramaturgi, teatr arbobi.

<sup>3</sup> *Seneka* – eramizdan avvalgi 65–4-yillar atrofida yashab o'tgan Rim faylasufi va dramaturgi.

<sup>4</sup> *Xonimlarning moda jurnalı* – Brodskiyning fikricha, so'z P.I. Shalikovning «Ayollar jurnalı» ustida boradi. Lekin bu na'ma jurnalı emas. XIX asrda Rossiyada bunaqa jurnal bo'lмаган. Demak, farangcha «Na'ma jurnalı» nazarda tutilgan.

<sup>5</sup> Fol kitoblari bizda Martin Zadeka firmasida nashr etiladi. B. M. Fyodorovning uqtirishicha, bu muhtaram zot hech qachon fol kitobi yozmagan ekan.

<sup>6</sup> *Xaldey* – qadim Bobilda folchilarining yulduz harakatiga qarab, kelajakni aytilishga uringanlarning boshlig'i.

<sup>7</sup> «*Malvina*» – farang adibasi Mariya Kottenning (1770 – 1807) olti qismidan iborat bo'lган romani.

<sup>8</sup> «*Pyotrnoma*» – Pushkin kinoya bilan Aleksandr Gruzinsovning «Pyotrnoma» dostoni va Sergey Shixmatovning «Buyuk Pyotr» degan qahramonlik dostonini eslagan.

<sup>9</sup> *Marmontel* – XVIII asrda yashab o'tgan ikkinchi darajali bir farang yozuvchisi.

Ketdi; keyin Zadeka nomi  
Qizga aziz bo'ldi tamoman.  
Taskin bo'ldi dardlari uchun;  
Kechalar ham uxlaydi quchib.

## XXIV

Qizni qiynar tushlar savdosi,  
Ta'birini bilmaydi faqat.  
Qo'rqinch ro'yolarning ma'nosin  
Shu kitobdan izlar betoqat.  
Mana, qisqa ul mundarija –  
Alifboviy tartib bo'yicha  
Ayiq, archa, alvasti, bo'ron,  
Zulmat, ko'prik, tog', tipratikon,  
Qor, qarag'ay so'zlarin izlar.  
Zadeka ham berolmas madad.  
Ammo mudhish tushi beedad  
G'am-g'ussali kunlardan so'zlar.  
Tatyaganamiz yana necha kun  
Shuni o'ylab yashadi dilxun.

## XXV

Mana, oltin vodiylar osha  
Shafaq gulgun qo'llari birlan<sup>1</sup>  
Hadya etur quyoshga qo'sha  
Tug'ilgan kun bayramin birdan.  
Larinlarning qo'rasi tongdan  
Gavjum; qo'ni-qo'shni har yondan  
Kelur suron solib yanada  
Turli arava-yu chanada.  
Dahliz tirband, tiqilinch, g'ulu;  
Mehmonxonasi: yangi yor-do'stlar;  
Itlar hurar, o'pishar qizlar,

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Lomonosovning mashhur satrlariga parodiya:  
Shafaq gulgun qo'l ila  
Tonggi sokin suvlardan  
Olib chiqar quyoshga qo'shib... Va hokazo.

Ostonada g'ovur, sas, kulgi;  
Mehmonlarning tavoze sasi,  
Doya sasi, bola yig'isi...

## XXVI

Norgulgina xotini bilan  
Yo'g'ongina Pustyakov bunda;  
Faqir mujiklarning sezag'on  
Xo'jayini – Gvozdin shunda;  
O'ttiz yoshdan ikki yoshgacha  
Bor bolasin sudrab, boshqacha,  
Keksa Skotininlar kelur;  
Ham olifta Petushkov yelur,  
Mening bo'lam bo'lmish Buyanov  
Kiymish momiq, soyabon-qalpoq ,  
(Albat, sizga tanishdir andoq)<sup>1</sup>,  
Iste'foga chiqqan Flyanov –  
Shunda, ig'vegar-u firibchi,  
Poraxo'r-u mechkay, qiziqchi.

## XXVII

Panfil Xarlikovning ahli-la –  
Kelgan askiyaboz Trike,  
U Tambovdan kelmish yaqinda,  
Ko'zda – oynak, boshda – pariki.  
Chin farangday cho'ntakda, yohu,  
Tatyana she'r keltirgan u.  
Bolaga ham tanish bayti deng:  
«Uxlayotgan go'zal, uyg'oning!»  
Ko'hna qo'shiqlarning ichinda,  
Bir bayozda bosilmish bu bayt,  
Topqir shoir Trike shu payt  
O'zi ijod qilgandek chindan,  
«Go'zal Nina» o'rniga yana  
Dadil aytur: «Go'zal Tatyana».

<sup>1</sup> Buyanov... albat, sizga tanishdir... Buyanov – V. L. Pushkinning «Xavfli qo'shni» dostoni qahramoni. Keyinroq Pushkin uni yana «Shijoatli Buyanov akam» deb, sho'xlik qilib xotirlaydi.

## XXVIII

Tashrif etdi harbiy dahadan  
Qo'shin komandiri – a'losi,  
Onaxonlar arzandası, ham  
Bo'yga yetgan qizlar dahosi;  
Oh, bu mujda dillarni chog'lar!  
Kelur, mana harbiy mashshoqlar!  
Yubormishdir polkovnik o'zi.  
Demak, bazm-u musiqa qizir!  
Qizaloqlar sakrab quvnaydi<sup>1</sup>.  
Taom kelur. Mehmonlar bari  
Juft-juft o'tar dasturxon sari.  
Tatyani qizlar qurshaydi;  
Qarshisida – erkaklar faqat:  
Cho'qinishar, boshlashar suhbat.

## XXIX

Bir zum tindi, bas, so'zlashishlar,  
Chapillarydi og'izlar. Har yon  
Taqillarydi likop, qoshiqlar,  
Jaranglaydi qadahlar chunon.  
Sekin-asta mehmonlar tag'in  
Boshlar yalpi gurung va shovqin.  
Tinglamas-u, hamma qichqirar,  
Tortishar-u kular, chinqirar.  
Shunda birdan ochilar eshik.  
Lenskiy va Onegin kirar,  
«Oh, shukur!» – deb beka qiyqirar.  
Kesar kursi, taqsimcha, qoshiq;  
Chorlashibon mehmonlar shu kez  
Ikki do'stni o'tqazishar tez.

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Ayol jinsining sodiq ixlosmandlari bo'lgan bizning munaqqidlarimiz bu satrlarning adabsizligini aytib, qattiq tanqid qilishgan.

### **XXX**

Tatyanaga ular ro‘baro‘,  
 Ammo tonggi oy kabi rangsiz,  
 Quvg‘in ohu yanglig‘ titrar-u,  
 Soya solgan ko‘zlarini qiz  
 Yerdan olmas, qiynar hayajon.  
 Mushkul, noxush holat bu zamon.  
 Ikki do‘stning tabrik, salomin  
 Qiz eshitmas, ko‘zlar selobin  
 Zo‘rg‘a tiyar, tutar o‘zini.  
 Tayyor, behush yiqilsa tuyqus,  
 Yo‘l qo‘ymaydi andisha, nomus.  
 Qiz qimtinib, yamlab so‘zini,  
 Bir-ikki so‘z aytadi-yu, bas,  
 O‘ltiradi o‘rnida besas.

### **XXXI**

Jazavali, asabiy holat,  
 Ko‘zyoshlar-u behushliklarga  
 Yevgeniyda yo‘q aslo toqat,  
 Xo‘b to‘ygan bu noxushliklarga.  
 Tentak, ko‘rgach kattakon bazm,  
 G‘azablandi. Ko‘rdi-yu shu zum  
 Ma‘yus qizning hol, titrog‘ini,  
 O‘kindi-yu, so‘ng nigohini  
 Yerga tikdi. Tumtayib yana,  
 Lenskiyning jahlin qo‘zg‘ab soz,  
 Qasam ichdi olmoqqa qasos  
 Va halitdan aylab tantana,  
 Chizaverdi xayolan betin  
 Mehmonlarning hajviy suratin.

### **XXXII**

Tatyananing dard-hayajoni  
 Sezilgandi hammaga, albat.  
 Atay ko‘z-u so‘zning nishoni

Moyli somsa edi bu fursat,  
(Baxtga qarshi, sho'r ekan u ham).  
Turli taom yoniga shu dam  
Berk shishada, yashnab hubobi,  
Kelur Simlyanskiy sharobi.  
Ey, ko'nglimning yoquti – Zizi,  
Uzun, xipcha qadahlar qator  
Kelur, sening belingdek, ey yor,  
Ma'sum she'rلаримнинг азизи;  
Ey muhabbat piyolasi, bas,  
O'zing meni etarding sarmast!

### XXXIII

Shishasidan etilgach ozod,  
Toshar, jo'shar vajillab sharob.  
Dilgir baytin o'qish uchun shod  
Turar janob Trike shu tob.  
Majlis ahli tinglamoqqa zud  
Shaylanadi, saqlaydi sukut.  
Tatyaganamiz chalajon, bo'ylar,  
Unga qarab Trike kuylar –  
Soxta she'rин. Chapaklar, saslar  
Olqishlaydi; unga Tatyana  
Majbur ta'zim etmoqqa yana;  
Shoir buyuk bo'lsa ham, kamtar,  
Ilk bor ichib qiz sog'ligi-chun,  
Baytni unga uzatar mammun.

### XXXIV

Yangray boshlar tabrik va rag'bat,  
Tashakkurlar aytar Tatyana.  
Yevgeniya kelganda navbat,  
Qizning g'amgin chehrasi, yana  
Xijolati, horg'in holati  
Yigit qalbga shafqat soladi:  
Aylar qizga jimgina ta'zim,

Nigohlari nechukdir shu zum  
Ko‘p mehribon edi hattoki.  
Chindan ko‘ngli ta’sirlandi yo  
Sho‘xlik qilib, u shilqimlandi, yo  
Xohlamaymi, xohlabmi, yoki  
Bas, shafqatli nigoh shu zahot  
Qiz ko‘ngliga baxsh etdi hayot.

### XXXV

Taqirlaydi kursilar, shu on  
Xalq yoprilar mehmonxonaga,  
Asalari shunaqa g‘ujg‘on  
Uchar yashil-alvon dalaga.  
Taomlardan to‘yib yashnagan –  
Pishillaydi qo‘shni qo‘shniga;  
Pech yonida xonimlar so‘zlar,  
Shivirlashur burchakda qizlar.  
Yoziladi yashil dasturxon –  
Jo‘shqin qartabozlarni chorlar;  
Boston, lomber o‘ynaydi chollar,  
Vist<sup>1</sup> ham juda mashhur bu zamon;  
Bari – bir go‘r, bir hiyla, bir fan –  
Ziqna dilgirliklarga farzand.

### XXXVI

Vistboz zotlar rosa o‘ynashdi  
Sakkiz davra, sakkiz karra ham  
O‘rinlarin nuqul almashdi.  
So‘ng choy keldi. Soatni har dam  
Men tushlig-u choy, kechlik bilan  
Belgilashni sevaman biram.  
Qishloqda bu o‘ng‘ay odatdir:  
Qornimiz eng to‘g‘ri soatdir.  
Aytib o‘tay yana, darvoqe,  
Seningdek, ey ilohiy shoir,  
O‘ttiz asr ilohi – Homer,

<sup>1</sup> Boston, lomber, vist – qarta o‘yinlari (qimor).

Men ham ko‘p bor etmisham voqe  
Kuylab she’rda ziyofatlarni,  
Tiqin, taom, zarofatlarni!

### XXXVII. XXXVIII. XXXIX

Choy keldi-yu, qizlar bohayo  
Taomga qo‘l cho‘zibmi-cho‘zmay,  
Eshik orti – uzun sahn aro  
Yangrab qoldi sibizg‘a, surnay.  
Musiqadan shodlanib alhol,  
Choyni, mayni tark etib darhol,  
Atrof kentlar Parisi<sup>1</sup> darrov –  
Olga sari yelar Petushkov.  
Ham qariqiz Xarlikovani  
Huv tambovlik shoirim olur,  
Tatyanaga Lenskiy kelur,  
Buyanov-chi, Pustyakovani  
Olib uchar. Quvnog‘u go‘zal  
Ko‘rki bilan tovlanadi bal.

### XL

Men dostonim ibtidosida  
(Yodga oling birinchi faslin)  
Tasvir etmoq edim aslida  
Albanidek<sup>2</sup> Peterburg bazmin.  
Tanish xonimlarni o‘ylab, lol,  
Oyoqchasin so‘ylab, xom xayol –  
Xotirotga cho‘kibman tamom.  
Oyoqchalar, sizning xushmaqom  
Izingizdan adashmoq basdir.  
Qilmabdimi yoshligim vafo,  
Hushni yig‘ib, endi bexato  
Savt-u navo tuzmoq havasdир;  
Bu beshinchi faslim-da, birdan  
Xoli bo‘lsin chekinishlardan.

<sup>1</sup> Paris – qadim yunon asotirida Troya podshohining xotinini olib qochgan ko‘rkam va dilbar yigit.

<sup>2</sup> Albani Franchesko (1578–1660) – italyan musavviri.

## XLI

Bamisoli yoshlik kitobi  
Bir usulda faqat telbavor  
Aylanadi raqs girdobi;  
Juftlar o'tar takror-u takror.  
Kelgach qasos lahzasi, sekin  
Kulimsirab zimdan Onegin,  
Oshkor Olga yoniga kelar,  
Uning bilan raqs etib yelar.  
So'ng kursiga o'tqazar qizni,  
Gap ochadi u yoq-bu yoqdan,  
Bir oz fursat o'tgach, uzoqdan  
Ikkov boshlar yana raqsni.  
Hamma hayron. Lenskiy o'zi  
Ishonmaydi, ko'rsa ham ko'zi.

## XLII

Mazurka ham yangrar. Bir zamon  
Gumbirlagan chog'da bu sado  
Butun zalni chulg'ardi suron,  
Titrat edi parket ham hatto,  
Zirilli deraza qaqshab;  
Endi biz ham qizlarga o'xshab  
Silliq polda suramiz oyoq.  
Ammo hanuz ko'p shahr-u qishloq  
Saqlamishlar bu kuyning solim  
Ibtidoiy tarovatini,  
Sakrash, uchish mahoratini;  
Hanuz moda – bizning bu zolim –  
Yosh naslning yovi, ofati  
Bu kuyni hech buza olmadi.

## XLIII. XLIV

Shijoatli Buyanov og'am  
Oneginim tomon keltirar  
Tatyana va Olgani; shu dam

U Olgani olib yeldirar;  
Sirpanarkan asta, eshilib,  
Nozik ishqiy she'rni, egilib,  
Shivirlaydi ul shirinzabon,  
Qo'ichasini qisar, shu zamон  
Olga yuzi lovullab yonib,  
Aks etadi qizlik g'ururin.  
Barin ko'rdi Lenskiy, barin!  
Shoir behush, kuyib, qizg'onib,  
To'xtatishgach kuy va raqsni,  
Chorlar boshqa raqsga qizni.

## XIV

Hayhot! Mumkin emasmish ammo!  
Nima emish – bormish va'dasi,  
Oneginga so'z bermish... Xudo,  
O, Xudovand, ne bo'lur o'zi?  
Ona suti og'zidan zarra  
Ketmagan bu tannozni qara!  
Oh, hiylagar bo'lib nihoyat,  
Kasb etibdir alhol xiyonat!  
Holsizlanib Lenskiy ancha,  
La'natlaydi ayol zotini,  
Chiqar, talab etar otini,  
Jo'nar. Endi ikki to'pponcha  
Va ikki o'q uning notugal  
Taqdirini etajakdir hal.

## OLTINCHI FASL

*Kunlari tumanli, qisqa diyorda  
Bir avlod tug 'ilgay – qo 'rmas o 'limdan.*

Petrarka. (Itayancha)

### I

G'oyib bo'l mish Lenskiy, mana,  
Nafsi qonib o'z qasosidan,  
Ziqlik chulg'ab, Onegin yana,  
O'yga tolur Olga qoshida.  
Qizgina ham shundoq esnaydi,  
Lenskiyni ko'zi izlaydi.  
So'ngsiz raqs uni beomon  
Og'ir tushdek toldirmish yomon.  
O'yin tungar, taom suzilar,  
Joy solinar; band bo'lar, mana,  
Dahliz, hatto huv cho'rixona.  
Uyqu bosib, barcha cho'zilar.  
Oneginim jo'naydi yakka  
O'z uyida tinch uxlamakka.

### II

Jimlik cho'kar, mehmonxonada  
Xurrak otar yo'g'on Pustyakov –  
Yo'g'on yori uning yonida.  
Gvozdin, Buyanov, Petushkov,  
Sal bemorroq Flyanov netar –  
Oshxonada – kursida yotar.  
Fufayka-yu eski qalpoqda  
Uxlar janob Trike polda.

Opa-singil yotog‘ida ham  
Qizlar orom olmoqda turlik.  
Tanhogina Tatyana sho‘rlik  
Derazaning tagida purg‘am,  
Oy nuriga cho‘mib o‘ltirar,  
Huv zim-ziyo dashtga mo‘ltirar.

### III

Nechun paydo bo‘ldi u birdan?  
Ko‘zlarida oniy mehr bor?  
Qilik‘i ne – Olgaga qilgan?..  
Qiz o‘rtanib, o‘ylab beqaror,  
O‘z qalbiga kirar teranroq.  
Aqli yetmas, tushunmas biroq.  
O‘rtar, qiynar rashk o‘ti nuqlu,  
G‘ijimlaydi qalbin muzdek qo‘l;  
Qiz poyida qorayib faqat  
Shovullaydi tubsiz jar go‘yo...  
Tatyana der: «Bo‘larman ado,  
Lek uni deb o‘lmoq – saodat.  
Nolimayman, nolimam hech vaqt!  
Yo‘q, u meni etolmas xushbaxt».

### IV

Ey dostonim, olg‘a bos shitob!  
Chorlayotir bizni o‘zga zot.  
Lenskiyning o‘sha Qiziltov  
Qishlog‘idan besh tosh nari, shod,  
Kimsasiz bir yobonda hamon  
Zaretskiy yashar sog‘-omon.  
Bir payt o‘zi zo‘r avbosh bo‘lgan,  
Qartaboz to‘daga bosh bo‘lgan,  
Qovoqxona voizi – sardor.  
Bukun esa mehribon, sodda,  
Barcha bo‘ydoq qavmga ota,

Ishonchli do'st, mushfiq zamindor,  
Hatto pok bir inson u mutlaq;  
Tuzalmoqda asrimiz shundoq.

## V

Yaltoqlanib kiborlar bir payt  
Maqtashdi xo'b yovuz mardligin:  
O'n qadamdan tuzni u faqat  
To'pponchada urardi lekin.  
Bir g'ayrati toshib o'shanda  
Zo'r jasorat ko'rsatgan jangda –  
Nogoh qalmoq otidan uchib,  
Balchiq yerga o'larday tushib,  
Faranglarga bo'lgandi tutqun.  
Ne bebah o'garov!.. Har nahor  
Qarzga Veri<sup>1</sup> qoshida takror  
Uch shishani quritmoq uchun –  
Yangi Regul<sup>2</sup>, nomus dahosi  
Qayta asir bo'lishga rozi.

## VI

Ermak uchun kulib ba'zida  
U gangitib tentakni andak,  
Yo oshkora va yoki zimdan  
Dononi ham aylardi tentak.  
Ammo bundoq mazax-u hazil  
Tagi ba'zan chiqar edi zil,  
Sho'xliklari gohi mo'l bo'lib,  
Ilinardi o'zi go'l bo'lib.  
U bahs etar quvnoq-u biyron,  
Bo'lar-bo'lmas javob topar zud.

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Parijlik restoran sohibi.

<sup>2</sup> *Regul* – eramizdan avvalgi III asrda Rim qo'mondoni bo'lgan. Rivoyatga ko'ra, karfagenliklarga asir tushib, sulh tuzish taklifi bilan tag'in Rimga yuborilgan. Unda Senatga urushni davom ettiraverishni maslahat berib, yana Karfagenga qaytgan. Bunda esa uni muqarrar jazo kutar edi.

Reja bilan saqlar-u sukut,  
Reja bilan ko'tarar suron,  
Tushib ikki do'st orasiga,  
Eltib qo'yar jar yoqasiga.

## VII

Yarashmoqqa majbur qilib yo,  
Birga-birga yeb-ichar-u ul,  
So'ng tarqatib hazil va ig'veo,  
Obro'ylarin aylardi bir pul.  
Endi zamon boshqa! Jasorat  
(Ishq dardi-yu sho'xlikka monand)  
Yoshlik bilan ketgaydir uchib.  
Bo'ronlardan, nihoyat, qochib,  
Aytganimdek, Zereskiy ham  
Shumurt, akas ostida filhol  
Yashaydir chin donishmand misol.  
Horasiydek ekadir karam,  
G'oz-u o'rdak boqib beqayg'u,  
Bolalarga harf o'rgatar u.

## VIII

U, anoyi emas! Onegin  
Qalbin uning qilmas-ku hurmat,  
Lekin sevar hukmlov ruhin,  
Hamda sog'lom fikrini faqat.  
Uning bilan ko'rishsa qachon,  
Ilgari ham yayrardi shodon.  
Tong sahardan bu zotni ko'rgach,  
Zarra hayron bo'ljadi shu vaj.  
Salom-alik qilgach, suhbatin  
Nogoh bo'lib boshlagan erdan,  
U g'alati tirjayib birdan,  
Uzatadi shoirning xatin.  
Derazaga borib Onegin  
Xatni o'qir ichida sokin.

## IX

Maktub – qisqa, mardona, ravshan,  
Saqlab do'stning ehtiromini,  
Shoir sovuq aniqlik bilan  
Otishmaga chorlamish uni!  
Onegin qilt etmay, behadik,  
Bu xabarining elchisiga tik  
Qarab, ortiq so'z demay biror,  
E'lom qildi: «Men doim tayyor.  
Zaretskiy turdi beizoh,  
U bahona qilib ko'p ishni,  
Istamadi ortiq qolishni.  
Chiqib ketdi. Yevgeniy-chi, oh,  
Sado berib vijdon ovozi,  
O'z-o'zidan bo'ldi norozi.

## X

Ajab bo'ldi! Qat'iy, beshafqat  
O'z-o'zini tergab u pinhon,  
O'zin aybdor topardi faqat,  
Avval o'zi nohaqdir, ayon.  
Kulib, pok va latif sevgini  
Mazax qildi kecha Yevgeniy.  
Ikkinchidan, o'n sakkiz yoshda  
Shoir tentak bo'lsa, bu boshqa:  
Uzrlidir aslida bu hol.  
Yigitchani sevib havasdan,  
Bu jangari bola bo'lmasdan,  
Sapchimasdan bemahal, darhol,  
Ko'rinnmog'i shart edi, beshak,  
Bo'lib oqil, nomusli erkak.

## XI

U ko'rguzib latif hislarin,  
Hurpaymasdan sher kabi og'ir  
Yosh yurakdan g'azab izlarin

Sidirmog'i shart edi axir.  
«Endi tamom, vaqt o'tdi, mana... –  
O'ylaydi u. – Bu ishga yana  
Bosh suqubdi eski da'vogar,  
Bu maydagap, qattol, ig'vegar...  
Gapi piching, masxara, egri,  
Asli bunga loyiqdir nafrat.  
Ahmoqlarning mish-mishi faqat...»  
Mana, nadir jamoat fikril –  
U oriyat qo'zg'ar dahomiz!  
Aylanar shul o'qda dunyomiz!

## XII

Adoqsiz bir adovat bilan  
Shoir uyda kutadir xunob,  
Tantana-yu salobat bilan  
Gapdon qo'shni keltirar javob.  
Mana endi rashkchiga bayram!  
Qo'rqqan edi, u shum, muttaham,  
Biron hiyla chiqarib yo'qdan,  
Ko'ksin olib qochar deb o'qdan.  
Gumonlari bo'ldi bartaraf;  
Endi ular tong chog'i chandon  
Bir-birini etmoqqa gumdon  
Boradilar tegirmon taraf,  
Nishon olar ikkov yiroqdan,  
Beldan yoki yuqoriqdan.

## XIII

Otishmadan Lenskiy oldin,  
Ul tannozni chog'lab nafratga,  
Ko'rmas bo'ldi Olgani, tayin,  
Qarab quyoshga-yu soatga,  
Qo'l siltabon nihoyat, bexos,  
Qo'shni uyga o'tib qoldi boz.

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Griboyedov satri.

U Olgani aylab xijolat,  
Qo‘zg‘amoqchi ko‘nglida hayrat;  
Ammo Olga... Avvalgi holi:  
Qanot bog‘lab chiqdi hovliga –  
Sho‘rlik shoir istiqboliga;  
Aldoqchi bir umid misoli  
Qiz beparvo, shaddod va quvnoq,  
Avval qandoq bo‘lsa, o‘shandoq.

## XIV

«Nega erta qochib qoldingiz?»  
Bu Olganing ilk savolidir.  
To‘lqinlanur yana tuyg‘u-his,  
Va Lenskiy besas voladir.  
Qizning tiniq bu qaroshida,  
Bu latif soddalik qoshida,  
Bu shaddod qalb qoshida, alhol,  
Tarqaladi rashk ila malol!..  
Yigit boqar shirin, lutfkor;  
Ko‘rar: uni qiz sevar hanuz;  
Yuragida tavba-yu afsus,  
Qizdan uzr so‘rashga tayyor.  
Titraydi-yu, so‘z topmas, tamom,  
U baxtiyor, u qarib sog‘lom...»

## XV. XVI. XVII

Olgasining yonida yana  
Vladimir o‘ychan, xafahol.  
U kechagi qilmishin ta’na  
Aylay desa, topmaydi majol.  
O‘ylar: «Bo‘lay bunga xaloskor,  
Yo‘l qo‘ymayman, toki u g‘addor  
Qaynoq oh-u maqtov-la ildam,  
Yosh ko‘ngilni urmasin yo‘ldan;  
Nilufargul navdasin toki  
Kemirmasin chirkin qurt hech ham.

Hali nurga qonmagan g‘uncham  
Ochilmasdan so‘lsinmi yoki?!»  
Sharh aylasam, do‘stlar, so‘z bilan,  
Men otishgum, demak, do‘st bilan.

## XVIII

U bilsaydi, yohu, agarda  
Tatyananing ne dard jonida!  
Lenskiy va Onegin erta  
Jang qilishin ajal komida  
Tatyana ham bilsaydi agar,  
Oh, bu sirdan topsaydi xabar,  
Qiz sevgisi bo‘lib sababkor,  
Birlashardi ikki do‘st takror!  
Ammo u his, muhabbat-tug‘yon  
Sirlarini ochmagan hech kim.  
Onegin ham sukut saqlar jim,  
Tatyana-chi, o‘rtanar pinhon.  
Bir enaga bilishga bilar,  
Lekin fahmi ojizlik qilar.

## XIX

Ha, tun bo‘yi parishon o‘zi, –  
Lenskiy goh jimjit, goh quvnoq.  
Gar siylasa ilhom parisi,  
Bexud bo‘lur har kim ham shundoq.  
U qovog‘in solib, chang chalar,  
Bir parda – bir nag‘mani olar,  
Dam Olgaga termilib aytur:  
«Men baxtliman, to‘g‘rimi?» – deyur.  
Ammo kechdir. Endi boradir.  
G‘ijimlaydi qalbin g‘am-alam;  
Xayrlashar ekan qiz bilan,  
Qalbi go‘yo pora-poradir.  
Qiz yigitga termilib so‘rar:  
«Nima bo‘ldi?» – Hech nima. – Jo‘nar.

## XX

Uyga kelib, g‘aladonidan  
Olib ko‘rar to‘pponchalarni.  
Yechinadi; shamning yonida  
Ochib o‘qiy boshlar Shillerni.  
Ammo xayol tinchitmas uni;  
Dardli yurak bilmas uyquni;  
Ko‘z oldida ul malaksiymo  
Faqat Olga bo‘ladi paydo.  
Vladimir kitobni yopib,  
Qalam olur; misralar bari –  
Nuqlu sevgi safsatralari  
Jaranglaydi, keladi oqib.  
Bazmda mast Delvigday<sup>1</sup> sarxush  
Yonib o‘qir chiqarib tovush.

## XXI

She’ri omon saqlanmish ilkis,  
U mendadir, mana, unlari:  
«Qayga, qayga ketdingiz olis,  
Bahorimning gulgun kunlari?  
Kelajak kun... Unda nima bor?  
Yo‘q, nigohim izlaydi bekor –  
Quchar uni tubsiz bir zulmat.  
Taqdir hukmi haqdir; yo‘q hojat;  
Yo o‘q tegib, yitarman badar,  
Yo yonimdan uchib o‘tar u,  
Bari qutlug<sup>2</sup>: bedorlik, uyqu,  
O‘z soati bordir, muqarrar.  
Muborakdir zahmatli kun ham,  
Muborakdir zulmatli tun ham!

---

<sup>1</sup> Delvig Anton Antonovich (1798–1831) – Pushkinning litseydosh do‘sti, umrining so‘nggiga qadar shoirning eng yaqin odami bo‘lib qolgan. Yeseninning she’rini eslang: «Bizning Aleksandr Delvig haqida she’r yozgan madh etib kalla suyagin...»

## XXII

Tongda shafaq tovlanur yana,  
Jilvalanur yana yorug‘ kun;  
Meni esa sovuq sag‘ana  
O‘z qa‘riga olar yo butun.  
Yosh shoirning yodi – dunyosi  
Cho‘kar, yutib Leta<sup>1</sup> daryosi.  
Olam meni unutar, ammo  
Sen, go‘zallik qizi, sen ammo  
Mozorimda yig‘larmisan zor!  
O‘ylarmisan: u sevmish meni,  
Quyun umrin g‘amgin tongini  
Menga fido etgan edi yor!..  
Kel-ey, chin do‘sst, ko‘ngul qarorim,  
Mahramingman sening, ey yorim!..»

## XXIII

Yozmish shundoq mujmal va so‘lg‘in.  
(Romantizm ataymiz buni,  
Garchi romantizm-da uyg‘un,  
Men ko‘rmasman bu she’rda uni).  
Lenskiy tong oldi, nihoyat,  
Charchab, boshin egib bag‘oyat,  
Rasm bo‘lgan ideal so‘zi  
Duch kelganda, ilinar ko‘zi.  
Ammo hali shirin uyquni  
Totmay turib, ko‘p yotmay turib,  
Qo‘shnisi jim xonaga kirib,  
Ovoz berib uyg‘otar uni:  
«Turing, yetti bo‘libdir soat,  
Kutib qoldi Onegin, albat».

<sup>1</sup> *Leta* – qadim yunon asotirida tiriklar bilan o‘liklar dunyosini ajratib turuvchi unutish daryosi.

## XXIV

Yanglishdi u lekin; Onegin  
Mast uyquda yotur, vassalom.  
Tun zulmati chekinar sekin,  
Xo'roz yo'llar Zuhroga salom.  
Gungurs uxlar Yevgeniy yakka,  
Yuksaladi oftob falakka,  
Yaltirab qor, izg'irin, quyun  
Tong nurida aylaydi o'yin.  
To'shagida Onegin lekin,  
Shirin uyqu qo'ynida hamon.  
Va nihoyat, turib bir zamon  
U pardani ko'tarar sekin;  
Qarar, ko'rар, oshar hayrati:  
Allaqachon – jo'nash fursati.

## XXV

Tez qo'ng'iroq chalar. Yugurib  
Farang Gillo kirar, bu – qarol.  
To'n va tufli berib ulgurib,  
Kiyimlarin shaylaydi darhol.  
Kiyinadi shoshib Onegin,  
Qaroliga amr etar keyin  
O'q-yaroqli qutini olib,  
Mening bilan yur, deydi, yelib.  
Zumda uchqur chanalar shaydir.  
Uchadilar tegirmon taraf.  
Yetgach, aytur qarolga qarab:  
«Mash'um Lepaj<sup>1</sup> qurolin keltir.  
Izimdan. – So'ng: – Hayda, der shu on, –  
Otlarni huv qo'sh eman tomon».

<sup>1</sup> A.S. Pushkin izohi: Mashhur qurolsoz.

## XXVI

To‘g‘onga kift tirab Lenskiy,  
Tongdan kutar besabr-u toqat,  
Dasht ustasi – quv Zaretskiy  
Tegirmondan ayb topar faqat.  
Uzr so‘rab kelar Onegin.  
Zaretskiy o‘tinar sekin:  
«Axir sizning sekundant qani?»  
Otishmaning daho mergani  
Azal usulparast bu zomin  
Hatto odam o‘ldirishda ham  
Talab etar bexato, bekam  
Shu san’atning qat’iy nizomin;  
Qadim o‘tmish urfiga sodiq.  
(Shu sifati tafsinga loyiq).

## XXVII

«Sekundantmi?» – Yevgeniy so‘rar, –  
Mana, do‘stim – janobi Gillo.  
Vakilimga, menimcha, biror  
E’tiroz ham bo‘limgay illo.  
Mashhur emas agarchi bu jon,  
Ammo o‘zi vijdonli inson».  
Zaretskiy tishlab qolur lab.  
Lenskiyga Onegin qarab:  
«Boshlaymizmi?» – deydir shu zamon. –  
«Boshlaymiz?» – der Lenskiy. Ular  
Tegirmonning ortiga kelar.  
Zaretskiy, vijdonli inson  
Shartnomani tuzguncha birga,  
Boqib turar g‘animlar yerga.

## XXVIII

G‘animlar! Oh, qachondan beri  
Bir-birining qoniga tashna? –  
Ko‘pdan buyon g‘am, shodliklari  
Baham bo‘lgan bu ikki oshna!  
Bukun voris dushmanlar misol  
Qarashlari yovuz va qattol.  
Mudhish, mubham tush kabi, chaqqon  
Bir-biriga ikkov sovuqqon  
Ajal chohin qazur besado...  
Tegmay turib qo‘llariga qon,  
Bir do‘stona kulib, ikki yon  
Tarqalishsa bo‘lmasmikin yo?..  
Kiborga xos vahshiy adovat  
Andishadan qo‘rqadi faqat.

## XXIX

To‘pponchalar yaraqlar, mana,  
Sumba urib, bolg‘a taqillar.  
O‘q joylanar o‘qdonga, ana,  
Birinchi bor tepki shiqillar.  
Kulrang borut shildirab shu dam  
Borutdonga to‘kilar. Mahkam  
Buralgan tish – chaqmoqtosh hali  
Tikkaygandir. Sarosimali  
Gillo to‘xtar yaqin to‘nkada.  
Yomg‘irpo‘shni tashlar g‘animlar.  
Zaretskiy aniq odimlar –  
O‘ttiz ikki qadam o‘rtada,  
Va ikki do‘st ikki yon kelur,  
Har biri o‘z qurolin olur.

## XXX

«Qani, boshlang endi!». Sovuqqon  
Mo‘ljal olmay g‘animlar, oldin  
Bab-baravar, qat’iy va ravon

Bosishdilar to'rttadan odim.  
Ajalning to'rt qadamidir bu.  
Yura turib, shu mahal, yohu,  
Eng birinchi bo'lib Onegin  
To'pponchasin ko'tarar sekin.  
Yurishdilar yana besh qadam,  
Lenskiy chap ko'zin qisib sal  
Mo'ljal ola boshlar... Shu mahal  
O'q uzadi Yevgeniy ildam...  
Zang uradi ajal soati:  
To'pponchasi tushib ketadi —

### XXXI

Jim ko'ksiga eltar-u qo'lin,  
Shoir qular. Xira ko'zida  
Aks etadi dard emas, o'lim.  
Tik tog'lardan shundoq ba'zida  
Kun nurida yonib quyuni,  
Ag'darilar qorlar uyumi.  
Bir zum butun vujudi muzlab,  
Unga chopar Onegin bo'zlab,  
Qarar, uni chaqirar... Bekor:  
Endi u yo'q. Shoir – javonmard  
Halok bo'lmish, bo'lmish juvonmarg!  
Bo'ronda, tong shafag'ida zor  
Ajib bir gul bevaqt so'libdir,  
Mehrobida gulxan so'nibdir!..<sup>1</sup>

<sup>1</sup> *Mehrobida gulxan so'nibdir... – Ustoz Oybek sharhiga ko'ra, «qadim xalqlarda Xudoga qurban qilinadigan hayvonlarni shu mehrobda – maxsus tosh ustida yondirar yo so'yar edilar. Mehrobda har vaqt olov yonib turar edi. Bu yerda esa «Shoir o'ldi, yolqinli ilhomni so'ndi ma'nosida».*

## XXXII

Tek yotar u qorlar ustida,  
Manglayida mungli bir jahon.  
Jarohati – ko‘krak ostidan  
Hovurlanib oqayotir qon.  
Bir daqiqa burun, e falak,  
Ilhom ila urib bu yurak,  
Kek va umid, muhabbat, sabot –  
Qon yugurib, kuylardi hayot.  
Tashlandiq uy misoli endi  
Hokim unda jimlik va zulmat.  
O‘chdi, o‘chdi chirog‘i abad,  
Derazasi yopildi. So‘ndi.  
Bekasi yo‘q, benom-u nishon.  
Xudo bilar, qayda bu zamon.

## XXXIII

Johil-nodon dushmanga tegib,  
Qo‘rs hajv ila quturtirmoq soz;  
O‘r, suzag‘on shoxlarin egib,  
Hajv ko‘zgusida u bexos  
O‘zin tanib, cheksa xijolat,  
Oh, tomosha qilmoq na rohat!  
Yaxshiroqdir, u gap o‘kinib,  
Bu menman-ku! – desa bo‘kirib!  
Do‘sstar, yana yaxshidir zimdan  
Qabrin tayyor qilib, shaylamoq;  
Maqbul masofadan ko‘zlamoq,  
Na soz, rangsiz peshonasindan;  
Ajdodlari tomon jo‘natmak  
Lekin sizga yoqmasa kerak.

## XXXIV

Netarsiz, gar o'qingiz bois  
Nobud bo'lsa bir do'st – navqiron?  
Mastlikda so'z aytsa nojoiz,  
Yo arzimas gapga nogahon  
Sizni qattiq aylab haqorat,  
Tag'in yonib-kuyib bag'oyat,  
O'zi jangga chorlasa birdan?  
Qimir etmay so'ng yotsa yerda,  
Manglayida o'limdan asar,  
Asta-sekin jasadi qotsa,  
Gung-u karaxt, beshuur yotsa,  
Hazin dodingizdan bexabar, –  
Qalbingizni, ayting, shu zahot  
Bosar, ezar nechuk hissiyot?

## XXXV

Qalbin qayg'u, iztirob yoqar,  
To'pponchasin qisib tobora,  
Lenskiyga Yevgeniy boqar.  
Qo'shnisi der: «O'ldi. Ne chora!»  
O'ldi!.. Oh, bu mash'um xitobdan  
Onegin zir titrab, azobdan,  
Odamlarni uzoqdan chorlar.  
Zaretskiy avaylab joylar  
Muz jasadni endi chanaga;  
Uyga eltar mudhish bu yukni.  
Otlar kishnar sezib o'likni,  
Suvlig'ini tinmay chaynagay,  
Depsingay oq ko'piklar sochib...  
So'ng o'q kabi ketarlar uchib.

## XXXVI

Achingaysiz shoirga, do'stlar,  
Orzulari ochmay turib gul,  
Bu dunyoda qoldirmay izlar,  
So'ldi bir qalb, bevaqt so'ldi ul.  
Qani, otash hayajon qayda?  
Qutlug' maqsad va armon qayda?  
Qani, yoshlik nozik va oliy,  
Pok hislari, ma'sum xayoli?  
Qayda, jo'shqin ishqiy istaklar,  
Ilm-u zahmat mardonni qani?  
Ayb-u nomus qurban ni qani?  
Qaydasiz, ey, qutlug' tilaklar –  
Siz, samoviy hayat timsoli,  
Siz, muqaddas nazm xayoli?

## XXXVII

U tug'ilgan olam baxtiga,  
Yo, hech yo'qsa, shon-shuhrat uchun;  
Birdan tingan sozi, vaqt ila,  
So'nmas sadolarni bus-butun  
Asrlarga yetkazgay erdi.  
Yo shoirni o'tqazgay erdi  
Kibor elning oliy taxtiga.  
O'zi bilan fano bag'rige  
Eltdi, balki, jafokash u soz  
Eng muqaddas sirni. Oh, abas,  
Bizning uchun so'ndi endi, bas,  
Hayotbaxsh kuy, jonbaxsh bir ovoz;  
Etmas unga zamon nidosi,  
Avlodlarning dodi, duosi.

## XXXVIII. XXXIX

Yo ehtimol, shoirni nari  
Kutar edi oddiy bir qismat.  
Guvlab o‘tib yoshlik chog‘lari,  
Tug‘yonlari to‘nardi abad.  
O‘zgarardi balki barisi,  
Tark aylar-u ilhom parisin,  
Uylanardi, qishloqda xushvaqt  
Dayus bo‘lib, yashardi xushbaxt;  
Anglar asl hayotni g‘oyat,  
Qirq yoshda bod sog‘ligin buzar,  
Yer-ichar-u semirar, to‘zar,  
So‘ng to‘shakda yotib, nihoyat,  
Farzand, kampir, tabib va yoron  
Qurshovida uzar edi jon.

## XL

Ne bo‘lsa ham, o‘quvchim, endi,  
Oh, yoshgina oshiq, bag‘ri chok,  
Shoir, g‘amgin xayol farzandi  
Do‘st qo‘lida bo‘lmishdir halok!  
U hassos dil yashagan qishloq –  
Chap yog‘ida bordir bir ovloq,  
O‘smish bir juft qarag‘ay omon,  
Shundan qo‘shni vodiyilar tomon  
Sho‘xchan kumush jilg‘alar yelur.  
Unda qo‘shchi halovat izlar,  
To‘lqiniga o‘roqchi qizlar  
Jarang ko‘za urmoqqa kelur.  
Buloq boshi – ul soyada tik  
Qo‘yilgan tosh – oddiy yodgorlik.

## XLI

Tosh oldida (dalalarga zab  
Yomg'ir to'kib abri naysonlar),  
Cho'pon boshlar, chorig'in yamab,  
Baliqchilar haqda dostonlar;  
Yoz qishloqda o'tsin deb beg'am  
Kelgan yosh bir shaharlik qiz ham  
Ot qamchilab, yiroq-yiroqqa  
Dalalarda yelarkan yakka,  
Tizgin tortib shu joyda nogoh,  
Ko'zdan olib harir pardani,  
Qabrtoshdan sodda lavhani  
O'qir, yogurtirib tez nigoh  
Va tizilgay, berolmasdan dosh,  
Ko'zlarida marjon-marjon yosh.

## XLII

Qiz shoshilmas endi dalada.  
Xayollarga cho'mib kezadi;  
Beixtiyor yig'lar diliда  
Lenskiyning munglig' qismati.  
O'ylar: «Nadir Olganing holi?  
Ko'p vaqt qayg'u chekdimi dili,  
Yosh tindimi ko'zlarida yo?  
Opajoni qayda ekan, o?  
El va dunyo qochqini qayda –  
Satanglarning satang dushmani?  
U ziq telba, u xoin qani?  
Yosh shoirning qotili qayda?»  
Hammasidan hali bobma-bob  
O'zim sizga bergayman hisob.

### XLIII

Hozir emas. Garchi men, tayin,  
Qahramonim sevarman g'oyat,  
Garchi unga yuzlangum keyin,  
Faqat hozir yo'q menda toqat.  
Yillar quvar sho'x qofiyani,  
Beshafqat bir nasrga mani  
Yillar tortar, bo'laykim iqror,  
Xo'rsinib, men sudralgum nochor.  
Shavqsiz bukun ko'hna qalamim –  
Kuyib qog'oz qoralamas u;  
O'zgachadir, so'nikdir orzu,  
O'zgachadir zahmat-u g'amim,  
Suronday-u jimlikda ular  
Yuragimga solgay qutqular.

### XLIV

Oshno bo'ldi o'zga orzular,  
Yangi g'amlar bo'ldi hamdamim;  
Armonimdir eski qayg'ular,  
Taskin bermas bu yangi g'amim.  
Orzular! U beboshlik qani?  
Mangu uyqash u yoshlik qani?  
Nahot, bo'lib yillarga taslim,  
So'lgan bo'lsa mening gul faslim?  
Rostdanmi, ey, umrim bog'lari,  
(Sho'xlik qilib aytardim hali)  
Hayhot, hazin hazildan xoli  
Nahot, o'tdi bahor chog'lari?  
Nahot, endi qaytmagay bebosh?  
Nahot, quchar meni o'ttiz yosh?

## XLV

Bas, sarkashlik qilmayin ortiq,  
Ayon, yo'lim bo'libdir yarim.  
Vidolashay sen bilan ochiq,  
Kel-ey, uchqur yoshligim manim!  
Tashakkur, zavq-safolar uchun,  
Dardlar, aziz jafolar uchun,  
Suron, bo'ron, ham bazm-u surur –  
Jami tuhfang uchun tashakkur!  
Sen bois men yor-u do'st bilan  
Vahm-u g'avg'o, jimlikda omon  
Xo'b ayshimni surdim... bearmon;  
Basdir endi! Yorug' yuz bilan  
Yangi yo'lni aylab ibtido,  
O'tmishimga aytayin vido.

## XLVI

Kel, ortimga qarayin bir bor.  
Xayr endi, ey ovloq maskan,  
Senda ko'nglim o'ylari-yu zor –  
Ehtirosli kunlarim o'tgan,  
Sen, ey ma'sum ilhomim, hayhot,  
Mening mudroq qalbimni uyg'ot,  
Xayolimga to'lqinlar solgin,  
Bot-bot uchib kulbamga kelgin, –  
To tinmasin shoir yuragim,  
Tark etmasin to rahm-u shafqat,  
Kibor davra domida faqat  
Tosh qotmasin oxir yuragim;  
Ul girdobga, jon do'stlarim, man  
Sizning bilan birga cho'mganman.

## YETTINCHI FASL

*Moskov, Rusning suyukli qizi,  
Qaydan topay sening tengningi?*

Dmitriyev.

*Ona Moskvani sevmay bo'lurmi?*

Baratinskiy.

*Moskovga quvg'inlik! – Kibor elni ko'rmoqdir!  
Xo'sh, qayer yaxshi ekan? Biz bo'limgan yer.*

Griboyedov.

### I

Bermay bahor oftobiga tob  
Tegradagi tog'larning qori,  
Loyqalanib oqadir shitob  
Suvga to'lgan o'tloqlar sari.  
Kulimsirab uyg'onib xushvaqt,  
Qarshilar yil tongin tabiat;  
Ko'm-ko'k bo'lib porlar samovot.  
Shaffoflanib o'rmonlar ziyod,  
Kasb etadir yam-yashil bir rang.  
Dala bojin yig'moqqa ari  
Mum hujradan chiqar tashqari.  
Vodiylar ham yashnar rang-barang;  
Bo'kiradi podalar juda,  
Bulbul sayrar tun sukutida.

### II

Bahor, bahor! Fasli muhabbat!  
Mening uchun tashrifing g'amdir.  
Qalbimga-yu qonimga bu vaqt  
Bir hayajon – g'amlik hamdamdir!  
Yuzlarimga xushbo'y, safoli

Urilganda ko'klam shamoli,  
Men qishloqning jimligi aro  
Topurman zavq, halovat, orom!  
Yo yotmikin zavq-u halovat?  
Naki berur shodlik va hayot,  
Naki yashnar, nurlanur, hayhot,  
Mening o'lik ruhimga faqat  
Ziqqlik, charchoq baxsh etgayimi yo,  
Ko'ringaymi olam zim-ziyο?

### III

Kuzda xazon bo'lgan yaproqning  
Qaytganidan sevinmay, mahzun,  
Yo eslarmiz achchiq firoqni  
O'rmonlardan tinglab yangi un?  
Yoki qaytmas dunyo – yillarni,  
Xazon bo'lgan o'sha gullarni  
Yashnab turgan tabiat bilan  
Qiyoslarmiz xijolat bilan?  
Shoirona xayollar aro  
Yodga kelur, ehtimol, biror  
Boshqa bahor, ko'hna bir bahor,  
Olis diyor orzusi va yo  
Go'zal bir tun, mohtob jamoli  
Titroq solur yurakka xoli...

### IV

Payti keldi, tanti tanballar,  
Ey Epikurparast<sup>1</sup> donolar,  
Ey baxtiyor, loqayd ko'ngillar,  
Levshin<sup>2</sup> darsin olgan fidolar,  
Siz, qishloqi Priamlar<sup>3</sup>, hey,  
Siz, ta'sirchan hey, sanamlar, hey!  
Chorlar yana qishloqqa takror

<sup>1</sup> Epikur – qadim yunon faylasufi.

<sup>2</sup> A.S. Pushkin izohi: Levshin – xo'jalikka oid ko'pgina asarlar muallifi.

<sup>3</sup> Priam – qadim yunon asotirida Troya podshohi, buyuk oila boshlig'i.

Gul fasli-yu ish fasli – bahor;  
Bu – ilhomli kezishlar dami,  
Uyg‘otuvchi kechalar sozroq.  
Do‘stlar, shoshing dalaga tezroq!  
Og‘ir yukli karetadami  
Yo‘lmi, pochta arobasida  
Chiqing shahar darvozasidan.

## V

Iltifotlik o‘quvchim, yetar,  
Qishladingiz shodlanib siz-da,  
Qolsin endi shovqinzor shahar;  
Ul ajnabiy aravangizda  
Mening qaysar ilhomim bilan  
Nomsiz daryo bo‘yida, baland,  
Emanzori shovullab turgan  
Qishloq tomon ketaylik birdan.  
Tarki dunyo aylagan darvish –  
Oneginim u erda zabun,  
Munis, o‘ychan Tatyanamga tund  
Qo‘shni bo‘lib yashadi shu qish;  
Endi g‘oyib bo‘lmish daraksiz...  
Qolmish undan faqat hazin iz.

## VI

Tog‘lar yotur yarim doira,  
Yashil yaylov ichra bir jilg‘a  
Jo‘kazordan daryoga qarab  
Oqib yotur: tushaylik yo‘lga.  
Bulbul – bahor oshig‘i kuylar  
Unda tunlar; namatak gullar.  
Chashma sasi eshitilar, o,  
Bir juft qari qarag‘ay aro  
Ko‘ringaydir unda qabrtosh.  
Yo‘lovchini lavhi titratur:  
«Vladimir Lenskiy yotur,

U mardona halok bo'ldi yosh,  
Tarix falon: tug'ilish, vafot.  
Mozoringda, yosh shoir, tinch yot!»

## VII

Munglug' qabr boshida egik  
Qarag'ayning ma'yus shoxlari,  
Yellar sirli gulchambarni tek  
Tebratardi sahar chog'lari.  
Bir payt kelib ikki dugona  
Bu mazgilda yona va yona  
Bir-birini quchib nechalar,  
Yig'lar edi oydin kechalar.  
Endi esa... Yodgorlik – zabun,  
Unutil mish. Uzilmish qadam.  
Gulchambar yo'q ul shoxlarda ham;  
Faqt sochi oqargan, yupun  
Cho'pon qo'shiq aytib, notavon  
Chorig'inini yamaydi hamon.

## VIII. IX. X

O sho'rligim Lenskiy!.. Bo'zlab  
Qiz yig'ladi avval, benavo.  
Afsus! Lekin navrasta qizlar  
Azasiga bo'lur bevafo.  
Ha, boshqasi tortdi nigohin,  
Ha, boshqasi hasratin, ohin  
Yaldoqlanib, tinchitdi tamom.  
O'sha harbiy etar uni rom,  
O'sha harbiy qalbiga kirar...  
Mana endi mehrob qoshida  
Ikkalasi, gultoj boshida,  
Yerga qarab qimtinib turar,  
Ko'zlarida o't yonur shu zum.  
Lablarida jindak tabassum.

## XI

O sho'rligim Lenskiy!.. Yotib  
Endi so'qir fano qa'rida,  
Yo xiyonat xabari yetib  
Shoir notinch bo'lur qabrida?  
Yoki Leta daryosi uzra  
Hech narsadan ranjiman zarra,  
Behis, behush yotgaymi magar,  
Dunyo unga soqov, ko'r-u kar?..  
Xuddi shunday! Mudhish bir g'aflat  
Kutar bizni qabrda o'zi.  
Do'st-u dushman, sevgili sasi  
Birdan o'char. Tish qayrab faqat,  
Yer-mulk uchun vorislар tajang  
Boshlashadi hayosiz bir jang.

## XII

Ko'p o'tmasdan Larin uyida  
Olganing sho'x ovozi o'chdi.  
Harbiy kuyov, qismat quli-da,  
Qo'shin turgan tomonga ko'chdi.  
Xayrlashib qizi-la kampir  
Achchiq-achchiq yig'lab qoldi bir,  
Holi qurib, bo'ldi parvona;  
Yig'lolmadi ammo Tatyana;  
Rangi bo'zday oqardi faqat,  
Ma'yuslandi yutib sasini.  
Kelin-kuyov aravasini  
Hamma qurshab, chopib betoqat,  
Qolisharkan qizni uzatib,  
Tatyana ham chiqdi kuzatib.

### XIII

Go‘yo tuman ichinda, ana,  
Qarayotir ular izidan...  
Yolg‘iz qoldi Tatyana, mana!  
Hayhot! Qumri dugonasidan –  
Yillarining quvnoq yo‘ldoshi,  
O‘ynab o‘sgan aziz sirdoshi –  
Singlisidan taqdir beshafqat  
Go‘yo bukun ayirdi abad.  
U sharpadek kezar bemurod,  
Bo‘m-bo‘sh boqqa qaraydi hali...  
Hech narsadan topmas tasalli,  
Hasrat yoshi bo‘ladi ziyod,  
Dardlariga topmaydi chora,  
Qalbi bo‘lar pora-yu pora.

### XIV

Oh, yolg‘izlik yomondir, yomon,  
Qiz o‘rtanur badtar beomon,  
Uzoqlarda Onegin omon,  
Qalbi ortiq qo‘msaydi, vayron.  
Endi uni ko‘rmas hech qachon;  
Yosh shoirning qotili chunon  
Nafratini qo‘zg‘ar bu zamon;  
O‘lib ketdi shoir... benishon,  
Hech kim uni eslamas nolon.  
Qiz boshqaga bog‘ladi paymon.  
Bir tutundek, moviy bu osmon,  
Shoir yodin yutdi begumon.  
Balki unga ikki dil hamon  
Armon qilur?.. Nechun bu armon?..

## XV

Shom. Qorayar osmon. Jilg‘alar  
Jildiraydi. Chigirtka xushxon.  
Dalalarda tin mish yallalar;  
Burqsir daryo bo‘yida bu on  
Baliqchilar gulxani. Tanho  
Oyning kumush yog‘dusi aro  
Sof dalada xayollar surib,  
Ketaverdi Tatyana yurib.  
Kezib-kezib, ko‘rdi u bir chog‘  
Tepalikdan bir uy – shohona,  
Osti – qishloq, daraxtzor, ana,  
Oydin daryo sohilida – bog‘.  
Unga mahzun tikdi-yu nigoh,  
G‘uluv tushdi qalbiga nogoh.

## XVI

Ikkilanish shoshirar uni:  
«Yursammi yo ortga qaytsammi?...  
Bunda u yo‘q... Tanishmas meni...  
Uyni, bog‘ni ko‘rib o‘tsammi?...»  
Nafaslari qaytib Tatyana  
Tepalikdan tushadi, mana,  
Hayron tashlar atrofga nazar...  
Bo‘s hovliga kirar behazar.  
Itlar birdan yugurar hurib,  
Qo‘rqib, dodlab, qiz solar nola.  
Chopib kelib ikki-uch bola  
Shovqin solib, hayhaylab, urib,  
Kuchuklarni haydashib nogoh,  
Begoyimga bo‘lishar panoh.

## XVII

«Bek uyini mumkinmi ko‘rmoq?» –  
Der Tatyana. Va bolakaylar  
So‘rash uchun kalitni shu choq  
Anisyaga chopqillagaylar.  
Zumda kelar Anisya; mana,  
Ochiladi eshik, Tatyana  
Bo‘m-bo‘sh uyga kirar, bir zamon  
Turkish bunda bizning qahramon.  
Qiz qaraydi: xor bo‘lib, ana,  
Tayoq yotur bilyard ustida,  
G‘ijim bo‘lgan yumshoq kursida –  
Ot qamchisi. Yurar Tatyana.  
«Mana, kamin, – der kampir, – borho  
O‘ltirardi bunda bek tanho.

## XVIII

Tushlik qildi qish bo‘yi baham  
Marhum qo‘shni Lenskiy bunda...  
Qani, bu yon marhamat, bekam,  
Mana, bekning xonasi; shunda  
Yetar, qahva ichardi janob,  
Sarkoridan olardi hisob,  
Kitobgayam tonglar qarardi...  
Bobosiyam shunda turardi;  
Derazaning yonida bir payt  
Oynak taqib, yakshanbalarda  
Chol men bilan o‘ynardi qarta...  
Arvohiga rahm qil faqat,  
Ona yerning bag‘rida doim  
Suyaklarin tinch qo‘y, Xudoyim!»

## XIX

Uy ichida nimaki bordir,  
Ixlos bilan Tatyana boqar.  
Bari unga tuyular nodir,  
Ajib farah aralash yoqar  
Shikasta bu ko'nglini alam:  
Stolida qolmish so'nik sham,  
Kitoblari; ana, karavot,  
Gilam yopib qo'yilmish, hayhot;  
Oy nurlari – oynaga sizgan,  
Nimqorong'i kecha holati,  
Lord Bayronning mag'rur surati;  
Qo'llarini xoch qilib, qisgan,  
Kuloh kiyib ana, badqovoq,  
Turar yana cho'yan qo'g'irchoq<sup>1</sup>.

## XX

Hujrada tek, maftun, aftoda  
Turib qolar Tatyana uzoq.  
Lek qo'zg'olur sovuq shabboda.  
Qoramishdir vodiy. Uxlar bog'  
Tuman ichra daryo bo'yida:  
Oy berkinur tog'lar qo'ynida.  
Ha, zavvora qiz endi, beshak,  
Tezroq uyga ketmog'i kerak.  
Hayajonin yashirib faqat,  
Xo'rsinmayin oshkor, deb lokin,  
Qiz iziga qaytadi sokin.  
So'rab olar oldindan ruxsat  
Bu qasrga kelib turgani,  
Tanho kitob o'qib yurgani.

---

<sup>1</sup> Cho'yan qo'g'irchoq... – Napoleonning cho'yan haykalchasi.

## XXI

Bas, kalitdor bilan Tatyana  
Darvozada xayr-xo'sh qilar.  
Bir kun o'tib, tongda u yana  
Bu egasiz go'shaga kelar.  
Sokin, jimjit xona ichra qiz  
Va nihoyat, qolganda yolg'iz,  
Bor dunyoni unutib butkul,  
Yonib, sim-sim yig'layverar ul.  
Kitoblarga chalg'iysi oxir.  
Avval xohish bo'lmaydi bunga,  
Tanalash qiziq tuyulib unga,  
Beixtiyor so'ng tashna bag'ir  
Sho'ng'ib ketar kitobga ammo  
Va kashf etar o'zga bir dunyo.

## XXII

Biz bilamiz garchi, Onegin  
Kitoblardan bezgan va tolgan,  
Yo'q, bir nechta asar va lekin  
G'azabiga uchramay qolgan:  
Bamisoli «Gyaur», «Don Juan»<sup>1</sup>,  
Yana ikki-uchtami roman,  
Aks etmishdir ularda ayon  
Davr hamda zamondosh inson.  
Qalbi uning bu davvor ichra  
Pajmurda-yu beadab, xudbin,  
Xayollarga banda-yu badbin;  
Ko'p behuda kirdikor ichra  
Qaynab turgan aqli ham, axir,  
Ishonarli etilgan tasvir.

---

<sup>1</sup> *Gyaur, Juan kuychisi* – J.G. Bayron. «Gyaur», «Don Juan» dostonlari nazarda utilgan.

## XXIII

O'chmay qolmish ko'p betda, beshak,  
— Tirnoqlarning keskin izlari;  
Bu belgililar ustida sergak  
Yuguradi qizning ko'zлari.  
Dir-dir titrab Tatyana sezar –  
Qay fikr-u qay nuqtayi nazar  
Oneginni lol etmish butkul,  
Qay birin tek qabul etmish ul.  
Qiz uchratar hoshiyalarda  
Yozuvlarin qalamning gohi.  
Oneginning olami, ruhi  
O'zin oshkor etar alarda:  
Qisqa so'z-u chizgisida ham,  
Gohi so'roq belgisida ham.

## XXIV

Oh, Xudoga shukurkim, ayon  
Anglay boshlar Tatyana oxir –  
Taqdir hukmi bilan beomon  
O'rtaganin kim uchun bag'ir:  
Zuvalasi do'zaxmi, falak,  
Shaytonmi u, takabbur, malak,  
Qayg'uli u devona kimdir?  
Nahot, taqlid unga hokimdir?!

Birovlarning fe'l-qiyofasin  
Sharplash uchun lug'atin o'zga  
To'ldirganmi yangicha so'zga:  
Asli Chayld Harold libosin  
Kiyib yurgan moskovlikmi u?  
Oh, bir taqlid emasmikin bu?

## XXV

Nahot, endi yechildi jumboq?  
Nahot, u so‘z topildi ilkis?  
Fursat o‘tar, unutar mutlaq  
Uyda kutib qolishganin qiz.  
Ikki qo‘shni qo‘rada bu payt  
Tatyana dan qilishar suhbat.  
Kampir nochor zorlanar abas: –  
Netay, axir? Yosh bola emas,  
Bil’aks, o‘zi Olgadan katta.  
Tez uzatib, qutulib ketay.  
Vaqt etgan, bu qizni netay?  
Hammasinga javobi bitta:  
Tegmayman der. Qayg‘urar tinsiz.  
Tentiraydi o‘rmonda yolg‘iz.

## XXVI

«Balki xushtor bo‘lgandir?...» – Kimga?  
Sovchi qo‘ydi Buyanov – bekor!  
Petushkov ham yoqmadi unga.  
Gutsar Pixtin kelgandi bir bor,  
Tatyana mqa, yonib, devona,  
Shaytonday ko‘p bo‘ldi parvona!  
Umid qildim, ko‘nsa deb zora;  
Qayda? Yana buzildi ora. –  
«Eltaqolgin Moskovga, onam,  
Majlislar ham unda xo‘b emish,  
Qiz qidirgan joylar ko‘p emish». –  
– Oh, otam-a! Daromadim kam.  
«Qish o‘tgulik puling bo‘lsa, bas.  
Hech yo‘qsa, men berib turay qarz».

## XXVII

Oqilona, xolis maslahat –  
Kampir juda maqbul sanaydi;  
Hisob qilib ko‘rar, etar ahd –  
Moskvaga qishda jo‘naydi.  
Bo‘lar gapdan Tatyana ogoh.  
Bir qishloqda yurgan qizning, oh,  
Sodda, ochiq sifatlariga,  
Va eskicha ziynatlariga,  
Eskicha gap-so‘ziga biroq  
Ne der didli, nozik kiborlar?!  
Moskvalik po‘rim, dildorlar  
Istehzoli nigohin tortmoq!..  
Dahshat! Yo‘q, yo‘q! Eng yaxshisi ul  
Ovloqlarda qolgani maqbul.

## XXVIII

Oftob ila uyg‘onib sahar,  
Qiz dalaga yo‘l olar shitob.  
Mehr ila tashlar-u nazar  
Dil-dilidan aylaydi xitob:  
«Xayr, sokin vodiylar, bog‘lar,  
Xayr, tanish cho‘qqilar, tog‘lar,  
Ey qadrdon o‘rmonlar, xayr,  
Ey siz, go‘zal osmonlar, xayr.  
Alvido, ey quvnoq tabiat!  
Men yaltiroq suronlarga, bas,  
Etdim sokin dunyoni evaz...  
Erkinligim, alvido abad!  
Qayga, nechun bo‘lurmen ravon?  
Taqdir neni ko‘rarkin ravo?»

## XXIX

Ko'p kezadi qiz tikib nigoh,  
Goh tepalik, endi, goh buloq  
Jozibasi bilan banogoh  
Tatyana ni to'xtatur uzoq.  
Daraxtzor-u o'tloqlariga –  
Go'yo qadim o'rtoqlariga  
Tez yeladi bo'lgali hamroz...  
Lekin tezroq yelib o'tar yoz...  
Oltin kuzak kelibdir alhol.  
Zavolini sezib siynada  
Borliq yonur sarosimada...  
Bulutlarni quvlar-u Shimol,  
Uvlab, mana, guvillab, to'zib,  
Jodugar qish kelmoqda o'zi.

## XXX

Qish keldi-yu shoxlarga andoq  
Parcha-parcha osilib qoldi;  
Dasht-u dala, qirlarga oppoq –  
To'lqin-to'lqin gilamlar soldi.  
Momiq parda sohillarni deng  
Sokit daryo bilan qildi teng.  
Ayoz quvnar. Shodmiz baridan –  
Ona qishning sho'xliklaridan.  
Noshod erur Tatyana yolg'iz.  
Quvnab qishni qarshi ololmas,  
Izg'irinda yayrab qololmas,  
Birinchi qor suvlariga qiz  
Yuvmas ko'ksin, yelkasin, yuzin:  
Dahshat unga qish yo'li – uzun.

## XXXI

Safar ortga surildi bir oz,  
Yetib keldi so‘nggi muddat ham.  
Unutilgan aroba ham soz –  
Tuzatildi, bo‘ldi mustahkam,  
Uch soyabon aroba – karvon  
Lash-lush ortib bo‘lgaydir ravon:  
Qozon-tovoq, kursi-yu sandiq,  
Qiyom, tag‘in ko‘rpa-yu yostiq,  
Par to‘shaklar, qafasda —xo‘roz,  
Xurma-yu xum, tog‘ora misol  
Yana qancha ashqol-u dashqol.  
Xizmatkor xalq qo‘rada chuvvos  
Ko‘tarishar shovqin va dodni,  
Haydab chiqib o‘n sakkiz otni,

## XXXII

Arobaga barini qo‘shar,  
Pazandalar shaylaydi oshlar,  
Tog‘day yuklar ortib, koyishar  
Xotinlar-u arobakashlar.  
Oriq-tiriq otga bir zamon  
Minib olar sersoqol sarbon,  
Qarollar-u joriyalar bot  
Xo‘shlashgali chopar shu zahot.  
Eng mo‘tabar aroba, mana,  
Darbozadan chiqar, g‘izillar...  
«Alvido, ey sokin manzillar!  
Ko‘rgaymenmi men sizni yana?!

Xayr, ovloq maskanim!..» Bu choq  
Tatyananing ko‘zyoshi buloq.

### XXXIII

Pok ma'rifat sarhadin jadal  
Hali kengroq olsak tobora,  
Vaqti kelib, (falsafiy jadval<sup>1</sup>)  
Ayon etgan hisobga ko'ra,  
Besh yuz yildan keyin) bu shaksiz,  
Bizning yo'llar o'zgarur cheksiz:  
Rossiyani tosh yo'llar – katta,  
Birlashtirib turgay, albatta.  
Ulkan yoydek cho'yan ko'priklar  
Daryolardan tashlagay qadam,  
Tog'ni teshib, suv ostida ham  
Qurajakmiz yo'llar, muqarrar;  
Bu nosaro mamlakat yana  
Har bekatda ochur oshxona.

### XXXIV

Hozir yo'llar chatoqdir, mana,  
Chirimoqda ko'priklar abas.  
Bekatlarda burga-yu kana  
Ko'z yumgani qo'ymaydi bir pas.  
Oshxona yo'q. Qo'nimgoh sovuq,  
Dabdabali, va lekin quruq  
Turli taom ro'yxati ham bor,  
Karnay bo'lur ishtaha bekor.  
Afsonaviy pahlavon misol  
Temirchilar Rossiyaning zo'r  
Bolg'asida Ovruponing mo'rt  
Anjomlarin tuzatur, alhol  
Tag'in rahmat aytishar bu kun  
Yurtning g'o'dir yo'llari uchun.

---

<sup>1</sup> *Falsafiy jadval* – B.V. Tomoshevskiyning yozishicha, farang statistik olimi Sharl Dyupenning «Fransiyaning ishlab chiqarish va savdo kuchlari» kitobini Pushkin nazarda tutgan. Kitobda Yevropa davlatlarining, jumladan, Rossiyaning ham iqtisodini ko'rsatuvchi qiyosiy statistik jadval berilgan..

## XXXV

Qishning sovuq kunlarida lek  
Safar qilmoq ma'qul va oson.  
Qo'shiq bo'lgan bema'ni she'rdek  
Qish yo'li ham silliq va ravon.  
Epchil bizning har Avtomedon<sup>1</sup>,  
Uchotlar<sup>2</sup> ham juda uchag'on,  
Masofalar, quvnatib o'zga,  
Devor kabi chalinar ko'zga<sup>3</sup>.  
Ammo qo'rqib yo'l xarjlaridan,  
Ketmay pochta arobasida,  
Larina o'z arobasida  
Sudralar va yo'l ranjlaridan  
Rohatlanar Tatyana butun:  
Yo'l bosishar etti kun va tun!

## XXXVI

Manzil yaqin. Ko'ringay baland  
Moskvaning marmar devori,  
Cho'g'dek, oltin xochlari bilan  
Porlar qadim gumbaz, minori.  
Oh do'stlarim! Bog'-u koshona,  
Ko'shk-u saroy, qo'ng'iroqxona  
Ko'z oldimda paydo bo'lgan chog'  
Men shod edim, shod edim ne chog'!  
Men firoqin chekib dunyoning,  
Daydi qismat ichra ham bot-bot  
Moskov, seni o'yladim, hayhot!

<sup>1</sup> *Avtomedon* – Homerning «Iliada» dostonidagi Axillisning aravakashi. Bu yerda kinoya qilinmoqda.

<sup>2</sup> *Uchot*—«troyka»ni, ya'ni uch otdan iborat bo'lgan aravani shunday deb olishni lozim topdik.

<sup>3</sup> A.S. Pushkin izohi: Bu qiyos o'ynoqi tasavvuri bilan mashhur bo'lgan K...ning naql qilishicha, u bir daf'a knyaz Potomnik tomonidan xoqon xotinga chopar qilib yuborilganida shunday tez yelganki, aravadan osilib qolgan qilichi har chaqirim masofadagi ustunlarga shaqildoq bo'lib urilavergan.

Moskov... Qancha shu bir sadoning  
Rus qalbiga navolari bor!  
Ne-ne aks sadolari bor!

### XXXVII

Huv emanzor qo‘ynida turur  
Pyotr qasri. Oshib u haddan,  
Yaqindagi shuhratga mag‘rur<sup>1</sup>.  
Kibrlanib so‘nggi omaddan,  
Napoleon kutdi behuda  
Tiz cho‘kar deb Moskov qayg‘uda,  
Topshirgay deb o‘zлari qadim  
Kremlning kalitini jim.  
Bosh egmadi Moskvam aslo.  
To‘ylar emas, in’omlar emas,  
U besabr bosqinchiga, bas,  
Etib qo‘ydi yong‘in muhayyo<sup>2</sup>.  
O‘yga cho‘mib jahongir shu on,  
Dahshat o‘tga boqardi hayron.

### XXXVIII

So‘ngan shon-u shuhrat shohidi,  
Ey Pyotr saroyi, xush qol!  
Darbozaning oqarib endi  
Ustunlari ko‘ringay. Xushhol,  
O‘ydim-chuqur Tver yo‘lidan  
Mana, yelar izvosh; yonidan  
Lip-lip o‘tar qorovulkxona,  
Kampir, bola, fonus va chana,  
Saroy, bog‘lar, cherkov va yerlar,  
Buxoriylar<sup>3</sup>, kazak va dehqon,  
Minora-yu, modali do‘kon,

<sup>1</sup> Napoleon avval Pyotr qal‘asiga joylashgan. «Kechagi shuhratga mag‘rur» deb shunga ishora qilinmoqda.

<sup>2</sup> 1812-yilgi Moskva yong‘ini nazarda tutiladi.

<sup>3</sup> Buxoriylar – Moskvada O‘rta Osiyolik savdogarlarni buxoriylar (buxoroliklar) deb atashgan.

Darvozada – g‘aroyib sherlar,  
Dorixona, bog‘-u bog‘chalar,  
Xochlar uzra gala zog‘chalar...

### XXXIX. XL

Shunday dilgir sayrda yana  
O‘tib ketar bir-ikki soat.  
Xaritonya qoshida, mana,  
Top yo‘ldagi bir uyda faqat  
To‘xtar endi arava. To‘rt yil  
Kampir amma bo‘lib bunda sil,  
Yashar edi. Qo‘ndilar alhol.  
Darbozani lang ochadi chol –  
Juldur chakmon kiygan bir qalmoq,  
Qo‘lda – paypoq, ko‘zida – oynak.  
Ichkarida qiyqirib andak,  
Qarshi olar begoyim shu choq.  
Ko‘rishadi yig‘lab kampirlar,  
Sochiladi xitoblar, sirlar.

### XLI

– Oh begoyim, farishtam! O‘lay.  
«Pashaginam!» – Alinajonim! –  
«Qancha suvlar oqdi-ya, bo‘la!  
Qaysi shamol uchirdi, jonim?  
Xudo haqqi, romanning o‘zi...»  
– Mana, mening Tatyana qizim. –  
«Oh, Tanyajon! Kel, qani bu yon –  
Xuddi tushga o‘xshar... Bo‘lajon,  
Esingdami huv Grandison?»  
– Qaysi, qaysi? Ha! Grandison!  
Esimda. U qayda! – «Simeon –  
Ko‘chasida, Moskovda, omon.  
Arafa kun yo‘qlovdni meni;  
Uylantirdi tunov o‘g‘lini.

## XLII

Anovi... Qo'y, aytamiz keyin,  
To'g'rimi? Biz Tatyana ni bor  
Qarindoshga eltamiz, tayin.  
Eh, yurishga yo'q menda mador;  
Zo'rg'a zo'rg'a sudrayman oyoq.  
Charchagansiz siz yo'lida biroq,  
Dam olamiz birga, yuringlar...  
Oh, zaifman. Ko'ksim xirillar...  
Endi menga faqat g'am emas,  
Bas, og'irlik qilar shodlik ham...  
Qariganda hayot to'la g'am...  
Hech narsaga yaramasman, bas...»  
Kampir shunda butunlay tolar,  
Ko'zyosh qilar, quv-quv yo'talar.

## XLIII

Bemorning bor quvonch, e'zozi  
Ta'sir etar Tatyana misga.  
Lekin yoqmas bu yer havosi  
O'z uyiga ko'nikkan qizga.  
Pardalari garchi ipaklar,  
Uyqu bermas yangi to'shaklar.  
Ish kunining yangi nidosi –  
Qo'ng'iroqning tonggi sadosi  
Tatyana ni uyg'otur erta.  
Derazaga qarab o'ltirar,  
Zulmat ketar, qiz-chi, mo'ltirar,  
Dalalarin ko'rmas bu yerda:  
Ko'z oldida o'zga bir diyor,  
Otxona-yu oshxona, devor.

## XLIV

Mana, har kun xeshlar uyiga  
Eltishadi Tatyaganamizni.  
Ko'rsatishar bobo, buviga  
Bu tolg'in, bu parishon qizni.  
Olisdagi qarindoshga soz  
Hamma joyda iltifot, e'zoz,  
Manzarat-u xitob, tuz va non.  
«Nechog' o'smish Tanya! Bir zamon  
Seni cho'qintirmabmidim men?  
Men ko'tarib yuruvdim bundoq!  
Men qulog'in burovdim mundoq!  
Shirin kulcha bergen edim men!»  
Buvilar jo'r, ta'kidlashar: «O:  
Yelday o'tar umr – bevafo!»

## XLV

O'zgarish yo'q ularda ammo,  
Turishlari eskicha tamom:  
Mana, o'sha Yelena amma –  
Boshlarida to'r qalpoq hamon;  
Upa surar hanuz Lvovna,  
Hanuz lofchi Lyubov Petrovna,  
Hamon laqma Ivan Petrovich,  
Hamon ziqna Semyon Petrovich,  
Pelageya Nikolayevna  
Do'sti hanuz janob Finmushdir,  
Hanuz o'sha kuchuk, o'sha er –  
A'zo o'sha klubga<sup>1</sup> yana,  
Hamon o'sha yuvosh, o'sha kar,  
Ikki kishi haqin yer, ichar.

<sup>1</sup> Klub – 1770-yili Moskvada tashkil topgan imtiyozli yopiq muassasaning ingliz klubi. Unga xolis boy-dvoryanlar a'zo bo'lishgan.

## XLVI

Tatyana ni quchar qizlari.  
Moskovning yosh nozaninlari  
Avval bir-bir tikar ko'zlarin  
Boshdan oyoq Tatyana sari.  
Bormish unda g'aroyib ma'no,  
Qishloqilik, latofat, hayo,  
Ozg'inlig-u jinday zahillik,  
Lek anoyi emas, aqllik;  
Tabiatga mos holda keyin  
Do'stlashishar, uyg'a qistashar,  
O'pishar-u qo'lin qisishar,  
Na'malarga moslashar sochin.  
So'ng ishonib aytishar barin  
Ko'ngil siri – qizlik sirlarin.

## XLVII

Qolmas turli zafar, omadlar,  
To'xtar sho'xlik, orzu-o'y, baxtga.  
Rang beradi nozik tuhmatlar  
Bokira-yu (Beg'ubor-u) ma'sum suhbatga.  
So'ng sayrashlar evaziga jam  
Tatyana ning ko'ngil sirin ham  
So'rashadi qizlar muloyim.  
Tush ko'rgandek Tatyana oyim  
Ular so'zin tinglar shuursiz,  
Anglamaydi zinhor birini  
Va o'zining qutlug' sirini –  
Ko'zyosh-u baxt dunyosini qiz  
Jim qalbida asrar, ochilmas,  
Bir mahrami asror topilmas.

## XLVIII

Suhbat, yalpi suhbatni sokin  
Tatyana<sup>ga</sup> tinglamoq maqbul.  
Mehmonxona ahli va lekin  
Puch, poyma-poy gaplarga mashg<sup>‘</sup>ul.  
Hamma narsa befayz-u berang,  
Bo<sup>‘</sup>htonlari etar dilni tang.  
Ezmalig-u mish-mish, g<sup>‘</sup>iybatda,  
Quruq og<sup>‘</sup> och kabi suhbatda  
Ko<sup>‘</sup>rinmas hech fikr kurtagi –  
Yo tasodif, ataydan yoki.  
Tolg<sup>‘</sup>in aql kulmas, hattoki,  
Qilt etmaydi yurak jo<sup>‘</sup>rtaga.  
Quruq kibor olam bu – nam yo<sup>‘</sup>q,  
Kulgiga mos telbalik ham yo<sup>‘</sup>q.

## XLIX

Bir to<sup>‘</sup>p arxiv yigitlari<sup>1</sup> ham  
Tatyana<sup>ga</sup> kibrli qarar.  
Qiz haqida o<sup>‘</sup>zaro bu dam  
Ivir-shivir, noxush gap borar.  
Qaysidir bir miskin hazilkash  
Illohiy qiz der uni yakkash  
Va eshikka suyanib shu on  
Unga g<sup>‘</sup>amgin she<sup>‘</sup>r bitar nolon.  
Vzyazemskiy nogahon uchrab  
Diltang xola uyida bir kez,  
Qiz qalbiga yo<sup>‘</sup>l topadi tez.  
Surishtirib Tatyana<sup>ni</sup> zab,  
Paragini tuzatib alhol  
O<sup>‘</sup>ltirardi narida bir chol<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Arxiv yigitlari – Moskvadagi adabiy to<sup>‘</sup>garakning Tashqi ishlar ministrligida ishlayotgan a<sup>‘</sup>zolariga shunday laqab berilgan.

<sup>2</sup> O<sup>‘</sup>ltirardi narida bir chol... – Pushkining do<sup>‘</sup>sti, shoir Vyazemskiyning yozishicha, bunda I.I. Dmitriyev nazarda tutilgan bo<sup>‘</sup>lishi ehtimol.

## L

Yo‘q, silkinib zarrin libosi  
Hissiz, sovuq olomon aro,  
Melpomena<sup>1</sup> dodi, nidosi  
Uchar ekan, bu jahon aro,  
Olqishlarni payqamay lokin  
Mudrar ekan Taliya<sup>2</sup> sokin,  
Tanho Terpsixoraga maftun  
Boqar ekan yosh tomoshabin,  
(Bo‘lgan kabi ul o‘tgan zamon –  
Sizning, mening yoshlik chog‘imiz),  
Kursilar-u lojadan hargiz  
Qizga qiyo boqmagay hayron  
Durbin tutgan badrashk xonimlar,  
Zamonaviy bilgich olimlar.

## LI

Tirband, jo‘shqin, tug‘yon-to‘lqinli,  
Majlisga ham qizni eltishar<sup>3</sup>.  
Kuylar – jarang, shamlar – yolqinli,  
Juftlar gir-gir raqsga tushar.  
Go‘zallarning harir libosi  
Va rang-barang jo‘rning ovozi,  
Qizlarning keng davrsasi ham, oh,  
Bor tuyg‘uni mahv etar nogoh.  
Bunda mashhur oliftalar ham  
Surbetligin, nimchasin, loqayd  
Durbinini ko‘rsatar bu payt.  
Va bekorchi gusarlar xurram  
Bu yon shoshar shuhrat quchmoqqa,  
Maftun etib, porlab, uchmoqqa.

<sup>1</sup> *Melpomena* – Qadimgi yunon asotirida go‘yo fojia va teatr ilohasi.

<sup>2</sup> *Taliya* – Qadim yunon asotirida mazhaka va teatr ilohasi.

<sup>3</sup> Moskvada, Katta Dmitrovkada joylashgan dvoryanlarning Oliy himmat mashvarati ko‘zda tutilgan. Unda bazm va spektakllar ham o‘tkazilgan.

## LII

Ko'pdır tunning porloq yulduzi,  
Moskvaning go'zali ko'pdır.  
Sayyoralar ichra lek o'zi  
Ko'kdagi oy baridan xo'bdir.  
Ammo sozim qalbini pora  
Eta bilmas bitta sayyora  
Xuddi to'lin oy kabi tanho  
Porlar qiz-u juvonlar aro.  
Asli zamin mulkidir o'zi  
Samoviy bir g'ururi ila!  
Ko'ksi nechog' mehrga to'la!  
Nechog' g'amgin u shahlo ko'zi!..  
Yetar, bas qil, top endi iloj,  
Jununga ko'p to'lading xiroj.

## LIII

Qahqaha-yu shovqin-u ta'zim,  
Turfa kuy va turfa xil o'yin...  
Ikki xola o'rtasida jim  
Biror odam payqamay, tayin,  
Tatyanamiz tashlar-u nazar,  
Kibor zavqdan aylaydi hazar;  
Bo'g'iladi bunda... O'ylari  
Olib ketar dalalar sari;  
Qishloq, faqir dehqonlar faqat,  
O'sha ovloq maskani, o'sha  
Oydin buloq taralgan go'sha,  
Kitoblar-u gullari, bir payt  
O'sha kelgan tiyra xiyobon  
Xayolida jonlanur hamon.

## LIV

Fikri shundoq kezar uzoqda,  
Unut bo'lgan bu bazm-u dunyo.  
Ko'z uzmaydi qizdan bu chog'da  
Bir general – ulug'vor, sipo.  
Ko'zi bilan imlab xolalar  
Tatyana ni turtib qolarlar,  
Shivir laydi ikkovlon kez:  
Chap tomonga qarasang-chi tez. –  
«Chap tomonga? Qani? Nima bor?»  
Ne bo'lsa ham, tez qaray qol-da!  
Huv to'dada, ko'rdingmi, oldda,  
Tag'in ikki mundirli qator...  
Ana, yurdi... Qayrildi asta.—  
«General mi, anov barvasta?»

## LV

Bunda aziz Tatyana mnii biz  
Zafar bilan qutlagaymiz shod.  
O'zga tomon yo'l ni burgaymiz,  
Tavsiflanar endi boshqa zot...  
Ikki og'iz so'z bunda joiz:  
Yosh do'stimni kuylarman, xolis,  
Bayon etib xislatin, so'zin.  
O, sen, ilhom parisi, o'zing  
Mehnatimni olqa, bo'l hamdam!  
Bergil menga ishonchli aso,  
Adashmayin, uloqmayin to.  
Yetar. Tashlay yukni yelkamdan!  
Qadim urchga bosh egdim takror:  
Kech bo'lsa-da, muqaddima bor.

## SAKKIZINCHI FASL

*Alvido, yor, agar shu balo  
Qismatda bor bo 'lsa, alvido!"  
Bayron.*

### I

Bir payt Litsey bog'lari aro  
Men barq urib gullaganda tinch,  
Apuleyni<sup>2</sup> xushlardim, ammo  
Sitseronni<sup>3</sup> o'qimasdim hech;  
U kun sirli vodiy qo'ynida,  
Sokin, shaffof suvlar bo'yida  
Yangraganda oqqushlar sasi,  
Yuz ko'rsatdi ilhom parisi.  
— Talabalik hujram nogahon  
Nurga to'ldi: pari-la kirdik,  
Yoshlik o'ylar bazmini qurdik,  
Bolalikni kuyladik shodon,  
O'tmishning shon, kamolini ham,  
Dilning titroq xayolini ham.

---

<sup>1</sup> *Alvido, yor!..* — Epigraf J.G. Bayronning «Vido» she'ridan. She'rni bir paytlar Hamid Olimjon o'zbekchaga o'girgan. Epigrafni o'sha tarjimadan olishni lozim ko'rdik. Inglizcha matnning so'zma-so'z tarjimasi quyidagicha bo'ladi:

Alvido, manguga bo'lsa ham agar,  
Mayliga, manguga endi alvido!

Brodskiy bu epigrafni uch ma'noda tushunish mumkin, deb sharhlaydi: Tatyana Oneginga so'nggi vidosini aytadi; Onegin ham u bilan nochor xo'shlashadi; keyin muallif — Pushkin Onegin bilan ham, Tatyana bilan ham xayr-ma'zur qiladi... Brodskiyning kitobiga taqriz yozgan A. Ivanov epigrafning ma'nosi faqat bitta: manguga xayrashuv muallifga taalluqdor, deb ta'kidlagan.

<sup>2</sup> *Apuley* — eramizdan avvalgi (125-yillar atrofida tug'ilgan) Rim yozuvchisi. «Oltin eshak» asari mashhur bo'lib, Pushkin uni farang tilida o'qigan.

<sup>3</sup> *Sitseron* — mashhur Rim notig'i, yozuvchisi va siyosiy arbobi.

## II

Kibor muhit shod qarshi oldi;  
Noil bo‘ldik omad, barorga;  
Chol Derjavin<sup>1</sup> nazar ham qildi,  
Oq yo‘l tilab, ketdi mozorga.

.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....

## III

Parining zavq-ehtirosin ham  
Men qonun deb bildim o‘zimga;  
Tuyg‘ularni el bilan baham  
Ko‘rib, bahs-u suron, bazmga  
Va nozirlar tahdidiga man  
Bordim shaddod malikam bilan.  
So‘ng telbavor bazmda bari  
In’omlarin sochdi ul pari,  
May va ishrat malikasiday  
Jom ortida qildi jilva-noz,  
U kunlarning yoshlari gurros  
Ergashardi ortidan tinmay.  
Men havoyi yor bilan shunda  
Faxr etardim do‘sstar ichinda.

---

<sup>1</sup> *Gavrila Derjavin* — mashhur shoir, Belinskiy uni «Rus shoirlarining otasi» deb ta’riflagan. 1815-yili Litseydagi imtihon davrida Pushkin Derjavin huzurida «Sarskoye Selo xotiraları» she’rini o‘qib, uning nazariga tushadi. Keksa Derjavin ta’sirlanib, shoirga e’tibor qiladi.

## IV

Ittifoqin<sup>1</sup> do'stlarning ammo  
Tashlab, yiroq qochdim bag'oyat...  
Dilbar ilhom parisi hamon  
So'y lab menga sirli rivoyat,  
Soqov yo'lida baxsh etdi safo!  
Necha Kavkaz tog'lari aro  
Oy nurida misli Lenora<sup>2</sup>  
U men bilan yeldi suvora!  
Tavridaning sohillarida  
Birga dengiz guldurosini,  
Suv parisin mayin rozini  
Tingladik tun – zulmat bag'rida;  
Ham dolg'alar mangu ovozin,  
Ham Yaratgan hamd-u sanosin.

## V

Bazm-u dovruq suronlarida  
Olis poytaxt unutilib deng,  
Munglug' Moldav yobonlarida  
U ko'chmanchi qabilalarning  
G'arib chodirin etdi ziyorat  
Va badaviy bo'lib bag'oyat,  
Unutdi so'ng ilohiy nutqin,  
Ajib tillar ayladi tutqun,  
Asir etti sahro kuylari...  
So'ng o'zgardi olam banogoh,  
Bir qishloqlik qiz bo'lib nogoh  
Paydo bo'ldi bog'imda pari,  
Ko'zlarida mungli o'y, itob,  
Qo'llarida farangcha kitob.

<sup>1</sup> «Ittifoq» bu yerda ikki ma'noda: ham do'stlar, ulfatlar ittifoqi, ham siyosiy jamiyat hisoblan mish «Muruvvat» ittifoqi ma'nosida.

<sup>2</sup> Byurgerning «Lenora» balladasiga ishora.

## VI

Endi kibor yig'inga ilk bor  
Ul parini olib borarman.  
Men sahroyi husniga takror  
Hadikli rashk ila qararman.  
U, zodagon, harbiy po'rimlar,  
Diplomat-u mag'rur xonimlar  
Zich saflari aro sirg'alar;  
So'ng o'lirar ohista, qarar,  
Boqar endi g'ovurga xushhol,  
Yiltillaydi ko'zlar, ko'yaklar,  
Xonimlarni qurshar erkaklar –  
Qora, surat chorcho'pi misol.  
Yosh begoyim tomon ohista  
Ul mehmonlar kelar – orasta.

## VII

Unga yoqar oliv izdihom,  
Mumtoz suhbat batartibligi,  
Sokin g'urur sovuqligi ham,  
Mansab va yosh xilma-xilligi.  
Lekin kibor to'dasida jim  
Tund va majhul anov kimsa kim?  
U hammaga begona go'yo;  
Nazarida odamlar – ro'yo,  
Yo dilozor sharpalar misol.  
Yuzlarida g'ashlikmi, nadir,  
Dardmi, kibr? Nечун bundadir?  
Kim bo'ldi bu? Yevgeniy? Ne hol?  
Nahot o'sha!.. Xuddi o'zi, oh,  
– Ko'pdanmi u bizlarga hamroh?

## VIII

U o'shami, quyulmishmi yo?  
Yoki hamon yurar telbavash?  
Qaytmish nechuk qiyofada, o,  
Bizga kimni qilarkin peshkash?  
Endi kim u? Melmotmi magar?  
Kosmopolit yo vatanparvar?  
Haroldmi u, dindormi, osiy,  
Yo o'zgadir niqob, libosi?  
Mendak, sizdak, jahon ahlidak  
Oddiy, sodda inson balki u?!  
Ne bo'lsa ham, maslahatim shu –  
Eski urfdan voz kechmoq kerak.  
Muhitni ko'p gangitdi u zot...  
– Tanishmi u? – Ham tanish, ham yot<sup>1</sup>.

## IX

Siz bu yigit haqinda chunon  
Noxush javob aytasiz nechun?  
Har narsaga biz kuydirib jon,  
Hukm o'qiymiz – balki, shuning-chun?  
Ehtiyotsiz o'tlig' yurakdan  
Xudbin, tuban zotlar yuksakdan  
Tahqir-la yo bepisand kulgay?  
Aql kenglik istab siqilgay?  
Balki, ortiq gap-so'zni shodon  
Biz haqiqat sanaymiz, tayin?  
Yo ahmoqlik yovuz, betayin?  
Kiborlarga loyiqdir yolg'on?  
Bizga, balki, yarashgay mutlaq  
Mo'tadil va samimiy bo'lmoq?

<sup>1</sup> So'nggi baytdagi ba'zi so'z va juft qofiya ustoz Oybek tarjimasidan olindi.

## X

O‘z vaqtida ulg‘aygan baxtli,  
Yoshlikda yosh bo‘lgan baxtlidir.  
Chidab hayot zahriga asli,  
Sobit bardosh bo‘lgan baxtlidir;  
Baxtli – qo‘rqinch tushdan yiroq kas,  
Kimki kibor avomdan qochmas,  
Yigirmada –epchil, olifta,  
O‘ttiz yoshda uylansa puxta;  
Ellik yoshda qutulgan baxtli  
Shaxsiy burch-u turli qarzdan ham;  
Shuhrat, mansab, pulga xotirjam –  
Asta-sekin erishgan baxtli;  
Butun asr aytsaki olam:  
Falonchi ko‘p ajoyib odam!

## XI

Qayg‘ulidir o‘ylamoq ammo:  
Yoshlik bizga berildi bekor,  
Biz-ku unga qilmadik vafo,  
U ham bizni aldadi ko‘p bor.  
Go‘zal tilak-tuyg‘ularimiz,  
Eng bokira ozrularimiz  
Bir-bir uchib, yitdi zamonlar,  
Chirigandek kuzda xazonlar...  
Faqat birday to‘kin dasturxon,  
Marosimday tuyulsa hayot,  
Martabador olomonga bot  
Ergashsang-u, fikr-u o‘y, gumon,  
Hislaringni ko‘rmasang baham,  
Bu yomondir, bu – yomon, bu – g‘am.

## XII

Ko‘p nufuzli odamlar aro  
Gap-so‘zlarga vaj bo‘lib mudom,  
(Xo‘p deng), juda xunukdir ammo  
Soxta tentak deb chiqarmoq nom.  
Yoki g‘amgin devona bo‘lib,  
Yoxud mening demonim bo‘lib –  
Iblis bo‘lib tanilgan yomon.  
Onegin (men eslayin bu on),  
Otishmada do‘stni o‘ldirib,  
To yigirma oltigacha zab  
Bemurod-u bemehnat yashab,  
Bekorchilik behad toldirib,  
Bexizmat-u bo‘ydoq, betayin,  
Biron ishga egmadi bo‘yin.

## XIII

Bir notinchlik chulg‘ab siyratin,  
Istak bo‘ldi joyni o‘zgartmoq.  
(Ayrimlarning mudhish odati –  
Dunyoni tark aylamoq – ketmoq).  
U tark etdi qishloqlarini,  
Dasht-u o‘rmon, ovloqlarini,  
Chunki bunda qonli bir arvoh  
Ta’qib etar har kuni, e voh.  
So‘ng bir tuyg‘u singib qoniga,  
U bemaqsad kezaverdi tek.  
Dunyodagi hamma narsadek  
Safarlar ham tegdi joniga;  
Chatskiydek<sup>1</sup>, qaytgach shaharga,  
Tushdi to‘g‘ri kemadan balga.

---

<sup>1</sup> Chatskiy – Griboyedovning mashhur «Aqlilik balosi» qahramoni: u xorijda kezib, Moskvaga qaytishi bilan bal ustidan chiqadi.

## XIV

Chayqaladi yig'in nogohon,  
Shivir-shivir so'z borar bu gal...  
Beka sari kelar bir juvon,  
Orqasidan – mag'rur general.  
Ha, bu ayol – sokin, viqorli,  
Istarali, kamgap, iboli.  
Boqishlari emas hayosiz,  
Zafarlarga butkul da'vosiz,  
Yo'qdir soxta noz-u jilvasi,  
Yo'q taqlidiy biron ifoda...  
Butun fe'li sokin va sodda,  
Nazokatning<sup>1</sup> sof namunasi...  
(Kel, ey Shishkov<sup>2</sup>, gunohimdan kech,  
Tarjimasin topolmadim hech.)

## XV

Kelur unga xonimlar yaqin,  
Kampirsholar qilar tabassum,  
Tutmoq bo'lib uning nigohin  
Erlar quyuq aylashar ta'zim;  
Qizlar uning qoshida bir oz  
Ohistaroq yurar; yana g'oz  
Qomatini tik tutar o'shal  
Xonim bilan kirgan general.  
G'oyat go'zal demaslar ani,  
Jism-u joni, olami biroq  
Ul mustabid na'madan yiroq,  
Ki o'shal urf, o'shal na'mani  
Londondagi yuksak doira  
Vulgar<sup>3</sup> deydi. (Iloj yo'q sira...

---

<sup>1</sup> Asl nusxada: *Di comme il fait (faransuzcha)* – odob va nazokat.

<sup>2</sup> A.S. Shishkov (1754–1841) – adib, admiral, Rossiya Akademiyasining prezidenti bo'lgan. Ajnabiylar so'zlarning kirishiga qarshi turgan.

<sup>3</sup> Vulgar (inglizcha) – beadab, siyqa.

## XVI

Men bu so'zni sevarman behad,  
Tarjimasin etolmam qoyil;  
Hozircha bu yangi-yu, faqat  
Bo'lgaymikin sharafga noil?!  
Yarar hajviy she'rga yo bu so'z.)  
Men xonimga buray yana yuz.  
U marg'ub bir go'zallikka kon,  
O'lтирardi bonu yonma-yon  
Ul Nevaning Kleopatrası –  
Nina Voronskaya birlan;  
Siz ham ma'qul derdingiz birdan –  
Ninaning ham oppoq chehrasi  
Garchand ko'zni olsa-da g'oyat,  
Ul bonuga sololmas soya.

## XVII

«Nahotki, deb o'ylar Onegin, –  
Nahot o'sha? Xuddi o'zi... Yo'q...  
Olis qishloq bag'ridan lekin  
Qandoq keldi?...». Yigit ko'zi lo'q –  
Qo'sh oynak boqar dam-badam.  
Yodga solar siymosi shu dam  
Unutilgan bir qizni, elas.  
«Bilurmisan, ayt menga, knyaz,  
Movut bo'rkli anov xonim kim –  
Turur ispan elchisi birlan?»  
Oneginga qarar u birdan. –  
Ha, sen ko'pdan yo'q eding, do'stim.  
To'xta, senga tanitay bu dam. –  
«Kim u, axir?» – Mening rafiqam. –

## XVIII

«Uylandim de! Bilmabman oldin!  
Qancha bo‘ldi?» – Qariyb ikki yil. –  
«Kim?» – Larina. – «Tatyana degin?»  
– Taniysanmi? – «Qo‘schnisiman, bil».  
– O, yo‘qsa, yur. – Knyaz qo‘zg‘olib,  
Qarindoshi, do‘smini olib,  
Rafiqasi tomon boshlaydi.  
Begoyim bir nigoh tashlaydi...  
Yuragiga tushsa ham g‘uluv,  
Qolsa hamki zo‘r hayrat ichra,  
Hayajon-u xijolat ichra,  
O‘zgarmaydi zarracha suluв:  
O‘sha raftor, fe'l unda hokim,  
O‘sha-o‘sha – salomi sokin.

## XIX

Xudo haqqi, nainki titrab  
Qizarmadi, rangi o‘chmadi,  
Juvon hatto tishlamadi lab,  
Qosh chimirib, hayrat sochmadi.  
Tikilsa ham berilib, yohu,  
Yo‘q, avvalgi Tatyanadan u  
Topolmadi biron nishona.  
So‘zlashmoqni istadi, yana  
Eplolmadi. So‘radi juvon  
Kelganini qaydan, qachondan,  
Balki, dedi, yurtim tomondan?..  
Yerga horg‘in nigoh tashlabon  
Ayol asta bo‘ldi so‘ng g‘oyib...  
Bu tosh qotib qoldi mung‘ayib.

## XX

Nahotki, bu o'sha Tatyana?..  
Dostonimiz ibtidosida  
Olis, jimjit makonda, ya'ni  
O'sha xilvat bog' orasida  
Xush xulqini ko'rguzib yigit,  
Bergan edi unga pand-o'git.  
Hanuz asrar qizning maktubin,  
Unda ko'ngul aytur matlubin,  
Rozi – ravon, erkin va ravshan.  
Oh, bu o'sha qizmi, tushmi yo?..  
Bu sargardon umrida, oyo,  
Qilganmidi dardini pisand?!

Nahot, unga nisbatan shu dam  
Ayol shuncha beparvo, o'ktam?

## XXI

Kechar tig'iz yig'indan alhol,  
O'yga botib, uyga jo'nar u;  
Goh g'amgin-u goh go'zal xayol  
Yigitga hech bermaydi uyqu.  
Turgach, bir xat berishar unga:  
Qulluq qilib, knyaz N uyga  
Taklif etmish oqshom. «Yo Xudo!  
Uning uyi... Borgum, borgum, o!»  
Hurmat-la tez qaytarur javob.  
Nima bo'ldi? Ko'rар nechuk tush?  
Sovuq, tanbal yuragining, xo'sh,  
Tubida ne g'imirlar shu tob?  
O'kinchmi bu, puch o'ymi, hasrat,  
Yoki yoshlik dardi – muhabbat?

## XXII

Soat sanar Onegin, yonar,  
Sabri yetmas kechgacha yana.  
Soat o'nga bong urar, jo'nar –  
Yelib borar. Mana, ostona.  
Kiar titroq tushib yurakka,  
Tatyani uchratar yakka;  
So'ng bir necha lahza yonma-yon  
O'ltilishar. Onegin hamon  
So'z topolmas. O'ng'aysiz, qo'pol,  
Siqiq. Ayol so'ziga shu tob  
Zo'rg'a-zo'rg'a qaytarar javob.  
Ezar uni o'jar bir xayol.  
Yigit tajang boqar; begoyim  
O'ltiladi erkin, muloyim.

## XXIII

Eri kelar. Buzadi birdan  
Bu xufyona, noxush suhbatni;  
Eslashadi Onegin bilan  
To'polonli huv yoshlik paytni.  
Kulishadi. Mehmonlar kirar.  
Davra qiziy boshlar, jonlanar  
Jo'shqin kibor suhbat asta;  
Beparda-yu yengil safsata  
Porlar beka qoshida, darig'.  
Yolg'onlarni bo'lib goh faqat,  
Bachkanalik, mangu haqiqat,  
Qabih mavzulardan-da forig',  
Batang qilmay kimsa qulog'in,  
Oqur erkin suhbat bulog'i.

## XXIV

Jamdir bunda poytaxt gullari,  
Na'ma do'stlar ham zodagonlar,  
Har yerda bor nusxalar bari,  
Doim zarur bo'lgan nodonlar;  
Gullar taqqan, bo'rkli, ulug'ver  
Zaharnamo xonimlar ham bor;  
Mavjud yana allaqancha qiz –  
Chehralari hech tabassumsiz;  
Kelmish bitta elchi ham filhol –  
Tinmay davlat ishlarin aytar;  
Bordir oppoq sochi muattar,  
Sho'xliklari eskicha bir chol:  
Hazillari tagdor, nozik, soz,  
Faqt bukun kulgili bir oz.

## XXV

Mavjud hajviy she'rga o'ch janob –  
Har narsaga qilguvchi zarda:  
Ortiq shirin bo'lsa choy – xunob,  
Xafa – yengil xonim, erlardan;  
Ketsa mujmal romandan kalom,  
Tegsa opa-singilga in'om,  
Jurnallarning yolg'oni-yu jang,  
Qordan, yana xotindan tajang.

.....  
.....  
.....  
.....  
.....  
.....

## XXVI

Razillikda qozongan shuhrat –  
Prolasov shunda, olamin  
Sen Pri<sup>1</sup>, har albomda, albat,  
Mazax etmish to'mtoq qalaming.  
Eshikda bir bal hokimi – sur,  
Jurnaldag'i suratdek turur,  
U – qip-qizil, gung-u kar-u tek,  
Xuddi hayit farishtasidek<sup>2</sup>.  
Tasodify sayyoh ham muztar,  
Qayta ohorlanganday, sulloh,  
Uning notinch qomatiga goh  
Mehmonlarning kulgisi qistar;  
Unga so'zsiz boqishlar nadir –  
Bu umumiy hukmnomadir.

## XXVII

Oneginim bazmda tanho  
Tatyana ga band bo'ldi-yu, bas,  
U avvalgi sodda, benavo,  
Jur'atsiz bir xushtor qiz emas,  
Yo'q, beparvo begoyim o'zi,  
U – Nevaning bir malikasi –  
Daxlsiz va shohona, go'zal.  
O, insonlar! O'xshaysiz azal  
Ilk onamiz Momohavoga:  
Neki sizga qilin mish ehson –  
Jazb etmaydi; chorlaydi ilon  
Sirli daraxt – sirli mevaga;  
Sizga taqiq mevasi basdir;  
Jannat usiz jannat emasdир.

<sup>1</sup> *Emmanuil Sen Pri* (1806–1828) – gusar, kibor doiraga mansub hajviy rassom, noma'lum sababga ko'ra o'zini o'ldirgan.

<sup>2</sup> Hayit bozorlarida sotiladigan, mumdan ishlangan farishta tasviri.

## XXVIII

O'zgarmishdir qancha Tatyana!  
Nechog' top mish o'z qiyofasin!  
Oliy mansab singari yana  
Egallabdi usullar darsin!  
Davraning zo'r malikasidan,  
Bu mo'tabar, chin bekasidan  
Kim topur ul nozik qizchani?  
Asir etib Onegin ani,  
Shu yigit deb qaro kechalar  
Bosgunicha ko'zlarin uyqu,  
Ma'sumona hasrat chekib u,  
Oyga nigoh tikkan nechalar,  
Va umrini u bilan xushhol  
Kechirmoqni aylagan xayol!

## XXIX

Muhabbatga yosh-u qari – qul,  
Navqiron va ma'sum dilni lek  
Sevgi avji yashnatar gul-gul,  
Yomg'ir dashtni yashnatganidek.  
Dilni yuvib sevgi yomg'iri,  
U yangorib, yashnar oxiri,  
So'ng baxsh etur bu qodir hayot  
Shukuhli gul, meva-yu bayot.  
Yosh bir joyga yetib, biz sari  
Xazon fasli yaqinlashgan dam  
O'lik hislar oqibati – g'am;  
E voh, sovuq kuz yomg'irlari  
Yalang'ochlab bog'larni shundoq,  
O'tloqlarni aylaydi botqoq.

### XXX

Yosh boladek Yevgeniy, beshak,  
Tatyana qo‘ymish muhabbat;  
Kun va tunni o‘tkazur halak,  
Ishq dardida o‘rtanib faqat.  
Hech tahdidni aqli tinglamas,  
Eshigiga bosh urib abas,  
Har kun borar oynavand uyg‘a;  
Soya kabi ergashar unga.  
Ba’zan momiq sharfin kiftiga  
Tashlab qo‘ysa, yo‘l ochsa va yo  
Unga turfa odamlar aro,  
Tegib ketsa issiq kaftiga,  
Ro‘molchasin olsa yo yerdan,  
O‘zin baxtli sezardi birdan.

### XXXI

Tirishsa ham, o‘lsa ham, lekin  
Beka uni payqamaydi hech.  
Qarshi olar uyida erkin,  
Bazmda so‘z aytar ikki-uch.  
Ba’zan faqat salom deb o‘tar,  
Ba’zan butkul payqamay ketar.  
Tannozlik yo‘q ayolda zarra, –  
Suymas buni kibor doira.  
Juvon ko‘rmas, yoxud achinmas. –  
O‘chib borar Onegin rangi,  
U qovjirar, qaqshar, qarangki,  
Hattoki, sil bo‘lsa, ajabmas.  
Tabibga bor, der hamma unga,  
Ular yo‘llar shifobaxsh suvga.

U bormaydi; u shaydir faqat  
 Ko'rishgaymiz tezda, deb hatto,  
 Ajdodlarga yo'llamoqqa xat;  
 Tatyana-chi, hamon beparvo,  
 (Ayol jinsi shunaqadir, bas).  
 Yigit – qaysar, qaytmoq istamas,  
 Umid qilar, urinar biroq;  
 O'zi bemor, sog'dan dadilroq  
 Begoyimga xat yozar yoniq.  
 Garchi kamdir maktubda ma'no,  
 Befoya deb o'ylar u, ammo,  
 Ammo ko'ngil dardiga, aniq,  
 Endi unda qolmadi toqat.  
 Mana sizga, aynan o'sha xat.

### ONEGINNING TATYANAGA MAKTUBI

Men bilaman, tahqirlar sizni  
 Ushbu g'amgin sirlar bayoni.  
 Beomon bir g'azab to'foni  
 Chulg'ar mag'rur nigohingizni!  
 Ne istarman? Ne maqsad bilan  
 Sizga dilim ochurman filhol? –  
 Achchiq kinoyaga xat bilan  
 Imkon berib qo'ydim, ehtimol.

Nogoh sizni uchratib bir kez,  
 Mehr nurin payqadim-u tez,  
 Unga ishonch bog'lamadim hech:  
 Qo'llamadim xush odatimni,  
 Men erkinlik saodatimni  
 Yo'qotmoqni xohlamadim hech.

Yana bir hol ayirdi bizni...  
Qurban bo'ldi Lenskiy, abgor...  
Dilga yaqin har nimaki bor,  
Shundan keyin ko'nglimni uzdim.  
Men hammaga yot bo'ldim, yohu,  
O'yladimki erk, orom – tanho  
Baxtga evaz bo'lur. Yo Xudo!  
Qanday xato, qanday jazo bu!..

Yo'q, yo'q, ko'rmoq har lahza sizni,  
Izingizdan qolmay quvlarimoq,  
Lab kulgisin, ko'z ma'nosini  
Oshiq ko'zlar ila ovlamoq,  
Xo'b termulmoq sizning jussaga,  
Dildan tuymoq – ne kamolot bu,

Qarshingizda qotmoq g'ussada,  
Bo'zarmoq va so'nmoq... rohat bu!  
Men bu baxtdan mahrumman, faqat  
Har yerga bosh urgum tavakkal;  
Kun – g'animat, soat – g'animat,  
Men-chi isrof etaman mahtal  
Taqdir sanab bergen kunlarni,  
Vahki, g'ami og'ir ularning.

Men bilaman, umrimda bor had;  
Ammo umrim cho'zib turmoqqa  
Tongda amin bo'lmoqligim shart  
Bugun kunduz sizni ko'rmoqqa...

Qo'rqaman, bu yuvosh o'tinchda  
Nigohingiz ko'rmasin yana  
Manfur makr-hiylani hech-da,  
Qilmang menga g'azabkor ta'na.

Bilsaydingiz, naqadar dahshat  
Muhabbatga zorlik jahonda;  
Yonmoq, aql ila har soat  
To'lqinlarni tindirmoq qonda;

Tizlaringiz armondir quchmoq;  
Nola aylab poyingizda zor  
Iltijo-yu nadomat sochmoq,  
To'kmoq, dilda yana neki bor.

Vahki, soxta sipolik bilan  
Qurollanmish nutq-u nigohim;  
Zaruratan so'zlashib sokin,  
Boqgum sizga shodonlik bilan!..

O'zimga zid bormog'im dushvor;  
Nochordirman ushbu kezda man;  
Qarorim shul, hukmingizdamан,  
Tan beraman – taqdirda ne bor!..

### XXXIII

Javob yo'qdir. Yana xat yozur,  
Ikkinchi xat, uchinchi xati –  
Javobsiz. Bir majlisga bazo'r  
Borar edi; kirgan zahoti...  
U duch keldi. Qanday beomon!  
Buni ko'rmas, so'z demas biron;  
Yohu, yana oshibdir qahri –  
Borlig'ida – ayozning zahri!  
Tag'in uning o'jar lablari  
Yashirmoqchi bo'lar qahrini!  
Sinchkov boqdi Onegin: Qani,  
Qani uning dard-u g'ammlari?!

Qani ko'zyosh dog'lari?.. Abas!  
Chehrasida g'azab izi, bas...

## XXXIV

Balki, sho'xlik, ojizlik bois,  
Oneginga ma'lum sir, tug'yon  
Erga, kibor davraga tuyqus  
Fosh bo'lar deb qo'rqadi juvon?..  
Umid yo'qdir! Yevgeniy jo'nar,  
Tentakligin la'natlab, yonar,  
Badtar g'amga botib bu odam,  
Yuz o'girar yana dunyodan.  
Endi jimjit xonada eslar:  
Bu sershovqin olamda bir bor  
Xafaqonlik – zolim va badkor  
Uni quvib yetib, bir kezlar  
Yoqasidan tutib so'ng, yakka  
Qamab edi xilvat burchakka.

## XXXV

Yana befarq tutingay takror –  
O'qib chiqar Gibbon, Russoni,  
Manzoni-yu, Gerder-u Shamfor,  
Stal xonim, Bisha, Tissoni,  
Mutolaa etgaydir Belni,  
O'qib chiqar u Fontenelni<sup>1</sup>  
Va kimnidir o'zimizdan, xos.  
Hech narsani rad etmas, poqqos  
Bayozlar-u jurnallar qolmas –

---

<sup>1</sup> Banddag'i nomlar sharhi:

*Gibbon Eduard* (1737–1794) – ingliz tarixchisi, «Rim imperiyasining yemirilish tarixi» degan tadqiqoti mavjud.

*Manzoni Aleksandr* (1785–1873) – italyan shoiri va adibi.

*Gerder I. G.* (1744–1803) – nemis faylasufi, adabiyotshunos olim, og'zaki ijod tadqiqotchisi.

*Shamfor Sebasten – Rok-Nikola* (1741–1794) – fransuz adibi.

*Bisha Mari-Fransas Ksave* (1771–1808) – farang fiziolog olimi.

*Tisso* – balki, hakim, tibbiy asarlar muallifi Tisso Simon-Andre, balki, unchalik taniqli bo'lmagan adib Tisso Per Fransua nazarda tutilgandir. Aniqlanmagan.

*Bel (Beyl) Per* (1647–1706) – farang faylasufi.

*Fontenel Berner Bove* (1657–1757) – farang faylasufi. Boshqa nomlar yuqorida sharhlangan.

Nasihat-u pandlar to‘quvchi,  
Bukun meni tinmay so‘kuvchi,  
Men ularda goho basma-bas  
O‘zim haqda ko‘rgum, janoblar,  
Juda a’lo degan xitoblar.

### XXXVI

Ne tong? Ko‘zi o‘qirdi, ammo,  
Ammo fikr-u xayoli yiroq;  
Orzular-u dard-u muddao  
Yuragini ezardi biroq.  
Yo‘q, u bosma satrlar aro  
Tamom boshqa satrlarni, o,  
O‘qirdi dil ko‘zları bilan.  
O‘shalarga cho‘mgandi teran.  
Bular – dilning, qora kechmishning  
Juda sirli rivoyatlari,  
Yo bedaxl sinoatlarici,  
Tahdid, ta‘bir, fol yoki tushning  
Ertaklarning hangomasidir,  
Yoki ma’sum qiz nomasidir.

### XXXVII

Hisga, o‘yga cho‘mar u sekin,  
Ochib kitob sahfalarini.  
Yoya boshlar xotirot rangin –  
O‘tmish hayot lavhalarini.  
Goh ko‘ziga ko‘rinayotir:  
Yumshoq qorda bir yigit yotur,  
Uxlagandek gungurs, bekalom,  
Sado kelur: O‘ldi. Vassalom!  
Goh ko‘rinar unut g‘animlar,  
Tuhmatchilar, nomardlar – yovuz,  
Jirkanch do‘sstar to‘dasi – beyuz,  
Goh bevafo qizlar, xonimlar,  
Goh qishloq, uy, deraza – yolg‘iz  
O‘ltiradi o‘sha... o‘sha qiz!..

## **XXXVIII**

Bexudlikka ko‘nikdi, yohu,  
 Salkam tentak bo‘layozdi, yo  
 Shoir bo‘lib qolayozdi u.  
 Shuni uhda qilardi ammo!  
 Rus she’rining ohang sadosin  
 Tortgan kabi ohanrabosi,  
 Unga merov shogirdim oz-moz  
 Fahmi yetib qolayozdi, rost.  
 O‘xshardi u shoirga nechog‘,  
 Kamin qizib yonida, yakka  
 Urar ekan o‘zin burchakka;  
 «Ilohim» deb ming‘irlar bir chog‘,  
 «Sananim» der, pechkaga tiqar –  
 Goh tufli, goh jurnalin yoqar.

## **XXXIX**

Kunlar o‘tdi: iliq havoda  
 Qishning umri tugadi, to‘zdi;  
 Shoir bo‘ldi u na dunyoda,  
 Na o‘ldi, na aqldan ozdi.  
 Bahor unga baxsh etdi hayot:  
 Bir tiniq tong tark etdi u bot  
 Sug‘ur kabi qishlagan o‘sha  
 Qo‘s sh darchali, kimsasiz go‘sha –  
 Maskanini tark etdi ilk bor.  
 Neva bo‘ylab yelar chanada.  
 Ko‘k va kesik muzda yonadi  
 Kun nurlari. Uyum-uyum qor  
 Chirkin bo‘lib eriydi yomon.  
 Bu yo‘llardan borar u qayon?

## XL

Qayon yelar Onegin? Ayon,  
Siz topdingiz maqsadin: tag'in,  
Tag'in borar Tatyana tomon  
Son kirmagan mening tentagim.  
Kirar xuddi murda misoli.  
Hech kimsa yo'q – yo'lak ham xoli.  
Zalga kirar. Yuradi, alhol  
Eshikni ham ochar. Bu ne hol?  
Nadir uni qoldirgan hayron?  
Beka... Beka o'ltirar yolg'iz,  
Besaranjom, chehrasi qonsiz,  
Kaftin tirab yuziga, vayron,  
Bir maktubni o'qir besado,  
Ko'z yosh to'kar panjalar aro.

## XLI

Uning unsiz iztirobin, bas,  
Kim shu lahma uqolmas, e voh!  
Kim begoyim aksida ko'rmas  
Eski g'amgin Tatyanan, oh!  
Yigit – o'kinch, dard ichra majnun,  
Oyog'iga yiqildi zabun.  
Beka cho'chib, jim qoldi nogoh,  
Oneginga tashladi nigoh –  
Beg'azab va butkul behayrat...  
Uning xasta ham so'niq yuzi,  
Unsiz ta'na, iltijo so'zi  
Ayon edi ayolga. Faqat  
Sodda, ma'yus qiz qalbi, nochor,  
Uyg'ongandi ko'ksida takror.

## XLII

Oneginga, turing, deyolmas,  
Uzolmas ham undan ko'zini.  
Qaqroq o'shal labdan ololmas  
Beka shù zum jonsiz qo'lini...  
Endi nenı aylar u xayol?  
Ular uzoq jim qolar. Ayol  
Asta kirar, nihoyat, so'zga:  
«Bas, turingiz endi, men sizga  
Aytmog'im shart barini oshkor.  
Yodingizda bormi, Onegin,  
Taqdir bizni yo'llagan sokin  
O'sha bog'-u xiyobon? Nochor  
Sizdan o'git tinglagan edim.  
Tinglang, endi mening navbatim.

## XLIII

Onegin, men u mahal yoshroq,  
Ham go'zalroq edim, chamamda.  
Sizni sevdim, sevdim-u, biroq  
Qalbingizdan ne topdim g'amda?  
Javob topdim beshafqat, xolos.  
Yuvosh qizning muhabbati, rost,  
Bildim, sizga yangilik emas!  
Endi esa – yo Rab! – o'sha va'z,  
Usha sovuq nigohni nuqul  
Esladimmi, muzlar menda qon...  
Ayblamayman ammo, u zamon  
Tutgandingiz oliyjanob yo'l.  
Haq edingiz, qilsam andisha,  
Minnatdorman sizdan hamisha...

## XLIV

O'sha paytlar, shov-shuvdan yiroq  
Ovloqlarda yurgan kezimda  
Yoqmadim-ku men sizga... Biroq  
Endi ta'qib nechun izimdan?  
Endi sizga nishonman nechun?  
Balki, balki yurganim uchun  
Bukun kibor olamda masrur,  
Badavlatman, sarbaland, mashhur?!

Yo o'q tegib janglarda erim,  
Bizni e'zoz etgan-chun saroy?  
Istagingiz budir, hoynahoy,  
Jamiyatda ochilsin sirim,  
Men sharmisor bo'layin, faqat  
Bu gap sizga keltirsin shuhrat?!

## XLV

Men yig'larman... Tatyanangizni  
Unutmagan bo'lsangiz hamon,  
Bilib qo'ying, ul ta'nangizni,  
Sovuq, piching so'zlarni bu on,  
Bo'lsa edi menda ixtiyor,  
Alamlar-u maktublar-u bor  
Ko'zyoshlardan ko'rardim afzal....  
O'sha ma'sum orzularga sal  
Qilsaydingiz zarracha shafqat,  
Hurmat qilib yosh jonimizni...  
Endi qay his oqibat sizni  
Tiz cho'ktirdi poyimda bul vaqt?!

Shunday aql-u yurak-la, kim ul,  
Bo'lur mayda tuyg'ularga qul?

## XLVI

Onegin, bu dabdaba, shukuh,  
Manfur hayot ziynati nadir?  
Kibor olam domida beruh  
Zafarlarim, davlatim nadir?  
Hashamdar uy, ziyofat, g'avg'o,  
Nadir menga bu bo'g'iq havo?..  
O'sha javon, huv yovvoyi bog',  
O'sha faqir maskanim, qishloq,  
O'sha – sizni, Onegin, ilk bor  
Ko'rganim ul joylarga, zotan,  
Bukun sho'rlik enagam yotgan  
Xoch, soyalar ostidagi zor  
O'sha mozor, o'sha xilqatga  
Barchasini qilardim sadqa...

## XLVII

Baxt bo'lsa-chi, naqadar mumkin,  
Yaqin edi naqadar!.. Endi  
Taqdirim hal. Ehtimol, u kun  
Yoshlik qildim. Qancha yalindi  
Ko'z yosh bilan ovutib onam;  
Oh, Tatyana sho'rlikka u dam  
Hamma narsa bari bir edi...  
Turmush qildim oqibat... Endi  
Iltimosim, tinch qo'ying bizni.  
Men bilaman, qalbingizda bor  
Ham g'urur, ham sobit, baland or,  
(Yolg'on nechun?) Sevaman sizni,  
Nasib etdim boshqaga faqat;  
Unga sodiq qolurman abad».

## **XLVIII**

Beka ketar. Yevgeniy turar,  
 Chaqqan kabi boshida chaqin.  
 Endi nechuk tuyg‘u gupurar –  
 Qalbini ne o‘y bosur tag‘in?!  
 Nogoh yangrar ot mahmizlari,  
 Paydo bo‘lar Tatyana eri!  
 Qahramonim, nihoyat, shunda  
 Uning uchun eng mushkul zumda  
 Tark etamiz, o‘quvchim, bu on,  
 Uzoq muddat... umrbod... abad...  
 Dunyo kezib ortidan faqat,  
 Yetdik oxir sohilga omon!  
 Qutlug‘ bo‘lsin! Yashasin! Rahmat!  
 Ko‘pdan o‘zi kelgandi fursat.

## **XLIX**

Kim bo‘lsang ham, o‘quvchim, bilgin,  
 Do‘stmisan sen, begonami yo,  
 Bir do‘st kabi xo‘splashay, kelgin,  
 Xayr. Noshud baytlarim aro  
 Izlarmisan keskir bir kalom,  
 Yo isyonkor xotirot, orom,  
 Jonli lavha sadolarimi,  
 Yo sarf-u nahv xatolarimi –  
 Bu kitobdan, ishqilib, doim  
 Ermak uchun, orzular uchun,  
 Yoki jurnal shov-shuvlari-chun  
 Biron narsa topgin, iloyim;  
 Nedir topgin ko‘nglingga doir.  
 Ayrilarmiz shu yerda, xayr!

## L

Ey, g‘aroyib yo‘ldoshim, xush qol,  
Xush qol sen ham, sodiq amolim,  
Xayr, kichik, ammo bezavol  
Ey mehnatim! Siz bois doim –  
Quyun ichra goh unut hayot,  
Goho do‘stlar davrasida shod –  
Shoir uchun neki havasdir,  
Ko‘rdim kibor olamda, basdir.  
Onegin va Tatyana manim  
Ilk bor xira xayol yuzida  
Paydo bo‘lib, fol ko‘zgusida  
Nihoyasin ko‘rolmaganim –  
Bul dostonga kirgandan buyon  
O‘tdi, o‘tdi qancha kun, zamon.

## LI

Ilk baytlarni o‘qirdik inoq –  
Qani o‘shal do‘st-u yoronlar?..  
Birisi yo‘q, birisi yiroq –  
Demish Sa‘diy o‘tgan zamonlar<sup>1</sup>.  
Oneginim bitdi ularsiz.  
Ammo qani, qani ul, aziz  
Tatyana ning oliy omoli?..  
Oh, nechalar topdi zavolin!

---

<sup>1</sup> A.S. Pushkin ko‘zda tutgan va istifoda etgan Sa‘diy Sheroziyning baytlari ushbudir:

Bad in chashma chu mo base dam zadand,  
Biraftand, chun chashm barham zadand.  
Charo dil bar in korvongoh nihem? –  
Ki, yoron biraftandu mo ham rahem.

Ma’nosi:

Bu chashma boshiga bizdek ko‘plar kelib ketdilar,  
Ketdilar, xuddi ko‘zdek g‘oyib bo‘ldilar.  
Nechun bu karvonsaroya – bu dunyoga ko‘ngil bog‘laylik,  
Yoronlar ketdilar-u, biz ham yo‘ldamiz.

Baxtiyordir, umr shabobin  
Erta tashlab ketgan – ko‘nmagan  
Va jomini ichib bo‘l magan,  
O‘qib bo‘lmay hayot kitobin,  
Tark aylagan baxtlidir birdan,  
Onegindan ayrilgandek man.

Bitdi.

1823–1831

*Mirzo Kenjabe k tarjimasi*





## MUNDARIJA

Aziz va muhtaram o'quvchilar!	3
Sharqqa maftun shoir	5

### She'rlar

Erkinlik. Oda	10
Sibir konlarining tagida	14
Sarskoye selo xotiralari	15
O'rtoqlarimga	21
Chaadayevga	22
Pushkin albomiga	25
Jonajon	26
Shoir	27
Tumor	28
Arion	29
Qushcha	30
Kavkaz	31
Jinlar	32
Anonimga javob	34
D.V. Davidovga	35
Sarkarda	36
Suvga cho'kkan odam	38
Romans	41
Demon	43
Dengizga	44
Bulbul va gul	46
Chol	47
Ertaklar noel	48
Qo'shiqchi	49
Istak	50
Elegiya	51
Qishloq	52
Rusalka	54
Tiklanish	56
Men sizga	57

Qora shol.....	58
Napoleon .....	60
Sadoqatli grek.....	64
Y.N. Tolstoyga yozilgan xatdan .....	65
Shunday edi... .....	66
Hayot aravasi .....	67
Bog‘chasaroy fontaniga .....	68
Kuydirilgan maktub .....	69
...Ga .....	70
Kuyov.....	71
19-Oktabr .....	77
Qish oqshomi .....	82
Bo‘ron .....	83
Stenka Razin haqida qo‘shiqlar .....	84
Payg‘ambar .....	86
Enagamga.....	87
Arzanda sipohlar.. .....	88
Zar bilan xanjar .....	89
Kuylama yonimda.. .....	90
Anchar.....	91
Gul.....	93
Vidolashuv .....	94
Qish ertasi .....	95
O‘smirga.....	96
Shoирга .....	97
Aks sado .....	98
Bulut.....	99
...Yana keldim.....	100
Petr Birinchining bazmi .....	102
Qo‘l bilan tiklab bo‘lmas.....	104
San’atkorga .....	105
She‘r to‘quvchi do‘stimga.....	106
Judolik.....	109
Yaxshi qol... .....	110
Chaadayevga atab .....	111
N. N. V.V. Engelgardtga .....	112
Kunduz mash‘alasi .....	113
Uchishgan bulutlardan.....	115
Xanjar.....	116
Alomatlar .....	118
Kechirarmikansan.....	119
Tun yeli g‘ir-g‘ir.....	120

Chaadayevga .....	121
Shon-shuhrat orzusi .....	122
... Ga .....	123
Agar seni aldasa.. ....	124
Boxus qo'shig'i .....	125
Qonimda yonadi.. ....	126
Vyazemskiyga .....	127
Yazikovga.....	128
Achchiq satira.. ....	129
1827-yil 19-oktabrda.....	130
Shoir va olomon.....	131
Gruziya qirlarida.. ....	133
Mehnat .....	134
Shovqinli ko'chada... .....	135
Qirmizi yuz... .....	136
Yolvorish .....	137
Meri uchun ichaman.. ....	138
Nasl-nasabim.....	139
Budris va uning o'g'illari ( <i>Adam Miskevichdan</i> ).....	142
Aqldan ozdirma.....	144
Bas, yetar.....	145
G'arbiy slavyan qo'shiqlari <i>Gayduk Xrizich</i> .....	146
Iakinf Maglanovichning motam qo'shig'i .....	148
Bulbul.....	149
Vurdalak.....	150
Singil va akalar .....	151
Ot.....	155
Oramizda yashagandi ul.....	156
O'yladimki... .....	157
Yoshlilik... .....	158
Elegiya .....	160
Do'stlarimga .....	161
Shcherbiniga .....	162
Osgar .....	163
Romans .....	166
Do'stlarimga .....	168
Tanishdir menga jang.....	169
Gurjistonning janglarin.....	169
...Ga .....	170
Asra meni, asra... .....	170
Tasodifiy... .....	171

Tentiymenmi.....	171
Ozdirmagil aqldan.....	173
Favvoralar salqinidan.....	174
Podsholar dedilar....	175
Qur'ondan iqtibos .....	175
Senga havas qilaman.....	181
Farishta.....	182
Halok bo'lgan ritsar .....	182

### **Dostonlar**

Bog'chasaroy fontani.....	186
Kavkaz asiri .....	206
Mis otliq .....	230

### **She'riy roman**

Yevgeniy Onegin.....	246
----------------------	-----

## Rus adabiyoti durdonalari

*Adabiy-badiiy nashr*

**Aleksandr Sergeyevich Pushkin**

**BOG'CHASAROY FONTANI**

*She'rilar, dostonlar va she'riy roman*

Nashr uchun mas'ul **M. Bo'ronov**

To'plab, nashrga tayyorlovchi  
**Bahrom Akbarov**

Muharrir *Bahrom Akbarov*

*Rassom Rustam Zufarov*

Badiiy muharrir *Behzod Zufarov*

Texnik muharrir *Lina Xijova*

Musahhihlar: *Durdona G'aybullayeva,*  
*Adolat Umirova*

Kichik muharrir *Matluba Salimova*

Kompyuterda sahifalovchi *Buruloy Dushanova*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.

Bosishga 2019-yil 2-oktabrda ruxsat etildi. Bichimi  $60 \times 90^1_{16}$ .

Offset qog'oz. «Times New Roman» garniturasida  
offset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 27,5.

Nashr tabog'i 25,47. Adadi 10000 nusxa.

Buyurtma № 19-469.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining  
«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.  
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz)  
[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)









A.S. Pushkin

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-25-860-0

A standard linear barcode is positioned vertically on the right side of the page, corresponding to the ISBN number above it.